

SOFIYA DJUMAYEVA



MUMTOZ ADABIYOTDA RAQAM POETIKASI



**“TAFAKKUR” NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2025**

UO'K: 687.18
KBK 44.6(50'zb)
D 23

Djumayeva, Sofiya // Mumtoz adabiyotda raqam poetikasi // Monografiya – Toshkent: Tafakkur, 2025. – 292 b.

Mas'ul muharrir:
Dilorom Salohiy,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Olim Qayumov,
filologiya fanlari doktori, professor
Xurshida Hamraqulova,
filologiya fanlari doktori

Mazkur monografiyada o'zbek mumtoz adabiyotida qo'llanilgan raqamlar, ularning ramziy ma'nolari, raqamlar zami-riga singdirilgan mazmun-mohiyat haqida fikr yuritilgan. Mumtoz adabiyot, xususan, irfoniy adabiyotda raqamlarga bo'lgan munosabat masalasi hamda raqam ramzlari badiiy g'oya va fikr ifodasi uchun xizmat qilganligi yoritib berilgan. Raqamlar vositasida yaratilgan obrazli tasvirlar, raqamlar-ning poetik obraz darajasiga ko'tarilish jarayoni yoritilgan, raqamli ifodalar ishtirok etgan adabiy matnlar tahlil va talqin qilingan.

Monografiya mumtoz adabiyot ixlosmandlariga mo'ljallangan.

*Toshkent amaliy fanlar universitetining 2025-yil
17-martdagi 6-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va
nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-8074-3-5

© Sofiya Djumayeva, 2025
© "Tafakkur", 2025

..... Mumtoz adabiyotda raqam poetikasi

*Ushbu kitobni ilm yo'liga
yetaklagan aziz ustozim – buyuk
olim va takrorlanmas shaxsiyat
egasi Ibrohim Haqqulning porloq
xotirasiga bag'ishlayman.*

Muallif

MUHIM TADQIQOT:
ADABIYOT – "HAQIQATNI MAJOZ TARIQIDA
RAQAM QILMOQ ILMIDIR..."

Har bir davr fani mutaxassislar va ilmiy tadqiqot-chilar oldiga rivojlanayotgan jamiyat va shu jamiyat kishisi ma'naviy va mafkuraviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, muayyan vazifalarni qo'yadi. Ushbu vazifalar o'z navbatida aniq bir fan taraqqiyotining o'ziga xos bosqichlari, tadrijiy takomili uchun asos bo'la oladi. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida mutafakkir ijodkorlar asarlarini aniq muammoli masalalar nuqtayi nazaridan chuqur va izchil o'rganish tajribasi bor bo'lsa-da, uning hozirgi davr jahon fani uslubiy yo'nalishlari, mezonlari, talablari darajasidagi taraqqiyot bosqichi XX asr ikkinchi yarmidan keyingi davrga to'g'ri keladi. O'zbek adabiyoti namunalari va mumtoz shoirlarimiz ijodiy merosini o'rganishga bo'lgan munosabat esa keyingi chorak asr davomida yangi, xolisona ilmiy tamoyillar negizida, mafkuraviy qoliplardan xoli tarzda, yangi ilmiy yondashuvlar bilan davom etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bu beqiyos ijodiy meros mavzulari va masalalari ko'lami, xususan, mumtoz she'riyat poetikasi xususiyatlari bilan bog'liq masalalar tadqiqi fanimizning eng murakkab va qiziqarli sahifalarini tashkil etishi tabiiy. Adabiyotshunos olimi Sofiyaxon Djumayevaning "Mumtoz adabiyotda raqam poetikasi" nomli yangi monografiyasida ta'kidlanishicha, o'zbek adabiyoti mumtoz namunalarning mavzu-mundariyasi, shu mavzu va mazmun yo'nalishi hamda uslubida o'zbek

adabiyotida yuzaga kelgan obrazlar badiiy mohiyatini, chuqur ramziy va majoziy tasvir qirralarini, timsollari mazmunini anglash zarurati hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu adabiy hodisaning qanday namoyon bo'lganligi, xususiyatlari va bugungi kun uchun qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligi masalalari mazkur monografiyada atroflicha yoritib berilgan.

Sofiya xonning ushbu ilmiy izlanishlari sharq poetikasi uchun doimiy dolzarb muammolardan biri bo'lmish obrazli tasvirlar xususiyatlari va bu hodisaning badiiy talqini xususidadir. Shuni alohida qayd etish lozimki, iqtidorli olim raqamlarning adabiyotdagi talqinlari yuzasidan bir necha yillardan buyon ilmiy izlanishlar olib bormoqda. "Raqam, ma'no va tasvir" (2005), "O'zbek mumtoz she'riyatida raqam ramzlari va ularning ma'no talqini" (2010) nomli ilmiy risola va monografiyalarida XII-XV asrlarga mansub bo'lgan mumtoz she'riyatda ramziy raqamlar tadqiq etilgan edi. Ammo ilmiy izlanishlar jarayonida yig'ilgan yangi ma'lumotlar, yangi manbalar olimaga tadqiqot doirasini kengroq olish imkonini yaratdi. U turkiy tildagi mumtoz she'riyatda ramziy tasvir va badiiy talqin an'alarini katta bir adabiy muhit fonida tekshirib ko'rishni niyat qildi va aytish mumkinki, buning uddasidan chiqa oldi.

Monografiyada hanuz tadqiq etilmagan obekt – o'zbek mumtoz adabiyotida raqamlarning aniq g'oyaviy maqsad uchun qo'llanilishi masalasiga e'tibor qaratiladi. Binobarin, ushbu masala bugungi kunda bir qator dunyo olimlari va izlanuvchilarini qiziqtirayotgan masalalardandir.

O'zbek mumtoz adabiyoti qadimgi og'zaki va yozma yodgorliklarida raqamlar bilan bog'liq qarashlar ma'no-mohiyati haqida adabiyotshunosligimizda yaxlit bir tadqiqot yaratilmagan bo'lib, Sofiya xon bu masalani nazariy, tanqidiy va tahliliy nuqtayi nazardan yoritib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Shu bilan birga, raqamlarning diniy-falsafiy talqinlarini tadqiq etishni ham niyat qildi. Ancha keng miqyosdagi

bunday tadqiqotni amalga oshirish, albatta, chuqur bilim, sabr-matnat va izchil izlanishlarni talab etadi. Mening nazarimda, tadqiqotchilik sohasida ancha bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan olim ilmiy izlanuvchanlik talablari va o'ziga xos jihatlarini to'la his etgan, tushungan holda mashaqqatli mehnat maydoniga kirgan. U tadqiqot ob'ekti bo'lmish XII-XV asrlarga oid manbalarda raqamlar, Alisher Navoiy she'riyati va dostonlarida raqamlar bilan bog'liq tasvirlar, XVI-XIX asrlarda ijod qilgan shoirlar asarlarida raqamlar talqini bilan cheklanib qolmay, bir qancha tarixiy asarlar bilan ham tanishib chiqqan, ulardagi raqamlar bilan bog'liq ma'lumotlarni saralagan, izlanishlari uchun zarur bo'lgan materiallarni tahlilga jalb qilgan.

Sharq shoirlari ijodida raqam ancha faol qo'llanilgan unsurlardan sanaladi. Ushbu kitobda mumtoz adabiyotda raqam poetikasi ifodalari va talqini ba'zan obzor, ba'zan ilmiy tahlillar vositasida ancha mukammal yoritilgan. O'z o'rnida badiiy matn tasarrufiga ham jiddiy e'tibor qaratilgan. Olima mavzu munosabati bilan badiiy matnlarning lingvopoetik xususiyatlarini yoritishga harakat qilar ekan, o'zining yuqori intellektual darajasini ham ko'rsata olgan.

Monografiya ancha mukammal shakllangan ilmiy-akademik uslubda, ravon va maroqli ifoda tarzida yozilganligini ham alohida qayd qilish lozim. Unda katta hajmdagi ilmiy material qamrab olinganligi, maxsus o'rganilmagan masala tahliliga bag'ishlanganligi va nazariy xulosalarga boyligi bilan fanimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladi, degan fikrdaman.

SALOHIIY Dilorom Isomiddin qizi,
filologiya fanlari doktori, professor.
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
Yoshlar murabbiysi



MUQADDIMA

Jahon adabiyotshunosligida raqamlar orqali ijodkor tuyg'ularini tasvirlash, raqam ramzlari vositasida fikr ifodalash o'ziga xos uslub darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda asrlar davomida ramz darajasiga ko'tarilgan raqamlar va ular mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, raqamlar mohiyatidagi ma'nolarni o'rganish hamda tahlil qilishning bir qancha sabablari bor.

Dunyo adabiyotshunosligida raqam va uning mohiyati, poetikasi, badiiy asar mazmun-mohiyatini ochib berishdagi vazifasi tadqiqotchilar diqqatini jalb etib kelgan. Garchi, raqamlarning xalq e'tiqodi, dunyo-qarashi, tafakkuri, maishiy hayotida tutgan o'rni va roli, xalq og'zaki ijodida yaratilgan asarlardagi mohiyati xususida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, yozma adabiyotda bu masala hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Jumladan, raqamlarning badiiy funksiyalarini aniqlash, magik sonlarning badiiy obraz darajasiga ko'tarilish jarayonini monografik tarzda tadqiq etish, adabiy asarlarda raqamlar bilan bog'liq poetik hodisalarni ilmiy dalillash adabiyotning ta'sir kuchini teran tushunishda, so'z san'ati imkoniyatlarini to'g'ri baholashda dolzarblik kasb etadi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarida raqam poetikasi, mohiyati, raqamning poetik obraz darajasiga ko'tarilish jarayoni, raqamdan foydalanishda ijodkor mahorati singari masalalarni monografik aspektda tekshirish nafaqat matn mazmunini anglash, ijodkor badiiy mahoratiga baho berish, shu bilan birga, turkiy qavmlarning ma'naviy-axloqiy darajasi va tafakkur tarzini belgilashga ham imkon yaratadi. Yozuvchi dunyoqarashini boyitib, hayot mazmunini qalban his etishga chorlaydi. Qolaversa, muhtaram Prezidentimizning "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga

e'tibor"¹ degan o'gitlari mumtoz adabiyotni yangicha mezonlar asosida tadqiq etish dolzarb masalalardan ekanligini tasdiqlaydi.

Yodnomalar va yozma adabiyot, xususan, tarixiy asarlar matnida kelgan ko'pgina raqamlar xalq tarixi, millat va elatlarning paydo bo'lishi, ularning madaniy va ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liqligi; raqamlarning yozma adabiyotga kirib kelishi xalq og'zaki ijodidagi ko'pgina janrlarning tadrijiy takomili ekani; mumtoz shoirlar she'riyatidagi raqamlarda hayotiy, falsafiy ma'nolar bilan bir qatorda, diniy-ilohiy mazmunlar ham singdirilganligi singari masalalar adabiyotshunoslikda hali keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bunday vazifalarning asosiylari esa raqamlarning mohiyatini yoritish, ularning xalqimiz tarixi, qadimiy e'tiqodi va mifologiyasida, diniy qarashlar va tasavvuf falsafasida, Sharq adabiyoti, xususan, XII-XIX asrlar o'zbek adabiyotida raqam poetikasining tutgan o'rni va mohiyatini aniqlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 29-maydagi PQ-2995-son "Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2025-yil 7-fevraldagi PQ-43-son

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори. – Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси //Халқ сўзи, 2017, 4 август.

“Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ‘ib qilish hamda Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ni yuqori darajada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahon adabiyotshunosligida raqamlarning yozma adabiyotda tutgan o‘rni, raqam ramzlaridan foydalanish, raqamlar bilan bog‘liq poetik hodisalarning asar badiiyatidagi o‘rni singari masalalar rus olimlari V.E.Vetlovskaya², V.M.Kirillin³larning tadqiqotlarida; turkiy xalqlarning qadimgi dostonlarida uchraydigan raqamlarning asar badiiyatida tutgan o‘rni O‘nar So‘man⁴, Sharifa Sahar Erolchalishkan⁵ ilmiy izlanishlarida; “Shohnoma”dagi ba‘zi raqamlar tadqiqi eron olimi M.Abdollahiyning maqolalarida; tasavvuf adabiyotida raqamlarga singdirilgan ma‘no va ularning irfoniy mohiyati turk olimlari Abdurrahmon Go‘zal⁶ va Qodir O‘zko‘sa⁷ tadqiqotlarida yoritilgan.

² Ветловская В.Е. Символика чисел в «Братях Карамазовых» // ТОДРЛ. Т. 26: Древнерусская литература и русская культура XV–XVIII вв. М., 1971. С. 133–150.

³ Кириллин В.М. Поэтика иносказания в литературе Древней Руси: Символика чисел, ее своеобразие и формы. Автореферат доктор филологических наук. – Москва, 2001. – С. 58.

⁴ O‘nar So‘man. Dede Korkut Boylarında Gecen Formulistik Sayıların İzleri // Türk Dünyası Araştırmaları. İstanbul, 2019. – S. 29–51.

⁵ Sharifa Sahar Erolchalishkan. Alpamiş Destanında Sayıların Anlamı ve Değerlendirilmesi Üzerine Bir İnceleme // Rumelide Dil Edebiyatı Araştırmaları Derisi. 2019: 14. – S. 183–197.

⁶ Abdurrahmon Go‘zal. Dini-Tasavvufi Türk Edebiyatında Dört Kapı-Kırk Makam. Ankara, 2023. – S. 476.

⁷ Qodir O‘zko‘sa. Ahmet‘nin Hikmetlerinde Dört Kapı ve Kırk Makam Anlayışı // Akademik Dergisi. 2017.S.2. – S. 99–133.

Raqamlarning dunyo xalqlari tarixi, madaniyati, dunyoqarashida tutgan o‘rni; mifologiya va xalq og‘zaki ijodidagi mohiyati, ramziy-majoziy ma‘nolari xususida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan⁸. Xususan, sanamalarda faol qo‘llanilgan raqamlarni o‘rganish ishlarini G.S. Vinogradov boshlab bergan⁹. Keyinchalik, M.N.Melnikov, belorus olimi G.A.Bartashevich, o‘zbek olimlaridan G‘Jahongirov, O.Safarov, S.Avezovlar¹⁰ tomonidan tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar sanamalarda

⁸ Иоселева М.Я. Происхождение магических чисел // Страны и народы Востока. Вып. IV. – М., 1965. – С. 239–241; Лотман Ю.М. Семантика чисел и тип культуры // III летняя школа по вторичным моделирующим системам. – Тарту, 1968. – С. 328–332; Членов М.А. Числовая символика и тайные союзы на Молуккских островах // Мифология и верования народов Восточной и Южной Азии. – М., 1973. – С. 132–166; Бородин А.И. Число и мистика. – Донецк, 1975; Жуковская Н.А. Семантика чисел в калмицком эпосе “Джангар” // “Джангар” и проблемы эпического творчества тюрко-монгольских народов. – М., 1980. – С. 207–213; Мустаев К.Т. Поэтика цвета и числовых знаков-символов в “Песне о Роланд” и “Алпамыше”. – Самарканд, 1995; Абрашкин А.А. О происхождении русских числительных // Известия вузов. Прикладная нелинейная динамика. 2006. Т.24. № 5. С. 84–91; Bayram Durbilmez. Nahçıvan Türk Halk İnanışlarında Mitolojik sayılar // Turkish Studies. International Periodical For the Languages: Literature and History of Turkish or Turkish. V.36, Fall. 2008. S. 212–225; Ahmet Özgür Güvenç. Kırk Sayısının Halk Edebiyatı Ürünlerinde Kullanımı Üzerine Bir İnceleme // A.Ü.Turkiyat araştırmaları Enstitüsü Dergisi Sayı 41. Erzurum: 2009. S. 85–97; Annemarie Shimmel. Sayıların Gezimi. (Çevirmen Mustafa Kürüşoğlu). İstanbul, 2017. – S. 338; Сатанар М.Т., Илларионов В.В. Сакральная символика эпического числительного “четыре” // Мир науки, культуры, образования. 2017. №2. – С. 334–337; Mehmet Nazar., Mehmet Şengönül. Türk Kültüründe Sıfırdan Dokuza Kadar Sayı Adları ve Matematik Değerleri // Türklük bilgisi. 17. – S. 141–158; Funda Aydın. Uygur Halk Anlatılarında Sayı Simgesliği // Karadeniz Uluslararası Bilimsel Dergi: V.44. Fall. 2019. – S. 209–227;

⁹ Виноградов Г.С. Русский детский фольклор. – Иркутск, 1930. Кн.1. – 234 с.

¹⁰ Мельников М.Н. Русский детский фольклор. – М.: Просвещение, 1987; Барташевич Г.А. Рифмованные жанры белорусского детского фольклора. – Белорусия, 1976; Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 122; Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985; Аvezов С. Санама жанри табиати ва бадияти. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 138.

raqamlarning o'rne va mohiyatiga alohida ahamiyat berilganligi bilan e'tiborlidir. Taniqli olim M.Jo'rayev tomonidan o'zbek xalq og'zaki ijodi, jumladan, o'zbek xalq ertaklaridagi raqamlar, ularning qo'llanishi chuqur tahlil etilgan¹¹. Raqamlarning urf-odat, marosim va folklorda tutgan o'rni, raqamlarning umumiy va o'ziga xos g'oyaviy-poetik xususiyatlari, mifologik asoslari ochib berilgan. J. Eshonqul va Sh.Turdimovlarning ertak va dostonlardagi uch raqami bilan bog'liq qarashlar tadqiqiga bag'ishlangan kuzatishlari ham diqqatga sazovordir¹².

Qur'oni karimda zikr etilgan raqamlar bilan bog'liq izlanishlar professor Klaus Shedlya tomonidan olib borilgan¹³. Shuningdek, keyingi yillarda Qur'oni karimning matematik mo'jizalariga ham alohida e'tibor qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligida S.Hasanov, A.Abdug'afurov, Yo.Is'hoqov, I.Haqqul, B.To'xliyev, H.Boltaboyev, B.Eraliyev, S.Jumayevalar tomonidan raqamlarning mumtoz adabiyotdagi ramziy-majoziy xususiyatlari, g'oyaviy-badiiy talqiniga doir ba'zi ilmiy kuzatishlar olib borilgan¹⁴. S.Olimov tadqiqoti "Lison ut-tayr" dostonida-

¹¹ Жўраев М. "Сехрли" рақамлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – Б. 112.; Ўша муаллиф. Ўзбек халқ эртақларида "сехрли" рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 220; Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б.308.

¹² Жаббор Эшонкул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б. 172. Турдимов Ш. "Борса келмас"даги хазина // Тафаккур. 2015, №3. – Б. 94-102.

¹³ Клаус Шедля. Мухаммед и Христос. Наука о Христе в коранических текстах. – Вена, 1978.

¹⁴ Хасанов С. Навоийнинг етти туҳфаси. – Тошкент: Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 190; Абдуғафуров А. Тўра ойини била... // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001. – №2. – Б. 22-25; Исҳоқов Ё. "Ўн саккиз минг олам" асрори / Навоийга армуғон. – Тошкент, 2003. – Б. 62-68; Иброҳим Ҳаққул. Факру фанолик ҳайрати / Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 98-106; Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Баёз, 2013. – 192 б.; Болтабоев Ҳ. Алишер Навоийнинг

gi yettiliklarga alohida e'tibor qaratilganligi bilan e'tiborli¹⁵. S.Xodjayev zamonaviy o'zbek adabiyotida uchning badiiy-estetik vazifasi va qahramon xarakteri bilan bog'liq muammolarni tahlil etgan¹⁶. Bundan tashqari, falakiyotshunos S.Azizov¹⁷, musiqashunos O.Ibrohimovlarning ishlarida Navoiy asarlaridagi raqamlar xususida ba'zi fikrlar bildirilgan¹⁸. Ammo ming yillik milliy adabiyotda qo'llanilgan raqamlar mohiyati, ularning badiiy funksiyasi, raqamlar bilan bog'liq obrazlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, asar badiiyatida raqam poetikasining o'rni monografik aspektda yaxlit o'rganilmagan.

O'zbek adabiyotida alohida o'rin tutib kelgan raqam va raqam mohiyatining o'rganilishi, sharq adabiyoti, shuningdek, o'zbek mumtoz she'riyatida raqam ramzlari va ular mohiyatining tadqiq qilinishi monografiyaning ilmiy nazariy ahamiyatini belgilaydi. Unda chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunosligida ramziy raqamlar va ularning mohiyati, raqamlar ishtirok etgan she'riy misra va baytlarning poetik tabiati, raqamlar mohiyatining o'ziga xos olami yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi

"Сабъаи сайёр" дostonида етиликлар симметрияси // Илмий хабарнома. – АДУ, 2012. – № 1. – Б. 9-11; Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеърятда рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. Монография. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.124; Бобомурод Эрали. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. – Тошкент: Академнашр, 2015. – Б. 80.

¹⁵ Олимов С. "Лисон ут-тайр"нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назирaviйлик ва таржимавийлик. Филол. фанл. доктори диссертацияси. – Самарқанд, 2023. – 34 б.

¹⁶ Ходжаев С. Учлик тимсолининг ижтимоий-фалсафий бадий талқини. Филол фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... диссертацияси. – Фарғона, 2023. – 143 б.

¹⁷ Азизов С., Жабборов Н. Аҳмад Яссавий ҳикматларида фалакий атамалар талқини // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2001. – № 1. – Б. 92-93; Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакий сирлари. – Тошкент, Ўзбекистон. 2018. – Б. 136.

¹⁸ Иброҳимов О. Рангларда садоланган мақомлар / http://www.classicmusic.uz/maqomlar_uz.htm.

va to'ldiradi. Raqam ramzlarining adabiyotdan joy olishi, tarixiy takomili, badiiyati va o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda tutgan o'rni haqidagi qarashlar o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotshunosligi tarixi, adabiyot nazariyasi fanlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqam ramzlarining adabiyotga kirib kelishi, raqamlarning xalq turmush tarzi, madaniyati, folklor, din va tasavvuf bilan bog'liq jihatlarini, she'riy va nasriy asarlarda qo'llanilishining qiyosiy aspketda o'rganilishi, ularning nazariy masalalariga oid qarashlar o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotshunosligi tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi.



O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA RAQAMLAR BADIY IFODASINING QADIMIY MANBALARI

Qadimiy e'tiqod va miflarda raqamlarning tutgan o'rni

Butun dunyo xalqlari ma'naviy hayoti, mifologiyasi, dini, falsafiy qarashlarida raqamlar alohida o'rin egallaydi. Chunki, raqam mantiqiy, milliy-madaniy, mifologik va diniy xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham qadimgi dunyo tarixidan to bugungi kunga qadar raqamlarga murojaat, munosabat va e'tiqod sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Qadimgi Bobil, Misr va Yunonistonda xilma-xil muqaddas raqamlar sistemasi ishlab chiqilgan. Bu Pifagor va uning izdoshlari tomonidan boshlab berilgan, keyinchalik mistik-falsafiy numerologiyaning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ularning raqam haqidagi fikrlari olam va undagi barcha narsalarning paydo bo'lishi xususidagi qarashlar bilan bog'liq edi. Qadimgi dunyo olimlari orasida raqamlar haqidagi ilmiy qarashlarning asoschisi bo'lgan Pifagorning fikriga ko'ra, Olam raqamlar kuchi vositasida yaratilgan. Uning talqinida raqam ham moddiyot, ham Olamning shakli sifatida namoyon bo'lganligi uchun "Hamma narsa raqamdan iborat" degan tushuncha kelib chiqqan. Raqamlarning qadimiy e'tiqod va miflardagi o'rni xususidagi fikrlarga to'xtalishdan oldin Pifagorning raqamlar bilan bog'liq qarashlariga e'tiborni qaratsak.

Ma'lumki, Pifagorning ilmiy qarashlari Aristotel va Platon qaydlari orqali bizgacha yetib kelgan. Aristotel Pifagor butun borliqning boshlanishini matematik boshlanish ekanligini tan olganligini qayd etadi. Bu falsafiy haqiqat uni raqam va musiqa bilan bog'lagan. Musiqada ham juda ko'p "sehrli" raqamlar mavjud: uch tovushlikdagi "sehrli uch raqami", "yetti ton" va xromatik

shkaladagi o'n ikki tovush¹⁹. Biroq musiqa ilmida besh raqami bilan bog'liq tushunchalar yetakchilik qiladi. Masalan, pentatonika shkalasi²⁰, Kvinta doirasi²¹ tushunchalari bevosita raqamlarning musiqa ilmidagi o'rni va mohiyatini chuqurlashtiradi. Musiqa va raqamning bir-biriga bog'liq jihatlarini o'rganish jarayonida o'tmishda musiqani matematikaning o'rganish ob'ektlaridan biri sifatida ko'rib chiqishga bir necha bor urinishlar bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Musiqadagi go'zallikni raqamlar bilan ifodalashga harakat qilganlardan biri ham dastlab Pifagor edi. U o'zining donolik maktabini ikkita fan – musiqa va matematika asosida yaratdi. San'atning yetti turidan biri bo'lgan musiqa arifmetika, geometriya va astronomiya bilan bir qatorda amaliy san'at sifatida emas, balki ilmiy intizom sifatida qabul qilingan. Pifagor va uning izdoshlari raqamlarning uyg'unligi tovushlar uyg'unligiga o'xshaydi va bu ikkala faoliyat ham tasodifiy fikrlashni tartibga soladi, bir-birini to'ldiradi, deb hisoblar edilar. O'rta asrning musiqiy estetikasida musiqa san'at turi sifatida emas, balki fan sifatida tushunilgan. Musiqa yetti "Liberal san'at" ning bir qismi bo'lgan, bu yettilik ikkiga bo'lingan, ya'ni "trivium" – grammatika, ritorika, mantiq; "quadrivium" – arifmetika, geometriya,

¹⁹ Biroq musiqada qo'llaniluvchi raqamlar orasida besh raqami va u bilan bog'liq pentatonika shkalasi alohida diqqatga sazovordir. Shunisi e'tiborliki, bu birinchi navbatda "an'anaviy" g'arbiy (diatonik) ma'no versiyasidan farq qiladi. U oddiy intervalli tizimning kesilgan versiyasi emas (pentatonika qatori diatonik qatordan farqli o'laroq yarim tonlarni o'z ichiga olmaydi), hozirgi kunda ko'pchilik yoshlar diatonik musiqaga o'rganib qolgan. Pentatonika musiqa an'anasi zamonaviy tinglovchilar uchun biroz gayrioddiy bo'lib tuyulsa ham, ancha qadimiy hisoblanadi.

²⁰ Pentatonika shkalasi – qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "besh ohang" degan ma'noni anglatadi. Musiqadagi besh bosqichli intervalli tizim.

²¹ Kvinta doirasi – musiqachilarga kalit va undagi belgilar haqidagi bilimlarni tizimlashtirish imkonin beradigan hamda ba'zi hollarda improvizatsiya va musiqa yozishni osonlashtiradigan grafik-chizma.

astronomiya, musiqa. Musiqaning matematik bilimlar sohasiga tegishli ekanligi uning aniq fanlardan biri sifatida tan olinishiga va birinchi navbatda, raqamlar haqidagi fan sifatida tushunilishiga olib kelgan.

Pifagor raqamni kuch-quvvat manbai hisoblaydi va raqamlar haqidagi ilm orqali butun olam sirlarini bilish mumkin, degan qarashni ilgari suradi. Raqam xususiyatlarining ichiga kirib borgan sari ularning turli ma'no-mazmunini ta'riflar ekan, aynan raqam ilmi hayot kalitidir, degan xulosaga keladi.

Pifagorchilar butun olam "birliklar"dan tashkil topgan, degan fikrni ilgari surishgan. Monada yoki muqaddas birlik deb atalishining sababi u doimo bir xil – ko'plikdan ajralgan holatda bo'ladi. Butun olam monada singari qabul qilinadi. Biroq uning individual qismlari munosabati u mavjud bo'lgan bo'laklarda aks etadi. Pifagorchilarning ba'zi birlari monadaga yolg'izlikning sinonimi sifatida yondashib, uning belgilarini quyidagicha atashgan: u juft yoki toq bo'lishidan qat'iy nazar, Xudoning o'zidir. Chunki monada butun borliqning boshlanishi va intihosidir. U onaning bag'ri singari moddiy borliqning ramzi bo'lgan duada(ikkilik)ning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Monadani pifagorchilar buyuk kuch sifatida manguликka tenglashtiradilar. Ikkilikda mohiyat bo'laklanganligi uchun ham monada hurmat qilinib, e'zozlangan, duadaga esa nafrat bilan qaralgan. Pifagorchilarning bunday munosabatlari haqiqatga yaqindek ko'rinadi. Chunki nafaqat qadimgi dunyo olimlari, balki Sharq xalqlarining qarashlari bo'yicha ham yaratilgan barcha narsalarda ikki raqamining mohiyatini ko'rish mumkin. Ikki raqami bo'lgan joyda nizolar va ikkilanishlar mavjud. Ikkilikdan bahslashish, raqobatlashish kelib chiqadi va bu holat monadaning aralashuvi bilan nihoyasiga yetishi mumkin, degan qarash ustuvor bo'lgan.

Sharq xalqlari orasida raqamlarga bo'lgan munosabat va ularning mohiyatini yoritish masalasi olamning

paydo bo'lishi haqidagi qarashlarga aloqadordir. Odatda, diniy mifologiya bilan bog'liq rivoyatlarda tabiat va tirik jonzoqlarning paydo bo'lishi, shu asosda hayot jarayonining boshlanishi turlicha talqin qilingan. Bu haqda fikr yuritar ekan, N.Nizomiddinov shunday deydi: "Xitoy mifologiyasida "Butun borliq"ning vujudga kelishi quyidagi tarkibda ro'y bergan. Ya'ni, borliq xuddi qadimgi yunon afsonalaridagi tushunchaga o'xshash "xaos – tuman" va qorong'ulikdan iborat "tubsizlik"ning ikki unsurga bo'linishidan so'ng zuhr etgan yorug'lik "yan" hamda qorong'ulik "in"dan yaralgan. Bunda erlik ibtidosi **Yan** quyosh yorug'ligi, kuch-qudrat va umuman ijobiylik ma'nosida tushunilsa, ayollik ibtidosi **In** esa oy va qorong'ulik, ma'yuslik hamda zaiflik timsolida qabul qilingan"²². O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bunda asosiy mohiyat ikki raqami orqali yoritilgan. Xitoyda bu raqam erkak va ayol o'rtasidagi muvofiqlik ramzi sanaladi. Duada tengsizlikning, buyuk onalikning ramzidir. Nikoh marosimlarida ikki raqamini ko'p uchratishning sababi ham uning qo'shaloq baxt ma'nosini anglatishi bilan bog'liq bo'lib, xitoyliklarda "Baxt qo'shaloq keladi", degan ma'noni beruvchi maqolning ishlatilishi ikki raqami mohiyatiga urg'u berilganligi bilan e'tiborlidir.

Qadimgi xalqlar tushunchasiga ko'ra, insonda ikkita qalb – tana va aql qalbi mavjud. Binobarin, inson vafot etganda birinchi – tana qalbi o'ladi, ikkinchisi – aql qalbi Osmonga uchib ketadi²³. Xitoy diniy mifologiyasi bo'yicha inson hayoti jarayonida asosan ikki unsur faoliyat ko'rsatadi. Biri – tabiiy ofatlar tufayli inson boshiga yog'iluvchi kulfatlar, ikkinchisi, ayni holatda odamlarni qutqarishga bel bog'lagan qahramonlar madadi. O'z o'rnida tabiatda sodir bo'ladigan sirli hodisalar majmuyi ham asosan ikki turga bo'linadi: suv toshqini va qurg'oqchilik. Odamlar uchun kutilmagan

bunday voqealar mifologik tasavvurlarga ko'ra, yana ikki toifaga ajraladi. Masalan, suv toshqinining azaliyligi yoki uning Osmon tomonidan jazo sifatida yuborilishi singari. Ba'zi bir miflarda qurg'oqchilik – bu bir vaqtning o'zida o'nlab quyoshlarning balqib chiqib, olamni qizitishi oqibati ekanligi qayd etilsa, ba'zi miflardan chiqadigan xulosa esa gunohkorlarning Osmon qahriga duchor bo'lishi tufaylidir. Va shunda toshqin vaqtida g'arq bo'lganlarni "ulug' Yu" qutqarsa, qurg'oqchilikda nochor qolganlarning joniga "mergan I" oro kiradi. Ko'rinib turibdiki, odam va olam bilan bog'liq bunday tushunchalarning deyarli barchasini ikki raqami birlashtirib turadi.

Ikki raqamining eng muhim fazilati uning juftlik ramzi ekanligidir. O'ng va chap, baland va past, ibtido va intiho, ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim. Bularni uzoq davom ettirish mumkin. Bu qarama-qarshi tushunchalarning barchasini ikki raqami birlashtirib turadi. Daosizm ta'limoti bo'yicha ikki raqami bir-birini to'ldirish ramzidir. Shuning uchun hayot davomiyligini ta'minlovchi Osmon va Yer, erkak va ayol ittifoqida, barqarorlikni yuzaga keltiruvchi Yan va In quvvatida, bir-birini to'ldirib turuvchi Quyosh va Oy, yorug'lik va zulmat, oq va qoralar juftligida ikki raqamining o'ziga xos o'rni bor. Umuman olganda, ikki raqami ko'plab xalqlar dunyoqarashida muvaffaqiyatli, ijobiy raqam sanalib, hamkorlikni bildirsa, birinchi barqaror birlik, haqiqiy ma'nodagi toq raqam sifatida insoniyatning eng sevimli raqamlaridan biri – uch raqami e'tirof etiladi. Inson tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarning birinchi yoki ikkinchisi tasodif bo'lishi mumkin, ammo bu harakat uchinchi marta amalga oshirilsa, u ishonch va kuch beradi. Shuning uchun ham uch raqamining kuchi universalidir. Uch raqami ko'pincha donishmandlikka qiyoslanadi. Chunki insonlar hozirgi vaqtda yashaydi, kelajakni ko'ra oladi, o'tmishdan saboq chiqarishadi. Uch raqami tana, jon va ruh; tug'ilish, hayot va o'lim

²² Н.Ф.Низомиддинов. Қадимги Хитой тарихи, диний эътиқоди ва маданияти. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – Б.138.

²³ Н.Ф.Низомиддинов. Кўрсатилган манба. – Б.139.

singari tushunchalarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu raqamning kubi Oy sikli kuchiga ega ($3 \times 3 \times 3 = 27$). Pifagor uch raqamini muqaddas hisoblaydi. Uning qayd etishicha, uch raqami monada, ya'ni Ilohiy Ota va duada – Buyuk Onadan hosil bo'lgan, demak androgendir. Ushbu dalil asosida Xudo o'zining o'lchovlarini o'zidan yaratadi, uning yaratuvchanlik aspekti uchburchakda ramzlanadi, tabiatdagi hamma narsa uch bo'lakka bo'linadi, har bir muammoni uchburchak diagrammasida tasavvur qila olmagan kishi hech qachon haqiqiy donishmand bo'la olmaydi, degan xulosaga keladi. Pifagor uchning siriga shunchalar maftun bo'lganki, Misr safari chog'ida o'zi bilan uchrashgan ruhoniylarning har biriga uchtdan kumush kosa sovg'a qilgan. "Ta'lim, davlat va tabiat" deb nomlangan uch raqami bilan bog'liq kitob yozgan va unda inson ruhiy holatini uch qism – aql, mantiq va ehtirosga ajratgan. Geraklit esa tabiat haqidagi kitobini koinot, siyosat va ilohiyot singari uch qismga bo'lgan. Bu holat o'sha davr mafkurasiga mos kelishi bilan birga, uch raqami mohiyatini ham ko'rsatib beruvchi dalillardan biridir. A.I.Borodin buyuk italyan ijodkori A.Dantening "Ilohiy komediya" sida uch raqamining izchil qo'llanilganligiga e'tiborni qaratadi: "Ilohiy komediya" uch qismdan iborat – Do'zax, Arosat va Jannat. Asarning har bir qismi 33 (11×3) qo'shiqdan tashkil topgan, asar tersina²⁴ shaklida yaratilgan, uning matnida ham uch raqami ko'p takrorlangan²⁵.

Borliqning paydo bo'lishi haqidagi miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xitoy mifologiyasi asosida shakllangan "Si si chjuan" materialistik konsepsiyasi bo'yicha, "...

²⁴ Tersina – italyan she'riyatiga mansub bo'lgan uch misrali bandlardan tuzilgan she'r shakli. Qofiyalanishi: aba, bvb, vgv shaklida, ya'ni birinchi bandning birinchi va uchinchi misralari o'zaro, ikkinchi misrasi esa keyingi bandning birinchi va uchinchi misralari bilan bir xilda qofiyalanadi.

²⁵ Бородин А.И. Число и мистика. – Донецк: Донбасс, 1972. – С. 107.

erlik – Yan va ayollik – In substansiyalarining o'zaro mutanosib harakatlanishi va kurashi dastlab besh tabiiy hodisot – suv, olov, daraxt, temir va tuproqni yuzaga keltirgan, so'ng ulardan qolgan barcha turli-tuman narsalar hamda xilqatlar vujudga kelgan. Bu silsilada harakat mavjud borliqning asosi bo'lib, dunyoni esa "uchlik" tashkil qiladi: Osmon, Yer va Inson²⁶. Shuning uchun ham xitoyliklarda uch raqami tug'ilish bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Raqamning xitoycha talaffuzi ham ("san") "tug'ilish" so'zi ohangiga yaqin turadi. "O'zgarishlar kitobi"da Osmon, Yer va Inson uchligi haqidagi qarashlarga keng o'rin berilgan. Shuningdek "In-szi-Yan" (ayol-bola-erkak) uchligi ham ancha mashhur bo'lgan. Uch raqamining ramziyligi ilk turkiy e'tiqodlarda osmon – yer – yer osti uchligi va uch xudo g'oyasi bilan muqaddaslik kasb etgan. Qadimgi Misr, Shumer, Yunon va Eron mifologiyasida uch xudolik g'oyasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Olamda yorug'likning uch manbayi – Quyosh, Oy, yulduz; tug'ilish, hayot va o'lim; o'tmish, hozir va kelajak; uch bo'ysunuvchi juftliklar – davlat va fuqaro, ota va o'g'il, er va xotin; uch insoniy tilak – xotirjamlik, uzoq umr va serfarzandlilik; Xitoydagi uch din: konfutsizm, daosizm, buddizm singari juda ko'plab uchliklarni uchratish mumkin. Bu raqam turkiy xalqlar ijtimoiy hayoti va madaniyatida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Masalan, "Kitobi Dada Qo'rqu" yuzasidan tadqiqot olib borgan turk olimi O'nar So'man dostonida uch raqami 43 marta kelganligini ta'kidlab, turkiy xalqlar mifologiyasida muqaddaslik darajasi yuqori bo'lgan raqam sifatida e'tirof etadi²⁷.

²⁶ Степугина Т.В. Идеология и культура Китая период расцвета рабовладения / История древнего мира: расцвет древних обществ. – М., 1983. – С. 58

²⁷ O'nar So'man. Dede Korkut Boylarenada Geçen Formulistik Sayıların İzleri / Türk Dünyası Araştırmaları. 2019. – S. 36

Keltirilgan misollarning barchasi uch raqamining kishilik hayotida tutgan o'rni va ahamiyati xususida ma'lum bir tasavvur hosil qilishga asos bo'ladi.

To'rt raqami boshdanoq raqamlar orasida eng yetuk raqam hisoblangan. Pifagorning fikricha, inson Qalbi to'rtta narsadan, ya'ni aynan aql, ilm, dunyoqarash, hissiyotlardan tarkib topadi. Birdan to'rtgacha bo'lgan to'rtta raqam, ya'ni 1, 2, 3, 4 raqamlari musiqa bilan to'g'ridan to'g'ri aloqadordir. Ular barcha konsonatik intervallarni ifodalay oladi, ya'ni (1:2) – oktavani, (2:3) – kvintani, (3:4) – kvartani. Olam va odamni o'rab turgan aniq g'oya, xususiyat, ramz sifatida to'rt raqami talqin qilingan. Pifagor va uning izdoshlari tomonidan birdan to'rtgacha bo'lgan raqamlar yig'indisi o'nga teng bo'lganligi va bunda to'rt raqami muhim ahamiyat kasb etganligi uchun ham to'rt raqami butun mavjudlikning asosi, kuch-qudrat, tenglik va adolat ramzi sifatida e'tirof etilgan²⁸.

Oltoy shimolidagi turklarning mifologik qarashlari bo'yicha, dunyoning to'rt tomonini to'rtta ho'kiz ushlab turadi, zilzilalarning sodir bo'lishi ho'kizlarning harakati tufaylidir. Mayya xalqlari orasida mashhur bo'lgan boshqa bir mifga ko'ra, osmon tomini to'rtta ustun ushlab turibdi. Shuning uchun ham to'rt raqami belgisi ierogliflarda moddiy olam ramzi sanaladi: kvadrat qismi yerni, tepadagi aylana qismi esa osmonni bildiradi. Yerni kvadrat shaklida tasavvur qilish qadimgi dunyo odamlari, jumladan, qadimgi turklar va xitoyliklarga ham xos edi. Oltoy turklari dastlab yerni aylana, keyin esa kvadrat shaklida, deya inonishgan, yerni kvadrat shaklida tasavvur qilgan xitoyliklar Xitoyning uning markazi hisoblashgan. Shuning uchun ham to'rt raqami yerning butun shaklini aniqlashtiradi, predmetni har

²⁸ Balki pifagorchilarning bunday xulosaga kelishlariga to'rt va to'rtgacha bo'lgan raqamlar yig'indisi birinchi o'ntalikdagi raqamlarni hosil qilganligi ham asos bo'lgan bo'lishi mumkin, ya'ni $1+4=5$; $2+4=6$; $3+4=7$; $1+3+4=8$; $2+3+4=9$; $1+2+3+4=10$ ni hosil qiladi.

tomondan ko'rsatadi, deb qaralgan. Olamning paydo bo'lishi haqidagi miflarda dastlab Osmon, keyin Yer, undan so'ng Quyosh va Oy yaratilganligi tasvirlari berilishi mifologik boshlanishda to'rt raqami yetakchilik qilishini ko'rsatadi. Olamning to'rt tomoni; yilning to'rt fasli; to'rt ramziy hayvon – havorang timsoh, qizil qush, oq yo'lbars va qora toshbaqa; to'rt mifologik hayvon – bir shoxli ot²⁹, qaqnus³⁰, kaltakesak, timsoh; to'rt yaxshi fazilat – tartib-intizomga rioya qilish, adolatli muomala, munosabatda mo'tadillikni ushlash, uyatchanlik hissi; to'rt yorug'lik manbai – yulduzlar, sayyoralar, Quyosh va Oy singari tushunchalar bu raqam mohiyatini yoritishga xizmat qilgan. Xun turklari janglarda qo'shinni to'rtta asosiy yo'nalishda joylashtirishga harakat qilganlar, ya'ni shimoliy frontga “qora otliqlar”, janubiy frontga “qizil otliqlar”, sharqiy frontga “kulrang otliqlar”, g'arbiy frontga “oq otliqlar” jo'natilgan. Temirsipohi ham oq otlar g'arbda, kulrang otlar sharqda, qora otlar shimolda, qizil otlar janubda bo'lishi an'ana ekanligini qayd etgan. Demak, bundan dunyoning to'rt tomoni to'rt rang bilan belgilanishi ayonlashadi: sharq – kulrang, g'arb – oq, shimol – qora, janub – qizil.

A.Shimmelning ma'lumot berishicha, Shimoliy Amerika hindulari to'rt raqamini o'z tuzilmalarining asosi deb bilishgan va bunda inson hayotining to'rt bosqichga bo'linishi, samoviy jismlarning to'rt guruhga ajralishi singarilarga ishora qilishgan³¹. Ammo shunga qaramasdan, to'rt raqamini xitoyliklar va yaponiyaliklar uncha yoqtirishmaydi. Balki to'rt raqami bilan “o'lim” so'zi o'zaro ohangdosh ekanligi bunga sabab bo'lgandir (to'rt raqami “si”, o'lim so'zi “shi” deb o'qiladi). Xitoyda

²⁹ Qadimgi muhr, pul va boshqalarda tasviri tushirilgan bir shoxli afsonaviy ot.

³⁰ Olov ichida yashovchi, kuldani paydo bo'lgan afsonaviy qush. Abadiy yangilanib turish ramzi.

³¹ Annemarie Shimmel. Sayıların Gezimi. (Çevirmen Mustafa Kürüşoğlu). – İstanbul, 2017. – S.111

ko'pqavatli uylarda to'rtinchi qavatning bo'lmasligi, telefon yoki avtomashina raqamlarida aynan to'rt raqami ishtirok etgan seriyalarning tushirilib qoldirilishiga sabab shudir³².

Besh raqami qadimgi dunyo kishilari uchun nikoh ramzi sanalgan, chunki bu raqam uch erkak va ikki ayol raqamning birlashuvini ifodalagan. Beshning hayotiylik kuchiga ishonilgan va u sog'lom hayot ma'nosini anglatgan. Qadimgi xitoy falsafasiga ko'ra, olam asosi bo'lgan unsurlar – suv, olov, daraxt, temir va tuproq ramzi hisoblanganligi sababli ham bu raqam xitoyliklar uchun muhim raqamlar qatoridan joy olgan. Bular Xitoy davriy kalendarida “samoviy ildiz” sanalgan. Aynan shu sababli ham besh toq raqam bo'lishiga qaramasdan, pozitiv raqam hisoblanadi³³. Uzoq umr ko'rish, taraqqiy topish, sog'lom bo'lish, hayotga muhabbat va o'limning haq ekanligini tan olish singari besh tuhfa bu raqam bilan bog'liq ijobiy kayfiyatning paydo bo'lishiga xizmat qilgan.

Qadimgi Yunonistonda olti raqami yetuklik, mukammallik ramzi bo'lib, bu raqam olamning yaratilishini anglatgan. Barqarorlik raqami sanalgan olti ierogliflarda taraqqiy etish ma'nosini bildiradi, shuning uchun ham biznesda qulay raqam hisoblanadi. Olam tomonlari – shimol, janub, sharq, g'arb, baland, past; insonning his-tuyg'ulari: sevgi, shodlik, xursandchilik, g'azab, g'am,

³² To'rt raqami xitoyliklar uchun eng baxtsiz raqam. Ularning aqidasi bo'yicha, agar sizning telefon raqamingizda yoki avtomashinangiz to'rt raqami bo'lsa – bu yomon. Juda ko'p uylarda to'rtinchi qavat yo'q, o'rniga 3A raqami bilan ko'rsatilgan qavat bor. Gongkong va boshqa shaharlarda ham salbiy ma'noga ega deb qaralgan to'rt raqamli qavatlarning tashlab ketilishi, juda ko'plab biznes-markazlarida to'rtinchi qavatning bo'lmasligi daosizm ta'siridan xabar beradi. Qisqasi, to'rt raqami Xitoyda obro'ga ega emas. Shuningdek, 13 raqami ham salbiy energiyaga ega, deb qaraladi. Chunki uning tarkibidagi raqamlar yig'indisi (1+3) 4 ni hosil qiladi.

³³ Chunki Xitoy numerologiyasida toq raqamlar salbiy, juft raqamlar ijobiy xususiyatga ega, deb qaralgan.

nafrat singarilar olti raqamining mohiyatini to'ldiradi va bu raqamga munosabatni o'zgartiradi.

Ko'rinib turibdiki, jahonning barcha xalqlari hamma zamonlarda magik va sirli raqamlarga alohida e'tibor qaratishgan. Ammo ular orasida eng ko'p e'tibor qaratilgani va aytish mumkinki, eng “mashhur”i yetti raqamidir. Bu raqam ba'zan magik, ba'zan sehrli, ba'zan sakral raqam sifatida e'tirof etiladi. Yetti raqami donishmandlik, muqaddaslik va sirli bilimlarni o'zida jamlaganligi sababli ham qadim zamonlardan buyon inson uchun tabiatni anglash vositasi bo'lib kelgan. A.Borodinning qayd etishicha, bu raqam dastlab sanoq sistemasida oltidan keyingi raqam sifatida emas, balki “ko'p” degan ma'noni anglatish uchun qo'llanilgan³⁴. Pifagorchilar bu raqamni din raqami deb atashgan, chunki qadimgi dinlarda ham u muqaddas raqam sanalgan. Masalan, shummerlar davrida bir ibodatxona yetti eshikli qilib qurilgan va bino bitgandan keyin yetti qo'y va yetti sigir so'yilib, qurbonlik qilingan. Ozarbayjonlik olimlar R.Xalilov va A.Alizodalar ham yetti raqamini muqaddas to'rt raqamiga uch raqamining qo'shilishidan paydo bo'lganligi sababli muqaddaslik kasb etganligini qayd etadilar. To'rt raqamining muqaddasligi to'rt unsur – havo, olov, suv va tuproq bilan izohlansa, Oy, Quyosh va yulduz – bu uchulasi to'rt unsur bilan birga butun olamni hosil qilganligidan yetti raqami ham muqaddas raqamga aylangandir, – degan xulosaga keladilar³⁵. Shuningdek, olti qirrasi va ichkaridagi yettinchi nuqtasi borligi nuqtayi nazaridan u kubning ramzi sifatida ham talqin qilingan. Kubning olti qirrasi bu olamning olti tomoni yoki olti unsur – tuproq, suv, havo, olov, ruh, borliq. Bularning o'rtasida bir turadi va u tikka turgan inson gavdasini anglatadi. Uning markazidan kubning olti piramid qirrasi tarqaladi. Shundan kelib chiqadiki,

³⁴ Бородин. А. И. Число и мистика. – Донецк: Донбас, 1972. – С. 110.

³⁵ Халилов Р.Я., Ализода А.Ж. Сакраментальность чисел / Научные труды АГУ (серия лингвистики и литературы). 1971. № 6. С. 34-41.

markaz barcha yo'nalishlar, o'lchov va masofalar otasidir. Raqam magiyasi xoh u kalendar bilan bog'liq bo'lsin, xoh astronomik holatlar bilan bog'liq bo'lsin, ma'lum bir ma'no-mohiyatga ega bo'lgan. Uning sehrli kuchi inson hayotining barcha jabhalariga daxldor bo'lib, yetti raqamining ishtiroki boshqa raqamlarga solishtirganda, ancha yuqoridir.

Hayratlanarli jihati shundaki, dunyoning juda ko'p hududlarida – shimol va janubdan Baykalgacha, Sibir va Uzoq Sharqqacha mif va afsonalar orqali magik yettiliklar yurtdan yurtga ko'chib yurgan. Bu raqamning insoniyat hayotida qachondan buyon bunday yuqori mavqe egallaganligini aniq aytish qiyin bo'lsa-da, shumerlarda bu raqam kult darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Ruhoniylarning qarashlari bo'yicha, yer osti hukmronligi yetti devor bilan o'ralgan bo'lib, dunyodan ko'z yumgan marhumlar yetti darvozadan o'tib bu qasrga kiradi. Bilgamish haqidagi shumer afsonalarida eng qudratli va donishmand yetti xudo, yer osti podsholigining yetti darvozasi, unda marhumlarni so'roq qiluvchi yetti so'roqchi, Bilgamishga berilgan yetti maxluq tasvirlangan tumor haqidagi qarashlar bu raqamga alohida e'tibor berilganligini dalillaydi. Shunisi e'tiborliki, Bobilda hamma narsani biladigan yetti donishmand maslahati bilan eng katta xudoga atab yetti qavatli ibodatxonalar qurilgan. V.K.Afanaseva "Yeti donishmand" haqida fikr yuritarkan, bu donishmandlar adabiy asar qahramonlari, afsonaviy shaxslar yoki yirik shaharlarning asoschilari bo'lib, ularning soni ancha ko'p, turli davrlarda bu donishmandlar butunlay boshqa qahramonlardan tashkil topgan bo'lishi ham mumkin, ya'ni turli-tuman donishmandlar "yetti donishmand" sifatida tilga olinadi, – deya masalaga mavhumroq yondoshadi³⁶. Folklorshunos olim M. Jo'rayev va K.Xolmuhamedovlar esa "yetti donishmand" yoki "yetti

³⁶ Qarang: Афана́сьева В. К. Гильгамеш и Энкиду. Эпические образы в искусстве. – М.: Наука, – С. 11.

xudo" tushunchasini samoviy yoritkichlar – sayyoralar bilan bog'lashga harakat qiladilar: "O'ylashimizcha, qadimgi Sharq afsonalarining qahramoni – "Yeti donishmand" obrazi osmondagi yetti sayyora haqidagi ibtidoiy qarashlar mahsulidir"³⁷. Bizningcha ham yetti raqamining bu darajaga chiqishida, birinchi navbatda yetti sayyora – Quyosh, Oy, Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter, Saturn muhim rol o'ynagan. Shuningdek, bu yetti sayyora haftaning yetti kuniga homiylik qilishi qadimdan keng yoyilgan inonchlardan biridir. Bu xususdagi qarashlar dastlab qadimgi Bobilda paydo bo'lgan. Vaqtni yetti kunga bo'lish an'anasini A.Borodin shu qarash bilan bog'laydi³⁸. Hafta kunlarining nomlanishi ham ko'pgina Yevropa tillarida sayyoralarning nomi bilan bog'liq. Osmondagi yetti sayyora, haftaning yetti kuni va yettita mashhur metal astrologlar va kimyogarlar nazarida bir-birini to'ldirib, insoniyatning yettiliklarga bo'lgan ishonchini yanada orttirishga xizmat qilgan. Bular: oltin – Quyosh – yakshanba, kumush – Oy – dushanba, temir – Mars – Seshanba, simob – Mirrix – chorshanba, qalay – Yupiter – payshanba, mis – Venera – juma, qo'rg'oshin – Saturn – shanba. Kosmogonik mifologiyada Abraksas falak timsoli bo'lib, nasroniylkdagi Vasilid sektasining qarashiga ko'ra, u yetti raqamdan hosil bo'lgan: $1+2+100+1+60+1+200=365$. Bundan yildagi kunlarning soni kelib chiqadi³⁹. Bunday yondashuvlar yetti raqamiga magik raqam sifatida qarashga olib kelgan.

Bundan tashqari, ota-bobolarimiz Oy kalendarini bo'yicha har bir oy to'rt haftadan, har bir hafta esa yetti kundan iborat ekanligiga e'tibor qaratishgan. Oyning yashirincha turgan kunlari bu siklga qo'shimcha qilingan. Bobilda yetti kundan iborat bo'lgan siklning tugashi xavfli

³⁷ М.Жўраев., К.Холмухамедов. Етти иқлимдаги етилар. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.13.

³⁸ Бородин А.И. Число и мистика. – Донецк: Донбас, 1972. – С.112.

³⁹ Мифологический словарь. – М., 1990. – С.13.

sanalgan, o'sha kunlari qandaydir baxtsizlik keladi, deb ishonishgan. Shuning uchun ham haftaning yettinchi kuni ko'ngilsizliklardan qochish maqsadida dam olish kuni deb e'lon qilingan. Yetti raqami qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy va hatto Amerikada ham muqaddas hisoblangan. Bu raqam magiyasidan eramizdan avvalgi 2500 yillikda ham Xeops piramidalarini qurishda foydalanilgan⁴⁰. Yetti raqamini ba'zi bir olimlar Misr va Bobil falsafasi bilan bog'lashadi. Bu raqamda ikkita raqamning: uch va to'rt raqamlarining hayoti mavjud, degan qarashni ilgari suradilar. Uch inson: ota, ona, o'g'il butun bir hayotning asosini tashkil etsa, to'rt olamdagi to'rt tomondir. Bundan tashqari, yetti raqami olamning olti tomoni – shimol, janub, sharq, g'arb, baland, past va Yaratganni bildirish uchun ham xizmat qilgan. Shuningdek, osmon va yer, suv va olov, tug'ilish va o'lim hamda insonni anglatish uchun ham yetti raqami xizmat qildirilgan.

Shunisi qiziqarliki, Janubiy Amerikada, Yaqin Sharqdan uzoqroqda bo'lgan Mayya xalqi orasida ham yetti raqamiga alohida e'tibor qaratilgan. Mahalliy aholining qarashlari bo'yicha yetti raqami tugallanish va o'lim chegarasi hisoblangan. Bir – bu boshlanish, yetti esa nihoyasiga yetish, tugallanish ma'nosini anglatgan. Qadimgi Yunonistonda esa yetti raqami Appalonning ramzi sanalgan. Chunki u oyning yettinchi kuni tug'ilgan va uning lirasida yettita tor bo'lgan. Qadimgi rimliklar yetti raqami mohiyatini ancha boyitishgan. Shaharning o'zi yettita tepalik ustiga qurilgan, Stiks daryosi yer ostiga oqib kirib, do'zaxni yetti marta aylanadi, deb qaralgan. Vergiliya yetti viloyatga bo'linadi. Xitoyliklarda yetti raqami mushtaraklikni, birlikni his qilish ramzi bo'lib, u o'z-o'ziga ishonch ma'nosini anglatadi. Butun

⁴⁰ Qadimgi Buxoroning ham yetti qaroqchi yulduz shaklidagi yetti tosh ustiga qurilganligi, Rim, Istanbul, Toshkent, Kiyev singari shaharlarning qurilishi yetti tepalik bilan bog'liq ekanligi shaharsozlikda ham an'anaviy yetti raqamiga e'tibor berilganligini dalillaydi.

Sharq mamlakatlarida bo'lganidek, Xitoyda baxtli va eng ma'qul raqamlardan biri sanaladi. Sevishganlarning uchrashuvi (7-oyning 7-sanasida), "7 fey" kabi iboralarda yetti raqamining sadosi jaranglaydi. Ammo toq raqam bo'lganligi sababli xitoyliklar uchun noaniq bo'lib, uning mohiyati vaziyatga bog'liqdir.

Xristian dinida yetti raqami juda ommalashgan. Ular sharq hay'atshunoslari va pifagorchilarning ilmiy kuzatishlari asosida yuzaga kelgan yettiliklar xususidagi magik qarashlarni qabul qilishgan. Ilk xristian adabiyoti namunalaridan biri bo'lgan "Apokalipsis" yoki "Vahiynoma" asarida yettiliklar tizimi keltirilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Unda tasvirlanishicha, Xudo taxtda qo'lida kitob ushlagan holda o'tiribdi. Kitobda yetti muhr bo'lib, bu muhrlarning yechilishi bir mo'jizani hosil qiladi. Yettinchi muhr yechilganda qo'llarida surnay ushlagan yettita farishta chiqib keladi. Farishtalarning yettinchisi surnayni chalib bo'lgandan keyin sahnada yana yettita farishta paydo bo'ladi. Qizig'i shundaki, bu farishtalarning qo'llarida xudoning qahri bilan to'ldirilgan yetti kosa bo'lib, qahr-g'azab kosadan toshib, yerga to'kila boshlaydi.

Dunyo xalqlari diniy falsafasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu raqam bilan bog'liq xilma-xil qarashlarga duch kelamiz. Masalan, Qadimgi Misrda yetti raqami Xudo Osirusni raqami deb e'tirof etilgan. Yahudiylarda har yetti oyning boshlanishi bayram sifatida nishonlangan. Yetti chiroq qadimgi yahudiylarning milliy davlatchiligi ramziga ham aylangan. Olamning yetti kunda yaratilganligi, yetti og'ir gunoh, yetti osmon singari tushunchalar bu raqam mohiyatiga o'zgacha yondashishni talab qilgan. Iudaizmda bo'lgani singari xristianlikda ham olamning paydo bo'lishi yetti kunda amalga oshgan, degan qarashlar mavjud. Xristianlikda yetti sir: Buyuk Postning qo'rqinchli haftasi – yettinchi hafta, ma'naviy yetuklik va rivojlanishning yetti belgisi, yetti og'ir gunoh (takabburlik, yalqovlik, qahr, shahvat,

baxillik, badnafslilik, hasad), yetti sham, yetti farishta. Buddizmda yetti raqami ko'tarilish, yuqoriga intilish va markazga e'tibor qaratish ramzi sifatida keladi. Buddaning yetti qadami makon va vaqt chegarasidan chiqib, koinotga qo'yilgan yetti fazoviy zinani anglatadi. Budda yettita mevasi bor daraxt tagida o'tiradi. Ularda suyak, yog'och va yo boshqa materialdan yasalgan baxt keltiruvchi yettita filni hadya etish odati bo'lgan. Induizmda yetti donishmand, yetti olam, yetti muqaddas shahar, yetti muqaddas orol, yetti muqaddas dengiz, yetti muqaddas tog', yetti muqaddas daraxt, yetti sahro singari tushunchalarda bu raqam ancha mustahkam o'rin olgan. Shomonizmga xos bo'lgan marosimlarda raqamlarga, xususan, uch, besh va yetti raqamlariga alohida e'tibor qaratilganligini folklorshunos olim O.Qayumov "Surpa yangilash" marosimi misolida qayd etadi⁴¹.

Keltirilgan misollarning qaysi biri yetti raqamining mashhur bo'lishiga sabab bo'lganligi noma'lum bo'lsa-da, ammo bularning har biri bu raqamning sirli va magik kuchga ega bo'lishida muhim rol o'ynagan. Keyinchalik kamalak ranglari, musiqa notalari, inson va boshqa sut emizuvchilarning deyarli barchasida bo'yin umurtqalarining soni yettita ekanligi aniqlandi hamda yetti raqamiga bo'lgan munosabatning qat'iylashishiga xizmat qildi. Tatarlar orasida mavjud e'tiqodga ko'ra, bola ko'p bezovta bo'lsa, maxsus bo'tqa tayyorlab, tunda boqqa qo'yiladi. "Tungi bo'tqa" deb atalgan bu yemish oldiga yettita qoshiq qo'yiladi va bu yetti qoshiq bolani yetti sehrdan himoya qiladi, deya ishoniladi. Bola tug'ilganning yettinchi kuni qurbonlik qilinadi. Dafn marosimlarida yettinchi kuni quymoq pishirilib, o'likni yuvgan g'assollarga sadaqa beriladi.

Qozoqlarda bola yetti kunlik bo'lganda beshikka solinadi, chunki yettinchi kun chaqaloqning kindigi

tushadigan kundir. Onado'lida ham imkoniyati yetarli bo'lgan oilalar bola tug'ilganidan yetti kun o'tib, mavlud o'qitadilar. Musulmonlar orasida o'g'il bola yetti yoshga to'lganda sunnat to'yi o'tkaziladi. Ba'zi bir turkiy qavmlarda farzand ko'rmagan ayol yetti uydan un olib, "Bibi seshanba" marosimini o'tkazadi.

Sharq xalqlari insonning har yetti yoshida ruhan yangilanib, o'zgarib borishini ta'kidlashgan va inson hayotini yettiliklarga bo'lishgan, ya'ni yetti yoshgacha – bolalik davri, 14 yoshgacha – o'smirlik davri, 21 yoshgacha yigitlik davri, 28 yoshgacha balog'at davri, 35 yoshgacha yetuklik davri, 42 yosh – hayotiy kuchga to'lish, 49 yosh – donishmandlik, 56 yosh inson hayotiga kuz faslining kirib kelishi, 63 yosh kuchdan qolish, 70 yosh bolalikka qaytish, 77 yosh go'daklikka qaytish. Bu dalillar tasodifiy bo'lmay, balki inson hayotining o'ziga xos sirli jihatlaridir. Qadimgi turkiy e'tiqodga ko'ra, har bir erkak yetti xazinaga ega bo'lishi kerak. Bular – donolik va bilim, go'zal ayol, chopqir ot, it, burgut, miltiq, keskir qilich. Donolik va bilim – erkakning martabasi, tez yuguruvchi ot – uning qanoti, it – sharafi, burgut – kuchi va qudrati, miltiq – xislati, qilich – ishonchi, go'zal ayol esa sevgilisidir. Ushbu yetti xazinaga ega bo'lgan erkak eng boy va baxtli erkak sanalgan.

Xalq orasida avlodlar sonini yettigacha sanash urf bo'lgan. Abulg'oz Bahodirxon bunga urg'u berib shunday yozadi: "To yetti otag'acha ot ko'yar. Andin so'ng ot ko'ymas. Turk va tojikda barcha odam farzandining ichinda rasm turur, yetti otani sanad qilmoq. Turk xalqi aytur yetti orqadin beri temurchiman va yo ayturki mening yetti otam shu yurtida o'tkandur yo aytur kim yetti orqadin beri yorliliq yozin ko'rganim yo'q turur. Tojik ham shundaq der"⁴². O'zbeklarda yetti avlod farzand, nevara, chevvara, evvara, kabira, ovora, begona singari nomlansa, turkmanlarda yetti avlod – o'g'il,

⁴¹ Каюмов О.Ўзбек шомон маросим фольклори. Филол.фанл.д-ри диссерт.автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 25.

⁴² Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – Б. 48.

nabira, chovlik, yuvlik, govlik, yotlik, otlik kabi nomlar bilan qayd etilgan. Bu tushunchaning tarixiy asoslari haqida fikr yuritgan folklorshunos olimlar qadimgi turkiylarning yer yuzida yaratilgan dastlabki yetti odam haqidagi mifologik tushunchalarini asos qilib ko'rsatadilar⁴³. Ushbu yetti avlod o'rtasida turmush qurish ta'qiqlangan bo'lib, bu avlodlarning sog'lom bo'lishi va nasllar qonining sofliğini saqlash uchundir. Yetti avlod aylanmasdan turmush qurganlarning farzandlarida turli ruhiy va irsiy kasalliklar bo'lishi ehtimoldan uzoq tutilmaydi.

Garchi yetti raqami barcha xalqlar dunyoqarashi va an'alarida muqaddaslashgan raqam sanalsa-da, sakkiz raqami ham e'tiborli raqamlardan biri bo'lgan. Sakkiz ikkita to'rttdan iborat, har bir to'rt ikkiga bo'linadi, har bir ikkilik birga bo'linadi. Shu holatda bir tiklanadi. Sevgi, maslahat, joylashuv, qonun va rozilik so'zlari sakkizning kalit so'zlaridir. Turli xalqlarning qadimiy an'alarida barcha suratlar, jumladan, harf, haykallar muqaddas va hatto mistik bilimni yashirgan. Bular orasida ba'zi raqamlar, jumladan sakkiz raqami juda muhim o'rin egallagan. Garchi pifagorchilar sakkiz raqamini o'lim ramzi, deb sanashgan⁴⁴ bo'lsa-da, bu raqam barcha xitoyliklar uchun baxtli raqam bo'lib, boylik va taraqqiyot ramzi, to'kin-sochinlik va baraka timsoli sifatida e'tirof etiladi. Fei-shuyda sakkiz raqamidan qo'riqchi, himoyalovchi, ehtiyot qiluvchi ramz sifatida foydalaniladi. Xitoyliklar Konfutsiyning sakkizta ma'naviy tamoyilini doim yodda tutishadi

⁴³ Bu haqda qarang: Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б. 158-160.

⁴⁴ Karra jadvaldagi sakkiz bilan bog'liq natija ularning shunday xulosaga kelishlariga sabab bo'lgan. Birdan to'qqizgacha bo'lgan sonlarni sakkizga ko'paytirib, ko'paytma tarkibidagi o'nlik sonlarni bir-biriga qo'shgan holda birliklarga aylantirganda sakkiz raqami tepadan pastga qarab kamayib boradi. Ya'ni, $1*8=8$, $2*8=16$ $1+6=7$, $3*8=24$ $2+4=6$, $4*8=32$ $3+2=5$, $5*8=40$ $4+0=4$ singari.

va bunga amal qilishadi⁴⁵. Qadimgi bobilliklarning qarashlari bo'yicha, sakkizta xudo bor bo'lib, Bobil shahrining sakkiz darvozasi ana shu sakkiz xudo nomi bilan atalgan. Markaziy Osiyoda yashagan mo'g'ullarning dafn marosimlarida bu raqam bilan bog'liq ba'zi holatlarni uchratish mumkin. Mo'g'illar orasida mavjud bo'lgan qadimgi an'analarga ko'ra, qahramon jangchi vafot etganda uning boshi tagiga otining egarini, o'ng yonboshiga esa sakkizta kamon o'qini qo'yib ko'mish odati bo'lgan. Bunday ma'lumotlar qadim zamonlardan beri dunyoning turli mintaqalarida sakkiz raqamiga alohida e'tiqod qo'yilganligi, bu raqam xalq og'zaki ijodi va udumlaridan keng joy olganligidan dalolat beradi.

Birdan to'qqizgacha bo'lgan raqamlar orasida turli matematik amallar bajarilganda hayratlanarli natija hosil bo'ladigan raqamlardan biri to'qqizdir. Karra jadvalidagi birdan oltigacha bo'lgan sonlarni to'qqizga ko'paytirishdan chiqqan natijalar olti va keyingi sonlar ko'paytmasida raqamlarning izchil o'rin almashinishi⁴⁶ Pifagor izdoshlarini bu raqamni sehrli kuchga ega, deb bilishlariga sabab bo'lgan. Ular to'qqiz raqamiga donishmandlik, jasorat va barqarorlik ramzi sifatida

⁴⁵ Bugungi kunda ham sakkiz raqami bor bo'lgan telefon raqami yoki avtomashina nomerlarini katta miqdorda pul to'lab bo'lsa-da, olishga harakat qilishadi. Bundan tashqari, sakkiz raqamining shakli cheksizlik belgisini eslatadi. Shuning uchun ham Xitoyda sakkiz raqami moddiy mablag'ning hech qachon tugamasligiga ishoradir. 2008-yilda Xitoyda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiada o'yinlari 08.08.08 da Pekin vaqti bilan 8 dan 8 minut va 8 sekund o'tganda, ya'ni 08.08.08 da boshlangan. Oltita 8 raqami bu juda kuchli kombinatsiya bo'lib, xitoyliklar bu chiroyli raqamlar milliy komandaga muvaffaqiyat va omad olib kelishiga ishonishgan. Olimpiada yakunlari ham buni isbotladi: Xitoy 204 ta ishtirokchi davlatlar orasida birinchi o'rinni oldi, ya'ni 48 ta oltin, 21 ta kumush va 29 ta bronza medal sohibi bo'ldi.

⁴⁶ Ya'ni 1 dan 5 gacha bo'lgan raqamlar 9 ga ko'paytirilganda, $1*9=9$, $2*9=18$, $3*9=27$, $4*9=36$, $5*9=45$ ni hosil qilsa 6 va undan keyingi sonlar 9 ga ko'paytirilganda, ushbu ko'paytmalarning teskari raqamlari hosil bo'ladi: $6*9=54$, $7*9=63$, $8*9=72$, $9*9=81$, $10*9=90$

qarashgan⁴⁷. Birdan to'qqizgacha bo'lgan barcha raqamlar xususiyatlarini o'zida jamlaganligi uchun ham to'qqiz imperator raqam yoki raqamlar imperatori sanaladi. "Qadimgi dunyo olimlari to'qqiz raqamini abadiylik, boqiylik ramzi, bilim, aql va taqdir belgisi deb hisoblashgan"⁴⁸. Umrboqiylik, uzoq umr ko'rish, baxt ramzi bo'lib, eng baxtli raqamlardan bir hisoblanadi. "O'zgarishlar kitobi"da 3*3, ya'ni to'qqiz raqami baxtli raqam, deya e'tirof etilgan. Qadimgi Xitoyda amaldorlar imtihon natijalariga ko'ra to'qqiz darajaga bo'linishgan, muhtaram kishilar uchun to'qqiz xil mukofot ta'sis etilgan, imperatorlar o'z kiyimlarini odatda, to'qqizta ajdarho surati bilan bezatishgan⁴⁹. Tarixda Xitoy to'qqiz viloyatga bo'lingan. Fun-Shuy falsafasiga ko'ra, Xitoy poytaxti bo'lgan Pekin to'qqiz qismga bo'lingan.

O'tmishda Yevropa mamlakatlarida bu raqam ancha mashhur bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda o'tkaziladigan olimpiada o'yinlarini to'qqizta hakam boshqarishi, san'at va fanning turli tarmoqlariga to'qqizta homiy rahnamolik qilishi haqidagi qarashlarning mavjudligi bu fikrning dalilidir. To'qqiz raqami bilan bog'liq qarashlar yunon afsonalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, ulardan birida keltirilishicha, yorug'lik xudosi Apollonning yonida to'qqiz nafar ilhom ma'budasi: Evterpa – lirika, Kalliopa – epik she'riyat, Erato – sevgi qo'shiqlari, Melpomena – tragediya, Taliya – komediya, Terpsixora – raqs, Klio – tarix, Uraniya – astronomiya, Poligimniya – muqaddas madhiyalar ma'budasi bo'lib, bu ma'budalar ilohiy kuylarni ijro etadilar⁵⁰. Yoki yunonlarning yana bir boshqa afsonasida Argoridaning Lerney shahri yaqinidagi botqoqlikda Gidra Lerney iloni bo'lib, u odamlar va podalarga tez-tez hujum qilib

⁴⁷ Bu haqda qarang: Бородин А.И. Кўрсатилган асар. – Б, 115-116.

⁴⁸ Жўраев М. "Сехрли" рақамлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 89.

⁴⁹ Xitoy mifologiyasida ajdarho farzand timsoli bo'lib keladi.

⁵⁰ Кун А.Н. Қадимги юнон афсона ва ривоятлари. – Самарқанд: За-рафшон, 2005. – Б. 14.

turgan. Bu ilonni mag'lub qilish ancha mushkul bo'lgan, chunki vahshiyning to'qqiz boshi bo'lgan, chopib tashlangan har bir bosh o'rniga yana ikkita bosh o'sib chiqavergan. Afsonaviy qahramon Geraklning mashhur o'n ikki jasoratidan biri ana shu ilonni tor-mor qilganligi edi. Bu holat asta-sekinlik bilan yozma adabiyotga kirib kela boshlagan. A.Dantening "Ilohiy komediya" asarida to'qqiz raqamiga alohida e'tibor berilganligi sir emas. Uning yozishicha, gunohkor bandalar o'z gunohlarini to'qqiz aylanaga ko'mishadi, to'qqiz zina bosib o'tish jarayonida gunohlardan tozalanadilar va to'qqiz qavatdan iborat jannatga yo'l oladilar. Shunisi e'tiborliki, hatto hayotda ham to'qqiz raqami bilan bog'liq sirli bir ritm Dantega hamroh bo'lgan. Shoir Beatricheni o'z hayotining to'qqizinchi yili uchratgan. To'qqiz yoshida Beatrichega bag'ishlagan ilk sonetini yozgan. Beatriche sharq kalendari bo'yicha to'qqizinchi oyning to'qqizinchi sanasida vafot etgan.

Rus olimi G.N.Potanin qadimgi kohinlarga xos marosimlar haqida ma'lumot berar ekan, to'qqiz raqami bilan bog'liq qarashlar mavjudligini aytib o'tadi. Unga ko'ra, ezgulik tangrisi bo'lgan Ulgan to'qqiz qavatdan iborat bo'lgan Ko'kda, yozuvlik tangrisi Erlik to'qqiz qavatdan iborat bo'lgan yer ostida joylashgan. Kohinlar to'qqiz qavatli ko'kka yetishish uchun to'qqiz doira ichida raqs ijro etishgan. Doira markaziga to'qqiz shoxli daraxt va to'qqiz chiziqli aylana tasviri tushirilgan childirma qo'yilgan. To'qqiz chiziqli aylana Ko'k va yer ostining ramzi sifatida e'tirof etilsa, to'qqiz shoxli daraxt Erlik va uning o'g'illari ot bog'laydigan cho'plarni anglatar ekan⁵¹. Demak, qadimgi mifologiya va diniy qarashlarda to'qqiz raqami muqaddas raqamlardan biri sanalgan.

O'n raqamiga butun Olamni ifodalovchi ramz sifatida qaralgan. Inson qo'lida o'nta barmoq borligi bilan bog'liq eng qadimiy tizim. "Modomiki, o'n raqami ideal

⁵¹ Потанин Г.Н. Восточные мотиве в средневековом европейском эпосе. – М., 1983. – С. 119.

raqam ekan, – mulohaza qilishadi yunon olimlari, – demak koinotda aniq o'nta sayyora bo'lishi kerak". Shuni ta'kidlash kerakki, u vaqtlarda insonlarga koinot borasida faqat Quyosh, Yer hamda beshta yaqin va yorqin sayyoralar ma'lum bo'lgan xolos. Xalq e'tiqodlari, tarixi va madaniyatida ushbu raqam unchalik faol bo'lmasada, u to'liqlik, mukammalikni anglatish uchun xizmat qiladi.

Insoniyatning olam haqidagi qarashlarini belgilaydigan raqam tushunchasi kishilik tarixining ibtidosida, madaniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida hisob-kitoblarni amalga oshirish va ob'ektiv dunyoni anglash zarurati tufayli paydo bo'lgan. Bu tushuncha va birinchi hisoblash ko'nikmalari shaxsning ilg'or harakatiga sezilarli turtki bo'lgan. Alohida ob'ektlarning hisobi odamlarning amaliy faoliyatida katta rol o'ynagan, unda insonning ma'lum madaniy va tarixiy tajribasi mustahkamlangan. Raqam yordamida inson vaqt va makonni o'zlashtirishga harakat qilgan, raqam tufayli tabiatshunoslik bilimlarining poydevorini qo'ygan, matematik ko'nikmalarga ega bo'lgan, astronomik kuzatishlarni tizimlashtirgan. Adabiy matnlarda raqamli simvolizm keng tarqalgan va doimo tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelgan. Raqam ramzlaridan nafaqat adabiy matnlar va folklor, balki rassomchilik va musiqa, me'moriy yodgorliklarda ham keng qo'llanilganligi sababli raqamlar butun dunyo mutafakkirlari uchun chuqur falsafiy tahlil mavzusi bo'lgan. Birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar esa bobolarimiz tafakkurining eng buyuk kashfiyotlaridan biri sanalganligi uchun ham bu raqamlar bilan bog'liq qarashlar xalqimiz xotirasida uzoq vaqtlardan buyon saqlanib, asrdan-asrga, avlodlardan-avlodga o'tib kelmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamlarga oid qarashlarning aksariyati borliqning paydo bo'lishi, osmon, yer va insonning yaratilishi, inson hayotidagi juda ko'plab holatlar bilan bog'liq ravishda talqin etiladi.

Ba'zi raqamlarni ijobiy fazilatlarga ega, ba'zilarga esa salbiy kuch sohibi sifatida qarash mifologiya bilan uzviy borliq bo'lib, turkiy xalqlar madaniy hayotida keng tarqalgan raqam ramzlarining asosi mifologiya bilan birga muqaddas dinlarga ham asoslangandir. Mifologik va diniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan uch, yetti, to'qqiz singari raqamlar o'ziga xos ma'nolari bilan xalq e'tiqodidan mustahkam o'rin olgan va bu holat ushbu raqamlarni muqaddas raqam sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lgan.

Bizning-cha, raqamlarni "omadli raqam", "muqaddas raqam", "baxtsiz raqam" deya aniq tasnif qilish noo'rin. Chunki ma'lum bir mintaqa, diniy qarash va e'tiqodlarda "omadli" sanalgan raqam boshqa mintaqa, din yoki e'tiqodda "baxtsiz raqam" sifatida e'tirof etilgan. Jahon xalqlari madaniyatida, dunyoning turli hududlarida yashovchi xalqlarning e'tiqodlarida raqamlarni ramziylashtirishning universalligi antropotsentrik dunyo-qarash asosida talqin etiladi. Inson dunyoni, jamiyatni va o'zini raqamlarning muqaddas kuchi orqali tushuntirishga harakat qilganligi uchun ham ba'zi raqamlarda omadni, baxtni, muvaffaqiyatni ko'rsa, ba'zilarida buning teskarisi bo'lishi mumkin.

Raqamlarning sirli, ramziy ma'nosiga ishonish barcha diniy qarashlarga birdek xos bo'lib, insonning moddiy, madaniy va amaliy faoliyatining barcha sohalari hamda darajalariga – adabiyot, san'at, arxitektura va qurilish, fan, tarixiy tafakkur, diniy marosim va boshqa sohalarga chuqur singib ketgan. O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotida raqamlarning o'ziga xos kuchi va "sehr"iga e'tibor qaratish islom dini kirib kelmasdan ancha avval mavjud edi. Masalan, shomonizmga e'tiqod qiluvchi turkiy xalqlar uch raqamining ramzi sifatida Quyosh, Olov va Suv tangrisiga ishonishgan. O'zbek va qozoq xalqlari orasida hozirgacha saqlanib qolgan yetti kulcha yetti sayyora shora bo'lib, bu yetti kulchaning pishirilishi Quyosh tangrisiga ishonish natijasidir.

Xalq og'zaki ijodida raqamlarning ma'no-mohiyati

Xalq og'zaki ijodida uchraydigan raqamlarning poetik va mifologik tabiati o'ziga xos. Raqamlar, ularning mohiyati va badiiy vazifasi, umuman olganda, raqamning timsol darajasiga ko'tarilish jarayonini folklor asarlari misolida o'rganish dolzarb masalalardan sanaladi. Bu borada folklorshunos olim M.Jo'rayevning xalq og'zaki ijodi turli janrlari, xususan, o'zbek xalq ertaklari poetik qurilishida muayyan semantik vazifa bajaruvchi an'anaviy va "sehrli" raqamlarning umumiy hamda o'ziga xos jihatlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlari diqqatga sazovordir⁵². Xalq og'zaki ijodi poetikasini bu yo'nalishda o'rganish eng qadimiy dunyoqarash g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlarini yanada aniqroq ko'rsatishga, xalq fantaziyasining hayotbaxsh an'alarini va xalq ruhiyatining o'ziga xosligini, dunyodagi turli xalqlar ma'naviyati va madaniyatining asosiy xususiyatlarini yaxshiroq anglashga imkon beradi.

Raqamlar xalq og'zaki ijodida faol ishlatiladigan badiiy vositalardandir. Ko'plab xalqlarning epik an'alaridagi "sevimli" raqamlar asosan bir-biriga to'g'ri keladi. Ammo batafsil tahlil xalq og'zaki ijodiga mansub asarlardagi raqamlarning ichki semantik yuklamasida tafovut borligini, folklor asarlarida raqamlardan foydalanishda milliy o'ziga xoslik namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Raqamlar xalq og'zaki ijodining eng kichik va uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega bo'lgan maqollardan tortib, yirik janri hisoblangan dostonlargacha faol

ravishda ishtirok etadi, ba'zan mifologik g'oyalarni tashisa, ba'zan xalq tafakkurining o'ziga xos xususiyatini aks ettirib, raqamli simvolizm orqali dunyo modelini badiiy jihatdan tasvirlashga xizmat qildiriladi. Raqamlarning ma'lum bir g'oya tashishi yoki ramz vazifasini bajarishi ibtidoiy odamning tevarak-atrofni o'rganishga yondashuvi bilan izohlanadi. Koinot va uning miqdoriy xususiyatlari doimo insoniyat e'tiborini tortib kelgan. Astrologiya yoki numerologiya singari okkult – munajjimlar bashorati, fol ochish yoki ilohiy kuchlarga ishonish ham qadim zamonlarda juda mashhur bo'lib, turli xalqlar madaniyatida sezilarli iz qoldirganligini ko'rishimiz mumkin. Bular orasida raqamlarni "sehrli" kuchga ega, deb biluvchilar ham bo'lgan albatta. Raqam va uning mohiyatini bilishga qiziqish natijasida insonlar raqamlarni tevarak-atrofdagi yaratilqlar, samo jismlari, sayyoralar bilan bog'lab, raqamlarga ularning ramzi sifatida murojaat qila boshlaganlar.

Folklor asarlarini o'rganganda inson dunyoga kelgandan boshlab to umrining oxirigacha bo'lgan davr mobaynidagi barcha marosimlarda, aytishuv-u lirik qo'shiqlarda, ertaklar-u maqollarda, dostonlarda raqamlarning o'ziga xos bir tizimini uchratamiz. Bunga esa xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli sifatida qarash mumkin. Chaqaloq besh kunlik bo'lganda "Beshdan o'tdi, toshdan o'tdi" deb boshlanadigan, to'qqiz kunlik bo'lganda "To'qqizdan o'tdi bu bacha, endi o'lmas bu bacha" deb boshlanadigan aytimlar aytilgan bo'lsa, yosh bolaga ilk bor yangi kiyim kiygizilayotganda "San – bir yillik, man – ming yillik" degan aytimlar aytilgan. Bunda, albatta, raqam va uning mohiyatiga e'tibor qaratish asosiy o'rinni egallaydi.

Xalq og'zaki ijodida raqamlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan janrlardan biri sanamalardir. Bolalar folkloriga xos bo'lgan sanama janri turli xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalgan. Ruslarda "schitalka", tojiklarda "shumurak", turkmanlarda "sanavoch", tatarlarda "sanashu" deb

⁵² М.Жўраев., К.Холмухаммедов. Етти икклимдаги "етти"лар. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 80.; М.Жўраев. "Сеҳрли" рақамлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 112.; Ўша муаллиф. Ўзбек халқ эртакларида "сеҳрли" рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 152. Ўша муаллиф. Рақам магияси ва эртақ поэтикаси / Миф, маросим ва эртақ. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б. 308.

ataladi. Ularda umumiylik sanash bilan bog'liqlikda va matndagi qofiyaga rioya qilishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyat sanamalarini yodlashda qo'l keladi:

*O'n bilan o'n
Yigirma,
Yigirmata
Childirma.*

Yoki

*Bir, ikki, uch,
Daraxtning
Tomiri puch*⁵³

Sanamalar juda xilma-xil bo'lganidek, ularning tasnifi ham turli-tumandir. Jahonning turli olimlari tomonidan tadqiq etilgan sanamalarini tasnif qilish ishlarini birinchilardan bo'lib, G.S. Vinogradov boshlab bergan⁵⁴. Keyinchalik, M.N.Melnikov⁵⁵, belorus olimi G.A. Bartashevich⁵⁶, o'zbek olimlaridan G.Jahongirov⁵⁷, O.Safarov⁵⁸, S.Avezovlar⁵⁹ tomonidan tadqiq etilgan. Olib borilgan barcha tadqiqotlar sanamalarda raqamlarning o'rni va mohiyatiga alohida ahamiyat berilganligi bilan e'tiborlidir. Chunki sanamalarda sanash ohangi raqamlar vositasida hosil qilinadi hamda qofiya hamohangligini yuzaga keltirishda raqamlar muhim ahamiyat kasb etadi. G.S.Vinogradov boshqa

⁵³ Бойчечак. Болалар фольклори. Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар: Сафаров О., Очилов К. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 150.

⁵⁴ Виноградов Г.С. Русский детский фольклор. – Иркутск, 1930. Кн.1. – С. 234.

⁵⁵ Мельников М.Н. Русский детский фольклор. – М.: Просвещение, 1987. – С. 340.

⁵⁶ Барташевич Г.А. Рифмованные жанры белорусского детского фольклора. – М.: Наука, 1976. – С. 236.

⁵⁷ Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 122.

⁵⁸ Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 250.

⁵⁹ Аvezов С. Санама жанри табиати ва бадиияти. Филол. фан.номз. дисс.автореф., - Т., 2004. – Б. 24.

hech qaysi janrda raqamlar bunday rang-baranglik kasb etmaganligini qayd etsa, O.Safarov janrning sanama deyilishi unda raqamlarning yetakchilik qilish tamoyili bilan bog'liq, degan xulosaga keladi. S.Avezov sanamalarini O.Safarov tasnifiga asoslangan holda uch turga ajratar ekan, ularning birinchi turi bo'lgan voqeaband sanamalarda raqamlarning o'rniga diqqatni qaratadi. Bunday sanamalarda ba'zan raqam, ba'zan esa sanoq ohangidagi so'z asosiy manba bo'lib kelishini ta'kidlaydi hamda sanash ohangi raqamlar asosida yuzaga kelishini inobatga olgan holda bu turkumdagi sanamalarini "raqam-sanamalar" deya ataydi. Raqam-sanamalarda birdan yuzgacha bo'lgan raqamlar tizimini ko'rishimiz mumkin. Ammo ular orasida birdan yetti raqamigacha bo'lganlari anchagina:

*G'ujum-g'ujum pomidor,
Oyim bergan pomidor.
Qani sanab ko'ray-chi,
Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, yetti, kettik!*⁶⁰

Sanamalarda qo'llanilgan raqamlarni ikki xil tasnif qilish mumkin: 1.Birlik sanoq sistemasidagi raqamlar. 2.O'nlik sanoq sistemasidagi raqamlar. Yuqoridagi misolda birlik sanoq sistemasidagi raqamlar – birdan yettigacha bo'lgan raqamlar ketma-ket sanalgan bo'lsa, quyidagi sanamada o'nlik sanoq tizimidagi raqamlardan foydalanilgan:

*O'n, yigirma,
O'ttiz, qirq,
Ellik, oltmish,
Yetmish, sakson,
To'qson, yuz.
Yuzga kirgan
Oppoq qiz!*⁶¹

⁶⁰ Бойчечак. Болалар фольклори. Кўрсатилган манба. – Б. 145.

⁶¹ Бойчечак. Болалар фольклори. Кўрсатилган манба. – Б. 146.

Birlik sanoq tizimidagi raqamlar sanamalarining ta'limiy vazifasi bilan bog'liq. Uch va undan katta yoshdagi bolalarga ohang zamirida birlik sonlarni qo'llab, sanashni o'rgatish alohida o'rin egallaydi:

*Bir bug'doy,
Ikki bug'doy,
Uch bug'doy,
Puch bug'doy⁶².*

Ko'rinib turibdiki, sanamalarda bolalarni tevarak-atrofdagi narsalarga, daraxtlar, o'simliklarga, jonivorlar va hayvonlarga qiziqtirish raqamlar orqali amalga oshgan. Bunda raqamlarga yoki egalik qo'shimchasi, yoki erkalash, kichraytirish qo'shimchalari qo'shib aytilganki, bu bolalarda ham raqamga, ham raqam bilan bog'liq holda berilgan narsalarga muhabbat paydo bo'lishga olib kelgan:

*Birim – bilak,
Ikkim – elak,
Uchim – uchak,
To'rtim – to'shak,
Beshim – beshak,
Oltim – oshiq,
Yettim – yelkang,
Sakkizim – sarmog'ing,
To'qqizim – to'qmog'ing.
O'nim – o'ymog'ing,
O'n birim – o'n bog'im.*

Sanamalarda qo'llanilgan raqamlar bolalarning xotirasini mustahkamlash, raqamlar xususidagi tasavvurlarini rivojlantirish, sanoq sistemasi haqidagi bilimlarini oshirish vazifalarini bajaradi. Bunda "Sakkiz-u sakkiz – o'n olti", yoki "O'n bilan o'n – yigirma", "Ellig-u ellik bo'lar yuz" kabi raqamlar qo'shilmalari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu haqda fikr yuritir ekan tadqiqotchi S.Avezov shunday deydi: "Bunda shunchaki

sonlar bilan tanishtirilayotgani yo'q, balki ularning qo'shilmasi bilan tasavvurlarni boyitish ko'zda tutilib, pirovard oqibatda bolalarda mavhumlikni idrok etish malakalarini shakllantirish niyatida ro'yobga chiqarish zamini hozirlangan"⁶³. Sanamalarda keltirilgan raqamlar "poetik mashq" bo'lib, ular orqali bolalar diqqatni bir joyga jamlashga, xotirani mustahkamlashga, shuningdek, hushyor va sergak bo'lishga yo'naltiriladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida yaratilgan yoshnoma janriga yaqin bo'lgan bir topishmoqda insonning yosh ko'rsatkichlari hayvon ramzidan foydalanilgan holda ifoda etilgan:

*To'rtida tariqday,
O'ttizda ayiqday,
To'qsonda tovuqday.*

(Javobi Inson: bolalik, yigitlik va keksalik davrlari)

Raqamlar xalq qo'shiqlarida ham o'ziga xos o'rin egallagan. To'y olqishlaridan joy olgan quyidagi misolga e'tiborni qaratamiz:

*Keraging sayin qiz bersin,
Uvig'ing sayin ul bersin,
Qirq beshta ul bersin.
Qirq beshning bir beshi
Madrasani tanlasin.
Qirq beshning bir beshi
Qo'liga qalam ushlasin.
Qirq beshning bir beshi
Mototsikl haydasin.
Qirq beshning bir beshi
Volga olib haydasin.
Qirq beshning bir beshi
Traktor minib haydasin.
Qirq beshning bir beshi
Navkar bo'lib ishlasin.
Qirq beshning bir beshi
Galavan bo'lib ishlasin.*

⁶² Бойчечак. Болалар фольклори. Кўрсатилган манба. – Б. 147.

⁶³ Аvezov С. Кўрсатилган манба. – Б. 12.

*Qirq beshning bir beshi
Tuya tortib ishlasin.
Qirq beshning bir beshi
Suruv qo'yni haydasin.
Qirq beshning bir beshi
Podavon bo'lib ishlasin⁶⁴.*

Ko'rinadiki, kuyovga bildirilgan tilaklar, ya'ni farzand tilash, xususan, o'g'il farzandlarining ko'p bo'lish haqidagi duo aytimlarida aynan qirq besh raqami faol qo'llanilgan. Bunda ushbu raqam aniq miqdorni anglatmaydi, albatta. Ammo serfarzand bo'lishga ishoradir. To'y marosimlarida aytiladigan qo'shiqlarda yaxshi niyat va ezgu istaklar bildirilishi tabiiy hol. Ayniqsa, kelinning chiroyi, odobi, xarakteridagi yaxshi fazilatlari kuylanadi. Quyidagi misralarda kelin tomondagilar qizni eng yaxshi fazilatlar va kelajakda qo'lga kiritish mumkin bo'lgan xislatlarini ta'riflar ekanlar, birdan o'nga qadar bo'lgan raqamlar vositasida istaklarini bayon etishgan:

*Bir xotin bo'lganda,
Beklarbegi bizning qiz.
Ikki xotin ichida
Erkatoyi bizning qiz.
Uch xotinning ichida
O'choqlisi bizning qiz.
To'rt xotinning ichida
To'rdagisi bizning qiz.
Besh xotinning ichida
Beshiklisi bizning qiz.
Olti xotin ichida
Og'ochasi bizning qiz.
Yetti xotin ichida
Yelkadoshi bizning qiz.
Sakkiz xotin ichida
Suyuklisi bizning qiz.*

⁶⁴ Ой олдида бир юлдуз. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 144-145.

*To'qqiz xotin ichida
To'qsobasi bizning qiz.
O'n xotinning ichida
O'rinbosar bizning qiz⁶⁵.*

Nikoh to'yi marosimlarining tarkibiy qismi sanalgan "Qiz uzatish" kechasida aytiladigan yor-yorlarga quloq tuting:

*Osmondagi yulduzni
Sakkiz denglar, yor-yor.
Sakkiz qizning sardori
Keldi denglar, yor-yor⁶⁶.*

Chechan ayollar tomonidan kelinning go'zalligi, odobli va aqlli ekanligi alohida ta'kidlanar ekan, u "sakkiz qizning sardori" deya ta'riflanadi. Bunda, albatta, sakkiz raqami an'anaviy tarzda, misralarda ohangdorlikni hosil qilish maqsadida olingan. Ammo "osmondagi sakkiz yulduz" birikmasidagi sakkiz raqami tasodifiy emas. Qadim zamonlardan yetib kelgan afsonaga ko'ra bir orolda nilufar guli o'sib chiqib, asta-sekin bo'y cho'zib, g'uncha tugibdi. Vaqti soati kelib, bu g'uncha ochilibdi va gulbarglar orasidan quyosh, oy va sakkizta yulduz ko'kka ko'tarilib ketibdi. Osmondagi eng yorug' yulduzlarni sakkizta, deb qarash ana shundan qolgan ekan⁶⁷.

Xalq qo'shiqlarida juda ko'p uchraydigan obrazlardan biri g'oz obrazidir. Shunisi e'tiborliki, g'oz obrazi uch qavatli olam tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Chunki g'oz osmonda uchadi, yerda yuradi, suvda suzadi. Yoki qahramonlarning jasurligi, bahodirligi uch xil sifat bilan tilga olinadiki, bu ham uch qavatli olam tushunchasi-la aloqadordir: "o'tda kuymas – ko'k, suvda cho'kmas – yer osti, qilich ursa, chopmas – yer".

Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan hukmlarni raqamlar vositasida ifoda etish xalq maqollarining asosiy

⁶⁵ Ўша манба. – Б. 140-141.

⁶⁶ Ўша манба. – Б. 83.

⁶⁷ Жўраев М. "Сехрли" рақамлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 109.

xususiyatlaridan biridir. “Mingta chiroyli soʻzdan bit-ta xunuk ish yaxshi”, “Bir xotinning hiylasi qirq eshak-ka yuk boʻlar”, “Qingʻir odam bir tomon, qirq odam bir tomon”, “Ming kulishning bir yigʻisi bor”, “Bir koʻngil imorati – ming Makka ziyorati”, “Mingni chala bilgandan, birni toʻla bilgan yaxshi”, “Mingtani tusini bilguncha, bit-tani ismini bil”, “Bir tavakkal buzadi ming qaygʻuning qalʼasin”, “Ming chechanni bir ezma yengar”, “Oʻq birni oʻldirar, soʻz – mingni” singari maqollarda raqamlarning oʻziga xos silsilasini koʻrish bilan birga qarama-qarshi fikrlarni ifoda etishida “bir” va “ming” raqamlaridan foy-dalanilganligi ham eʼtiborni tortadi. Aslida, raqamlarda qarama-qarshilik yoʻq. Ammo xalq maqollari orasida raqamlarga tayanilgan tasvirlarda qarama-qarshi fikrlar ilgari surilgan va bunda raqamlar tazodiy xarakter kasb etgan. Bir-biriga zid tushunchalarni ifoda etishda birik-ma shaklida keltirilgan “bir va yuz”, “bir va ming”, “bir va yuz ming” raqamlariga murojaat qilingan. Bunday oʻrin-larda bir raqami yakka, tanholik, yagonalik va kamlik maʼnolarida; yuz, ming, yuz ming raqamlari esa ancha koʻp, hadsiz, hisobsiz maʼnolarida ishlatilgan.

Inson hayotda yashar ekan, albatta, bir-biri bilan bogʻliq holda hayot kechiradi. Boy boʻlsa ham, kambagʻal boʻlsa ham, xoʻjayin-u xizmatkor boʻlsa ham bir-biriga ehtiyoj sezadi, qaysidir masalada bir-biridan madad soʻraydi. Shuning uchun kambagʻalchilik bilan kun kechiruvchilarga, beva-bechoralarga past nazar bilan qarash, ularni mensimaslik odobdan emasligiga ishora qiluvchi “Ming qoʻylikning ishi bir qoʻylikka tushibdi” maqoli yaratilgan. Maqolda “ming” va “bir” raqamlari bir-biriga qarama-qarshi maʼnoni bildiruvchi shoh va gado, boy va kambagʻal, xoʻjayin va xizmatkor soʻzlari maʼnolarini beradi.

Xalq tabobatida meva va sabzavotlarning foydali xususiyatlariga eʼtibor qaratiladi. Ana shunday meva-lardan biri anor boʻlib, uning shifobaxshlik xususiyati,

oʻnlab kasalliklarga davo boʻlishi Ibn Sino asarlarida ham taʼkidlangan. Anorning aynan shu xususiyatiga ishora qilish orqali “Bir anor ming bemorga davo” shaklidagi xalq maqoli paydo boʻlgan. Guvohi boʻlinganidek, raqam-lar oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiga mansub boʻlgan maqollar tarkibida faol ishtirok etadi. “Yeti oʻlchab, bir kes”, “Ye-timning haqi yetti daryoni quritar” maqollari tarkibida-gi yetti raqami haqida fikr yuritib, folklorshunos M.Joʻra-yev shunday yozadi: “Xoʻsh, nega endi aynan yetti marta ekan, deb oʻylab koʻrganmisiz? Axir sakkiz yoki undan koʻproq marta “oʻlchansa” shoshilmasdan, obdon oʻylab koʻrilsa, maslahatlashilsa, yanayam yaxshi boʻladi-ku! Maʼlum boʻlishicha, tilimizda yetti raqami ishtirok etgan ibora va tushunchalar shunaqangi koʻp ekanki, ularning tarkibidagi raqamni joyidan siljitib boʻlmas ekan. Chun-ki yetti raqami bunday iboralar tarkibiga chuqur singib ketgan, ularni bir-biridan ajratish amri mahol ekan”⁶⁸.

Hayot har doim ham bir tekis kechmaydi, u past-u balandliklar, oʻnqir-choʻnqirlardan iborat. Inson zoti borki, yaxshi yashashga, sermazmun va barakali umr kechirishga harakat qiladi. Bu maqsadlarga erishish uchun albatta, dunyoning moddiy neʼmatlariga ham zarurat seziladi. Moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarni qondirish esa har doim ham oson kechmaydi. Baʼzan imkoni bor narsaga eʼtiborsiz qaralsa, baʼzida bor narsaga erishish imkonsiz boʻlib qoladi. “Tuya bir tanga, qani bir tanga?! Tuya ming tanga, mana ming tanga!” maqoli ehtimol imkoniyati boʻlmaganligidan zarur narsaga erisha olmaslik, imkoniyati va sharoiti yetarli boʻlib turganda esa oʻsha narsaning topilmasligi, topilsa ham juda baland narxda olishga majbur boʻlganlik holatiga ishora boʻlsa, ajabmas.

“Beshning boshi boʻlguncha, oltining oyogʻi boʻl”, “Birdan ikki yaxshi, ikkidani uch yaxshi”, “Yettovdan

⁶⁸ Жўраев М. Кўрсатилган манба. – Б. 3.

birov – shayton”, “Ikki qo‘l qilgan ishni bir qo‘l qilolmas”, “Ikki odam – bir odamning tangrisi”, “Qirq uydan etak to‘lar”, “Oltmishingda olma eksang, yetmishingda yemish yersan”, “Bir xotir, ikki xotir, uchida urib qotir”, “Yeti yashar safardan kelsa, yetmish yashar ko‘rgani kelar”, “Ming ignani yig‘nasang tugma bo‘lmas, ming ammani yig‘nasang ona bo‘lmas”, “Moldan molning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor”, “Qadrdon – qirq yillik, qimmatdon – qirq kunlik”, “Qiz qalini qirq yilda”, “Yomon gap yer tagida uch yil yotar”, “So‘z – bir, sayqal – qirq”, “To‘qson og‘iz so‘zning to‘qsonta tuguni bor”, “O‘ttiz tishdan chiqqan so‘z o‘ttiz uruqqa tarqalar” singari xalq maqollarida raqamlar ma‘noni kuchaytirish, fikrni ixchamlashtirish vazifalarini bajarish bilan birga, kishini hayot haqiqati xususida o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga hamda har bir holatga teran nigoh bilan boqishga undaydi.

Raqamlar xalq og‘zaki ijodining muhim janri bo‘lgan ertaklarning badiiyatini takomillashtiradigan, ularning poetik sistemasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan unsurdir. O‘zbek xalq ertaklarida ishlatilgan raqamlarni taniqli folklorshunos olim M. Jo‘rayev ikki guruhga bo‘ladi va ular o‘rtasidagi muayyan farqlarni ko‘rsatib o‘tadi. Folklor asarlarida informativ-estetik vazifa bajaruvchi “sehrli” va an‘anaviy raqamlar xususiyatlarini qayd etar ekan, olim o‘zbek xalq ertaklaridagi “sehrli” raqamlarni ertaklar qurilishida turg‘un poetik sistema sifatida qarab, ularni “formulalari o‘zgarmas badiiy unsur”⁶⁹ deb ataydi. An‘anaviy raqamlarni esa “mifologik ramzlar bilan emas, badiiy san‘atlar, ijrochilik mahorati bilan bog‘liq”⁷⁰ ekanligiga diqqatni qaratadi.

O‘zbek xalq ertaklarida raqamlar nafaqat ertaklar matnida kelgan, hatto ularning sarlavhasi darajasiga ham ko‘tarilgan. “Badiiy asarning nomi – semiotik kalit. Kalit esa asar mohiyati, borlig‘ini belgilovchi konsepsiyaning

⁶⁹ Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сеҳрли” рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 37.

⁷⁰ Ўша манба. – Б. 38.

aniq, lo‘nda ifodasi”⁷¹. Ushbu fikrlar garchi yozma adabiyotda yaratiladigan asarlarga nisbatan aytilgan bo‘lsa-da, folklor asarlari uchun ham ahamiyatga ega. Ertak nomlariga e‘tibor qilamiz: “Uch og‘a-ini botirlar”, “Uch tulki”, “Uch nasihat”, “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on”, “To‘rt jins do‘st”, “Besh qiz”, “Qirq kuyov”, “Qirq yolg‘on”, “Ikki qarg‘a”, “Ikki o‘rtoq”, “Ikki tabib”, “Echki, buzoq, eshak va qirq bo‘ri”, “Eralixon va uch o‘g‘ri”, “To‘qqiz dangasa”, “Yeti axmoq”, “Yeti dangasa”, “Olti ahmoq va bir to‘qmoq”, “Oltmish og‘iz yolg‘on gap”... Ko‘rinadiki, bunday ertak nomlari raqamlar sitemasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning mohiyatida shu raqam bilan bog‘liq an‘ana, urf-odat yoki raqamning “sehrli” kuchiga ishonish yotadi. Og‘zaki hikoya an‘anasi, xususan ertaklar hikoyasida hikoyachi (ertakchi) ertakning turli xil qismlarida raqamlar, ranglar, vaqt va makon bilan bog‘liq bo‘lgan shakllarga e‘tiborni qaratish orqali ifodani kuchaytirishga harakat qiladi. Ba‘zi ertaklarda raqamlarning o‘ziga xos bir tizimi qo‘llanilganki, ularni o‘qigan yoki eshitgan kitobxon qalbida raqamlar mohiyatiga qiziqish zavqi paydo bo‘lishi tabiiy. Masalan, “Sohibjon va Ahmadjon” ertagida o‘z baxtini izlab yo‘lgan chiqqan Sohibjon qarshisidan chiqqan birinchi yo‘lovchi unga hamrohlikni taklif qilganda: “Ey, mulla aka! Men bir o‘tirsam, uch kecha-yu uch kunduz o‘tirib qolaman. Unda qanday bo‘ladi?”, – deya uning taklifini rad etadi. Ikkinchi yo‘lovchi hamrohlik qilishni taklif etganda: “Aka! Men bir o‘tirsam, yetti kecha-yu yetti kunduz o‘tirib qolaman. Unda nima bo‘ladi?” – deydi va bu yo‘lovchi ham o‘z yo‘lida davom etadi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, ikki ayilish ko‘cha boshidan chiqqan Sohibjon dam olish uchun o‘tirganda, uning yoniga yosh bir yigit kelib, safarda hamrohlik qilishni so‘raydi. Shunda Sohibjon: “Ey, oshna! Men bir o‘tirsam, qirq kecha-yu qirq kunduz o‘tirib qolaman. Unda nima

⁷¹ Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 52.

bo'ladi? Siz yo'ldan qolasiz-da!" – deydi. "Men ham o'tir-sam, sizdan kam o'tirmayman", – degan javobni olgan Sohibjon bu yigitni o'ziga hamroh qilib oladi. Ko'rinib turibdiki, ertakda uch, yetti va qirq raqamlari ketma-ketlikda keltirilgan bo'lib, asar qahramonining harakat bilan bog'liq vaqt formulasini anglatish uchun xizmat qilmoqda. Raqamlarning aynan "uch kecha-yu uch kunduz", "yetti kecha-yu yetti kunduz", "qirq kecha-yu qirq kunduz" shaklida ishlatilishi bejiz emas, albatta. Chunki "muddat" haqida gap ketganda, albatta, "sehrli" qirq raqamiga murojaat qilinadi⁷² (Bu fikrni hech ikkilanmasdan uch va yetti raqamlariga nisbatan ham aytish mumkin.). Aynan "...qirq kecha-yu qirq kunduz o'tirib qolaman", – deganda ham unga hamrohlik qilishni istagan Ahmadjon Sohibjonga omad olib keladi, uni bir necha marotaba o'limdan asrab qoladi. Bunda biz albatta, qirq raqamining xalq tasavvurida omadli raqam sifatida e'tirof etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, ertak qahramoni uchinchi o'rinda kelgan shaxs bilan hamrohlik qildi va niyatiga erishdi. Ertak va rivoyatlarda odamlar va narsalarning soni ko'pincha uchta, deb berilib, eng muhim shaxs sifatida birinchi yoki uchinchi o'rinda turgan kishi e'tirof etiladi. Ammo oxirida kelgan odam asar voqealariga turtki beradigan shaxsdir. Bu uchlik qoidasi bilan bog'liq bo'lib, asarning voqealar tizimini harakatga keltiradi. Ertak qahramoni uchinchi shaxs yordamida, uchta shartni bajargandan so'ng yoki uch marta uringandan keyin muvaffaqiyatga erishadi. Yoki uch aka-uka obrazi ishtirok etadigan xalq ertaklarida ham mushkul vaziyatlar uchinchi qahramon – kenja tomonidan hal etiladi. Mustaqillik yillarida mumtoz adabiyotda yaratilgan asarlar tahliliga yondashuvlar o'zgarganidek, xalq og'zaki ijodi namunalari ham yangicha mezonlar asosida tahlil etilmoqda. Xusu-

⁷² Жўраев М. Кўрсатилган манба. – Б. 139.

san, uch aka-uka obrazlarining falsafiy-filologik talqinlari paydo bo'lmoqda. O'zbek folklorshunosligida ushbu masalaga dastlab J. Eshonqul dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqinini yoritish munosabati bilan e'tibor qaratadi. Olim katta akaning mavjud tajriba timsolida, o'rtancha akaning mavjud imkoniyat timsolida, kenjaning esa orzu-umid timsolida kelishini qayd etadi⁷³. "Kenja botir" ertagidagi uch aka-uka obrazlari orqali ularni tasavvuf falsafasi bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilar ekan, bu fikrlar Sh.Turdimov tomonidan rivojlantiriladi⁷⁴. Sh. Turdimov katta akani – tan, o'rtanchasini jon va kenjani – ruh timsoli sifatida e'tirof etadi, "Kenja shahzodaning yo'li – ilohiyot yo'li. U kamolot sari ruhiy safarga chiqqan shaxs timsoli", – degan xulosaga keladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida keng qo'llanilgan uch yo'l motivining paydo bo'lishini folklorshunos olimlar uch olam tushunchasi bilan bog'laydilar. Folklorshunos olim K. Imomovning fikriga ko'ra, uch olam haqidagi tasavvurlar dualizm va fetishizm bilan chambarchas bog'liqdir⁷⁵. Taniqli olim M.Jo'rayev ham uch yo'l motivini uch olam tushunchasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Fikrimizcha, uch yo'l motivi qadimgi turklarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. Bobolarimizning mifologik e'tiqodlariga ko'ra uch yo'l – uch olamga olib boradi, borsa kelar – Zaminga, borsa xatar – Ko'kka, borsa kelmas – yer osti dunyosiga boradigan yo'l nomidir"⁷⁶. Demak, qadimda

⁷³ Жаббор Эшонкул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б. 75-76.

⁷⁴ Турдимов Ш. "Борса келмас"даги хазина // Тафаккур. 2015, №3. – Б. 94-102.

⁷⁵ Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 20.

⁷⁶ Жўраев М. Эртақлардаги анъанавий уч йўл мотивининг генезиси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983, №3. – Б. 36.

ajdodlarimiz dunyoqarashida olamlar sonini uchta deb tasavvur qilish yoki uch olam borligi haqidagi mifologik qarashlar mavjud bo'lgan. "Darhaqiqat, uchlik ibtidoiy tushunchaga ko'ra, osmon, yer usti, yer osti dunyolarini tasvirlaydi. Osmon ilohlar, yer odamlar, yer osti yovuz ruhlar olamidir"⁷⁷.

Uch raqamining mifologik tasavvurlar bilan bog'liqligini kosmik modelning trixotomik tuzilishi evolutsiyasi misolida B.G.Ogibenin⁷⁸ va N.L.Jukovskaya⁷⁹lar ham isbotlashgan. Ularning fikricha, folklor asarlari, mifologik va marosim matnlaridagi uchlik an'anasining asosi qadimgi mifologiyada vertikal olamning uchga bo'linishi haqidagi tasavvurga bog'lanadi.

Yetti raqamining "sehrli" kuchiga ishongan turkiy xalqlar bu raqam bilan bog'liq qarashlarni, yetti raqami mohiyatiga yashiringan sir-asrorlarni ifoda etishga harakat qilishgan. Jumladan, "Alpomish" dostonida yetti raqami faol qo'llanilgan bo'lib, Hakimbekning yetti yoshda Arslontog' cho'qqisini urib tushirib, Alpomish nomini olganligi turkiy xalqlar orasida bu raqam bilan bog'liq qarashlar mustahkam o'rin egallaganligini dalillaydi: "Shunda Hakimbek yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab, yetti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olamga ketdi. Buni eshitgan dushmanlar: "Bu bola zo'r bo'пти, nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo'lolmaydi, yetti yashar bola shunday ishni qilami?" – deb xafa bo'lib yotdi. Do'stlarning vaqti

⁷⁷ Имомов К. Кўрсатилган манба – Б. 122.

⁷⁸ Огибенин Б.Г. и др. Этимология. 1977. – М., – С. 17.

⁷⁹ Жуковская Н.Л. Формы проявления культа природы в пантоне и ритуалах ламаизма // Религия и мифология народов Восточной и Южной Азии. – М., 1970. – С.113.

xush bo'lib yurdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: "Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi, alplarning boshlig'i Rustami doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tdi", — dedi. Oxiri Alpomishbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tib, alplik otini ko'tarib, yetti yoshida Alpomish ot qo'yildi"⁸⁰. Dostonning bir qancha o'rinlarida voqealar harakati yetti raqami bilan bog'liq ekanligi e'tiborni tortadi. Masalan, Alpomish Qorajon bilan jangga kirar ekan, yetti pirdan madad so'rab, duo qiladi; Qorajonni yenggandan keyin yetti odim yurib yerga tushadi; Toychaxonning yurtiga yetti kun, yetti kecha yo'l yurib yetib boradi; Qorajon yetti kunlik uyquga ketadi; Boysari qalmoqlar qo'lida yetti yil asirlikda qoladi; Alpomish yetti yil zindonda yotadi... Bu singari motivlar dostonida yetti raqami mohiyatiga alohida urg'u berilganligidan dalolatdir.

Yetti raqami mohiyati bilan bog'liq bunday qarashlarni nafaqat o'zbek xalq og'zaki ijodi, balki jahonning turli xalqlari, xususan, tatar folklorida ham ko'rish mumkin. Masalan, "Edigey" dostonida Edigey yetti boshli bir dumli ilonga duch keladi. Ilonning yetti boshi iniga sig'maydi, yetti tarafga yoyiladi. Edigey va uning do'stlari ilonni o'ldiradilar. Yo'lda ketayotib, bir boshli, yetti dumli ilonga duch keladilar. Ammo har qancha harakat qilsalar ham bu ilonni o'ldira olmaydilar. Chunki bir boshning orqasidan yetti dum ham g'orga kirib ketadi. Edigey bu holatdan o'rnak olish lozimligini, yetti boshli, bir dumli ilonni oson o'ldirganlari holda, bir boshli yetti dumli ilonni mahv eta olmaganliklari sababini aytadi. Shundan keyin yigitlar Edigeyni o'zlariga boshliq qilib saylaydilar. Qrim tatar xalq og'zaki ijodida "yetti boshli bir dumli ilon", "yetti dumli bir boshli ilon", "yetti sultonning boshini keltirmoq", "yetti kecha-yu yetti kunduz kurashmoq", "yetti yillik muhlat", "hadya qilin-

⁸⁰ Алпомиш. – Тошкент: Шарк, 1998. – Б. 17-18.

gan kiyimlarni yetti kun davomida kiyish”, “yetti yil bir joyda yashash” singari motivlar ham uchraydi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, turkiy xalqlar og’zaki ijodida uch, yetti, to’qqiz raqamlari bilan bir qatorda qirq raqami bilan bog’liq ba’zi qarashlar ham yetakchilik qilib, dastlab mifologik asarlarda namoyon bo’ladi. Masalan, Sibir va Oltoy mifologiyasida O’qxonning bolalari Temir tog’iga ketayotib, yo’lda Katayxonning qirq shoxli buqasini o’ldiradilar. Janubiy Sibir o’lkalarida yashovchi turkiy xalqlar orasidagi bir mifga ko’ra Kubako ismli bir qiz va uning akasi boshidan kechirgan sarguzashtlarida qirq burchakli uy haqida so’z boradi. “Kitobi Dada Qo’rqut” qissalarida ham qirq raqamiga alohida e’tibor berilganligi ko’zga tashlanadi. Masalan, Bog’achxoning yarasi qirq kunda bitadi, Eylik Ko’ja o’g’li qirqta chopon kiyadi, jangda g’alaba qo’lga kiritilsa, qirqta qul ozod etiladi, qirq joyda qirqta chodir tikiladi, qirq kecha-yu qirq kunduz to’y o’tkaziladi. Turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan yana bir mifologik qarashga ko’ra, qirq avliyo yoki abadiy yashaydigan qirq eran mavjud bo’lib, ular himoya vazifasini bajaradi. Aynan qirq avliyo yoki qirq eranning himoya vazifasi islomgacha bo’lgan davrdagi e’tiqodlar bilan bog’liq bo’lib, keyinchalik islomiy qarashlarga ham o’z ta’sirini ko’rsatgan. Shuningdek, turkiy dostonlarda ham bu raqamning keng qo’llanilganligini ko’rishimiz mumkin. Masalan, “O’g’uzxon” dostonida O’g’uzxon qirq kunda voyaga yetib, yuradi (“Qiriq kundan so’ng bedukladi”⁸¹); ziyofat dasturxoni uchun qirqta stol va qirqta kursi yasattiradi (“Qiriq shira, qiriq bendang’ chapturdi”⁸²); qirq kecha-yu qirq kunduz ziyo-fat beriladi. Keltirilgan misollardan ayonlashadiki, qirq raqami turkiy xalqlar og’zaki ijodida bir motiv sifatida namoyon bo’ladi.

Bundan tashqari, xalq og’zaki ijodining ba’zi janrlarida xalqlarning kelib chiqishi va nomlanishida ham

raqamlar bilan bog’liq jihatlar ko’zga tashlanadi. Xususan, qirg’izlarning xalq sifatida shakllanishi qirq qiz haqidagi afsona bilan bog’liq. Afsonaga ko’ra, Sakinxon degan qozoq hukmdorining qizi qirqta kanizagi bilan daryo bo’yiga keladi. Qizlar barmoqlarini daryoga botirishib, homilador bo’lib qoladi. Xalq orasida turli mish-mishlar bo’lishidan cho’chigan hukmdor ularni g’orga yashiradi. Qirq qizlar shu yerda ko’payib, qirg’iz qabilasini hosil qiladi. Demak, uch, yetti, qirq singari raqamlarga “sehrli” raqam sifatida qarash yoki ularga magik tus berish ajdodlarimizning mifologik qarashlari bilan bog’liqdir.

Kuzatishlardan shu narsa aniq bo’ladiki, xalq og’zaki ijodida raqam ramzlari va ular mohiyatidan keng foydalanilgan, shuning uchun ham ma’naviy va nomoddiy madaniyat, e’tiqod, urf-odat va marosimlarda raqamlar yorqin ko’zga tashlanadi. Xususan, o’zbek xalq og’zaki ijodida ikki, uch, to’rt, yetti, to’qqiz, qirq singari raqamlar muhim badiiy vazifani bajaradi. Ushbu raqamlar ko’pincha ertak qahramonlari soni (“uch aka-uka”, “yetti qaroqchi”, “qirq vazir”, “qirq qaroqchi”, “qirq qiz”, “qirq yigit”), predmetlar miqdorini aniqlashda (“uch o’q”, “qirq sandiq”, “qirq zina”, “qirq kalit”, “qirq tanga”, “qirq tilla”), asarda ishtirok etayotgan obrazlarning tashqi ko’rinishi (“uch kokilli yigit”, “uch boshli ilon”), o’lchamni (“yetti qavat parda”, “qirq arqon”), qahramonlarning harakatlari tavsiflashda (“qirq kunlik safarga chiqish”, “qirq kecha-yu qirq kunduz yo’l yurish”), vaqt bilan bog’liq sifatlarni ifoda etishda (“yetti kecha-yu yetti kunduz”, “qirq kun”, “qirq kecha”, “qirq yil”), olamning vertikal (“uch olam”: “borsa – kelar, borsa – xatar, borsa – kelmas”) va gorizontali (“to’rt tomon”, “to’rt ko’cha”, “to’rt taraf”) tuzilishini tasvir etishda faol qo’llaniladi.

Raqam ertak va dostonlar sujetini qurishda zaruriy komponent hisoblanadi, qahramon oldiga qo’yilgan uch shart, yo’lda uchragan uch to’siq va boshqalar ertak hamda doston sujetining asosiy shakllantiruvchi

⁸¹ Ўғузнама. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 5.

⁸² Ko’rsatilgan manba – Б. 7.

unsurlari hisoblanadi. Uch raqami, birinchidan, dunyoning vertikal tuzilishini belgilasa (yer osti, yer yuzi, ko'k (falak); ikkinchidan, mifologik vaqtni ifoda etadi ("uch kecha-yu uch kunduz uxlash"); uchinchidan, mukammallikni anglatadi (boshi, o'rtasi, oxiri – biror ish-harakatni uch marta takrorlash, "uch rangdagi ipni o'rash"). Yetti raqamining muqaddas ma'nolari, birinchidan, kosmologik tushunchalar asosida olamning vertikal tuzilishini tavsiflashda ("yetti qavat yer", "yetti osmon"); ikkinchidan, olamning gorizontallikni belgilashda ("yetti yo'l", "yetti tog"); uchinchidan, avlodlar aloqasini anglatishda ("yetti og'a-ini", "yetti avlod", "yetti pusht"); to'rtinchidan, qudratli kuchni, yaxlitlikni bildirishda ("yetti marta takrorlash") ko'zga tashlanadi. Ko'rinib turibdiki, raqamlar xalq qarashlarida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, uning badiiy tafakkurida alohida ahamiyat kasb etgan.

Toshbitiklar va qadimgi yozma obidalarda raqamlar bilan bog'liq qarashlarning ildizlari

O'zbek milliy madaniyatining tarixiy ildizlari juda chuqur bo'lib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy xazinadan bahramand bo'lish ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishda va insonning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari orqali biz qadimgi turk hoqonligi tarixi, undagi ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy hayot va vatan uchun kurash tasvirlaridan xabardor bo'lishimiz mumkin. Yodgorliklarda xalq yoki elat nomi bilan bog'liq raqamlarni ("uch qarluq", "uch bayroqli turk xalqi", "uch iduq tatar", "to'qquz o'g'iz", "to'qquz tatar", "o'n uyg'ur", "to'qquz arsan qabilasi", "uch quriqan", "o'ttiz tatar", "o'ttiz to'qquz o'g'uz"), avlodlarga ishora qiluvchi raqamlarni ("uch avlod", "uch aka", "uch o'g'lon", "sakkiz o'g'il") uchratamiz. Ba'zi bir o'rinlarda raqamlar

ma'noni kuchaytirish, ifoda etilayotgan fikrga e'tiborni tortish maqsadida qo'llanilganligini ham qayd etish lozim. Masalan, Irq bitigida tabulg'a⁸³larning ko'pligi qo'shin uchun yaxshi ekanligi fol qilinadi: "Bir tabulg'a yuz bo'ldi, Yuz tabulg'a ming bo'ldi, Ming tabulg'a tuman bo'ldi, deyishadi. Bilib qo'ying: foydasi bor, bu – yaxshi"⁸⁴. Bunda raqamlarni ketma-ket keltirish orqali ma'noni kuchaytirishga erishilgan.

To'rt raqamidagi asosiy mohiyat uning doimiylikning anglatishidir. Ko'pgina tadqiqotchilar, jumladan, V.V.Ivanov, V.N.Toporov, N.L.Jukovskaya, A.T.Xrolenko singari olimlar dunyo kosmik modelining gorizontallikni tuzilishini to'rt raqami bilan bog'lashadi. Kosmosning to'rt o'lchovli bo'linishi qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar mifologik asarlarda o'z aksini topishi bilan birga, hatto bino qurilishlarida ham to'rt raqamiga e'tibor qaratiladi. Juda qadimiy an'analarda ham bu raqam to'rt tomonni, to'rt burchakni yoki butun dunyoni anglatib kelgan. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining juda ko'plab o'rinlarida to'rt raqami dunyo tomonlarini anglatish uchun qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Kul Tigin bitigida "To'rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib, to'rt tarafdagi xalqni butunlay olganlar, butunlay tobe qilganlar"⁸⁵, – deya e'tirof etilsa, Irq bitigida "To'rt tomondan Ezgu va dongdorlari yig'ilib, suyunishadi va quvonishadi, deydilar. Bilib qo'ying: bu – yaxshi", – deb ta'bir qilinadi⁸⁶. Ba'zan "to'rt tomon" o'rnida "to'rt jihat" birikmasi ham qo'llaniladiki, bu ham aynan dunyoning to'rt tomonini anglatadi: "To'rt jihatdagi xalqni butunlay el qildim, bir-biriga do'st qil-

⁸³ Qadimgi qurol turi. Boburning yozishicha, tabulg'a asli qizil po'stloqli daraxt bo'lib, Farg'ona tog'laridan boshqa yerda uchramaydi. Mahalliy aholi undan o'q va tayoq yasashgan.

⁸⁴ Ирқ битиги / Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 52.

⁸⁵ Кўрсатилган манба. – Б. 24.

⁸⁶ Кўрсатилган манба. – Б. 52.

dim, butunlay menga qaradi”⁸⁷ yoki Ungin bitigida “Ota-bobomiz Yami xoqon to’rt jihatdagi xalqni ushlab turgan, birlashtirgan, tebratib, tinchitib turgan”⁸⁸, – deyiladi. Eltarish hoqon “Otam Hoqon yetti odam bilan birga bosh ko’tardi. Eltarish hoqon bosh ko’tardi deb shahardagilar toqqa chiqdi, tog’dagilar shaharga tushdi, to’planib, yetmish kishi bo’ldilar... keyin yetti yuz kishiga aylandilar” – deydi. Ushbu matnda takrorlangan yetti, yetmish va yetti yuz raqamlari aniq miqdorni anglatmaydi, balki qadimda birlik sanoq sistemasidan yetti raqami, o’nlik sanoq sistemasidan yetmish raqami, yuzlik sanoq sistemasidan yetti yuz raqami boshqa raqamlarga nisbatan faol iste’molda bo’lganligini dalillaydi.

Raqamlar nafaqat xalqning madaniy va maishiy hayotida, balki turkiy davlatlarning siyosiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Harbiy qo’shinlarning ma’lum bir umumlashmasida raqamlarga tayanilganligini ko’rish mumkin. Masalan, IV-V asrlarda yuzaga kelgan juanlarda ham harbiy, ham ma’muriy birlik bo’luk (polk) hisoblanishi uchun uning tarkibi ming kishidan iborat bo’lishi lozim sanalgan. Bo’luk xon tomonidan tayinlanadigan sarkardaga buysungan. Bo’lukda har yuz kishi hisobiga bittadan, jami o’nta tug’ bo’lib, har bir tug’ning o’z boshlig’i bo’lgan⁸⁹. Demak, juanlarda bo’luklar ming kishidan iborat bo’lgan. Uyg’ur hoqoni Moyun chur sharafiga qo’yilgan bitigtoshda ham Moyun chur mingboshi ekanligi ta’kidlanadi.

Turk hoqonligi davrida yetti yuz kishilik lashkar boshlig’iga “shad” unvoni berilgan. Masalan, Tunyuquq bitiktoshida: “Ichkari-yu tashqarida qolgani to’planib yetti yuzta bo’ldi, ikki qismi otliq, bir qismi yayov edi.

⁸⁷ Kўrsatilgan манба. – Б. 27.

⁸⁸ Kўрсатилган манба. – Б. 34.

⁸⁹ Ma’lumot uchun qarang: Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 15.

Yetti yuz kishini uyushtiradigan boshlig’i shad edi”⁹⁰, – deyilsa, “Bilga hoqon” bitigida: “Men o’n to’qqiz yil shad bo’lib turdim, o’n to’qqiz yil xoqon bo’lib turdim”⁹¹, – deyiladi.

Yetti yuz kishilik bunday jamoalar zimmasiga katta mas’uliyat yuklatilganligi, xalqning or-nomusi va erki uchun kurashga chog’langanligini “Kul tigin” bitiktoshidagi quyidagi jumlar isbotlaydi: “...Hammasi yig’ilib, yetti yuz er bo’libdi, yetti yuz er bo’lib, davlatini yo’qotgan xalqni, cho’riga aylangan, qulga aylangan xalqni, turk hukmronligini boy bergan xalqni ota-bobolarim qonun-qoidalari bo’yicha boshqaribdi, tashkil qilibdi”⁹².

Yodnomalarda shomonlik oqimi ta’siri tufayli qushlar va hayvonlar obrazini inson singari mavjudot sifatida tasavvur qilinishi muhim rol o’ynagan. Irq bitigida bir qancha qushlar va hayvonlar, jumladan, ot, ho’kiz, kiyik, tuya, to’ng’iz, bo’ri, ilon, burgut, lochin, qarg’a singari hayvon va parranda nomlari tilga olinib, ularning ba’zilari muqaddaslashtirilganligini ko’rishimiz mumkin. Begra yodnomasida bo’ri, yo’lbars va kiyik singari hayvonlarga munosabat aks etganligi, ayniqsa, bo’rilar soni yettita ekanligi e’tiborni tortadi: “Yetti bo’rini o’ldirdim, Yo’lbars va kiyiklarni o’ldirmadim”⁹³. Yoki “Men oltin boshli ilonman, oltin qorin-qursog’imni qilich bilan chopib, mening tanamni yo’l chetiga, boshimni uyim yo’liga qo’yishdi, – deyishadi. Bilib qo’ying, bu – yomon”⁹⁴. Irq bitigida keltirilgan ushbu parcha xalq orasida mavjud bo’lgan bir rivoyatni yodga tushiradi. Rivoyatga ko’ra, agar uyda ilon paydo bo’lsa, uch kungacha o’ldirish kerak emas. Agar ilon uch kun ichida o’z-o’zidan ketsa,

⁹⁰ Тўнюқуқ битиги / Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.18.

⁹¹ Kўрсатилган манба. – Б. 33.

⁹² Kўрсатилган манба. – Б. 26.

⁹³ Kўрсатилган манба. – Б. 42.

⁹⁴ Kўрсатилган манба. – Б. 48.

uy egasi tezda boyib ketadi. Uch kun ichida ketmagan ilonni to'rtinchi kun o'ldirish mumkin. Ammo bitikda ma'lum bo'lishicha, ilon uch kun ichida o'ldirilgan va shuning uchun ham u yomonlik belgisi sifatida talqin qilinmoqda.

Turklar Tangrini yakka-yu yagonalagiga ishonishgan va uning makonini ko'kda, deb faraz qilishgan. Shuning uchun ham "Tangri" so'zi ikki xil ma'noda – ham ko'k, ham Yaratuvchi ma'nosida qo'llanilgan. Yaratuvchining Ko'k-Tangri nomi bilan eslanishi ham shu vajdandir. "O'rxun yozuvlaridagi "Uza Ko'k tangri" (Ustda moviy ko'k) jumlasida takribida "tangri" kalimasi yana ko'k (osmon) ma'nosida kelmoqda. Allohni makondan behojat ekanini bildirgan dinlarning ham "samoviy" deyilishi eski bashariy tushunchada Alloh bilan ko'k yoki yuksaklik o'rtasidagi munosabat borligini ko'rsatadi"⁹⁵.

Qadimgi xalqlar e'tiqodi va dunyoqarashiga e'tibor beradigan bo'lsak, boshqa millatlardan farqli o'laroq turkiylar bir Tangriga sig'inishgan va Tangrining makonini ko'k, deb bilishgan. Turkiyalik olim Usmon Turar qadimgi turkiy xalqlar mafkurasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida "Xunlar davrida "Tangri" kalimasi ham osmonni, ham uluhiyyatni (tangrilik vasfini) bildirgan. Shu davrning hukmdorlariga berilgan "Tangri kuni" unvoni ham turklarning ilohiy hokimiyat tushunchasi ibtidosini ko'k (osmon) bilan aloqasini va Allohga bo'lgan ishonchning takomilini ko'rsatadi. Dastlab qadimgi turkiy urug'lar orasida ko'p xudolilik mavjud bo'lib, bu keyinchalik buryatlarga ham o'tgan. Buryatlarda dunyoni boshqaradigan to'qson to'qqiz tangriga sig'inish, har bir qabilaning o'z tangrisi bor, degan tushuncha qadimgi turkiy urug'lardagi ko'p xudolilik an'anasidan kelib chiqqan edi. Ammo keyinchalik, xususan, ko'k-turklar davrida "Tangri birligi" ishonchi maydonga kelgan. Chunonchi, o'rxun yozuvlari yer, ko'k

⁹⁵ Усмон Турон. Туркий халклар мафкуриси. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б. 49

va butun maxluqlar yaratuvchisi, insonlarning yaxshi va yomon taqdirlarini tayin etuvchi yagona "tangri" to'g'risidagi fikr mavjudligini ko'rsatmoqda"⁹⁶, – degan qarashni ilgari suradi. Tangrining inson tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday harakatni bilib turishga qodirligi, insondagi yuksalish va inqiroz uning xatti-harakatlariga asosan ilohiy himoya yoki jazoning natijasi ekanligiga turkiy xalqlar qattiq ishonishgan. Shuning uchun ham ba'zi bir ofatlar Tangrining g'azabi sifatida qabul qilingan. Masalan, Tardu hoqon safar paytida askarlar va hayvonlar orasida tarqalgan kasalliklarni Tangrining g'azabi, deb bilgan va bundan qattiq qo'rqqan. Boshqa bir xon esa o'zining chinlardan yengilishini ilohiy taqdirga bog'laydi.

Tarixchi Zeofilaktos turklar tomonidan to'rt unsur – tuproq, suv, olov va havo muqaddas sanalganligini, yer va ko'kning xoliqi bo'lgan yagona Tangriga topinishganini hamda unga ot, sigir va qo'y qurbon qilishganini, kelajakdan xabar beruvchi kohin(qom) lari borligini ta'kidlaydi. X asrning birinchi yarmida o'g'uzlarni ziyorat qilgan xalifalik elchisi Ibn Fodlan: "Turklardan birining boshiga biror mushkulot tushsa, u boshini yuqori ko'tarib "Tangri bir" deya duo etadi" – deya shomoniy turklarining Allohga bo'lgan inonchi haqida go'zal bir ma'lumot beradi.

Tangrining turklarni ko'rishi, turklarning o'zlarini boshqa millatlardan ustun qo'yishlari hamda hoqonlar hokimiyatni Tangridan olishiga ishonish turklarda millatparvarlik va jahon nizomi shuurini vujudga keltirgan. Chunonchi, Bartold ta'kidlaganidek, milliy vijdonning bu darajada yuksalishi dunyo tarixida nodir va mustasno bir hodisadir. Shu imtiyoz va ishonch tufayli ham turklar ba'zan Allohga "Turk Tangrisi" nomini berishgan. Bu holga XI-XII asrlarda ham duch kelinadi. "Ulug' Tangri" ta'biri esa islom davrida paydo bo'lgan. Mazkur yuk-

⁹⁶ O'sha joyda.

sak Tangri tushunchasi turk shomoniyligining qo'shni qavmlar dinlari va politeizm ta'siri ostida yo'q bo'lganini ko'rsatadi. Nazarda tutilayotgan Tangri bilan islomdagi Alloh o'rtasidagi farq shundan iboratki, bunda turklar boshqa millatlardan ustun tutiladi va Tangrining himoyasi faqat turklar uchundek ko'rsatiladi. Ammo islomiy qarashlarda Allohning birligi, yakka-yu yagonaligi qadimgi turklarning Tangri birligi va yagonaligi xususidagi qarashlari bilan uyg'undir.

Yodnomalarda sakkiz oyoqli hayvon to'g'risida ham so'z borgan. Masalan, Begradan topilgan yodnomada "Sakkiz oyoqli molim bor edi"⁹⁷ –, deyilsa Elegeshdan topilgan Yenesey bitigida "To'rt oyoqli yilqim, sakkiz oyoqli molim bor edi"⁹⁸ – degan jumla keltirilgan. Sakkiz oyoqli mol tushunchasini H.Allamberganov o'z dissertatsiyasida P.M.Melioranskiy va A.Vamberi fikrlariga tayangan holda qurbonlik qilishga mo'ljallangan g'ayritabiiy hayvon sifatida talqin etgan hamda "Olti yoki yetti, sakkiz oyoqli chorva turkiy xalqlar eposlarida keng tarqalgan", – degan xulosaga keladi⁹⁹.

Zardushtiylik ta'limoti yaratilgan paytda diniy emas, balki axloqiy qarashlarning majmuyi sifatida xalq orasiga kirib borganligi avestologiyada qayta-qayta ta'kidlangan. Zardusht yakka xudolilik va dualistik qarashlarning o'ziga xos birikuvini yaratib, dinda o'zgacha tizimni barpo qildi. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurashdan iborat edi. Otashparastlar yaxshi yoki yomon fikrlari, so'zlari va amallarida ana shu haqiqat va yolg'onni namoyon

qiladilar¹⁰⁰. "Avesto"dagi ijtimoiy adolatga yo'g'rilgan, nihoyatda insonparvar qarashlar nafaqat inson, balki butun borliq, tuproq, havo, suv, koinot, yulduzlar, hayvonlar, hasharotlar, parranda-yu darrandalar yaxlit olamining o'zaro munosabatlari orqali inson ma'naviy-axloqiy me'yorlarini ilk bor ishlab chiqdi. Inson faoliyati, xatti-harakatlari va munosabatlarining qonuniyatlarini dastlabki ko'rinishlarda yuzaga keltirdi. Bu qarashlarni ilgari surishda raqamlar bilan bog'liqlik ham ko'zga tashlanadi, masalan, ezgulik va yozuvlik o'rtasidagi kurash asosida ikkilik yotadi, bir-biriga qarama-qarshi qarashlarni ilgari surgan Xurmuzd va Axriman o'rtasidagi kurash ikkilikda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, "Avesto"da uchlikka qat'iy amal qilinadi. Uning bosh shiori bo'lgan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal Zardusht tomonidan shunday olqishlanadi: "...ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman... Men barcha yomon fikr, yomon so'z va yomon amaldan yuz buraman"¹⁰¹. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal – zardushtiylik axloqining asosiy uchligi. Mazdaparast butun hayoti davomida ushbu uchlikni o'zida mujassam etmog'i kerak. Shuning uchun ham "Avesto"ning juda ko'p o'rinlarida, xususan, "Yashtlar" qismidan joy olgan "Axura Mazda qasidasi"da bu uchlikka bo'lgan e'tiqod yaqqol ko'zga tashlanadi: "Madh etaman ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal ila ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalni. Jami ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga bag'ishlanaman, jumla yovuz fikrat, yovuz kalom va yovuz amallardan yuz buraman"¹⁰². Har bir otashparast umri davomida ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlarga intilib yashaydi va bu bilan o'zini jannatga o'tishga tayyorlab boradiki, u ham uch bosqichdan iborat: birinchi bosqich – humata, ikkinchisi – xuxta,

⁹⁷ Бегра ёдномаси / Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 42.

⁹⁸ Кўрсатилган манба. – Б. 41.

⁹⁹ Алламберганов Ҳ.К. Қадимги туркий адабиётда ғайритабиий тимсоллар тараққиёти. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 21.

¹⁰⁰ Бу ҳақда қаранг: Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўланма. – Тошкент: Сано-стандарт, 2017. – Б. 23.

¹⁰¹ Авесто. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 34.

¹⁰² Кўрсатилган манба. – Б. 166.

uchinchisi – hvatsta. O'limdan so'ng marhum ruhi ustidan o'tkaziluvchi hisob-kitob jarayonida Haqiqat ilohi Rashn ularni tarozuda o'lchab ko'radi. Taroziy bir pallasida ezgu fikr, so'z va amallar, boshqasiga esa yovuz fikr, yovuz so'z va yovuz amallar qo'yiladi. Agar ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallar salmog'i yovuz fikrat, so'z va amallar salmog'idan ko'plik qilsa, marhum ruhi yuqoriga – jannatga, Axura Mazdaning yorug' maskaniga parvoz qiladi; agar teskarisi bo'lsa, Anhra Manu va devlar jamiyatining mashaqqatli domiga g'arq bo'ladi. Zardushtiylar o'limdan keyingi uch kun davomida marhumning ruhi shu dunyoda kezib yurishiga ishonishgan¹⁰³. Olov yoqish uchun asosan, uch unsurdan – quruq va toza o'tindan, quruq barg yoki o'tlardan, oz miqdordagi hayvon yog'idan foydalanishgan, shu yo'l bilan, ya'ni o'simlik olamidagi ikkita va hayvonot olamidagi bitta unurning kuchi bilan olov ham suv singari kuchga ega bo'ldi, deb qaralgan. Yana shunisi e'tiborliki, olov bir kunda uch mahal – tongda, tushda va kechki namoz vaqtlarida yoqilgan¹⁰⁴.

Buyuk din arboblardan biri bo'lgan Zavt "Avesto"-ning butun mohiyatini tashkil etgan beshta xususiyatni tilga olib o'tadi: "Besh narsaga bog'langanman. Besh narsadan chekinganman. Ezgu fikrga bog'langanman. Yovuz fikrdan chekinganman. Ezgu kalomga bog'langanman. Yovuz kalomdan chekinganman. Ezgu amalga bog'langanman. Yovuz fikrdan chekinganman. Bo'yinsunguvchiga bog'langanman. Bo'yin toblaguvchidan chekinganman. Ashah – Haqiqatga bog'langanman. Durujdan chekinganman. Ikki miynuning eng so'nggi kurashi bosh ko'taradigan qiyomat kuniga qadar shundayman"¹⁰⁵. Demak, "Zavt timsolida komil insonga xos alomatlarni, yer yuziga faqat shodmonlik va ezgulik

¹⁰³ Рахимов Р. Коран и розовое пламя (Размышления о таджикской культуре). – Санкт-Петербург, 2007. – С. 207.

¹⁰⁴ Қаранг: Ўша манба. – С. 207.

¹⁰⁵ Авесто. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 54.

olib keladigan zotni ko'ramiz. Zavt bunday maqsadlar-ni amalga oshirishda mazdaparastlikka tayanadi va uni asosiy qurol qilib oladi", – deydi adabiyotshunos olim N. Rahmonov¹⁰⁶. Bizningcha, Zavt bu ezgu maqsadlarni amalga oshirishda mazdaparastlikdagi buyuk beshlikka tayanadi. Chunki mazdaparastlikda besh raqamiga alohida e'tibor berilganligi bois bu raqam bilan bog'liq holatlar ularning muqaddas odatlarida ham aks etgan. Misol tariqasida "Fravarahnihi..." deb boshlanuvchi iqror duosining o'qilish jarayoniga e'tibor qaratsak. Bu iqror "Avesto"ning barcha bo'limlarida o'rni-o'rni bilan takrorlanadi. Zardushtiylar bir kecha-kunduzda bir necha bor belbog' (kamar) bog'laganlar va har bir belbog' bog'langanda ushbu iqror duosini o'qiganlar. Belbog' (kamar) bog'lash zardushtiylarning muqaddas odatlaridan bo'lib, bu odat yetti yoshdan to o'n besh yoshgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan. Har bir zardushtiy o'n besh yoshga to'lgunga qadar yoki o'n besh yoshga to'lgach, balog'atga yetganligi va mazdaparastlar safiga qo'shilganligining alomati sifatida sudra kiyib, kamarband bog'lagan. Kamarband bog'lash har bir zardushtiy hayotidagi muhim voqea bo'lganligi sababli maxsus marosim sifatida o'tkazilgan. "Yangidan tug'ilish", "yangidan yaralish" yoxud "yangidan tug'ilmoq" ma'nolarini anglatuvchi kamar bog'lash marosimi zardushtiyning ma'naviy, diniy jihatdan qayta tug'ilishi hisoblangan. Shunisi e'tiborliki, kamarbandning to'qilishi, uning yosh mazdaparast beliga bog'lanish jarayonlari ham raqamlar bilan uzviy bog'liq. Belbog' yoki diniy kamarband oq qo'yni yetmish ikki tola yungidan mo'bad ayol (din peshvosi sanalgan ayol) tomonidan to'qilgan. O'n ikkita toladan iborat bo'lgan jami yetmish ikki tolali kamarbandning ramziy ma'nolari quyidagicha: ya'ni yetmish ikki tola "Avesto"ning muhim qismi bo'lgan yetmish ikkita gotni anglatgan, har biri o'n ikki toladan iborat bo'lgan olti rishta esa o'n

¹⁰⁶ Раҳмонов Н. Кўрсатилган манба. – Б. 31.

ikki oy davomida mazdaparastlar tomonidan nishonlangan oltita diniy marosimga ishora bo'lgan. Bu oltilik rishta uch marta aylantirib bog'langan, uchlik ham bu dinning bunyod va asosi bo'lgan ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga ishora qilgan. Kamarband bog'langanda to'rt tugun qilingan: rishta kamar atrofidan ikkinchi marta aylantirilganda oldindan ikki tugun qilingan, uchinchi marta aylantirilganda esa orqadan ikki tugun qilingan. Bu to'rt tugun "Bundahishn"da quyidagicha sharhlangan: birinchi tugun yakka-yu yagona Yaratguvchining borligiga ishora, ikkinchi tugun mazdaparastlik dinining barhaq va ahuraviy ekaniga ishora, uchinchi tugun Zardushtning payg'ambarligiga ishora bo'lsa, to'rtinchi tugun ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga ishonch belgisidir. Demak mazdaparastlarning ushbu marosimida qo'llanilgan raqamlar o'ziga xos mohiyatga ega bo'lib, bunga raqamlarga bo'lgan e'tiqodning bir namunasi sifatida qarash mumkin. Chunki har bir jamiyat o'zining madaniy tarixida qadriyatlarini turli so'zlar, ishoralar va tushunchalarga bog'lab, ularning ramziy xususiyatlarini ochib beradi. Bizningcha, zardushtiylarda o'z qadriyatlarini namoyon qilishda raqam ramzlari juda o'ng'ay kelgan. Shuningdek, ularning e'tiqodlari bo'yicha sudra kiymagan va kamarband bog'lamagan o'n besh yoshdan oshgan mazdaparastning har bir bosgan qadami buyuk gunoh sanalganligi uchun ham har bir zardushtiyning egnida sudra, belida belbog' bo'lishi shart bo'lgan. Qarashlarga ko'ra, o'n besh yoshdan so'ng mazdaparastlarning maxsus belbog'ini bog'lab, sudra libosini kiymagan holatida uch odim tashlagan odam saravushu-charana qamchini bilan o'ttiz marta savalanadi. Bu o'rinda aynan "uch odim" tushunchasini turkiy xalqlar og'zaki ijodida keng qo'llanilgan uchlik an'anasini bilan bog'liq deyish mumkin. To'rtinchi odimi quyida aytilganidek, devlar izmida bo'ladi: "Shunda nayrangboz dev duruj javob berdi: – Ey porso! Ey, qudratli Surush! Mening to'rtinchi narim – xoh er, xoh ayol bo'lsin – o'n

besh yoshdan so'ng belbog' bog'lamagan va sudra kiymagan kimsadir. To'rtinchi odimidan so'ng biz – devlar uning til va miyasini chalg'itib tashlaymiz, undan so'ng u butun qudrat bilan tashlagan odimi tufayli Sipandmiynu olamini vayron qilmoqqa boshlaydi; jodugarlar va gumrohlar kabi tiriklikni barbod etadi"¹⁰⁷.

Yana shunisi e'tiborliki, kamarband bir kechakunduzda besh holatda yechilib, qayta bog'langan: uyqudan turganda, qazoyi hojatdan keyin, ibodatdan avval, issiq suvda tana yuvilgach va ovqatlanishdan avval¹⁰⁸. Har bir yechilib, qayta bog'lanayotganda bel bog'lamoq duosini zikr qilib, bu duolarida Yaratguvchini madh etadilar, Axrimanga nafrat o'qiydilar. Avestoshunos Mehrdod Bahor kamar bog'lamoq haqida gapirib, zardushtiylarning fikricha, kamar inson tanasini ikkiga ajratib turuvchi devor ekanligini, tananing yuqori qismida yaxshi amallar vujudga kelishi, pastki qismida esa Axriman yomon amallarni ro'yobga chiqarishi mumkin, deydi. Demak, bunda ham "Avesto"ning bosh g'oyalaridan biri bo'lgan ezgulik va yozuvlik o'rtasidagi kurash timsolini ko'rish mumkin.

Olamning yaratilishi, dunyoning paydo bo'lishi, undagi mavjudotlarning yuzaga kelish doimo insoniyatni qizitirib kelgan. Har bir diniy oqim vakillari olamning yaratilishini o'z ilohlari nomi bilan bog'lashgan va o'zlari sig'inadigan xudo(lar) qudratini ko'z-ko'z qilishga harakat qilishgan. Mazdaparastlar e'tiqodiga ko'ra, olam, butun koinot Ahura Mazda tomonidan yaratilgan. Ahura Mazda olamni olti kunda yaratgan, degan qarashni ilgari surgan otashparastlar yilning muayyan bir vaqtida oltita xilqatning yaratilish bayramlarini nishonlaydilar. Bu bayramlar "gahinbar" yoki "gahanbor" deb yuritilgan. Bular: birinchisi – osmonning yaratilishi, ikkinchisi – suvning yaratilishi, uchinchisi – zaminning yaratilishi,

¹⁰⁷ Авесто. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 164.

¹⁰⁸ Bu haqda qarang: Ko'rsatilgan manba. – B. 307-308.

to'rtinchisi – giyohlarning yaratilishi, beshinchisi – jonivorlarning yaratilishi, oltinchisi – insonlarning yaratilishi. Bayramlar yilning muayyan vaqtlarida nishonlanganligi zardushtiylarning aniq yil taqvimlariga ega bo'lganliklarini tasdiqlaydi. Maydyuzarim deb nomlanuvchi birinchi gahanbor gahanborlarning ibtidosi sanalgan, u yilning qirq birinchi-qirq beshinchi kunlarida nishonlangan. Bu gahanborda Ahura Mazda Osmonni yaratganligi bayram qilingan. Maydyusham ("yozning o'rtasi") deb ataluvchi ikkinchi gahanbor yilning bir yuz birinchi-bir yuz beshinchi kunlariga to'g'ri kelgan. Ikkinchi gahanborda Ahura Mazda suvni yaratgan. Patya Shhim uchinchi gahanborning nomi bo'lib, u yilning bir yuz yetmish oltinchi kunidan bir yuz saksoninchi kunigacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan va bu muddat g'alla, don-dun xirmoni ko'tarilgan vaqtga to'g'ri kelgan. To'rtinchi gahanbor Ayasrim deb atalib, yilning ikki yuz oltinchi kunidan ikki yuz o'ninchi kunigacha bo'lgan muddatda nishonlangan. Ahura Mazda bu gahanborda giyohlarni yaratgan bo'lsa-da, "ayasrim" so'zining ma'nosi "uyga qaytmoq" degani bo'lib, cho'ponlarning yozgi yaylovlardan uyga qaytishini bildirgan va shu munosabat bilan bayram o'tkazilgan. "Maydyarim" "yilning o'rtasi" ma'nosini bildirib, yilning ikki yuz sakson beshinchi kunidan ikki yuz to'qsoninchi kunigacha bo'lgan muddatda o'tkazilgan. Bu gahanborda Axura Mazda jonivorlarni yaratgan. Oltinchi gahanbor esa yilning uch yuz oltmishinchi-uch yuz oltmish beshinchi kunlari nishonlanib, bu Hamaspatmadam deb atalgan. Insonlarning yaratilishi bilan boshqa gahanborlardan ajralib turuvchi bu bayram Navruz bayramiga ulanib ketgan. Bu olti gahanborni Yayrya Hushitiy degan iloh butun yil davomida asrydi, odamlarga yaxshi xonadonlar va oromgozlar baxsh etadi, deb qaralgan.

"Dinkart"da aytilishicha, har oy besh kundan iborat olti qismdan tashkil topgan. "Andarmoh" – oyning ibtidosidan beshinchi kuniga qadar; "Paziray andarmoh"

– oltinchi kundan o'ninchi kunigacha; "Purmoh" – o'n birinchi kundan to o'n beshinchi kungacha; "Pazirai purmoh" – oyning o'n oltinchi kunidan yigirmanchi kunigacha; "Vayshapsata" – yigirma birinchi kundan to yigirma beshinchi kungacha; "Pazirai vayshapsata" – yigirma oltinchi kundan o'ttizinchi kungacha. Har bir besh kunlikni shu nomlar bilan ataluvchi ilohlar himoya qilib turgan.

Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra, bir kecha-kunduz besh qism – gohdan iborat. Ularning har biriga alohida boshliq – rotular homiylik qilgan. Bunda quyosh chiqishidan to choshtgohgacha – iloh Havm homiylik qiladi; choshtgohdan uning ikkinchi yarmiga qadar – Raptivina degan iloh homiylik qiladi; quyosh botguncha – Uzoyirina ilohi homiylik qiladi; quyosh botishidan tun yarmigacha – Oyvisrutrima degan iloh homiylik qiladi; tun yarmidan tongga qadar – iloh Ushohina homiylik qiladi. Kun va tunning bunday bo'linishiga qarab zardushtiylar uchun besh mahallik ibodat buyurilgan bo'lsa-da, ular amalda bir ibodatga ikkinchisini qo'shgan holda uch mahal ibodat qilganlar. Ibodat paytida yuqoridagi ilohlarga bag'ishlangan qasidalar duo sifatida o'qilgan.

Zardusht Ahura Mazdadan murdorni olovda kuydirayotgan kishilarning jazosi nima? deb so'raganida: "Ular murdorni olovda – kuydirayotganlarni so'zsiz o'ldirishlari kerak", – deb javob beradi. Zero, zardushtiylar aqidasi ko'ra to'rt toifadagi kishilar so'zsiz, hech qanday hukm va hakamsiz qatl qilinadilar. Bular: murdor yoquvchi, yo'lto'sar qaroqchi, bachchavoz va eng qabih gunoh ustida qo'lga olingan kimsa.

"Ey, Mazda Ahura! Sendan o'tinaman, Haqiqat bilan javob ber: Qanday qilib Haqiqat nurlari ostida sening roziligingni topaman? Qanday qilib o'nlik qudrat menga rahbar va yo'limni charog'on etguvchi bo'ladi, toki ular rostlik va abadiyatga noil bo'lib, har ikkisini ham insonlarga baxsh aylayin"¹⁰⁹. Ushbu parcha gohlarning

¹⁰⁹ Ko'rsatilgan manba. – B. 21.

eng murakkab va xilma-xil ramzli bandlaridan bo'lib, "o'nlik qudrat", "yo'limni charog'on etuvchi" ta'birlari matnda "o'n urg'ochi, o'n erkak va ashtar" tarzida ifodalanadi. Ko'plab sharqshunos olimlarning tadqiqotlarida yuqoridagi ta'birlar shu tarzda aks etgan. Bu banddagi jonivorlar kinoya va ramzdir, deguvchilar o'z fikrlarini quyidagi tarzda isbot etadilar: o'nta urg'ochi jonivor odam vujudidagi o'nta sarkash va gumroh aylovchi hisdir. O'nta erkak yoxud ayg'ir ot odam idrokining ramzi. Bu idrok yuqoridagi o'nta sarkash hislar ustidan zafar qozonadi va ularga rahbarlik qiladi. Ashtar esa bu sayr va sulukning nihoyasi bo'lib, ilohiy furug'ga erishib, abadiy yorug'likka qovushmoq demakdir.

"Avesto"da yetti iqlim nomlari ham keltirib o'tilgan. Jumladan, Arizahiy – yetti iqlimning biri. Dunyoning sharqiy qismida joylashgan. Savahiy – yer kurrasining g'arbida joylashgan. Frada Dafshu – dunyoning janubiy-sharqiy o'lkalarida, Vayda Zafshu – dunyoning janubiy-g'arbiy qismida, Vuavru Barishtiy – dunyoning shimoliy-g'arbiyda joylashgan o'lka. Vuavru Charishtiy – dunyoning shimoliy-sharqida joylashgan. Xunyarsa – yetti iqlimning eng ulug' o'lkalaridan biri. Aytilishicha, Xuroson shu o'lkada joylashgan emish. Adabiyotshunos olim S. Hasanovning ta'kidlashicha, "...yovuzlik xudosi Axriman Kamorikon nomli yettita yovuzlik devini yaratgan. Bularning har biri yaxshilik va ezgulik farishtalariga qarama-qarshidir: Aka-manax – Baxmanga, Indra-Ordebexeshtga, Saurva – Shahrivarga, Naong Xayitya – Spandarmozga, Taurvi – Xordadga, Zairish – Amardodga. Deshma esa bosh yovuzlik devi hisoblanib, Surushga qarshidir. Surushga Axrimanning o'zi ham qarshi turgan"¹¹⁰.

Jahon xalqlarining eng qadimiy yozma yodgorliklaridan biri bo'lgan "Avesto" o'zining butun mohiyati bilan insoniyat madaniy olamida, tafakkuri va jahon

¹¹⁰ Hasanov S. Навоийнинг етти тухфаси. – Тошкент: F. Фулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 154-155.

fani taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Ushbu yuksak badiiy mo'jiza tarixiy-madaniy, asotiriy-diniy yodgorlik sifatida o'ziga xos tafakkur tarzi bilan asrlar davomida insoniyatni maftun etib kelmoqda. "Avesto" kishilik jamiyati shakllanishining ilk bosqichlarida falsafiy tafakkurning butunlay yangi bosqichini boshlab berdi. Zamonlar o'tgani sari jahon faylasuflari, demograflari, antropologlari, etnograflari, tarixchilar va adabiyot vakillarining diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. "Avesto" ulkan madaniy yodgorlik sifatida faqat, xudo, ma'bud va ma'budalar haqidagi rivoyat, afsona va asotirlar majmuasigina emas, real hayotga, tabiat va borliqqa shukronalar keltirish, zamin-u quyoshga, suv va pokiza rizq-u ro'zga salovatlar majmuasi hamdir. Eng asosiysi, uning ta'limoti – ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash bo'lib, bu jamiytdagi mutanosiblikka putur yetkazadigan nomutanosiblikka qarshi kurashdan iborat edi.

Raqamlar bilan bog'liq qarashlar va ular zamiriga singdirilgan ma'no-mazmun islomgacha bo'lgan davrda yashagan, turli diniy shakl va oqimlarga e'tiqod qo'ygan turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligini Buddaning insoniyatga yo'llagan maktubida buddaviylikdagi "to'rt oliy haqiqat" aks etganligida ham ko'rishimiz mumkin. Birinchi oliy haqiqat shundan iboratki, hamma narsa Azobdir: tug'ilish – azob, o'lim – azob, xastalik – azob, jamiki beqaror narsalar azob. Ikkinchi oliy haqiqat – azobning sababi shahvatdir. Uchinchi oliy haqiqat – shahvatdan xalos bo'lish azoblardan xalos bo'lishga olib boradi. To'rtinchi oliy haqiqat esa azoblardan forig' etadigan sakkizta yo'l yoki o'rta yo'l mavjudligini ko'rsatadi. Bular – fikrlash, tafakkur, kalom, faoliyat, hayot tarzi, diqqat-e'tibor, tirishqoqlik, mushohada¹¹¹.

Shuningdek, Budda ezgulik va yaxshilikka yetaklaydigan o'n turli faoliyat xususida so'z yuritadi. Bu-

¹¹¹ Ma'lumot uchun qarang. Raхмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Сано стандарт, 2017. – Б. 83.

lar: 1. Jonli mavjudotlarga hech qanday zarar bermaslik. 2. Hech kimdan o'z xohishsiz hech narsa olmaslik. 3. Er-xotin o'rtasidagi vafodorlikka raxna solmaslik. 4. Mast qiluvchi ichimliklar va giyohlardan saqlanish. 5. Mechkaylikdan voz kechish va mumkin bo'lsa ham ko'p taom yemaslik. 7. Raqsga tushishdan, musiqa tinglashdan, qo'shiq aytishdan, sahnada o'zini ko'rsatishdan voz kechish. 8. Gulchambarlardan foydalanishdan, atir va turli taqinchoqlarni ishlatishdan voz kechish. 9. Baland o'rindiqlardan, qalin to'shakda yotishdan voz kechish. 10. Oltin va kumushdan foydalanmaslik¹¹². Ko'rinib turibdiki, o'z qarashlarini ifoda etishda Budda tizimli ravishda raqamlarga murojaat qiladi, raqamlar e'tiqodiy tushunchalarni aks ettirish va uni boshqalarga yetkazishda e'tiborli rol o'ynaydi.

Buddaviylikdagi muhim kategoriyalardan biri uch zamon kategoriyasidir. "Oltin yorug'"da Buddaning qiyofasi ham, burxonlarning ham uch zamonda talqin etilishi bejiz emas. Chunki uch zamon abadiylik ramzi hisoblanadi. Buddaviylikda uch raqami mohiyatiga katta e'tibor beriladi, shuning uchun ham "Oltin yorug'"da juda ko'p uchliklar keltirilgan. Masalan, saroyda yashagan Budda uch marta saroy tashqarisiga chiqadi va uch yovuzlik – keksalik, azob-uqubat va o'limdan xabardor bo'ladi. Buddaviylikda yovuzlikdan qaytish, yaxshilik qilish va aqlni poklash – uch qimmatbaho xazina sifatida e'tirof etiladi. N.Rahmonovga ko'ra: "Buddaviylikda uch xazina nihoyatda qadrlangan, shuning uchun ham har doim buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar bu uch xazinani ko'z-ko'z qilib emas, balki o'z zimmalariga majburiyat sifatida olib, e'tiqodning asosiy tayanchi deb bilganlar"¹¹³. Shunisi e'tiborliki, bu uch xazina uch xil zararli odatga qarama-qarshi qo'yiladi. Bular: ochko'zlik yoki shahvoniy istak, nafrat, yo'ldan ozish yoki nodonlik. Zararli odatlar "uch zahar" deb atalgan,

ulardan qochish va "uch xazina"ga intilish hamda uch xazinaga mustahkam bog'lanish maqsad qilib qo'yilgan. Uch yomon xususiyat va unga qarshi qo'yilgan uch fazilat turkiy xalqlarning dunyoqarashiga singib ketganligini adabiy asarlarda berilgan tasvirlar ham tasdiqlaydi.

Xalqning dunyoqarashi va kundalik turmushida raqamlar va ularning mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratish yuqoridagilar bilangina cheklanib qolmaydi. Qadimiy hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan amaliyot va nazariyotdan iborat bo'lgan buddaviylik ta'limoti, dunyoqarashi "To'rtoliy haqiqat"da ifodalangan – birinchisi: turmush azob-uqubatlardan iborat; ikkinchisi: azob-uqubatlarning sababi kishilarning istaklari va nafsidir; uchinchisi: azob-uqubatlardan qutilish uchun kishilar o'zlarining istak va nafslarini jilovlab olishlari kerak; to'rtinchisi: azob-uqubatlardan xalos bo'lish uchun Buddaning yangi aqidalariga amal qilish kerak. Bu yo'ldan borgan inson Budda yo'lini tutadi. Buddaviylik ta'limoti asosan uch amaliy qismdan iborat:

1. Meditatsiya – to'g'ri tushunish, to'g'ri niyat qilish, o'zini to'g'ri tutish, to'g'ri anglash, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, to'g'ri fikr yuritish, to'g'ri gapirish.

2. Axloq – qotillikdan saqlanish, o'g'rilikdan saqlanish, gumrohlikdan saqlanish, yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish, mast qiluvchi narsalardan saqlanish, tushdan keyin ovqatlanishdan saqlanish, o'yin-kulgdan saqlanish, zeb-u ziynat, atir-upalardan saqlanish.

3. Donolik yoki donishmandlik – buddaviylikning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini tushunish demakdir.

Millatlarning yashash tarzi, fikrlashi va inonchlarini o'rganishda ko'p hollarda milliy doston, rivoyat va afsonalar tarixiy hujjatlardan ko'ra qimmatli manbaga aylanadi. Bunday adabiy asarlar tarixning bo'sh o'rinlarini to'ldiribgina qolmasdan, ijtimoiy ruh,

¹¹² O'sha manba. – B. 84.

¹¹³ Раҳмонов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 101.

tushuncha va ishonchlarni o'rganish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi turklarning adabiy yodgorligi sanalgan "O'g'uznoma" dostoni O'g'uz hoqon tomonidan tuzilgan birinchi davlat haqida ma'lumot beradi. "O'g'uznoma"da turk millati O'g'uz xon o'g'illaridan dunyoga kelgan O'g'iz urug'lari bilan O'g'iz xonning qo'mondonlari hisoblangan qarluq, qipchoq, qangli, kalach va uyg'urlarning nasli sifatida guruhlariga bo'linadi. O'g'izlar hokimiyati milliy birlik, xalqaro munosabatlar va huquqiy mavqelarni bir nizomga bog'laydi. O'g'iz dunyo hokimiyatini qurib va bu hokimiyatni kengaytirgandan keyin davlatini olti o'g'li orasida taqsimlarkan, feodal asoslardan qat'iy nazar milliy birlikni saqlab qolishni istaydi. Darhaqiqat, o'g'izlarning har o'g'lidan tug'ilgan to'rttadan nevara, jami – yigirma to'rt urug' o'g'iz millatini hosil qilgan. O'g'iz xonning uch o'g'li – Kun, Oy, Yulduzdan tug'ilgan o'n ikki nevarasi o'ng hamda Ko'k, Tog' va Dengizdan tug'ilgan o'n ikki nevarasi so'l qo'lni tashkil etadi. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida keltirilishicha, bir kun O'g'uzxon o'g'illari bilan birgalikda shikorga chiqadi. Shikorda har biri bir ov ketidan quvadilar va nogohon har olti nafar o'g'il qaytib bir joyga yig'ilib qoladilar. Ular bitta kamon va uchta zarrin o'q topib olgan edilar. O'g'izxon hokimiyat ramzi sanalgan yoyni birinchilarga, tobelikni anglatgan o'qni esa ikkinchilarga beradi. Katta o'g'illar kamoni uchga bo'lib oladilar. Shuning uchun ham ularni bo'z o'q, deb ataladilar. Kichik o'g'illar esa uch o'q deyiladigan bo'ladi¹¹⁴.

O'g'iz beklari va urug'larining siyosiy va huquqiy munosabatlari ham yoy va o'q aloqasiga asoslangan. Ya'ni, o'ngdagi Bo'z-o'qlar chapdagi uch-o'qlardan ustun, boshqacha aytsak, uch-o'qlar tobedir. Mazkur huquqiy qoida saljuqiylar va hatto birmuncha usmoniylarga qadar ham amal qilgan. Manbalarda qayd

¹¹⁴ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – Б. 53.

etilishicha, turk hoqon va sultonlari urug' beklariga, tobe turk va ajnabiy hukmdorlarga o'q yuborishgan. Bu bilan ularning o'q – tobe, o'zlarining esa yoy – hokim ekanligini bildirishgan¹¹⁵. "O'q – elchi, kamon – podshoh bo'ldi", – deyiladi "To'rt ulus tarixi" asarida berilgan she'riy parchada ham¹¹⁶. Turkiy xalqlarning mifologik qarashlarida keng tarqalgan uch o'q motivi o'zbek xalq og'zaki ijodida va, hatto arxitektura namunalari ham ishlanganligini folklorshunos olim M.Jo'rayev qayd etib o'tadi¹¹⁷.

"O'g'uznoma"da uchlik bilan bog'liq juda ko'p ifodalarni uchratish mumkin. Masalan, dunyoga kelgan O'g'uzxon uch kecha-yu uch kunduz onasini emmaydi; uch kecha ketma-ket bir xil tush ko'radi; tushiga bir oltin kamon bilan uch kumush o'q kiradi; vahshiy hayvonga qarshi kurashadi va uchinchi urinishda g'olib keladi; ikki xotinidan uchtdan oltita farzand ko'radi; o'g'illaridan uchtasini sharqqa, uchtasini g'arbga yuboradi, kamon uchga bo'linadi. Shu kabi uch raqami bilan bog'liq bir qancha motivlar asarda yetakchilik qiladi.

Turkiy xalqlar tarixiga nazar tashlasak, ularning urug'lar sonini anglatgan raqamlar siyosiy hayotda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'ramiz. O'g'izlarning har o'g'lidan tug'ilgan to'rttadan o'g'il farzand, jami yigirma to'rt urug' o'g'iz millatini tashkil etganligi va Tabg'ach davlatidagi Xung-nu eli yigirma to'rt urug'dan kelib chiqqanligi uchun ham bu raqam xunlarning siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan¹¹⁸. Markaziy Osiyoda Xung-nu turklari tomonidan tashkil etilgan davlatni yigirma to'rt qo'mondon boshqargan bo'lsa, mo'g'illar davlatida muhim mavqega ega bo'lgan tarxonlarning faoliyatida

¹¹⁵ Bu haqda qarang: Усмон Турон. Кўрсатилган манба. – Б. 76.

¹¹⁶ Мирзо Улуғбек. Кўрсатилган манба. – Б. 53.

¹¹⁷ Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида "сеҳрли" рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 69-70.

¹¹⁸ Bu haqda qarang: Насимхон Раҳмон. Турк ҳоконлиги. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 15.

to'qqizlik yorqin ko'zga tashlanadi. Qadimda turkiy xalqlarda xonni taxtga o'tqazish uchun uyushtiriladigan maxsus marosimlarda amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi bo'ylab to'qqiz marta aylantirganlar, uni qutlab turganlar. Marosimda to'qqiz raqami bilan bog'liq jihat, albatta, kishi e'tiborini tortadi. O'z-o'zidan "Nega aynan to'qqiz marta?" degan savol paydo bo'ladi.

Laszlo Rasoniyning "Tarixda turklik" asarida qayd etilishicha, to'qqiz va o'ttiz raqamlari turklarning aymoq sonlariga tegishlidir. Qopog'on xoqonning qiziga oid qabr yozuvida otasi uchun "O'ttiz aymoq xoqoni" ta'biri tilga olingan. Bu o'ttiz aymoq ikki qavm zumrasidan iborat bo'lgan: 1. To'qqiz o'g'uz¹¹⁹. 2. O'n ikki ko'k-turk. To'qqiz o'g'uz zumrasi o'n sakkiz aymoqdan tarkib topgan: uyg'ur, xun, buqu, tungra, nayirg'u, iska, qalpoq, qarluq, basmil va h.k. Uyg'urning o'zi ham to'qqiz tarmoqqa ajralgan: yag'loqlar, yag'murqorlar, qurabirlar va boshqalar. "Shina usu" bitigida xoqon ulusini o'n uyg'ur, to'qqiz o'g'uz nomi bilan xotirlaydi. To'qqiz o'g'uz nihoyatda mutakomil bo'linishga ko'ra quyidagi urug'lardan tashkil topgan: to'qqiz tarmoqli

¹¹⁹O'g'uzlarning kelib chiqishi xususida L.Gumilev butunlay boshqacha qarashni ilgari suradi: Yirik qo'shnilar tomonidan qisib qo'yilgan mayda qabilalar (ularni urug'lar bilan tenglashtirmaslik kerak) ittifoq tuza boshladilar, bunday ittifoq "o'g'uz" deb atala boshlandi. Ana shulardan to'qquz o'g'uz (to'qqiz jamoa) – uyg'ur, uch o'g'uz – qorliq etnonimlari vujudga kelgan. Dulu va nishibular ham ittifoq tarzida tashkil topgan bo'lsalar-da, ular o'g'uz atalmadi, chunki boshqa tabiiy bo'lmagan bir sharoitda – turkut xonining farmoniga muvofiq tashkil etilgandi. Shuning uchun ham ular hamon "budun" holida qolib, "o'n o'q budun" – o'n o'g'li xalq deb atalar edi. "Budun" va "o'g'uz" atamalarining lug'aviy ma'nosi quyidagicha: turklarga buysundirilgan uyg'urlar turklarga budun hisoblanadi, biroq o'z ichki tuzilmasini saqlab qolganligi uchun o'g'uz ham bo'lib qolaveradi. Xuddi shuning uchun ham Bilga hoqon "To'qquz o'g'uz xalqi o'zimning xalqim", deganda asos bor edi, ya'ni to'g'ridan to'g'ri xonga buysundirilishini aks ettiradi (Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 70).

uyg'ur aymog'i, bir uyg'ur aymog'idan bo'lmagan aymoq, sakkiz o'g'uz aymog'i – jami o'n sakkiz aymoq. Sharqiy ko'k-turklar Qopog'on xoqon davrida o'n ikki aymoqni tashkil etgan. Demak to'qqiz va o'ttiz raqamlariga e'tiqod qo'yishning bir sababi qadimgi turkiy xalqlar tarixi bilan bog'liqdir¹²⁰.

To'qqiz raqamining ma'nolari turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan asarlarda ham sharhlangan. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'atit turk" asarida "To'qqiz tug'li xon" birikmasini shunday izohlaydi: "Tug' – tug', bayroq. To'qqiz tug'li xon – to'qqiz tug'lik xon yoki xoqon. Qaramog'idagi shahar va o'lkalar soni oshib ketsa ham, tug'lar miqdori to'qqizdan oshirilmagan. Xonning yuqori martabasi to'qqiz bilan fol qilingan. Bu xon tug'lari to'q sariq rangli shohi yoki ipak matodan qilinadi. Bu ham yaxshi fol uchundir"¹²¹. Ushbu ma'lumotlarga tayanmasdan turib, to'qqiz raqamiga bo'lgan alohida e'tiborning tarixiy asoslari haqida mulohaza yuritish qiyin.

Xulosa sifatida qadimgi yozma yodgorliklar ko'hna Turon o'lkasida yashagan ota-bobolarimiz hayoti, yashash tarzi, madaniyati va tafakkuri haqida bizga ma'lumot berishini qayd etish lozim. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, "Avesto", "Oltin yoruq", "O'g'uznoma" singarilarning matni bilan tanishar ekanmiz, ifoda etilgan qarashlar, ularning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari zamirida raqam bilan bog'liq o'rinlarni, raqamlarning mohiyati yoki ramzlariga urg'u berilgan jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Bunda raqamlarning aksariyati turkiy xalqlarning dunyoqarashi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uzviy bog'liq ekanligi ayonlashadi.

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, "Avesto", "Oltin yoruq" va "O'g'uznoma" asarlarini o'rganilayotgan mav-

¹²⁰Laszlo Rasonyi. Tarihte Türklük. 3. Baskı. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1993. – C. 103.

¹²¹Кошғарий М. Девони луғатит турк. 3 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 140.

zu yuzasidan tadqiq etish raqamlar bilan bog'liq qarashlar va ular zamiriga singdirilgan ma'no-mazmun islomgacha bo'lgan davrda yashagan, turli diniy shakl va oqimlarga e'tiqod qo'ygan turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligidan darak beradi. Shunisi e'tiborliki, raqam va uning mohiyatida ko'zda tutilgan qadimgi ma'no-mazmun turkiy xalqlarning keyingi davr an'analari, urf-odat-lari, maishiy va ijtimoiy hayotida ham faol qo'llanilgan.



RAQAMLARNING FALSAFIY VA DINIY-TASAVVUFİY TALQINLARI TAHLILI

Diniy qarashlarda raqamlarga munosabat masalasi

Butun dunyo xalqlarining turmush tarzi, dunyo-qarashi, kundalik hayotida muhim rol o'ynagan raqamlar diniy qarashlar bilan uzviy bog'liq. Islom dinida raqamlar barcha fanlar, san'at va umuman, madaniyat uchun asos sifatida qabul qilingan. Diniy qarashlar asosidagi raqamlarga bo'lgan munosabatni Qur'oni karimga tayanmasdan tahlil qilish ancha mushkul. Bu muborak kitobda qo'llanilgan raqamlar va ularning mohiyati xususida ilmda bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Ilmiy kuzatishlar asosida Qur'oni karimda 30 ta raqam qayd etilganligi ma'lum bo'lgan, bular: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 19, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 99, 100, 200, 300, 1000, 2000, 3000, 5000, 50 000, 100 000 raqamlaridir. Professor Klaus Shedlya bu bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan va u Qur'onda keltirilgan raqamlarni tahlil qilishga uringan¹²². Professor XX asrning 70-80-yillaridagi kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda muqaddas Qur'oni karimdagi so'zlar bilan raqamlar orasida tushuntirib berish mumkin bo'lmagan jumboqli ilohiy bog'liqlik borligini qayd etadi.

Garchi Qur'oni karimdagi raqamlar bilan bog'liq ilohiy mo'jizalarni kashf etishga urinishlar bo'layotgan bo'lsa-da, mufasssirlarimiz raqamlardagi ilohiy sir-sinoatlar haqida ortiqcha so'z yuritmaslikka harakat qilganlar. Biz ham olimlarning Qur'oni karimdagi matematik mo'jizalarni aniqlashga urinishdan hosil bo'lgan bunday ma'lumotlarini qayd etish bilan cheklanib, raqamlarning mohiyati aks etgan misollarga e'tibor berishga harakat qildik.

¹²² Клаус Шедля. Мухаммед и Христос. Наука о Христе в коранических текстах. – Вена, 1978.

Allohning mutlaq birligiga ishonish, butun olam Allohning ijodi ekanligi, borliqdagi barcha yaratilarda Allohning zuhur etishi islom dinidagi asosiy inonchlardan biridir. Bu ko'proq "Alif" harfi vositasida ifoda etiladi. "Alif" – arab alifbosidagi birinchi harf bo'lib, abjad hisobi bo'yicha "bir"ni ifodalaydi, majozan to'g'ri, mustaqim ma'nolarida ishlatiladi, Allohning mutlaq birligiga ishoradir.

Qur'oni karimning bir qancha oyatlarida, xususan, "Taloq" surasining 3-oyati, "Baqara" surasining 163-oyati, "Oli Imron" surasining 64- va 80-oyatlari, "Al-Isro" surasining 22-oyatida Allohning yagonaligi, undan o'zga iloh yo'qligi bir raqami orqali vahiy qilinadi. Allohning vahdoniyati, islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karim ham takrorlanmas ekanligi, u butun insoniyat uchun nozil bo'lganligi bir raqami vositasida ta'kidlanadi. "Sho'ro" surasining 13-oyatida ("Dinni barpo eting va firqa-firqa bo'linmangiz"), "Zumar" surasining 6-oyatida ("U sizlarni bir jondan yaratdi") ushbu holni ko'rish mumkin. Biz yashab turgan yer va undagi hayot abadiy emasligi haqida "Toho" surasi 104-oyatida ("Bir kungina turdinglar"), yaxshi so'z va harakatlarni amalga oshirish xususida "Duxon" surasi 3-oyatida ("Biz uni muborak bir kechada nozil qildik") uqtirilar ekan, bir raqami ifodalanayotgan fikrning ma'no-mohiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu muqaddas kitobda raqam muhim ko'rsatmalarni berishda ahamiyat kasb etgan.

Qur'oni karimning "Fajr" surasi 3-oyatida "juft va toq (narsalar)ga" qasamyod qilinadi. Albatta, juft deyilganda, ikki raqami mohiyati anglashiladi. Nuh (a. s.) kemasiga olinishi amr qilingan jonzoqlar ham juft-juft edi: "Farmon keldi: "Tekma bir tanlig'dan bir juft er olib kemiga kivurgil. Urug'lari kesilmasun, bir erkak, bir tishi"¹²³.

¹²³ Носирулдин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 41.

Qur'oni karimda ikki raqami bilan bog'liq yana bir holat me'roj voqeasiga aloqadordir. "Bas, (Muhammadga) ikki kamon oralig'idek yoki (undan ham) yaqinroq bo'ldi"¹²⁴. Bu jumlada "Qoba qavsayn" tushunchasi raqam bilan aloqador bo'lib, u ikki yoy oralig'i qadar, balki undan ham yaqin masofa ma'nosini anglatadi. Me'roj kechasida Jabroil va Muhammad (s. a. v.) oralaridagi yaqin masofa yoki Alloh va Muhammad payg'ambar oralaridagi masofaning nihoyatda yaqinligiga ishoratdir. "Qoba qavsayn" o'ziga xos bir maqom sanalgan va u yolg'iz Muhammad alayhissalomga nasib qilgan. Ushbu maqom xususida "Qisasi Rabg'uziy"da shunday deyiladi: "Ul maqomg'a tegdikim, Mavlo taolo yorliqar: Fa kaana qoba qavsayni av adna. Ya'ni ikki yoy andozasinchatiklik Mavloning azamati va jalolatig'a yovushti, andin ustun maqom yo'q. Nabiysi mursal, maliki muqarrab tegmas yerga tegdi..."¹²⁵. Demak, Rabg'uziy ma'lumoticha, bu "qoba qavsayn" Muhammad alayissalomning Allohga yaqin bo'lganliklariga ishoradir.

Islom dinida insonning yaratilishi bilan bog'liq qarashlarda ham raqamlarga aloqadorlik seziladi. Olamdagi barcha narsa Allohning mavjudligiga dalil sifatida keltirilar ekan, insonning paydo bo'lishi, uning ona qornida rivojlanishi va dunyoga kelishi ma'lum bir bosqichlardan iborat ekanligi eslatiladi¹²⁶. "...U sizlarga

¹²⁴ Қуръони карим маъноларининг таржимаси. "Нажм" сураси, 9-оят. – Тошкент: Ислom университети, 2001. – Б. 526.

¹²⁵ Носирулдин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б. 151.

¹²⁶ Insonning yaratilishi bir mo'jiza bo'lib, Qur'oni karimning qator oyatlarida bunga urg'u beriladi. Masalan, "Voqea" surasining 57-59 oyatlarida insonning qay tarzda dunyoga kelishi; "Qiyomat" surasining 36-37 oyatlarida, "Inson" surasining 2-oyatida, "Sajda" surasining 7-8 oyatlarida uning qanday yaratilganligi; "Najm" surasining 45-46 oyatlarida, "Qiyomat" surasining 37-39 oyatlarida inson jinsi haqidagi tafsilotlar; "Alaq" surasining 1-3 oyatlarida, "Mu'minin" surasining 14-oyatida, "Zumar" surasining 6-oyatida homilaning ona qornida rivojlanish bosqichlari haqidagi ta'kidlar keltirilgan.

onalarigiz qornida uch (qavat) zulmat ichida asta-sekin yaratuv¹²⁷, – deya tushuntiradi Qur'on bundan o'n to'rt asr avval. Bu mo'jiza bugungi kundagi ilmiy-tadqiqot natijalari bilan to'liq mos keladi. Oyati karimadagi uch qavat zulmat embirionning rivojlanishidagi tananing uch qismini anglatib, homila pufagining qorong'uligi, bachadon qorong'uligi va qorin bo'shlig'i qorong'uligiga ishora qiladi. Bugungi tibbiyot ushbu a'zolarining har biri o'z navbatida yana uch qavatdan iborat ekanligini isbotlagan. Shuningdek, yuqoridagi oyat bola (embirion)ning ona qornida uch bosqichli rivojlanishni boshdan kechirishini ham dalillamoqda. Embriologik darsliklarda ona qornidagi hayot uch bosqichga ega ekanligi qayd etilgan bo'lib, bular: dastlabki embrional bosqich – birinchi ikki yarim hafta; embrional bosqich – sakkizinchi haftaning oxirigacha va homila bosqichi – sakkizinchi haftadan onaning ko'zi yorigungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ko'pchilik oyatlarda esa insonlar o'zlarining yaratilishi haqida mulohaza yuritishga chaqirilib, u qay tarzda dunyoga kelgani, qaysi bosqichlarni bosib o'tgani va bundan maqsad, mohiyat nima ekanligi tez-tez eslatib turilishida ham raqamlarga munosabat ko'zga tashlanadi.

Qur'oni karimda raqamlar bilan bog'liq juda ko'p ibratli fikrlar qayd etilgan bo'lib, bu holat olamning yaratilishi bilan bog'liq qarashlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu muqaddas kitobning bir qancha oyatlari-da Alloh taolo olamni olti kunda yaratganligi aytiladi¹²⁸. Olamning qachon va qanday paydo bo'lganligi haqidagi qarashlar bo'yicha Qur'on oyatlari va ilmiy manbalar o'rtasida o'zaro muvofiqlik mavjud. Ilmda qayd etil-

¹²⁷ Куръони карим маъноларининг таржимаси. “Зумар” сураси, 6-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 459.

¹²⁸ Qur'oni karimning yettita oyatida olam olti kunda yaratilganligi vahiy qilinadi. Bular: “Sajda” surasi 4-oyat, “Furqon” surasi 59-oyat, “Hud” surasi 7-oyat, “A'rof” surasi 54-oyat, “Yunus” surasi 3-oyat, “Qof” surasi 38-oyat, “Hadid” surasi 4-oyatlar.

ishicha, koinot o'n olti-o'n yetti milliard yil davomida paydo bo'lgan. Bu haqda ilmiy kitoblarning birida shunday deyiladi: “... koinotning yoshiga oid bu vaqtlarning ikkalasi ham to'g'ridir. Boshqacha aytganda, koinot xuddi Qur'onda aytilganidek, olti kunda yaratilgan va bu davr bizning hisoblash usulimizdagi 16-17 milliard yilga to'g'ri keladi”. Albert Eynshteyn tomonidan ilgari surilgan vaqtning nisbiyligi haqidagi nazariya (ya'ni, vaqtning massa va tezlikka bog'liq ekanligi) hamda Katta portlashdan keyin koinotning kengayishi va uning hajmidagi o'sish koinotning chegaralarini bir necha millionlab yorug'lik yiliga uzaytirganligi, bu esa o'z navbatida koinotga oid vaqt uchun juda muhim natijalarni keltirib chiqarganligiga e'tibor beriladigan bo'lsa, Qur'onda aytilgan olti kunlik muddatni oltita davr deb tushunish mumkin. Qur'oni karimning ko'plab oyatlarida yerdagi vaqt bilan koinotdagi vaqt tushunchasi aynan bir-biriga to'g'ri kelmasligi qayta-qayta uqtiriladi. Masalan, “... Rabbingiz nazdidagi bir kun(lik azob) sizlarning hisobingizdagi ming yilga barobardir”¹²⁹ yoki “U osmondan yergacha bo'lgan barcha ishni tadbirini ko'rar (boshqarar), so'ngra (bu ishlarning barchasi) sizlarning hisobingizcha ming yilga teng keladigan (bir) kunda (ya'ni qiyomatda) Uning O'ziga ko'tarilur”¹³⁰, shuningdek, “Farishtalar va Ruh (Jabroil) miqdori (masofasi) ellik ming yil (bo'lgan) bir kunda (Qiyomat kunida) Uning huzuriga ko'tarilurlar”¹³¹, – singari oyatlarda shunga ishora bor. Demak, Qur'onda aytilgan vaqt hisobi bilan bizning hisob orasida katta tafovut borligi ayonlashadi.

Qur'oni karimning “Fussilat” surasi 9-10 oyatlarida yer ikki kunda, tog'lar va boshqa narsalar to'rt kunda

¹²⁹ Куръони карим маъноларининг таржимаси. “Хаж” сураси, 47-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 338.

¹³⁰ Куръони карим маъноларининг таржимаси. “Сажда” сураси, 5-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 415.

¹³¹ Куръони карим маъноларининг таржимаси. “Маориж” сураси, 4-оятлар. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 568.

yaratilganligi vahiy qilinadi¹³². Hadisi shariflarda keltirilishicha, Alloh taolo yerni yakshanba va dushanba kunlari, tog'larni seshanba kuni, daraxt, suv, o't-o'lan, shamol va bulutlarni chorshanba kuni, osmonlarni juma kuni, quyosh, oy, yulduz va farishtalarni shanba kuni, kunning oxirida esa Odam (a. s.)ni yaratgan. Ba'zi adabiyotlarda yaratilganlarning hafta kunlari bo'yicha taqsimoti bundan farqlanadi. Ammo har qanday holatda ham olamning yaratilishi olti kunda amalga oshganligi ta'kidlanadi. "Qisasi Rabg'uziy"da shunday qayd etilgan: "Yana izi azza va jalla qamug' olamni olti kunda yaratdi... Olti kunda aning uchun yaratti, qullarig'a ta'lim qildi, man qodirliqim birla ev, esh qilmazman. Sizlar ojizliqingiz birla evmadin, oshuqmadin aqruluq birla esh qiling teb"¹³³. Demak, ko'rinib turibdiki, Alloh taolo olti kunda yaratgan narsalarini bir zumda yaratishga qodir bo'lsa-da, bandalarini sabr-toqatga undash uchun olti kunda yaratishni iroda qilgan.

Olam va uning tuzilishi haqida Qur'on oyatlarida xabar berilgan dalillardan biri – osmonning yetti qavatdan iboratligidir. "U shunday zotki, sizlar uchun yerdagi barcha narsalarni yaratdi. So'ngra samo sari "turdi-da", uni yetti osmondan iborat qilib qo'ydi. U barcha narsani biluvchi (dono)dir"¹³⁴. Oyati karimada keltirilishicha, osmon yetti qavatdan iborat. Qur'oni karimning bir necha o'rinlarida osmonlar va ularning soni haqidagi ma'lumotlarga duch kelish mumkin. Masalan, "Taloq" surasining 12-oyatida "Allohyetti osmonni vayerdan ham o'shancha miqdorni (yetti qavatni) yaratgan zotdir"¹³⁵, –

¹³² Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Фуссилат" сураси. 9-10 оятлар. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 477.

¹³³ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 12.

¹³⁴ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Бақара" сураси 29-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 5.

¹³⁵ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Талоқ" сураси, 12-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 559.

deyiladi. Shuningdek "Mulk" surasining 3-oyatida ham "(U) yetti osmonni qatma-qat qilib yaratgan zotdir"¹³⁶, – deb marhamat qilingan. Qur'on oyatlarida uchraydigan "osmonlar" so'zi ko'kka hamda butun koinotga nisbatan ishlatilgan. Mazkur so'zning ushbu ma'nosidan yana boshqa bir jihat ayonlashadi, ya'ni, yerning osmoni yoki atmosferasi yetti qatlam qilib yaratilgandir. Atmosfera bir-birining ustida yotuvchi turli qatlamlardan iborat ekanligi ilmda tasdiqlangan¹³⁷. Kimyoviy tarkibi nuqtayi nazaridan ham yer atmosferasining yetti qatlami bir-biridan farqlanishi dalillangan¹³⁸.

Quyida qayd etilgan oyatlar atmosferaning yetti qatlamli ko'rinishi haqida bizga ma'lumot beradi: "Ko'rmadingizmi, Alloh yetti osmonni qanday ustma-ust qilib yaratdi"¹³⁹ yoki "(U) yetti osmonni qatma-qat qilib yaratgan zotdirki, siz Rahmonning yaratishida biror tafovutni ko'rmaysiz"¹⁴⁰ – oyatlarida osmonning oyatda qatma-qat deb tasvirlanganligi, shubhasiz, atmosferaning juda mukammal ifodasidir.

Islom dinida yetti raqami bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning yana biri yerning yetti qavatdan iborat ekanligidir. "Allohyetti osmonni vayerdan ham o'shancha miqdorni (yetti qavatni) yaratgan zotdir"¹⁴¹, – deyiladi oyatlardan birida. Ilmiy tadqiqotlar natijasida yerning

¹³⁶ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Мулк" сураси. 3-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 562.

¹³⁷ Qarang: Майкл Падуирни, "Atmospheric Layers" (Атмосфера қатламлари), 1996. <http://royal.okanagan.bc.ca/mpidwirn/atmosphereandclimate/atmslayers.html>

¹³⁸ Ma'lumot uchun qarang: "Numerical Prediction Models used by NWS" (Шимоли-ғарбий штатларда ишлаталадиган Рақамли олдидан айтиш моделлари), Integrated Publishing; www.tpub.com/weather 3/4-27.htm

¹³⁹ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Нух" сураси, 15-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 571.

¹⁴⁰ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Мулк" сураси, 3-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 562.

¹⁴¹ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Талоқ" сураси, 12-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 559.

ustki qatlamini hosil qiluvchi suv hamda yer litosferasi; litosferaga qaraganda, yupqaroq va ko'chuvchan bo'lgan astenosfera; temir, magniy va kalsiyni o'z ichiga olgan yuqori va ichki mantiya; temir-nikel qotishmasidan tashkil topgan suyuq holatdagi tashqi yadro va quyuq holatdagi ichki yadrolar – jami yetti qavatdan iborat ekanligi aniqlangan. Bu esa Qur'oni karimda bildirilganidek, yerning yetti qavatdan iborat ekanligini ilmiy jihatdan dalillash yo'lidagi harakatlardir.

Jannat va do'zax haqidagi qarashlar xalqimiz orasida keng tarqalgan bo'lib, jannat ko'kda, yuqorida deb tasavvur qilinsa, do'zax quyida joylashganligi qayd etiladi. Islomga ko'ra, do'zax yetti qavatdan iboratdir. Uning har bir qavatida jazolanuvchi gunohkorlar bor. Jumladan, birinchisida ikkiyuzlamachi, munofiq kishilar, ikkinchi qavatida Misr fir'avnlari va ayonlari, navbatdagsida dahriylar, to'rtinchi qavatida afsungarlar, beshinchisida kofirlar, oltinchisida yulduzparastlar va yettinchisida adashgan bandalar jazolanar ekan. Oltita qavatda gunohkorlar yonib turgan olov bilan jazolansa, bu qavatlardan farqli ravishda, yettinchi qavatda qattiq sovuq bo'lar ekan.

Yetti iqlim – butun dunyo, rub'i maskun ma'nosini anglatadi. Qadimgi jug'rofiya olimlari butun zaminni yetti mintaqaga taqsim qilishgan. Qizig'i shundaki, bu iqlimlarning har biri bir sayyoraga mansub deb qaralgan. Masalan, Hindiston Zuhalg, Chin Mushtariyga, Turkiston Mirrixga, Xuroson Quyoshga, Movarounnahr Zuhraga, Rum Atorudga, Balx Qamarga mansub hisoblangan¹⁴². Qur'oni karimning yettinchi yuz yillikda nozil bo'lganligi, uning eng go'zal surasi bo'lgan "Yusuf" surasida bu raqamning takror-takror kelishi, Makka va Madina orasida yetti qal'a borligi, juma namozining yetti farzdan iborat ekanligi va boshqa shunga o'xshash jihatlar yetti raqamining diniy mohiyatini yanada to'ldirib keladi.

¹⁴² Фарҳанги забони тожик. 2 жилдли. 2-жилд. М., Советская энциклопедия, 1969. – С.738.

Tabobat ilmini o'rgangan olimlar xurmoning yurak xastaligini davolashdagi foydasiga e'tiborni qaratishgan. Shunisi e'tiborliki, ular xurmolar sonining yettita bo'lishiga ahamiyat berishadi. "Sahih al-Buxoriy" va "Sahih Muslim" da Sa'd ibn Abu Vaqqos (r.a.) dan shunday hadis keltirilgan: "Kim ertalab Oliya (Najdning yuqori qismidan Tihomagacha va Makkai mukarramagacha bo'lgan hudud) ning xurmosidan yetti dona yesa, shu kuni unga zahar ham, sehr ham zarar qilmaydi". Boshqa bir lafzda: "Kim tong saharda Madinani o'rab turgan ikki toloq joyning xurmosidan yetti dona yesa, kechgacha unga zahar zarar qilmaydi", – deyiladi. Xurmoning yetti dona bo'lishi esa, uning vahiy orqali ma'lum bo'lgan boshqa bir xususiyati sanaladi¹⁴³. Demak, bunda xurmoning to'rt yoki beshta emas, aynan yetti dona bo'lishligini Qur'onda keng qo'llanilgan yetti raqami mohiyati bilan bog'liqligi bor. Chunki Alloh taolo yer va osmonni yetti qavat qilib, hafta kunlari sonini ham yettita qilib yaratgan, shuningdek insonni ham yetti bosqichda yaratgan. Qolaversa, Ka'bani yetti marta tavof qilish, Safo va Marva orasida yetti marta sa'y qilish, hatto shaytonga tosh otishni yetti marta bo'lishini mashru' qilib qo'yg'an.

Rasululloh alayhissalom: "Bolani yetti yoshdan namoz o'qishga buyuring", – deya marhamat qilganlar. U kishi xastalanganlarida ustlaridan yetti marta suv qo'yishlarini buyurganlar. Alloh taolo Od qavmini azoblash uchun shamolni yetti kun u qavm ustida ushlab turgan. Rasululloh alayhissalom Yusuf (a. s.) ga yetti narsa berilgani kabi o'z ummatiga ham yetti narsa bilan yordam berishini duo qilib so'raganlar. Alloh taolo sadaqa qilgan kishining sadaqasini yetti boshqoq chiqaradigan va har bir birida yuztadan doni bo'ladigan boshqoqqa qiyoslagan. Ya'ni bir sadaqaning savobi yetti

¹⁴³ Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг табобати. Таржи-ма ва изоҳлар муаллифи Собиржон Арзикулов. – Тошкент: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019. – Б. 213.

yuztagacha ko'payishi mumkin. Shuningdek, hadislarda bu ummatdan yetmish ming nafari jannatga savol-javobsiz kirishi aytilgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, shubhasiz, yetti raqamida boshqa raqamlarda topilmaydigan o'ziga xos xususiyat mavjudga o'xshaydi.

Sharq shoirlari asarlarini varaqlaganda o'quvchi uchun mavhum bo'lgan, ma'nosiga barcha ham birdek tushunavermaydigan, izohtalab so'z va iboralar-ga duch kelinadi. Ana shunday diniy tushunchalardan biri "As'hobi qahf" iborasidir. Ba'zi manbalarda "yetti uxlagan" tarzida ham keltiriladi. Bu tushuncha Qur'oni karimning "Qahf" surasidagi "As'hobi qahf" qissasi bilan bog'liq. Unda zikr qilinishicha, xudolik da'vosini qilgan Daqyunus degan zolim podshoh zamonida bir necha iymonli yigitlar podshoh amriga qarshi chiqib, Tangri taolo ibodati bilan mashg'ul bo'ladilar. Bundan xabar topgan zolim shoh ularni jazolamoqchi bo'ladi. Ta'qib-dan qochgan yigitlarni bir g'or o'z bag'riga oladi. G'or-ga yashiringan yigitlar uyquga ketadilar. Alloh mo'jiza-si bilan uyqudan uyg'onganlarida oradan bir qancha vaqt o'tgan, Daqyunus allaqachonlar vafot etgan va xu-doparast odil bir podshoh saltanat yuritir edi. Bozor-ga oziq-ovqat olish uchun kelgan yigitlardan biri bozor va shaharning o'zgachaligidan hayron bo'ladi. Uning qo'lidagi tangani ko'rgan bozor ahli "Daqyunus ganjini topibsan", deb yigitni podshoh huzuriga yetaklaydi. Pod-shoh yigitning gaplarini eshitib avvaliga hayron bo'ladi. Ulamlarni yig'ib suhbatlashganda qadimgi kitoblarda Daqyunus zamonida bir jamoat g'orga kirib, 309 yildan keyin uyg'ongaylar, deb qayd qilingani ma'lum bo'ladi. Masalaning mohiyatini anglagan podshoh As'hobi qahf – g'or yigitlarini saroyga chaqirib mehmon qiladi. Yigit-lar tangriga shukrona aytib yana g'orga kiradilar va aba-diy uyquga ketadilar. "Podshoh ana shu g'orda ulkan bir maqbara qurdiradi"¹⁴⁴.

¹⁴⁴ Алишер Навоий: Қомусий луғат. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тош-кент: Шарқ, 2016. – Б. 78.

Yo'lda ketayotganlarida bir cho'pon va uning "Qitmir" otli iti ham ularga ergashadi, qanchalik quvmasinlar, it ulardan ajralmaydi. Inonchlarga ko'ra, bu it jannatga kiradigan yetti hayvondan biridir. Abdulfutuh Shayx Ahmad G'azzoliyning "Bahr ul-mahabba" asarida shunday deyiladi: "Jannatda inson jinsidan va jinlar jinsidan boshqa yetti narsa bo'ladi: Ya'qub alayhissalomning bo'rilar, As'hobi qahfning itlari, Solih alayhissalomning tuyalari, Uzayr alayhissalomning eshaklari, As'hobi filning fillari, Ali (r. a.)ning duldullari va Rasululloh (s. a. v.)ning xachirlari"¹⁴⁵. As'hobi qahf-ga vafodorlik ko'rsatib, ular bilan birga g'orga kirgan va iymonlilarga ergashgani uchun jannati bo'lgan ushbu it timsoli adabiyotda yorqin obrazlardan biriga aylangan.

Qitmir itdin ibrat olg'il oshiq ersang,

*Oqsoqlanib yo'lda qolma sodiq ersang*¹⁴⁶, –

deganda Yassaviy aynan As'hobi qahf itini nazarda tutgan edi. Yoki boshqa bir hikmatda "mardonlar" suhbatini olgan ana shu itdan ibrat olishga chaqiradi:

Mardonlarni suhbatidin bahra olg'il,

*Ashobi Kahfitin ko'rub, ibrat olg'il*¹⁴⁷.

Yoki

Itlaringga nisbatimni rost qilsam, Qahf iti

Odamlarg'a o'zin qilgan kebidur muntasib, –

baytida Alisher Navoiy ma'shuqa ostonasidagi itlarga o'zini yaqin tutganligining boisi sifatida "As'hobi qahf"dagi itning odamlarga yaqinligini sabab qilib ko'rsatadi. Adabiyotimizda do'stlik, sadoqat, e'tiqodlilik haqida so'z ketganda "As'hobi qahf" tushunchasi tilga olinishi ham shu sababdan aslida. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining muqaddimasida uch xamsanavis shoir – Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy va

¹⁴⁵ Абдулфутух Шайх Аҳмад Ғаззолий. Баҳрул маҳабба. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 83.

¹⁴⁶ Хожа Аҳмад Яссавий. Умринг елдек ўтаро. – Тошкент: Мухар-пир, 2020. – Б. 269.

¹⁴⁷ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 301.

Abdurahmon Jomiyini madh etarkan, o'zini ularga "soya kibi hamqadam" ekanligini ta'kidlaydi va:

Kahfi baqo ichra alar bo'lsa gum,

Men ham o'lay "robiuhum kalbuhum,"¹⁴⁸ –

deydi, ya'ni foniyluk g'orida ular yo'qolgudek bo'lsalar, men ham to'rtinchilari – itlari bo'layin. Navoiy "robiuhum kalbuhum" – to'rtinchi yo'ldosh iborasida ana shu itni nazarda tutmoqda¹⁴⁹. Akademik A.Qayumov ushbu tushuncha xususida fikr yuritarkan, "Bu misol ham As'hobi Qahf qahramonlari obrazlarining XV asr Hirot adabiy muhitida qanchalar shuhrat topganini bildirib turadi"¹⁵⁰ – deydi.

Qadimgi manbalarda itning nomi va jinsi xususida turli fikrlar bo'lganidek, As'hobi qahf yigitlarining soni, ularning ismlari, g'orning joylashgani joyi va yigitlarining g'orda qancha vaqt qolganliklari haqida ham munozarali fikrlar ilgari surilgan.

Ba'zi manbalarda, chunonchi, Iskandar Palaning ensiklopedik lug'atida yetti yigit nomlari keltirilgan. Unga ko'ra, bu yetti yigitning ismlari: Yamliho, Maqsallina, Maslino, Marnush, Dabarnush, Sozanush, Qafash-tataynush¹⁵¹. Alisher Navoiyning "Tarixi Muluku Ajam" asarida As'hobi qahfdan faqatgina bir yigitning ismi – yegulik olib kelish uchun shaharga borgan yigitning ismiga keltiriladi: "Va Tamlixo degan rafiqlarin shahrg'a yibormishlar, taom kelturur uchun"¹⁵². Ammo yigitlar sonining aynan yettita ekanligi ham munozarali masalalardan biridir. Shuning uchun ham ayrim adabiyotlarda As'hobi qahf tarkibidagi yigitlar soni uchta, to'rtin-

chisi itdir deyilsa, ayrimlarida ularning soni yettita, it sakkizinchisidir, deb ko'rsatiladi. Qur'onning "Qahf" surasi 22-oyatida "...ularning soni uchta, to'rtinchisi itdir", deguvchilar bor", – deyiladi. Oyati karimada As'hobi qahfning soni aniq qayd qilinmagan: "Ey Muhammad, ularning sonini Rabbim yaxshiroq biluvchidir. Ularni juda oz kishi bilur, deng"¹⁵³, – degan ilohiy ko'rsatmaga amal qilinsa, As'hobi qahf tarkibidagi yigitlar soni ham faqatgina Allohga va Allohning suygan qullariga ("juda oz kishi"ga) ma'lum ekanligi ayonlashadi.

"G'or do'stlari" – As'hobi qahfni o'z bag'riga olgan g'orning qaysi hududda joylashganligi ham bahstlab. Bugungi kunda Turkiyaning turli hududlarida, jumladan, Tarsus, Afshin, Ofas, Alvistan singari joylarida As'hobi qahf deb ataluvchi g'orlar bo'lganidek, Turkiston tog'larida ham xuddi shunday g'or borligi qayd etiladi.

"Qahf" surasining 25-oyatida: "Ular qahf-g'orlarda uch yuz yil turdilar va yana to'qqiz yilni ziyoda qildilar", – deyilgan. Holbuki, 19-oyatda ularning bir yoki yarim kun uxlaganliklari qayd etilgan edi. Bu yerda gap jamodot va hayvonot o'rtasidagi bir-biridan farq qiluvchi vaqt hisobi haqidadir. Chunki bizdagi vaqt hisobi bo'yicha olingan yuz yil jamodotda bir yoki ikki soatlik vaqt oralig'idir. Buning sababi jamodotdagi zamon tushunchasining inson yaratgan vaqt hisobida juda uzoq davrni qamrab olishidir. Musulmon olamida shamsiy-quyosh va qamariy-oy hisobi qadimdan amalda bo'lib kelgan¹⁵⁴. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, quyosh va oy yillari orasida o'n bir kunga farq bo'lib, bu 100 quyosh yili 103 oy yiliga, 300 quyosh yili esa 309 oy yiliga to'g'ri kelishini

¹⁴⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 47.

¹⁴⁹ It timsoliga Alisher Navoiy dostonlarida qayta-qayta murojaat etadi, bir qator hikoyatlarda valiylik darajasiga erishgan it timsolini yaratadi.

¹⁵⁰ Каюмов А. Нодир саҳифалар / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 1-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – Б. 61.

¹⁵¹ İskender Pala. Ansiklopedik Divan Şiiri Sözlüğü. – S. 44.

¹⁵² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 592.

¹⁵³ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Қаҳф" сураси. 22-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 296.

¹⁵⁴ Shamsiy yil hisobi yer kurrasining quyosh atrofidan aylanishiga asoslanib, 365,24... quyosh kuni bir quyosh yilini tashkil etadi. Qamariy yil hisobi esa oyning yer atrofidan aylanishiga asoslanib, uning o'n ikki marta aylanishi bir oy yili hisoblangan va bu 354,36... kunni o'z ichiga olgan.

ko'rsatadi. Shuning uchun ham As'hobi qahfning g'orda bo'lgan muddati to'g'ridan-to'g'ri 309 yil deb emas, balki 300 yil alohida aytilib, 9 yil ilova qilinmoqda. XXI asrdagina sabablari yoritila boshlangan bunday holatlar Qur'onning mo'jizalarga boy ilohiy kitobligidan dalolat beradi.

Islom dinida to'qqiz raqami bilan bog'liq ayrim qarashlar borki, ular Qur'oni karimdagi ilohiy hukmlarga aloqadordir. Qur'oni karimning "Isro" surasi 101-oyatida: "Batahqiq, Musoga to'qqizta ochiq-oydin oyat-mo'jiza berdik..."¹⁵⁵, – degan ilohiy amr bor. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" asarida bu oyat shunday tafsir etiladi: "Bu mo'jizalar – qo'l, aso, to'fon, chigirtka, bit, baqalar, qon, ocharchilik yillari va mevalarning kamchil bo'lishi hodisalari edi"¹⁵⁶. Bu mo'jizalar haqida Qur'oni karimning boshqa suralarida ham so'z ketgan. E'tiborlisi shundaki, Muso (a.s.) ga berilgan mo'jizalar soni to'qqizta ekanligi ma'lum ma'noda musulmonlar orasida ushbu raqamning ommaviylashishiga sabab bo'lgan.

Boshqa diniy oqimlarda deyarli uchramaydigan, islomgacha va undan keyingi adabiy manbalarda ham mohiyatiga e'tibor qaratilmagan raqamlardan biri o'n to'qqizdir¹⁵⁷. Bu raqam Qur'oni karimdagi o'ziga xos va juda jumboqli raqamlardan biri sanaladi. Dastlab "Uning ustida o'n to'qqiz (farishta qo'riqchilik qilur)"¹⁵⁸ oyatida o'n to'qqiz raqami keltiriladi. Boshqa o'rinlarda ham bu raqam mohiyatiga ishora qiluvchi tushunchalar mavjud. Masalan, basmalaning o'n to'qqiz harfdan

¹⁵⁵ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Ал-исро" сураси. 101-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 292.

¹⁵⁶ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жузв. – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2021. – Б. 451.

¹⁵⁷ Алишер Навоийнинг "Ҳайрат ул-аброр" достонидаги 1-боб бундан мустасно.

¹⁵⁸ Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Муддассир" сураси, 30-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 576.

iborat ekanligi; Muhammad alayhissalomga tushirilgan ilk sura – "Alaq" surasining 1-5 oyatlari o'n to'qqizta so'zdan iboratligi, suraning o'zi ham o'n to'qqizta oyatdan iborat bo'lib, suralarning orqadan sanab kelinganda "Alaq" surasi 19-suraligi; eng oxirida nozil bo'lgan sura – "Nasr" surasining o'n to'qqizta so'zdan iboratligi, birinchi oyatida o'n to'qqizta harf ishtirok etganligi; "bir" ma'nosini ifodalovchi "vahd" so'zi abjad hisobi bo'yicha o'n to'qqiz ekanligi bu raqam mohiyatini yanada kuchaytirgan.

Ma'lumki, Qur'oni karimning 114 o'rnida basmala bor¹⁵⁹. Raqamlari o'n to'qqiz va o'n to'qqizning ko'paytmasi bo'lgan oyatlarda (ya'ni 19, 38, 57, 76 va boshqa oyatlar) kelgan Alloh ismlarining jami soni bir yuz o'ttiz uch bo'lib, u o'n to'qqizga qoldiqsiz bo'linadi. Bunday ajablanarli natijalarga ko'plab misollar keltirish mumkin, ammo ularning barchasi inson aqli ojiz qoladigan holatlardir.

Qirq raqami qadimdan inson hayotidagi jiddiy vaziyatlar bilan bog'liq holda talqin qilingan. Ba'zi manbalarda aytilishicha, insonning eng uzoq umr ko'rishi uch karra qirq, ya'ni 120 yildir. Ko'pchilik saltanat sohiblari, hatto Sulaymon va Dovud payg'ambarlar ham qirq yil hukmronlik qilganlar. Qirq yoshni hayot bosqichining yakuni sifatida qabul qilgan Talmud va keyingi katolik cherkovi buni insonning "kanonlik davri" deb e'lon qildi, chunki bu davrda miyaning to'liq rivojlanganligiga ishora bor. Darhaqiqat, zamonaviy psixologlar inson

¹⁵⁹ Qur'onda jami 113 sura basmala bilan boshlanadi. Basmala bilan boshlanmaydigan yagona sura, 9-sonli "Tavba" surasidir. "Naml" surasi ikkita basmalali yagona suradir. Bularning biri suraning boshida, boshqasi esa 30-oyatdadir. Basmala bilan boshlanmaydigan "Tavba" surasidan boshlab sanalganda "Naml" surasi 19-sura bo'lib keladi. Demak, 27-surada ikkita basmala mavjud bo'lib, shunda basmalalarning jami soni 114 taga etadi. Inson hayotdagi har bir xayrli ishni ilohiy kalima – "Bismillahir Rohmanir Rohiyim" jumlasini bilan boshlaydi. Olloh o'zi iroda qiladigan ishlarni "Kun" (Bo'l) so'zi bilan boshlasa, inson uchun basmala xuddi shunday kuchga egadir.

rivojlanishidagi eng yuqori bosqichni qirq yosh bilan belgilashmoqda. Shuning uchun ham bu yoshgacha bo'lgan davr bilim olish, hunar egallash, kelajak uchun zamin hozirlash davri sanaladi. Qirq yoshli inson – bu aqlan yetuk, hayotda o'z o'rnini topgan, moddiy jihatdan ta'minlangan, ma'lum bir hayotiy tajribaga ega bo'lgan shaxsdir. Bu mulohazalarning betakror badiiy talqinini Sharq shoirlari asarlaridan topishimiz mumkin. *“Qirq yoshga qadam urding, Komilsan – hushgayetding”*, – deydi Maxtumquli o'z yoshnomasida¹⁶⁰. Juda ko'pchilik olimlar va ijod ahlining shu yoshda barakali ijod qilishgani sir emas. Shuning uchun ham buyuk mutafakkirlar, jumladan, Yusuf Xos Hojib ham inson umrining qirq yoshgacha bo'lgan davriga alohida mas'uliyat yuklagan:

*Qirq yil o'tsa kimning tiriklik oni,
Undan ketgan bo'lar yoshlik zamon*¹⁶¹.

Dunyo dinlarining ko'pchiligida qirq raqami bilan bog'liq qarashlar mavjud bo'lib, bu Odam Atoning yaratilish jarayoni qirq kun davom etganligi haqidagi ma'lumot bilan boshlanadi. Yaratilish haqida so'z borgan manbalarda Alloh Odam Ato loyini qirq kun davomida qorganligi qayd etiladi. Nasimiy ham olam va odamning yaratilishi haqida so'z yuritar ekan, Odamning aynan qirq kunda yaratilganligiga ishora qiladi:

*Kofu nundan yaratdi olamni,
Arbain kunda yaratdi Odamni*¹⁶².

A.Shimmel qirq raqamini raqamlarning eng maf-tunkori hisoblaydi, bu raqamning Yaqin Sharq va Tur-kiyada keng qo'llanilganligiga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, qirq raqamining keng ishlatilishini oy o'tadigan 28 nuqta va 12 burjning kombinatsiyasi

¹⁶⁰ Махтумқули. Асарлар. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 212.

¹⁶¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутаду билиг. – Тошкент: Академнашр, 2015. – Б. 45.

¹⁶² İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. 1 cild. – Bakı: Lider nəşriyyat, 2004. – S.303.

bilan izohlash mumkin¹⁶³. Ayni damda qirq raqami yomg'irli mavsumlarning ham davomiyligini anglatadi. Bunda Nuh to'foniga sabab bo'lgan yomg'irning qirq kun davom etganligi asos bo'lgan. To'fonning qirqinchi kunidan boshlab Isroil avlodlarining cho'lda qirq yil sarson-sargardon kezishlari, Muso (a. s.)ning tog'da kechirgan qirq kuni, Iso (a. s.)ning qabrda kechgan qirq soati singari qarashlar bu raqamning mohiyatini yanada kuchaytirgan. Shuningdek, oxir zamon yaqinlashganda Imom Mahdining yer yuziga tushib, qirq yil yashashi, olamning qayta paydo bo'lishida osmon qirq kun davomida tuman bilan qoplanishi, qayta tirilish jarayonining ham qirq yil davom etishi qayd etiladi.

Islom an'analarida qirq raqamining alohida aha-miyatga ega ekanligi Qur'ondagi ba'zi oyatlar mazmuni bilan ham, qirq yoshida birinchi vahiyini olgan Mu-hammad alayhissalomning hadisleri orqali ham ravshanlashadi. Qur'oni karimda to'rt marta qirq raqami qayd qilingan. Masalan, “Baqara” surasining 51-oyati, “Moida” surasining 26-oyatida adashgan qavmning qirq yil mobaynida muqaddas joylarga kirishi man etilganligi aytiladi. “A'rof” surasida Muso alayhissalomga Tur tog'i-da berilgan qirq kunlik muhlat, “Ahqof” surasining 15-oyatida insonning qirq yoshda kamolga yetishi va ota-onasiga mehribonchilik ko'rsatib, yaxshilik qilish, ularni rozi qilib, duolarini olishga da'vat etilganligi¹⁶⁴ bu raqamga alohida vazifa yuklagandek go'yo.

Shuningdek, qirq raqami payg'ambarga xos bir raqam ekanligi qayd etilib, bu raqam mohiyatiga alo-hida e'tibor qaratilgan. Chunki, payg'ambarimiz ism-larining boshi va o'rtasida kelgan “mim” harflari abjad hisobi bo'yicha qirqni anglatadi. Muhammad alayhissa-lomga qirq yoshlarida payg'ambarlik berilgan, u kishiga

¹⁶³ Annemarie Shimmel. Sayıların Gizemi(Çevirmen Mustafa Kürüşoğlu). – İstanbul, 2017. – S.265.

¹⁶⁴ Qarang: Куръони карим маъноларининг таржимаси. “Аҳқоф” сураси, 15-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 504.

ergashganlarning dastlab qirq kishi bo'lganligi, o'z molarining qirqdan birini zakot sifatida berish singarilar qirq raqamining mohiyatini yanada oshirgan. Islomda qirq kun poklanish davri hisoblanadi. Tug'ruqdan keyingi qirq kunlik tozalanish muddati – chilla, qurbonlik uchun atalgan hayvonning qirq kun davomida maxsus ozuqa bilan oziqlantirilishi, qirq kunda soch va tirnoqlarni kesish tavsiya qilinishi shubu raqam mohiyatidagi poklanish tushunchasi bilan bog'liqdir¹⁶⁵.

Raqamlar nafaqat Qur'oni karim, balki hazrati Muhammad Mustafo alayhissalom hadislarida ham keng qo'llanilgan, ko'plab diniy tushuncha va e'tidoqlarni ifoda etishda raqamli ifodalarga tayanilgan.

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Shayx Abulhasan Marg'ibiy Shoziliydan rivoyat qilinishicha, bir kishi tushida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni ko'radi. Rasulluloh har bir insonda beshta to'n borligini aytadilar. Bu to'nlar qaysiligi so'ralganda: "Dedi: Tengri taolo sanga besh xil'at kiydurubdur: muhabbat xil'ati va ma'rifat xil'ati va tavhid xil'ati va imon xil'ati va islom xil'ati. Har kim Tengri ni sevs, anga oson bo'lg'ay har ish. Va har kim Tengri ni tanisa, ko'ziga kichik ko'rungay har nima. Va har kim Tengri ni birlik bila bilsa, anga sherik kelturmaga hech nimani. Va har kim Tengriga imon keltursa, emin bo'lg'ay barcha nimadin. Va har kim islom bila muttasif bo'lsa, Tengriga osiy bo'lmag'ay"¹⁶⁶. Musulmonchilikning asosiy tushunchalari bo'lgan islom, imon, tavhid, ma'rifat va muhabbat singarilar "besh xil'at" sifatida e'tirof etilmoqda.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin va ularning barchasi diniy qarashlar va tushunchalarda raqamlarga alohida e'tibor qaratilganligini dalillaydi.

¹⁶⁵ Bu haqda qarang: Annemarye Schimmel. Sayilarnin gizemi (Çevirmen Mustafa Kürüşoğlu). – İstanbul, 2017. – S. 268-269

¹⁶⁶ Алишер Навоий. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 205-206.

Raqamlarning diniy mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tushunchalar Qur'on karim oyatlari va hazrati Muhammad alayhissalom hadislarida o'z o'rnini topgan. Bir raqami – Alloh taoloning ramzi sifatida kelsa, ikki raqami yaratilgan jamiki yaratilqlar mazmunini berish uchun ishlatiladi. Olti raqami olamning yaratilishi bilan bog'liq bo'lsa, yetti raqami osmon va yerning yetti qavatdan iborat ekanligi bilan aloqador raqam sifatida e'tirof etiladi. Bu raqam islom dini va bu din asosida shakllangan e'tiqod, marosim va an'analardan mustahkam o'rin olgan. Yetti raqamiga bo'lgan munosabat Qur'oni karimda keltirilgan ko'plab yettiliklar va ular mohiyatidagi ma'nolar bilan bog'liq, degan xulosaga kelishga asos bo'ladi.

Islom dinida qirq raqamiga alohida e'tibor qaratilganligining sabablaridan biri sifatida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning qirq yoshlarida vahiy olganliklari e'tirof etiladi. Ammo bu raqam zamirida Nuh (a. s.), Muso (a. s.), Iso (a. s.)lar hayoti bilan bog'liq hodisalar mohiyati ham borki, ana shu jihatlar qirq raqamiga o'ziga xos e'tibor va munosabatdan darak beradi. Mumtoz adabiyotda payg'ambarimizning me'roj voqealari katta mahorat va yuksak ehtirom bilan qalamga olingan asarlar nihoyatda ko'p. Ularda bir yuz yigirma to'rt ming payg'ambardan faqatgina Muhammad Mustafo alayhissalomgagina nasib qilgan maqom – "Qoba qavsayn" haqida ham so'z boradi. Payg'ambarimizning me'roj kechasi Ollohga juda yaqin bo'lganliklarini anglatish uchun qo'llanilgan bu ibora ikki raqamining diniy mohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Tasavvufiy ruhdagi asarlarda uchraydigan yetmish ming hijob, to'qson ming kalom singari raqamli birikmalar ham me'roj voqeasi bilan bog'liq bo'lib, diniy adabiyotlarda tasvir ob'ekti sifatida xizmat qilgan.

O'zbek tasavvuf adabiyotida raqamlarning ma'no miqyoslari va mohiyati

Tasavvuf musulmon Sharq mamlakatlari ijtimoiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan, fan, san'at, madaniyat va adabiyot rivojiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan. Bular orasida tasavvuf va adabiyot munosabati, aniqroq aytadigan bo'lsak, tasavvufning badiiy ijodga ta'siri sezilarli edi, albatta. Chunki tasavvuf ham, adabiyot ham komil inson masalasini bosh masala sifatida e'tirof etadi. Tasavvuf adabiyoti ramz va timsollar vositasida yaratilgan adabiyot, unda hayotni jonlantirish, narsalarni o'z nomi bilan atash insonning komilligiga xalaqit beradi, deb qaraladi. Olam Yaratganning ramzi bo'lganligi uchun ham har bir yaratilgan narsa mohiyatida yashirin ma'no borligi e'tirof etiladi. Mutasavvuf ijodkorlar tasavvufiy tushunchalarning juda ko'plab ramzlarini yaratdilar, natijada so'zlar yangi va teran ma'noga ega bo'ldi, orifning holatini to'laroq va shu bilan birga, ramz vositasida ifodalashga xizmat qildi. Bunda raqam ramzi va uning mohiyatidan keng foydalanish ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu holatni tasavvufiy adabiyotda yaratilgan vujudnoma, davriya-yoshnoma atamaları bilan qo'llaniluvchi asarlarda ham ko'rishimiz mumkin¹⁶⁷.

Tasavvufiy adabiyotlarda "Alif" Zoti ahadiyat, Allohning mutlaq yolg'iz va birligiga ishora. "Alif" yagona Allohning timsoli, dunyolar hikmati, nozil etilgan to'rt kitob mujassam bo'lgan harfdir. Turk shoiri Yunus Emro aynan shunga ishora qilib:

*To'rt kitobning ma'nosi,
Bir alifda mujassam, – deydi.*

Nuqtadan "Alif", "Alif"dan boshqa harflar maydonga keladi va ular "Alif"ning turli shakllarga kirgan

¹⁶⁷ Ushbu turkumdagi asarlarga keyingi boblarda to'xtalib o'tamiz.

ko'rinishlaridir. Butun borliqning Allohdan zuhur etishi boshqa harflarning "Alif"dan paydo bo'lishiga qiyos etiladi, ya'ni barcha harflarda "Alif"ni ko'rish mumkin bo'lganidek, butun borliqda Birni ko'rish mumkindir. Hamma narsa "Alif"dadir, "Alif" harflarning avvali ekanligini Sharq-u G'arb so'fiylari ta'kidlab o'tganlar. Hofizning yozishicha, har yurakda mahbub holatining "alif"i yozilgandir.

Alloh ham avvaldir. Navoiy Yaratganning ushbu sifatini katta ehtirom bilan tilga oladi:

*Ne bo'lub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.*

*Avval o'zung, oxiru mobayn o'zung,
Borchag'a Xoliq, borig'a ayn o'zung*¹⁶⁸

Tasavvuf adabiyotida koinot va insonning yaratilish jarayoni bilan aloqador fikrlar bayonida raqamlar majoz sifatida borliq falsafasining sharhi uchun xizmat qildirilgan. To'g'ri, bunday fikr va qarashlarni ifoda etishda sanoq sistemasidagi barcha raqamlarga ehtiyoj sezilmagan. Ammo mavolidi salosa, anosiri arba'a, havosi xamsa, olti jihat, sa'boyi samovot, hasht behisht va to'qqiz (nuh) falak ifodalarini raqamlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Borliqning uch tabaqasi – jamodot, nabotot, hayvonot; besh his – ko'rish, eshitish, tatish, tegish-ushlash, hidlash¹⁶⁹; olti jihat – janub, shimol, sharq, g'arb, baland, past; sakkiz jannat – firdavs jannati, adn jannati, ma'vo jannati, na'im, xuld, qaror, dorus-salom,

¹⁶⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 13.

¹⁶⁹ Alloh taolo ilm olish uchun insonga beshta sezgi ato etgan. Bu sezgilar ko'z, quloq, burun, og'iz (til) va teri kabi a'zolar yordamida faoliyat ko'rsatadi. Ko'z yordamida ko'rib, til yordamida tatib ko'rib, ta'm bilib, ilm hosil qilamiz. Quloq yordamida eshitib, teri yordamida his etib, ushlab ko'rib ilm hosil qilamiz. Shu sezgi a'zolari vositasi bilan tashqi dunyo haqida ma'lumot olamiz, tasavvur hosil qilamiz.

dorul muqamo jannatlari¹⁷⁰; to'qqiz falak – Oy, Utorud, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhul singari yetti sayyoralar joylashgan osmonlar hamda burjlar osmoni va falakul aflok¹⁷¹ deb atalgan to'qqizinchi osmon kabi raqamli tushunchalar orasida to'rt unsur yoki anosiri arba'a keng shaklda adabiy matnlardan joy olgan. Alisher Navoiy butun koinotning asosini to'rt unsur, olti jihat va yetti ko'kda, deb biladi:

*To'rt unsur, yetti ko'k, olti jihat -
Nodiru oliy asosi koinot¹⁷².*

Tasavvuf adabiyotining ba'zi vakillari insonning metafizik olamdan fizik olamga kelish jarayonini tasvir etar ekanlar, bu jarayonni to'rt unsur, olti jihat va to'qqiz

¹⁷⁰ Ulamolar Qur'oni karim oyatlariga asoslanib, jannatning sakkizta nomi (darajalari) borligini va har bir jannat darajasiga ishora qiluvchi oyati karimalar mavjudligini qayd etadilar:

1. Firdavs jannati. "Albatta, imon keltirgan va ezgu ishlarni qilgan zotlar uchun Firdavs bog'lari manzil bo'lur" ("Qahf" surasi, 107-oyat). 2. Adn jannati. "Alloh mo'minlar va mo'minalarga ostidan anhorlar oqib turadigan, mangu yashaydigan Adn jannat (bog') laridagi pok maskanlarni va'da qildi" ("Tavba", 72-oyat). 3. Ma'vo jannati. "Qasamki, (Muhammad Jabroilni) ikkinchi bor ko'rdi. (Jannat) chekkasidagi Nilufar oldida. Ma'vo jannati ham o'sha (Nilufar)ning oldidadir" ("Najm" surasi, 13-15-oyatlar). 4. Na'im jannati. "Yana meni Na'im jannatining vorislaridan qilgin!" ("Shuaro" surasi, 85-oyat). 5. Xuld jannati. "(Ey Muhammad, ularga) ayting: "Shu (do'zax) yaxshiroqmi yoki taqvodorlarga va'da qilingan mangu (Xuld) jannatimi?!" Ular uchun (bu) mukofot va natija bo'lur edi" ("Furqon" surasi, 15-oyat). 6. Qaror jannati. "Ey, qavmim, bu dunyo hayoti faqat bir (ar-zimas) matodir. Albatta, oxiratgina (mangu) barqarorlik diyori" ("G'ofir" surasi, 39-oyat). 7. Dorus Salom. "Ular uchun Parvardigorlari huzurida tinchlik diyori (jannat) bordir. Qilgan (solih) amallari sababli, U ularning do'stidir" ("An'om" surasi, 127-oyat). 8. Dorul Muqoma. "U O'z fazli bilan bizlarni mangu turadigan diyorga tushirdiki, bu joyda bizlarga na mashaqqat yetar va na charchoq yetar" ("Fotir" surasi, 35-oyat).

¹⁷¹ Qarang: Али Кушчи. Астрономияга оид рисола. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 36.

¹⁷² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 239.

falak bilan bog'liq holda berishga harakat qiladilar. Bir usmonli shoiri yaratilmasdan avval to'rt unsur, olti jihat, to'qqiz falakka oshiq ekanligini:

*Ashiq idüm ben ezelden yaradılmadan henüz
Şeş-cihetle çar-unsur nüh feklele vakt-ı nec, –*

deya qayd etsa, Oshiq Valeh o'z vujudnomasini insonning yaratilishi uchun asos bo'lgan to'rt unsurni ramzlaydigan "Chahor anosir" ifodasi bilan boshlaydi va:

*To'rt unsuru olti jihatdan,
Bir qatra mani'dan bo'libmiz paydo, - deydi.*

To'rt unsur tushunchasi matnlarda ba'zan boshqa nomlar – "to'rt ummahot", "to'rt ona", "anosiri arba'a", "ummahoti arba'a", "mavolidi arba'a" singari nomlar bilan yuritiladi. Bu haqidagi fikrlar dastlab yunon olimlari tomonidan ilgari surilgan bo'lsa-da, turkiy xalqlarning mifologik qarashlarida, islom faylasuflarining ilmiy mulohazalarida ham talaygina ma'lumotlar bor. Turk olimi Bayram Durbilmaz bir mifning mazmunini bayon etadi: "Turklar ilk otasining yaratilishi haqidagi bir rivoyatda to'rt unsurdan so'z boradi: "Bu afsonaga ko'ra, qadimgi davrlarda kuchli yomg'ir yog'ib, selga aylanadi va sellar balchiqlarni Qaradog'chi degan bir tog'dagi g'orga surib keladi, ularni inson qalbiga o'xshagan yoriqlarga to'kadi. Suv va tuproq bir muddat ana shu yoriqlarda qoladi. Quyosh saraton burjiga kirib haddan tashqari ko'p issiq bo'lganidan bu toshmalar qizib, pishadi... **Suv, tuproq** va quyoshning harorati(**otash**)dan iborat bo'lgan bu yig'in ustidan to'qqiz oy muddatli **shamol** esib turadi (ta'kidlar bizniki. Dj. S.). Shunday qilib, ushbu unsurlar birlashadi. To'qqiz oydan keyin bu yaratiqdan inson shaklidagi bir maxluq chiqadi. Bu insonga turk tili bilan "Ay Atam" deyildi. Bu "Ay Atam" degan kishi toza havoli, shirin suvli bir joyga joylashdi..."¹⁷³. Mifda suv, tuproq,

¹⁷³ Durbilmez Bayram. Nahçıvan Türk Halk İnanışında Mitolojik Sayılar. – İstanbul, 2009. – S. 73.

olov va shamol insonning yaratilishi uchun asos bo'lgan unsurlar sifatida tilga olinadi. Vujudnoma mualliflari insonning yaratilishi uchun avval suv, tuproq va quyosh (olov) asos bo'lgan bo'lsa-da, inson qalbiga to'rtinchi unsur qo'shilgandan keyin u inson shakliga kirganligi sababidan bu to'rtlik arxitepidagi ko'pincha 3+1 asos omil sifatida namoyon bo'lganligini ta'kidlashadi¹⁷⁴. Demak, unsurlarning darajalari bir xilda bo'lmay, suv, tuproq va olovga nisbatan shamolning tutgan o'rnini yuqoriroqdir. Chunki bu to'rt unsur orasidan shamol ruhni tamsil etadi. Yuqoridagi mifda ham ruhning ramzi bo'lgan shamol inson qalbi ustidan esgandan keyin u jonlanganligi ma'lum bo'lmoqda¹⁷⁵.

To'rt unsur xususidagi fikrlar sharq olimlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi, jumladan, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida insonda to'rt unsurga mos ravishda to'rt xil mijoz mavjudligi haqidagi fikrlar ilgari surildi¹⁷⁶. Bu tushuncha sharq ijodkorlari uchun badiiy lavhalar yaratishga asos bo'ldi. Umar Xayyomning quyidagi to'rtligini o'qigan kitobxon ko'z o'ngiga ham ushbu unsurlar kelishi shubhasiz:

*Falak, ko'nglim doim g'amnok qilursan,
Quvonchim kuylagin chok-chok qilursan.
Menga esgan yeldan otash ufurib,
Suv ichsam og'zimda qum-xok qilursan*¹⁷⁷.

Insonning to'rt unsurdan yaratilishiga doir aqidalarga tayangan holda tasavvuf vakillari bir necha "to'rt"liklarni kashf etilganligini avvalgi ishlarimizda qayd etib o'tganmiz¹⁷⁸. Professor Ibrohim Haqqul to'rt

¹⁷⁴ Qarang: Elmira Fikrətoqizi. Vücutnamələrdə mətənlərə əlaqə. – Baki, 2018. – S. 147-148.

¹⁷⁵ Inson ona botinida bo'lganda to'rtinchi oy juda muhim sanaladi. Chunki aynan shu davrda unga ruh ufuliladi.

¹⁷⁶ Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 1993. 1-жилд. – Б. 14-15.

¹⁷⁷ Умар Хайём. Рубоийлар. – Тошкент, 1991. – Б. 115.

¹⁷⁸ Qarang: Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 24-25.

unsur xususida so'z yuritar ekan, so'fiylar tomonidan nafs martabalari to'rt unsurga qiyos qilinganligini ta'kidlaydi: "Nafsning bu martabalarini keyinchalik so'fiylar anosiri arba'aga qiyoslashgan. Chunonchi, nafi ammora olovga, nafi lavvoma shamolga, nafi mulhama suvga, nafi mutmaina tuproqqa o'xshatilgan. Bularning har biriga o'n xususiyat nisbat berilgan – bunday moddiylashtiruv esa nafsni, demakki, insonning o'zligini yaqinroqdan anglashga xizmat qilgan"¹⁷⁹. Demak, to'rt unsur nafsning to'rt martabasiga qiyos qilinar ekan, inson komillikka erishish asnosida ushbu unsurlar ta'siridan chiqishga harakat qiladi:

*Tark eturman nor ila xokni, bodu parni aslida
Shash jihatdan man chiqam, bejon o'lam, betan*

*o'lam*¹⁸⁰, –

deydi Yunus Emroning lirik qahramoni. Alisher Navoiy esa to'rt unurni inson ruhini ushlab turgan "chormix"ga qiyos qiladi va imkon boricha undan qochishga undaydi:

*Desang, falakka chiqay, foni o'lanosirdin,
Nedinki, ruhungadur chormix bu to'rtov*¹⁸¹.

XV asr olimi Ali Qushchi asarlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, olim butun olamdagi jismlarni ikkiga ajratganligining guvohi bo'lamiz. Osmon va undagi jismlar "falakiy jismlar" deyilib, ular "yuqori olam" sanalgan. Ikkinchi guruhdagilarga "unsuriy jismlar" deyilgan, bunda to'rt unsur – tuproq, suv, olov va shamoldan iborat bo'lgan hamda ularning asliga tegishli jismlar nazarda tutilib, ular "quyi olam" deyilgan¹⁸². Insonga "olami sug'ro" nomi berilgan. Chunki inson moddiy tuzilishi jihatdan olamda mavjud to'rt unurni o'zida mujassamlashtirgan. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidan olingan:

¹⁷⁹ Иброҳим Ҳаққул. Аносири арбаъа: моҳият ва шеърӣ талқин / Навоӣга қайтиш. 4-китоб. – Тошкент: Тафаккур, 2021. – Б. 36-37.

¹⁸⁰ Yunus Emre. Divan. – Ankara, 1990. – S. 215.

¹⁸¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 511.

¹⁸² Али Қушчи. Кўрсатилган манба. – Б. 34.

*Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid,
Bo'lub inson xilqatida muttahir*¹⁸³, –

baytida ham “to'rt zid” – “anosiri arba'a” deb ataluvchi to'rt unsurga ishora bor. Bu to'rt unsurdan bir-birini rad etuvchi, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan to'rt xususiyat maydonga kelgan. “Tasavvuf falsafasiga binoan ushbu to'rt unurning har biridan to'rt xususiyat, to'rt holat, to'rt mayl va to'rt sifat yuzaga keltirilganmish. 1. Tuproq-dan – sabr, umid (xudoning marhamatiga), ezgu xulq va muruvvat. 2. Suvdan – quvonch, saxovat, nazokat, birlik. 3. Shamoldan – yolg'on, ikkiyuzlamachilik, sabrsizlik, tantiqlik. 4. Olovdan nafs, kibr, ta'ma, hasad... tuproq va suv – jannat mulki, shamol va olov – do'zax ichidagi narsalar”¹⁸⁴. Tasavvuf ahli bu to'rt unurning to'rt xil xususiyat va sifatlaridan kelib chiqqan holda tariqat vakillariga ta'rif berishgan: Obid tuproq uzradir, Haqdan keladigan har narsani sokinlik bilan qabul qiladi. Zohid yel uzradir, Haqdan keladigan narsalar qarshisida yaxshisiga shod, yomoniga mahzun bo'ladi. Oshiq o't (olov) uzradir, ko'zini boqqan yerdan, qo'lini qilayotgan ishidan olmaydi. Muhib suv uzradir, ma'rifat bilan qayerga yo'l ko'rsatilsa, o'sha tomonga yuradi. Yoki Umar Jaylonning “Tasavvufiy she'r sharhlari” kitobida keltirilishicha, to'rt unsur to'rt farishtani tamsil aylaydi, ya'ni olov – Azroilni, suv – Mikoilni, havo – Isrofilni, tuproq – Jabroilni. Azroil (a. s.) jon oluvchi bo'lganidek, olov tushgan joyda hayot nishonasi qolmaydi. Suv Mikoil (a. s.) singari jonlantiruvchidir. Suv otashni so'ndiradi, olov esa suvni isitadi. Havo Isrofil (a. s.) hukmida bo'lib, hayvonot va o'simliklar olami u bilan tirik. Suv singari hayotning davomiyligiga vasila sanaladi. Tuproq Jabroil (a. s.)ning ramzidir. Dunyoviy jismlarning boshlang'ichi ham, oxiri ham tuproq. Hazrati Odamning xilqati uchun

¹⁸³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 9-jild. – Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 7.

¹⁸⁴ Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 60.

kerak bo'lgan tuproqni zamindan olish vazifasining dastlab Jabroilga buyurilganligi ham bejiz emasdir¹⁸⁵.

Shuningdek, islomiy qarashlarga ko'ra, olam ham jismoniy, ham ruhoniy jihatdan to'rt raqami asosida paydo bo'lganligi sababli bu raqamga alohida e'tibor bilan qaraladi. To'rt mazhab, to'rt farishta, to'rt ariq (yoki irmoq), to'rt ruh, to'rt kitob singari to'rtliklar qatoriga so'fiylar ham qator to'rtliklarni qo'shishgan. Chunonchi, to'rt pir, to'rt rahbar, to'rt qush, to'rt daryo, to'rt o'lim, to'rt javhar kabi tushunchalarda bu raqamning erkin o'rin egallaganini ko'rishimiz mumkin. Tasavvuf vakillari inson kamolotiga oid tushuncha va qarashlarini ham ko'p hollarda to'rt raqami vositasida bayon etishgan. Masalan, Abdulloh bin Xubayq bin Sobiq Antokiy q. s. shogirdlariga nasihat qilar ekan, shunday deydi: “...to'rt nimadurki, andin guriz yo'qdur: ko'z va til va ko'ngul va havo. Ko'zungni asraki, har neki Xudoyi taolo pisand qilmag'ay, anga boqmag'ay va tilingni asraki, bir nima demagayki, Xudoyi taolog'a aning xilofi ko'nglungda zohir bo'lg'ay va ko'nglungni asraki, hech musulmonning hiqdi va g'illi anda bo'lmag'ay, havongni asraki, hech noshoyistqa moyil bo'lmag'ay. Vaqtiki, senda bu to'rt xislat bo'lmag'ay, kul boshingga sovurki, badbaxt bo'lding”¹⁸⁶. To'rtlikka asoslangan bunday misollarni tasavvuf adabiyoti namunalaridan ko'plab keltirish mumkin, ammo bular faqat sanoq uchun aytiladigan xislat va fazilatlar bo'lmay, badiiy ijodda, xususan, irfoniy adabiyot namunalari tahlilida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlaridir.

Sharq adabiyotida yetti ko'k, yetti samo, yetti osmon, yetti falak singari tushunchalar juda ko'p uchraydi va bu osmonning yetti qavatdan iborat ekanligiga ishora qiladi. Ammo mumtoz shoirlarimiz samoviy olam, jum-

¹⁸⁵ Qarang: Omür Ceylan. Tasavvufi Şiir Şerhleri. – İstanbul, 2000. – S. 173-174.

¹⁸⁶ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 10-jild. – Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 128.

ladan, yetti ko'k xususida so'z yuritganda hamma vaqt ham jismoniy mavjudliklarni emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga diqqatni jalb etishgan. Masalan, "Farhod va Shirin" da Navoiy shunday deydi:

*Tanidin to'rt gavhar naqshi borib,
Bo'yi olti jihat to'nin chiqorib.*

*Demakim, to'rtu oltidin mubarro
Ki, beshu ikkidin dog'i muarro.*

*Chiqorib o'zlugi tufrog'idin gard,
Ne o'zlukkim, o'zidin ham bo'lub fard*¹⁸⁷.

Irfoniy asarlarda komil inson masalasini yoritish va to'g'ri anglash uchun ularda qo'llanilgan yetti falak, yetti sayyora, yetti iqlim, yetti daryo, yetti tavr, yetti ruh, yetti nishon singari o'nlab iboralarning mazmun-mohiyatini bilish talab etiladi.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi:

*Chu obog'a bu nav' berding sifot,
Alar tahtida aylading ummahot.*

*Ato yetti-yu, to'rt qilding ano,
Natija uch etding bulardin yano*¹⁸⁸, –

misralarida qo'llanilgan raqamlar ham bevosita insonning yaratilishi bilan bog'liq mohiyatni o'zida jamlagan. Raqamli birikmalarga e'tibor qaratamiz: "yetti ato", "to'rt ano", "uch natija", ya'ni farzand. "Yeti ato" dan maqsad yetti ko'kdir. Ba'zi o'rinlarda yetti ko'k emas, to'qqiz ko'k deb ham qo'llanilgan. "Tasavvufiy she'r sharhlari" kitobida Ismoil Haqqiy Bursaviyga tegishli bir ma'lumot qayd etilgan: "Surati insoniyya to'qqiz ota, to'rt

¹⁸⁷ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 321.

¹⁸⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 11.

ona va uch boladan iborat erur. To'qqiz otadan murod – to'qqiz ko'k falagi, to'rt onadan maqsad – havo, otash, suv va tuproq, ya'ni to'rt unsur. Uch farzanddan murod esa o'simlik, ma'dan va hayvon, ya'ni mavolidi salosadir"¹⁸⁹. Mohiyat o'z-o'zidan ravshanlashdi va Navoiy "yetti ato" deganda yetti ko'kni, "to'rt ano" deganda to'rt unurni hamda "uch natija" da uch xil yaratiq – nabotot, jamodot va hayvonot olamini nazarda tutgan.

Ba'zi o'rinlarda ko'klarga nisbatan "ona" sifatlashi qo'llanilgan holda unsurlar "ota" deya tilga olinadi. Masalan, Navoiyning quyidagi baytida "to'qqiz ano" – to'qqiz ko'kni, "to'rt ato" – to'rt unurni anglatish uchun xizmat qilgan:

*Nekim to'qqiz ano-yu to'rt atodin fitna-yu ofat,
Bo'lur voqi, anga ul ofati fatton erur voris*¹⁹⁰.

So'fiylar nazarida to'rt ota bor, ya'ni ular ruhoniylar jihatdan ruhi Muhammadiyani, jismoniy tomondan hazrati Odamni, rasullik sifatining ilk sohibi bo'lganligi ma'nosida hazrati Nuhni, birinchi bora musulmon deb atalganligi uchun islom nuqtayi nazaridan hazrati Ibrohimni ota deb qabul qilganlar. Ammo Navoiy bularni nazarda tutmagan. Shoirning fikri to'rt unsurga qaratilgan. Chunki baytda anosiri arba'a – to'rt unsurga ishora qilingan.

Yuqoridagi tushunchalarni to'g'ri anglash va she'riyat tahlilida chalg'imaslik uchun "Gulshani roz" asaridan olingan ushbu ma'lumotlarga e'tibor qaratish ham ortiqchalik qilmaydi: "Inson o'z suratida zohir aylashdan oldin ona rahmida va ota belida bir qatra suvdan iborat edi. Ota-ona shu bir qatra suvni yegan narsalaridan, ya'ni hayvonot, nabotot va jamodotdan to'plashgan. Bu uch borliqqa to'rt unsur ona, to'qqiz ko'k ota erur, ya'ni jamodot, nabotot va hayvonot to'rt unsur va to'qqiz qat

¹⁸⁹ Omür Ceylan. Tasavvufi Şiir Şerhleri. – İstanbul, 2000. – S. 189.

¹⁹⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jildlik. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 96.

ko'kdan paydo bo'lgan"¹⁹¹. Keltirilgan ma'lumotlar bevosita insonning yaratilishiga daxldor mulohazalardir. Ammo insoni komil masalasiga kelganda, yetti ko'kka butunlay boshqacha yondashilgan va bu tushunchaga o'zgacha ramziy-majoziy mazmun singdirilgan.

Aziziddin Nasafiyning fikriga qaraganda, insonning ichki a'zolari – o'pka, miya, buyrak, yurak, o't xaltasi, jigar va taloq singari organlar yetti ko'kni tamsil etadi. Nasafiy yozadi: "O'pka bir ko'k bo'lib, Oy falagini aks ettiradi. Chunki Oy buyuk olamning o'pkasi bo'lib, har ikki olamning o'rtasidan joy olgan. Bu falakda malaklar ko'p. Suv va mo'tadil havoning muvakkili bo'lmish malak o'sha malaklarning rahbari hisoblanadi. Miya – ikkinchi ko'k. Utorid (Merkuriy) falagining ko'zgusidir. Zero, Utorid ulug' olamning miyasidir. Bu falakda ham malak bor. Yozuv va ilm tahlili ila shug'ullanish tadbirini boshqaruvchi malak ularning sardoridir. Nomi – Jabroil. Buyrak uchinchi ko'k bo'lib, Zuhra buyuk olamning buyragi hisoblanadi. Bu falakda ham malaklar ko'p. Sevinch, shahvat, halovat muvakkili bo'lgan malak shu malaklarning rahbaridir. Yurak to'rtinchi ko'k bo'lib, Quyosh falagining ko'zgusi. Zero, Quyosh olami kubroning yuragi. Bundagi malaklarning rahnamosi hayot vakili bo'lgan bir malakdir. O't xaltasi – beshinchi ko'k. U Mirrix falagining oynasi. Bundagi malaklarning yo'lboshchisi qahr, g'azab, jazo va qatl qilish muvakkili bo'lgan bir malakdir. Jigar oltinchi ko'k bo'lib, Mushtariy falagining oynasidir. Undagi malaklar peshvosi rizq malagi. Olimlarga ham shu malak rizq ulashadi. Taloq – yettinchi ko'k. Zuhra falagining ko'zgusi. Azroil shu ko'kdagi malaklar rahbaridir"¹⁹².

Demak, ushbu fikrlar irfoniy adabiyotda samoviy olam, jumladan, yetti yoki to'qqiz ko'k xususida so'z yuritilganda har doim ham jismoniy mavjudliklar

emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga e'tibor qaratilgan, degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. Chunki komil inson nazariyotchilari mavjud olamda bor hamma narsa odamda ham bor, komil inson faqat yerdagi emas, samodagi barcha narsalarni ham o'zida jamlagan, degan fikrda qat'iy turishgan.

Umuman olganda, islom dini va tasavvuf falsafasi bilan bog'liq bir qancha yettiliklar borki, ular ba'zan ramz sifatida qo'llanilsa, ba'zan raqam mohiyatini yoritish uchun xizmat qiladi. Shulardan yana ba'zi birlariga e'tiborni qaratamiz: haft qalam – yetti yozuv, yetti xil arab xati: suls, muhaqqiq, tavqe', rayhon, riqo', nasx, ta'liq. Haft andom – insonning yetti a'zosi: bosh, ko'krak, qorin, ikki qo'l, ikki oyoq¹⁹³. Allohga sajda qilish, ya'ni namozda inson ana shu yetti a'zosi bilan sajdaga egilishini nazarda tutgan irfon ahli orif bu yetti a'zosi bilan Allohni zikr etadi, – degan fikrda sobit turadilar¹⁹⁴. Haft rangi gunogun – yetti sayyoraga nisbat berilgan yetti xil rang. Bular: Zuhra – qora, Mushtariy – jigarrang, Mirrix – qizil, sariq (zard) – Quyosh, oq – Zuhra, havorang – Utorid, yashil – Oy sayyorasining rangi sifatida e'tirof etiladi¹⁹⁵. Shuningdek, qalbning yetti qismi (atvori dil): Sadr (ko'ks) – islom javhari, Qalb – imon javhari, Shegaf, Fuod, Ko'ngil, Suvaydo, Muhjatul qalb; avolimi sab'a – yetti olam: olami shahodat, olami misol, olami arvoh, olami jabarrut, olami nasut, olami haqiqat; atvori sab'a – yetti tavr: tab, nafs, qalb, ruh, sir, xafiy, axfo. Ba'zi mutasavviflar bu tavlarni yetti qat samoga, yetti dengizga, yetti vodiya, yetti iqlimga o'xshatishadi. Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Alisher

¹⁹¹ Махмуд Шабустарий. Гулшани роз. – Истанбул, 1993. – Б. 75-77.

¹⁹² Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. – Тошкент: F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. 73-бет.

¹⁹³ Фарҳанги забони тоҷик. 2 жилдди. 2-жилд. – Москва, 1969. – Б. 738.

¹⁹⁴ Süleyman Uludağ. Tasavvuf Terimleri Sözlüğü. – İstanbul, 1995. – S. 234.

¹⁹⁵ Фарҳанги забони тоҷик. 2 жилдди. 2-жилд. – Москва, 1969. – Б. 738.

Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlarida bu yetti tavr yetti vodiy shaklida tasvirlangan: ishq, ma’rifat, istig’no, tavhid, hayrat, faqru fano.

Orif yetti a’zosi bilan Allohni zikr etishi, shu yetti a’zosi bilan sajdaga egilishi nuqtayi nazaridan haft andom tushunchasiga alohida e’tibor qaratilganligini yuqorida ta’kidlab o’tdik. Yassaviyning quyidagi hikmatida toat-ibodat jarayonida Alloh zikrida faol bo’ladigan yetti a’zoga e’tibor qilinmoqda:

*Olloh deyu qayda borsa, shayton qochor,
Yetti azo hamdin aytib go’yo bo’lur*¹⁹⁶, –

Ammo yetti andom deyilganda, har doim ham insonning sajdada faol bo’lgan yetti a’zosi tushunilmaydi, balki botinda Alloh muhabbatini qalbga joylagan, uning ishq bilan iztirob chekadigan a’zolar ham nazarda tutilganki, “G’iyos ul-lug’ot”da ular dimog’, yurak, jigar, taloq, o’pka, safro, me’da singari yetti andomdan iborat ekanligi qayd etilgan¹⁹⁷.

Yusuf Xos Hojib:

*Ruhu yetti andom ko’ngulga qarar,
Ko’ngul birla inson mashaqqat chekar*,¹⁹⁸ –

deganida bu yetti a’zo ruh bilan birga ko’ngilga bo’ysunishi va inson chekayotgan azob-uqubat-u mashaqqatlarining eng og’iri ko’ngil og’riqlari ekanligini nazarda tutmoqda.

So’fiyona adabiyotda haq oshiqlarining “yetti andom”i ham ishq o’tida yonishi qalamga olinadi. Yassaviyning quyidagi misralarida ana shu jihatga urg’u berilgan:

*Orif oshiq jon mulkida alam tortsa,
Yetti azo toqat qilmay larzon bo’lur*¹⁹⁹.

¹⁹⁶ Хожа Аҳмад Яссавий. Умринг елдек ўтаро. – Тошкент: Мухаррир, 2020. – Б. 301.

¹⁹⁷ Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. 2-жилд. – Душанбе: Адиб, 1988. – Б. 388.

¹⁹⁸ Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. – Б. 71.

¹⁹⁹ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 300.

Alisher Navoiyning ushbu misralari ham fikrimizni dalillaydi:

*Tushti joni pok farjomig’a ishq,
Kirdi qondek yetti andomig’a ishq*²⁰⁰.

Yetti daryo yoki yetti dengiz deganda yer yuzidagi eng yirik va ulkan dengizlar hisoblangan Chin (Xitoy) dengizi, Axzar dengizi, Ummon dengizi, Qulzum yoki Ahmar dengizi, Barbar yoki Uqyonus dengizi, Rum dengizi, Qora dengizlar nazarda tutilgan²⁰¹. Ba’zan esa dengiz tushunchasi Haqning sifat va zot maqomini anglatib, dunyodagi butun borliq bu dengizning hisobsiz irmoqlari sifatida e’tirof etiladi. Gohida ummon deganda, vahdat (birlik), dengizning irmoqlari deganda esa kasrat (ko’plik) e’tiborda tutiladi. Dengizlar nomi tasavvufda quyidagi nomlar bilan yuritiladi: Bahri ayon – ochiq dengiz: tajalliy nurlari; Bahri hasta – borliq dengizi: qudsiy va ilohiy tajalliylar; Bahri otash – otash dengizi: ishq dengizi; Bahri muvaddat – do’stlik dengizi: Haqqa bo’lgan so’ngsiz muhabbat, ilohiy ishq; Bahri ato – lutf dengizi: Haqning doimiy fayzi; Bahri muhit – O’qyonus dengizi: Ollohning tuganmas nuri, Aziziddin Nasafiya ko’ra, insoni komil; Bahri biloshotiy – sohili yo’q dengiz: so’fiyning Olloh bilan davomli va uzilishsiz holi. Boyazid Bistomiy payg’ambarlarning bir joyda yig’ilishlarini bir dengizga aylanganliklariga qiyoslaydi. “Sab’ati abhur” deb nomlangan bu yetti dengiz oriflarning yetti yo’li, mashrabini anglatish uchun ham xizmat qilgan: sakr, vajd, berk, hayrat, shuhud, nuri qurb, valoyati vujud²⁰². Hujviriy nazarida soliklar zikr kemasi bilan shariat, ibrat, hikmat, ma’rifat, asror, haqiqat, qudrat singari ilm daryolaridan murshidlarining ko’rsatmalariga amal

²⁰⁰ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jidlik. 9-jild. – Toshkent: G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 98.

²⁰¹ Фарҳанги забони тоҷик. 2 жилди. 2-жилд. – Москва, 1969. – Б. 738.

²⁰² Süleyman Uladağ. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul, 1995. – S. 453.

qilib, kechib o'tadilar va nurlar olamiga yetishadilar²⁰³. Demak, so'fiylar Yaratuvchining yagona ekanligini, borliqning esa ko'p va xilma-xil ekanligini to'liq tasavvur qilish uchun dengizni misol tariqasida qo'llaydilar.

Sharq adabiyoti, umuman, tasavvuf adabiyotida yetti tomug', ya'ni yetti do'zax to'g'risidagi fikrlar ancha barqaror. Yassaviyning:

*Bir oh ursa, yetti do'zax o'rtab-ko'ygay,
Dudi chiqsa, oyu kunni tutar ermish*²⁰⁴.

Yoki

*Bir oh ursa, yetti do'zax o'rtab-kuyar,
Molik chiqib, anga ta'zim qilar ermish*²⁰⁵.

Shuningdek,

*Yetti do'zax toqat qilmas bir ohig'a,
Subhon egam oshiq'larga qozi bo'lg'ay*²⁰⁶, –

singari misralarida yetti do'zax haqidagi tushunchaga urg'u berilganligini ko'ramiz. Lekin tariqat ahli do'zax va jahannam ishonchida diniy fikr-mulohazalar bilan kifoyalanib qolmasdan, jahannam va uning azob-u qiynoqlarini insonning o'zidan, yanada aniqrog'i, uning nafsni hamda nafsoniy hirslaridan axtarganlar. E'tiborli jihati shundaki, inson tabiatidagi yetti nomaqbul illat, ya'ni kibr, hirs, kin, g'azab, buxl, shahvat, hasad singarilar do'zaxning yetti tabaqasiga nozirlik qiladi, deb qaralgan. Insonning quloq, ko'z, til, qo'l, qorin, jinsiy organ va oyoqlari esa jahannamning yetti darvozasiga nozirlik qilishlari, bular isloh qilingandan keyingina inson jannatga doxil bo'lishi kabi qarashlar ham so'fiylar orasida ancha bardavom bo'lgan. Bu qarashlar adabiyotga ham kirib kelib, mutasavvif shoirlar o'z asarlarida nafsqa qarshi kurash e'lon qilganliklarining, nafsni jilovlash, uni tarbiya qilishga chaqiriqlar yangraganligining asl sababi shudir.

²⁰³ Hucviriyy. Keşful Mahcüb. – İstanbul, 1999. – S. 158.

²⁰⁴ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 164.

²⁰⁵ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 156.

²⁰⁶ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 130.

Irfoniy asarlarda uch yuz oltmish olti raqami bilan bog'liq badiiy tasvirlarga ham duch kelamiz. "Uch yuz oltmish tomir", "To'rt yuz qirq to'rt so'ngak" ifodalari tasavvuf adabiyotining maxsus janri bo'lgan vujudnomalarda keng shahrlangan. Tasavvufiy asarlarda olamda mavjud narsalarning barchasi insonda ham bor, degan qarash ustuvor ekanligini yuqorida qayd etib o'tdik. Quyidagi baytlar buning yana bir isboti o'laroq e'tiborni tortadi:

*Ko'rurman bir ulug' shahri muazzam
Unga teng kelmas na Misru na Shom.*

*Yetti yuz yetmish yettidir mahlas
Olama to'lmish ul shaharning g'avg'osi.*

*Uch yuz oltmish olti chorsudir bozor
Har neki bordur jahonda anda bor.*

*O'n ikki burj-u badani bor tamom
To'rt yuz qirq to'rt sipohi saqlar mudom.*

Qayg'usiz Abdolning bu misralarida Misr va Shomdan ham yirik bir shahar tasviri bor. Shahar ko'pdan-ko'p mahalla va chorsularga ega bo'lib, to'rt yuz qirq to'rt navkar bu shaharni qo'riqlab turibdi. Bunda shoirning asl maqsadi nima? Bu muddao turk olimi Abdurahmon Go'zalning quyidagi izohlaridan keyin ravshanlashadi: "Bu baytlardagi shahar, yetti yuz yetmish yetti mahalla, uch yuz oltmish olti chorsu, o'n ikki burj va to'rt yuz qirq to'rt sipohi haqiqiy ma'noda nimani anglatadi? Qayg'usiz Abdolning "Vujudnoma" va "Dilkusho" asarlarini tadqiq etganimiz zamon yuqoridagi kalima va iboralar majoziy mazmunda ishlatilganligini anglab olamiz. U "Dilkusho"da shunday yozadi: "Odamning vujudi muazzam bir shahardir, har nekim jumlayi olamda bor bo'lsa, ul shaharda ham mavjuddir. Ul shaharning o'n ikki darvozasi bordir... Odamning vujudi uch yuz oltmish olti tomir, yetti yuz yetmish yetti asab,

to'rt yuz qirg to'rt parcha suyakdir"²⁰⁷. Ushbu raqamlar inson tanasidagi tomir, asab va suyaklar soniga ishora ekanligi ayonlashadi.

Vujudnoma mazmunidagi asarlardan farqli ravishda ba'zan bu raqam ma'naviy ruhoniylarga ham ishorat qiladi. Abdulaziz Dabbog'ning quyidagi fikrlari shu haqda: "Ruhning uch yuz oltmish olti siri bordir. Ulardan biri shudir: agar ruh uningla zotga yo'nalib imdod aylaydigan bo'lsa, zot davomli tarzda yig'lashga boshlaydi. Boshqa bir sirini unga uzatadigan bo'lsa, zot davomli tarzda kulib-quvnaydi, o'zga bir sirni yuborsa, uzluksiz baqirib-chaqiradi. Ammo ruh faqat dard va kadam o'lchamiga ko'ra zotga sirlarini uzata oladi"²⁰⁸. Garchi o'zbek tasavvuf adabiyoti namunalari uch yuz oltmish olti raqamini yuqoridagi ma'noda ishlatilganligi ko'zga tashlanmasa-da, uch yuz oltmish tomir tushunchasi bir necha o'rinlarda kelganligiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, Yassaviy hikmatlaridan birida shunday misralar bor:

Og'zi aytmas, tili aytmas, dili aytar,

Uch yuz oltmish tomurlari larzon qilur"²⁰⁹.

"Mirot ul-qulub" asarida esa uch yuz oltmish olti tomir so'zining tasavvufiy ma'nosi quyidagicha tushuntirilgan: "Agar biror kimsa bu nomlari kelgan g'ayb eranlari va ruhlardan ijozat olib, shayxlik maqomida murid va do'stlari bilan xilvatga kirsam, bunday shayxni g'ayb eranlari tarbiya qilib tariqatni o'rgatarlar va unga yordamchi bo'lurlar. Murid va do'stlari ham bu xilvatdan vajd va zavq olarlar. Bu holga sakr maqomi deyiladi. Bu maqomda solikda ba'zi narsalar zuhur etadi. G'ayb maqomidan nima kelsa bunga rozi bo'ladi. Va yo shayx muridning uch yuz oltmish olti tomiridan ba'zisidan rozi, ba'zisidan rozi bo'lmaganiga voqif bo'ladi". Demak, bu ma'lumotdan uch yuz oltmish olti tomir holati inson

tiynatida zuhur etishi, uning kayfiyati va sulukdagi darajasi bilan uzviy bog'liq ekanligi anglashiladi.

Shuningdek, tasavvuf arboblari insonning ona qornida paydo bo'lishidan to dunyoga kelgunigacha bo'lgan vaqtda ma'lum bir sayyoralar rahnamolik qilishlari xususidagi fikrlarni qat'iy dalillashga harakat qilishgan. Masalan, Qayg'usiz Abdol o'zining "Vujudnoma" asarini "Mu'minun" surasining 12-14-oyatlarini berish bilan boshlagan²¹⁰. Ona qorniga tushgan nutfani yetti sayyora tarbiya qiladi va inson ana shu yetti sayyora tarbiyasida voyaga yetadi. Zuhul tarbiyasida qon hosil bo'ladi, Mirrix tarbiyasida et hosil bo'ladi, Zuhra tarbiyasida suyak, Quyosh tarbiyasida ruh, Utorud tarbiyasida harakat hosil bo'ladi. Oy tarbiyasida vujud shakllanadi, Mushtariy rahnamoligida esa inson dunyoga keladi²¹¹, – deydi muallif. Biz bu asarda tabiat va olamdagi juda ko'p narsalarning inson vujudi bilan bog'liq holda tasvir etilganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, insonning bosh, qosh, ko'z, quloq, bo'yin, ko'krak, oshqozon, qo'l, barmoq, tizza, boldir, tovon singari o'n ikki a'zosi o'n ikki burjga muqoyasa qilinadi. Yoki to'rt farishta insonning to'rt a'zosiga mushabbihdir, deyilgan. Bular: Mikoyil – quloqqa, Isrofil – burunga, Azroil – ko'zga, Jabroil – og'izga. Marotibi arba'a – shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat tushunchalari ham to'rt faslga qiyos qilinadi. Qish – shariatga, yoz – tariqatga, kuz – ma'rifatga, bahor – haqiqatga o'xshatiladi. Marotibi arba'aning inson yaratilishi hamda bu dunyoda yashashida o'rni va ahamiyatiga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu ma'lumotlar shunchaki qayd etish uchun emas, balki adabiyot va san'atdagi ba'zi holatlarni aniqlashga ko'mak beradi. Xususan, Sharq adabiyotida inson umrini to'rt faslga qiyos qilib, shu qiyosga asosan devon tartib berish

²⁰⁷ Абдурахмон Гўзал. Кўрсатилган асар. – Б. 674.

²⁰⁸ Abdūlaziz Debbağ. Kitāb ūl-İbriz. – İstanbul, 1997. – S. 15.

²⁰⁹ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 116.

²¹⁰ Bu oyati karimalarda homilaning ona qorniga tushishi va rivojlanish bosqichlari haqida so'z boradi. Qarang: Куръони карим. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 342.

²¹¹ Qarang: Kaygusuz Abdal. Gülistan. – Ankara, 2022. – S.113-119

an'anasi o'z-o'zidan paydo bo'lmaganligi ayonlashadi. "Vujudnoma"da qayd etilishicha, marotibi arba'a bilan inson yaratilishi, dunyoga kelishi, yashashi va, nihoyat, bu dunyoni tark etishida ham bog'liqlik bor. Shunga ko'ra, vujudning ona qornidaligi shariatga, dunyoga kelishi tariqatga, insonning olamda yashashi ma'rifatga, dunyodan ko'z yumishi haqiqatga o'xshatiladi.

Shuningdek, tasavvuf adabiyotida yana shunday asarlar yaratilganki, ularda bu dunyo olti darvozasi bor bo'lgan bir saroyga o'xshatilgan, tepasida yetti tabaqa ko'k, pastida yetti qavat yer bor. Har bir tabaqaning odamlar bilan to'la bo'lib, bu munaqqash saroy yuz minglarcha naqshga egadir. Oy, quyosh, yulduzlar, kecha va kunduz, yoz va qish bu saroyning ayvonidirlar. Saroy podshohning mulkidir. Podshoh insonlarni aql sohibi qilganligidan ular saroyning sohibi Alloh ekanligini, u insonlarni olamdagi har bir yaratilishning gultoji aylaganligini tushunadilar. Insonlarning ba'zisi Allohni tanib, komillik darajasiga ko'tarilishi, ba'zilar esa umrini behudaga sarflashi qayd etiladi.

Tasavvufiy doiralarda diniy naqshlar, ayniqsa, Muhammad payg'ambar (s. a. v.) ismiga aloqador so'zlarni qirq marta takrorlash juda samarali, degan gap bor. So'fiylarda sabr-toqatni sinash, yangi, yaxshi damlarga tayorgarlik ko'rish bilan birga ruhiy poklanish va musaffolanishga yetishish istagi ustunlik qiladigan qirq kunlik chilla o'tirish odati bevosita raqam bilan bog'liq. Ma'lum bir muddat dunyoviy mashg'ulot va o'tkinchi orzu-havaslardan yiroqlashib, nafsni tarbiyalash, ibodat va zikr bilan vaqt o'tkazishning aniq bir muddati ko'rsatilmagan bo'lsa-da, qirq kun xilvatda o'tirish an'anaga aylangan. Bunda Qur'ondagi "Muso bilan o'ttiz kechaga va'dalashdik. So'ngra uni yana o'n (kecha) bilan to'ldirdik. Shunday qilib, Rabbining qirq kecha deya belgilagan vaqti kamolga yetdi"²¹², – degan oyatga asoslanilgan.

²¹² Куръони карим. "Аъроф" сураси. 142-оят. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 167.

Tariqatlarning ko'pchiligida "chilla" qirq kunlik muddat sifatida qaraladi. Ba'zi tariqatlarda qirq kun emas, ancha uzoq muddat (masalan, mavlaviylarda 1001 kecha-kunduz) xilvatda o'tirish an'anasi mavjud yoki ba'zi shayxlar uzoq muddat xilvatda qolishgan. Xususan, xilvatiya tariqati shayxi Abdulahad Nuriy (1651-yilda vafot etgan) ketma-ket qirq marta xilvatga kirganligi, ya'ni 1600 kun xilvatda qolganligi qayd etiladi. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Shayx Abulmakorim Ruknuddin Alouddavla Simnoniy (q. s.) haqida ma'lumot berar ekan, uning o'n olti yil davomida 140 marta chilla o'tirganligini, sayohatda yurganida esa 130 marta chilla chiqarganligini qayd etadi: "Va yetti yuz yigirmada Sakkokiya xonaqohida o'n olti yil muddatda yuz qirq arba'in chiqardilar. Derlarki, soyir avqotda yana yuz o'ttuz arba'in ham chiqaribdurlar"²¹³.

Xilvat quyosh shu'lalari va kunduz yorug'ligi kir-maydigan qorong'u bir yerda turli xil dunyoviy mashg'ulotlardan yiroqlashib ibodat qilmoqdir. Xilvat – xoli joy, tanholik, hech nimaga bog'lanmaslik, dunyoning xilma-xil g'avg'olaridan forig'lik deganidir. Tasavvufda esa bunday holda shayx rahnamoligi va ko'rsatmalariga binoan muridning maxsus bir go'shaga kirib, ibodat va zikr ila Alloh bilan aloqa bog'lashi anglashiladi. Kamida qirq kun davom qiladigan bu jarayonga "chilla" yoki "arbain chiqarmoq" deyilgan. Tasavvufda xilvat ikkiga ajratilgan: birinchisi – shariat xilvati, ikkinchisi – tariqat xilvati. Shariat xilvati ayb va nuqson sanalmish barcha gunoh-u yomonliklardan tavba qilishga asoslanadi. Bu xilvatning shartlari va odob qoidalarini to'liq ado etmasdan tariqat xilvatiga yuz burib bo'lmaydi. Shahobiddin Suhravardiyning e'tiroficha, tariqat xilvatidan maqsad bir talay g'aroyibot, ajoyibot yoki kashfiyotlarga shohid bo'lmoq emas, balki zikri ilohiydan o'zga murodlardan xoli bo'lmoqdir. Sayr-u suluk yo'lga

²¹³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 10-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 343.

kirgan solik holatini tasvirlar ekan, Alisher Navoiy buni aynan chillakashning holatiga yoki kecha va kunduz, tong va shomning farqiga bormaydigan “tifl” – chillali chaqaloqqa qiyos qilishi bejiz emasdi:

*Suluk-u sayrkim ko'rmishki gar chillanishin qori
Va yoxud chilla ichra tifl tengdur anda subh-u
shom*²¹⁴.

Xilvatga kirgan kishi tuyg'u a'zolarini jilovlaydi va shu yo'l bilan qalbiy tuyg'ularning ochilishiga erishadi²¹⁵. Xoja Yusuf Hamadoniy “Rutbat ul-hayot” asarida “Qalb zikrining nihoyasi qirq kundur. Bu muddat oxiriga yetganda nurlar jamlanib, qalbni shu'lalantiradi, his a'zolarining teshiklaridan tashqariga chiqadi”, – deydi²¹⁶. Tasavvuf olimlarining fikrlariga ko'ra, solikning zikrda oxirgi maqomga yetishi bu – tili bilan birga yetti a'zosining, hatto tuklari va tirnoqlarining ham zikrda ishtirok etishidir. Qalb a'zolarining zikrini eshitadi va ko'radi, haroratga keladi, natijada quvvat topib, u ham zikrga qo'shiladi. Fariddin Attor “Musibatnoma” asarida ushbu qirq kunlik chilladagi tasavvufiy tafakkur haqida so'z yuritadi. Bu mavzu juda keng tarqalgan bo'lib, ularda qirqta sinovdan o'tgan avliyolarning o'lim vaqtidagi holatlari ham tasvirlangan.

Chilla chiqarish asosan, shayxlar huzuridagi xonaqohlarning maxsus chillaxonalarida amalga oshirilgan. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ba'zi shayxlar o'z qo'llari bilan chillaxona qazib, o'sha yerda chilla chiqarganliklari haqida ma'lumot keltirilgan bo'lsa (“Xoja Hojiyi Makkiy mazori yonidakim, Shayx Abu Ishoq Shomiy ani ko'p ziyorat qilur ermish yerda chillaxona o'z muborak iligi bila qazib, o'n ikki yil anda

basar eltibdur”²¹⁷), ba'zi shayxlarning turli joylarda, hatto daraxt ustida chilla chiqarganliklari (“Mashhur mundoqdurki, alar (Shayx Nizomiy. Dj.S.) suluk ayyomida qirq arba'in chiqaribdurlar va to'rt arba'inni bir daraxt ustida chiqaribdurlar”²¹⁸) haqida ma'lumot berilgan. Chillaga kirgan kishi oz yeb, oz ichishi, toatibodat bilan mashg'ul bo'lishi, dunyoviy orzu-istaklardan voz kechishi muhim sanalgan. Zero, ochlik so'fiylarning sifatlaridan bo'lib, inson ruhini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Mo'tabar kitoblarda aytilishicha, ochlik muridlarning riyozati, zohidlarning siyosati, oriflarning ikromidir. Ochlik – nur, to'qlik – nor (olov)dir. Navoiyning yuqoridagi asarida Abdulloh bin Muhammad Xarroz (q. s.)ning “Ochlik – zohidlar taomi, zikr – oriflar taomi” deganligi, aytib o'tiladi²¹⁹. Ochlik bilan qalb ravshanlashadi, yorqin va sezgir bo'ladi. Qalbning latiflanishi yaxshiliklarning boshlanishi bo'lganidek, qalb qattiqligi barcha yomonliklarning kalitidir. Shu sababdan ochlik azobiga sabr qilganlarga Alloh taolo yaxshi ajr va mukofotlar berishi qayd qilingan. Chillaga kirgan kishi shuning uchun ham imkon darajasida kamroq ozuqa bilan qanoatlanishga harakat qiladi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, ularga qirqta xurmo berilib, har kuni bittadan kamaytirib borilgan. Alisher Navoiyning ma'lumot berishicha, Shayx Zahiruddin chilla vaqtida bor-yo'g'i to'rt marta ovqatlangan ekan: “Shayx Zahiruddin bir qatla arba'ing'a o'lturg'ondur. To'rt qatla iftor qilibdur. Qaynatqan bug'doy suyi, har o'n kunda bir qatla”²²⁰. Garchi bu ma'lumotlar manqibiy xarakterga ega bo'lsa-da, xilvatga kirgan muridning qalb sokinligiga erishish yo'li oson emasligini anglatadi.

Muhammad (s. a. v.)ning kuyovlari va to'rtinchi xalifa hazrati Alining qirq muridi borligi bu raqamga

²¹⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 442

²¹⁵ Bu haqda qarang: Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б. 78-79.

²¹⁶ Хожа Юсуф Ҳамадоний. Рисолалар. – Тошкент: Мовароуннахр, 2018. – Б. 45.

²¹⁷ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 277.

²¹⁸ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 479-480.

²¹⁹ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 181.

²²⁰ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 381.

e'tiqod qo'yishga yana bir dalildir. Tasavvufda arba'in – qirq avliyo tushunchasi ham muhim o'rin tutadi. Ibn Arabiyning "Futuhoti Makkiya" asarida "rijolul g'ayb" haqida batafsil ma'lumot berilgan. Tasavvufiy maslakda dunyoni boshqarish va ularga rahnamolik qilish vazifasi "rijolul g'ayb" zimmasida bo'lib, ular g'ayb eranlari, rijoulloh, mardoni xudo, mardoni g'ayb, hukumati ma'naviya deb yuritilgan²²¹. Uch yuz nafar ahyor, qirq abdol, yetti nafar abror, to'rt nafar avtod, uch nafar naqib va bir nafar qutb (g'avs) – ilohiy dargohning xizmatkorlaridir va ular bir-birlarini biladilar²²². Qutb azaldan Allohning nuri bilan qalbi munavvar bo'lgan valiy bo'lib, u o'z martabasida komil insonga tengdir. Alloh bilan insoniyat aloqasida vositachi. So'fiylar fikricha, qutb dunyoda Allohga ma'qul keladigan tartibni saqlab turishga da'vat etilgan, uning bir yuzi Allohga, ikkinchi yuzi insoniyatga qaratilgan. Naqiblar o'zida o'n xislatni jamlagan olim (shariat va tariqat ilmini mukammal bilgan), omil (ilmiga amal qiluvchi), ko'p safar qilib, ko'pni ko'rgan, rahbarlik va rahnamolik qilishga qobiliyatli, nasihatlarini yoqimli, yaxshilik va ezgulik sohibi, saxiy, go'zal xulqli, to'g'ri so'zli, sir saqlaydigan²²³ uch nafar valiydirlar. Ularni abrorlar, ya'ni yaxshilarning yaxshisi, deydlar. Avtodlar (tayanch, qoziq) dunyoning to'rt tomoniga mas'ul etilgan bo'lib, toat-ibodatda qoyim, valiylikning muayyan darajasiga erishganlardir. Abrorlar ma'naviy borliqlarini moddiy borliqlari o'rniga badal qilgan darveshlar, dunyoning ma'naviy posbonlari bo'lib, yetti iqlimga rahnamolik qilganlar. Chiltanlar qirq kishilik avliyolar jamoasi bo'lib, odamlar og'irini yengil

²²¹ Qarang: Иброҳим Ҳаққул. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 154.

²²² Аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой. – М.: Ганга, 2019. – С. 213.

²²³ Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Аб.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, . – Б. 29.

qiluvchi avliyolardir. Abdol – g'oyib kishilar toifasidan bo'lib, o'zlari xalq ichra bo'lsalar-da, ularning abdol ekanliklarini hech kim bilmaydi. Abdol fors va turkiy tillarda "chiltan" (qirq kishidan iborat) deb yuritiladi. Ulardan qaysi biri vafot etsa, o'rniga darhol yangisi tayin etiladi. Oldingi kishiga badal (o'rinbosar) bo'lib kelgani uchun ham ularga "abdol", ya'ni "o'rinbosarlar" deb nom berilgan. Ba'zi manbalarda ularning adadi 400 ta ekanligi qayd qilingan. Axyorlar – uch yuz nafardan iborat valilar jamoasi, Haqning sarhanglari (yo'l boshchilari) ahli holning aqdlari bo'lib, ilohiy rishta bilan Allohga bog'langan kishilardir.

Yirik shayxlar hayotiga nazar tashlansa, ellik, yetmish yoki yetmish ming marta bajarilgan ish harakatlar va ularning natijasi xususidagi fikrlarga duch kelish mumkin. Masalan, o'z davrining yirik diniy arboblari-dan biri Ismoil Dabbos hajga borishni niyat qilib yo'lga tushadi. Bir masjidga kirsa, Shayx Mo'min Sheroziy xirqasini yamab o'tirgan ekan. Salomlashgandan keyin shayx undan nima maqsadda yo'lga chiqqanligini so'raydi. – Hajni niyat qilib, yo'lga otlandim, – deydi Ismoil Dabbos. – Onang hayotmi? – deb suraydi shayx. – Hayot, – javob beradi yigit. – Qaytib borib, onangni xizmatini qil! – deydi shayx. Ammo bu gap Ismoil Dabbosga ma'qul kelmaydi. Shunda Shayx Mo'min Sheroziy aytadiki: – Nega to'lg'anasen? Men bosh yalang, oyoq yalang, yolg'iz o'zim safarga chiqib, ellik marta haj qildim. Shundan hosil bo'lgan barcha savobni senga berdim, sen onang ko'ngli shodligini menga ber!²²⁴

"Nasoyim"da keltirilishicha, Aburrabi' Kafif Molaqiy (r. t.) bir kuni mehmondorchilikda o'tirsa, taom keltirilganda dasturxon atrofida o'tirgan yigitlardan biri yig'lay boshlabdi. Undan yig'i sababini so'raganlarida, "Ko'zimga onam ko'rindi, u do'zaxda azob chekmoqda", – deb javob qaytaribdi. Shunda shayx Aburrabi' Kafif

²²⁴ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 275.

Molaqiy: “...botinimda dedimki, Xudovando, sen voqifsenki, yetmish ming qatla “Lo iloha illalloh” zikrin aytibmen, ani bu tifi onasi do‘zax o‘tidin xalos bo‘lurg‘a muayyan qildim. Chun bu niyatni ko‘nglumda qildim, ko‘rdumki, tifi kula boshladi va shodmonlig‘ qildi. Yana sababin so‘rdilar, dediki, onamni ko‘radurmenki, do‘zax o‘tidin xalos bo‘ldi, alhamdulillah! Pas, taom yemakka mashg‘ul bo‘ldi”²²⁵.

Demak, islom dini va tasavvuf falsafasida raqamlar sirli, shu bilan birga, ancha murakkab tushunchalarning ma‘no-mohiyatini yoritishga xizmat qildirilgan. Shuning uchun ham raqam zahiridagi mohiyat oydinlashgan sari uning mustaqil poetik timsolga aylanish darajasi yuksalib boraveradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, irfoniy ruhda asarlarda koinot va insonning yaratilish jarayoni bilan aloqador fikrlar bayonida raqamlar majoz sifatida borliq falsafasining sharhi uchun xizmat qildirilgan. Mavolidi salosa, anosiri arba‘a, havosi xamsa, olti jihat, sa‘boyi samovot, hasht behisht va to‘qqiz (nuh) falak ifodalarini raqamlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, ushbu ifodalarning barchasi tasavvufiy qarashlar bilan uzviy aloqadorligini ham e‘tiborda tutish lozim. Tasavvuf ahli bu raqamli birikmalar orqali har doim ham jismoniy mavjudliklarni emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga ham diqqatni jalb etishgan. Uch yuz oltmish tomir, to‘rt yuz qirq to‘rt so‘ngak ifodalari olami kubrodagi barcha narsalarning olami sug‘roda ham mavjud ekanligini dalillash uchun ishlatilgan.

Tasavvuf tariqatlarida muridning shayx rahnamoligi va ko‘rsatmalariga binoan maxsus bir go‘shaga kirib, ibodat va zikr ila Alloh bilan aloqa bog‘lash jarayoni bor. Bu jarayon “chilla” yoki “arbain chiqarmoq” deyilishining

sababi uning kamida qirq kun davom etishidir. Bu esa qirq raqamiga yangicha bir mohiyat va “mas‘uliyat” yuklagan.

Ma‘naviy jihatdan olamni idora qilishga mas‘ul bo‘lgan valilar jamoasi – rijo‘ul g‘ayb tushunchasi bevosita raqamlar bilan bog‘liq. Tasavvufiy maslakda dunyoni boshqarish va ularga rahnamolik qilish vazifasi “rijolul g‘ayb” zimmasida bo‘lib, ular g‘ayb eranlari, rijoulloh, mardoni xudo, mardoni g‘ayb, hukumati ma‘naviya deb yuritilgan. Ilohiy dargohning xizmatkorlari uch yuz nafar ahyor, qirq abdol, yetti nafar abror, to‘rt nafar avtod, uch nafar naqib va bir nafar qutb (g‘avs)dan iboratdir.

Tasavvufiy asarlarda “Alif” (bir) harfi orqali Allohga, “Be” (ikki) harfi orqali Muhammad alayhissalomga ishora etilgan. Mutasavvif ijodkorlar bir va ikki raqamlarining aynan ana shu ma‘nolariga urg‘u berishgan. Allohning birligi va borligini ifoda etish uchun “Biru Bor” ifodasi qo‘llanilganligi Umar Xayyom, Ahmad Yassaviy, Nasimiy, Alisher Navoiy singari sharq ijodkorlari asarlarida ko‘zga tashlanadi.

XII-XV asrlarga oid turkiy she‘riyatda raqamlarning badiiy ifoda imkoniyatlari

Mumtoz shoirlarimiz odatda o‘z fikrlari, his-tuyg‘u va kechinmalarini ramziy-majoziy yo‘l vositasida bayon etishgan. Bunda raqamlarga murojaat qilish, raqamlar vositasida fikrni ifoda etish, raqam ramzlari va raqam mohiyatidan foydalanish tajribasi sezilarli darajada e‘tiborni tortadi. Adabiyot tarixida shunday bir qarashlar, alohida diniy falsafiy oqimlar yuzaga kelganki, bu oqim vakillari ma‘lum bir hodisa yoki narsalarga e‘tiqod qo‘yib, shular vositasida dunyoga nazar tashlashga harakat qilishgan. Ana shunday oqimlardan biri arab harflarining muqaddasligini ilgari surgan va dunyoning sir-asrorlari arab harflari zahirida yashirindir, degan qarashlarga

²²⁵ Alisher Navoiy. Ko‘rsatilgan manba. – B. 408.

tayangan hurufiylikdir. Garchi raqam ramzlaridan foydalanish, raqamlar vositasida turli xil qarashlarni ilgari surish ma'lum bir oqimni yuzaga keltirmagan bo'lsa-da, o'z fikrlarini raqam ramzlari yordamida ifodalash deyarli har bir shoir ijodida uchraydi. Shuning uchun ham raqamlar bilan bog'liq haqiqatlarni o'rganish, ularning ramziy-mazoiy sirlarini ochishga urinish zarur, deb o'ylaymiz. Raqamlar zahirida yashiringan haqiqatlarni oydinlashtirish, to'g'ri talqin va tadqiq qilish uchun esa raqamlarning mifologiya, din, tasavvuf va kosmogoniya yadagi mavqe-mohiyatiga e'tibor qaratish lozim.

Adabiy asarlarda birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar ramziy-mazoiy ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, yuz va ming raqamlari vositasida yasalgan qo'shma sonlardan tarkib topgan raqamlar aniq son qiymatini emas, odatda ko'plik ma'nosini anglatish uchun xizmat qilgan. Bir raqami bilan bog'liq ma'nolar ko'pincha Mutlaq borliq mazmuni bilan uzviy aloqadorlikda keladi. Pifagorchilar bir raqami butun dunyoni keltirib chiqaradigan ruhni anglatadi, birlikda aql, yaxshilik, uyg'unlik, baxt va ayni paytda, materiya, zulmat, xaos (tartibsizlik) mavjud, degan qarashni ilgari surishgan. Qozon universiteti professori G.B.Nikolskiy (1785-1844) bir raqami haqida shunday yozadi: "Birsiz son bo'lmaganidek, olam ham bir hukmdorsiz mavjud bo'lolmaydi". A.I.Borodin bir raqamining bir qancha xususiyatlarini sanab o'tadi, jumladan, bir raqami tub sonlarga ham, qo'shma sonlarga ham taalluqli emas; bir har bir natural sonning bo'luvchisi; bir faqat bitta bo'luvchiga ega bo'lgan natural son; har qanday sonni birga ko'paytirsa yoki bo'lsa, u raqam o'zgarmaydi; nolga teng bo'lmagan har qanday sonni o'ziga bo'lganda natija bir chiqadi²²⁶. Bir raqamiga xos bo'lgan bunday xususiyatlar pifagorchilar tomonidan bu raqamning ilohiylashtirilishiga, shuningdek, G.B.Nikolskiy ta'kidlaganidek, bir-

lik zahirida Xudoning mavjudligini dalillashga bo'lgan harakatlarga asos bo'lgan.

Sharq shoirlari o'z asarlarida bir raqamining aynan ana shu ma'nosiga urg'u berishgan. Allohning birligi va borligini ifoda etish uchun Yassaviy o'z hikmatlarida "Bir-u Bor" ifodasini qo'llaydi: "*Bir-u borim sabaq berdi parda ochib...*" yoki "*Bir-u Borim, diydoringni ko'rarmanmu?*" singari o'rinlarda "Bir-u Bor" ifodasi shu maqsad uchun xizmat qilgan. Atoyi esa hamd g'azallaridan birida:

*Biruborikim, sanamlar og'zini so'z so'zlatib,
Sun'idin har bir nafasda yo'qtin bor aylagan*²²⁷, –

deydi.

Bir raqami, ta'bir joiz bo'lsa, raqamlarning "podshosi"dir. Chunki hammasi birga qaytib keladi. Raqamlar ham vahdat va kastarga bo'linganligi sababli tasavvufiy ruhdagi asarlarda bir vahdatni, qolgan barcha raqamlar esa kasratni anglatish uchun xizmat qiladi.

*Pir birdir, sirr birdir, sirr ila bir bo'lmagan,
Ikkilik sig'mas orada, sirr ila sirdor bir*,²²⁸ –

deydi Nasimiy she'rlaridan birida. Ikkilik Yaratganning qudratini, sun'ini inkor etish va yaratilmishni Yaratgandan ayri ko'rish va bilishdirki, bu aslida "shirk" hisoblanadi. Shuning uchun ham Xoja Ahmad Yassaviy:

*Shak kelturmay, birligingga bo'yunsundim,
To o'lguncha bir ahdimda turdum mano*²²⁹, –

deya mustahkam e'tiqodini bayon etadi. Sharq shoirlarining "ikkilik"dan qochishga, "ikkilikka mayl qilmaslik"ka harakat qilganliklarining sababi ham aslida shu. "*Kech menlik da'vosidan, So'zla so'zning xosidan*", – deb xitob qilgan Yunus Emro "*Ikkilik pardasi yo'qdur ko'zimda, Birlikdir murodim, o'zim, so'zimda*", – deya "birlik"ka

²²⁷ Атойи. Девон. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 20.

²²⁸ İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. 1 cild. – Bakı, "Lider nəşriyyat", 2004. – S. 130.

²²⁹ Хожа Аҳмад Яссавий. Умринг елдек ўтаро. – Тошкент, 2020. – Б. 282.

²²⁶ Бородин А.И. Кўрсатилган манба. – Б. 104-105.

intilganligini bayon etsa, Nasimiy bu fikrlarni davom ettirib, bir raqami mohiyatiga kuchliroq urg'u beradi:

*Oshiqqa birdir azaldan sevgili dildor, bir,
Ikkilik yo'qdir orada, yor birdir, yor bir*²³⁰.

Navoiy esa *"Bir bo'l-u bir ko'r-u bir de, bir tila, Mayl qilma munda ikkilik bila"*, – der ekan insonning jon va tani ishq o'tida yonganda "ikkilik"ning o'rtadan ko'tarilishi, Haq taoloni bilish, tavhid asroriga yetishish holiga ishora qiladi. Chunki tavhidga erishgan solikning ko'zi "Bir"ni ko'radi, qulog'i "Bir"ni eshitadi, tili "Bir"ni so'zlaydi.

Arab alifbosining birinchi harfi "Alif" abjad hisobi bo'yicha birni ifodalashi, u tasavvufda Zoti ahadiyat, Allohning mutlaq yolg'iz va birligiga ishora qilishini yuqorida qayd etib o'tdik. Umar Xayyomning quyidagi ruboiysida ayni shu haqiqat o'z ifodasini topgan:

*"Ilohiyot ilmin o'rgat" dedi dil,
Agar o'zing bilsang menga bayon qil.
"Alif" degan edim "Bas" dedi menga,
"Bir harf ham yetadi, kim bo'lsa oqil"*²³¹.

Ba'zi tasavvuf arboblari "Alloh" so'zidagi har bir harf ma'noga ega ekanligini ta'kidlashgan, ya'ni "Alif" – Haqning zotiga, birinchi "Lom" – aqlning suratiga, ikkinchi "Lom" – ruhning suratiga, "Hoyi havvaz" – nafsning suratiga dalolatdir, deb qaralgan. Ammo bizning e'tiborimizni boshqa bir jihat – bu tabarruk so'zning arab imlosida "Lola" so'zi singari yozilishi o'ziga tortdi. Haqiqatdan ham arabcha matnlarda bu ikkala so'z yozilish jihatdan bir-biriga yaqin. Buning sababi faqatgina ular tarkibidagi harflarning bir xil ekanligi bilangina emas, balki ikkala so'zdagi harflar yig'indisi Abjad hisobi bilan oltmish olti raqamini hosil qilishidir. "Lola" so'zi ham "Alloh" so'zi singari oltmish oltini bildiradi. Zero,

²³⁰ İmadoddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. 1 cild. – Baki, "Lider nəşriyyat", 2004. – S. 130.

²³¹ Умар Хайём. Рубоийлар. – Тошкент, 1991. – Б. 24.

tasavvufiy she'riyatda lola – Allohning birligi, go'zalligining ramzi bo'lib keladi. Agar e'tibor berilsa, musulmon mamlakatlarining bayroqlarida yangi chiqqan oy – hilol tasviri joy olgan. Buni qarangki, "Hilol" so'zini yozishda ishtirok etadigan harflar yig'indisi ham oltmish oltini berar ekan.

"Alif" Allohga, "Be" Muhammad alayhissalomga ishoradir. "Alloh avval mening nurimni yaratdi, so'ngra bu nurdan boshqa hamma yaratilarni yaratdi" hadisi shunga ishora qilishi, bundagi nurdan maqsad "Be" ekanligi tasavvufiy kitoblarda qayd etilgan²³². Demak, "Alif" harfi Zotga, "Be" esa Sifatga dalolatdir. Sharqda bu ikkala harf va ularning sharhlariga bag'ishlangan maxsus asarlar ham yozilgan. Ibn Arabiyning "Kitob ul-Be" asari ana shunday risolalardan biri bo'lib, unda "So'fiylar "Be" harfi bilan ilk mavjudlikka ishora qiladilar. U borliqning ikkinchi martabasidir. Ko'klar, yer va ikkisining orasida bo'lgan barcha narsalar uning vositasida oyoqqa turarlar" – deydi olim.

Turkiy yozma adabiyotda raqamlar bilan bog'liq qarashlar va raqamlar mohiyatiga e'tibor masalasi ancha qadimdan, to'g'rirog'i, Yusuf Xos Hojib ijodi bilan boshlanadi, desak xato qilmagan bo'lamiz. "Qutadg'u bilig" asarida qahramonlar sonining to'rtta ekanligi, bu to'rt qahramon inson tabiatidagi to'rtta sifat ramzi ekanligiga ilk bor e'tibor qaratganlardan biri A.Fitrat edi. "Bunda inson sifatlaridan adolat, davlat, aql, qanoatni majoz yo'li bilan to'rt kishi etib ko'rsatiladir", – dedi Fitrat²³³.

Asarning kirish qismida yetti sayyora va o'n ikki burj haqidagi ma'lumotlar berilgan bob bor. Shoir Sekantir (Zuhul), Ungay (Mushtariy), Ko'rud (Mirrix), Yashiq (Quyosh), Savit (Zuhra), Arzu (Utorid) va Yalchiq

²³² Bu haqda qarang: Süleyman Uludağ. Tasavvuf Terimleri Sözlüğü. – İstanbul, 1995. – S.79.

²³³ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 12.

(Oy) sayyoralarini birma-bir tilga olar ekan, ularning sifatleri va vazifalariga ham to'xtalib o'tadi. Shundan keyin o'n ikki burj xususidagi ma'lumotlarni beradi va ularning to'rtta uchlikka bo'linganligini qayd etadi:

*Uch bahorgi yulduz, uchin yozgi bil,
Uchin kuzgi, uchin qishki xotir qil*²³⁴.

Bu to'rt uchlik to'rt unsur singaridir. Chunki to'rt unsurdan inson tabiatida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan to'rt xususiyat maydonga kelganligini va bunga tasavvuf ahlining munosabatini yuqorida ko'rib o'tdik.

*Uchi o't, uchi suv, uchasi havo,
Uchi tuproq, shunday bo'ldi el, ma'vo.
Bularning har biri bir-biriga yov,
Yovlashtirib soldi bariga tushov*²³⁵.

Shu o'rinda professor B.To'xliyevning "Qutadg'u bilig" asaridagi uchlantirish motivi xususidagi ilmiy kuzatishlarini qayd etib o'tishni o'rinli, deb bilamiz. Olim O'zg'urmishning uch marta saroyga taklif etilganligi, Kuntug'di o'tirgan taxtning uch oyoqli ekanligi, o'n ikki burjning uchdan taqsim qilinishi singari jihatlarga e'tibor qaratar ekan, "Uchlantirish motivi "Qutadg'u bilig"dagi asosiy motivlardan hisoblanishi"ni alohida ta'kidlaydi²³⁶.

Sharq ijodkorlari asarlarida mavjud bo'lgan an'ana – odobi tasnifga ko'ra, har qanday asar hamd va na'tlardan iborat boblar bilan boshlanadi. "Qutadg'u bilig"ning na't qismida muallif payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning izdoshlari bo'lgan to'rt xalifaga salom yo'llaydi:

*To'rt toza do'stga ham tuman ming salom,
Tegirgil hamisha, payvasta, mudom*²³⁷.

²³⁴ Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. – Тошкент: Академнашр, 2015. – Б. 27

²³⁵ O'sha joyda.

²³⁶ Bu haqda qarang: Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Баёз, 2013. – Б. 62-66.

²³⁷ Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. – Тошкент: Академнашр, 2015. – Б. 17.

Payg'ambarimizdan yetib kelgan "Xalifalik mendan keyin ummatlarim ichida o'ttiz yil, so'ngra amirlik (podshohlik)dir", – degan bir hadisga ko'ra, u zotning vafotlaridan so'ng islom olamini to'rt xalifa – Abu Bakr Siddiq (632-634), Umar ibn Xattob (634-644), Usmon ibn Affon (644-656) va Ali ibn Abu Tolib (656-661) boshqargan. Quyidagi misralarda Yusuf Xos Hojib ularni "to'rt sodiq do'st", – deya e'tirof etmoqda:

*To'rt sodiq do'st uning yo'liga kirib,
Hammalahat bo'ldi u birla turib*²³⁸.

Ma'lumki, payg'ambarimiz hazrati Abu Bakr (r. a.) ning qizlari Oysha onamizga uylanganlar. Umar ibn Xattob (r. a.) ham qizlari Hafsa payg'ambarimiz rafiqalari bo'lganligi sababli u kishiga qaynota sanalgan. Hazrati Muhammad alayhissalomning Ruqiya ismli qizlari Usmon ibn Affon (r. a.) bilan, Fotima ismli qizlari esa Ali (r. a.) bilan turmush qurganliklari sababli bu ikkalasi payg'ambarimizga kuyov hisoblanadilar.

Ikkisi qaynota, ikkisi kuyov.

*Xalq aro eng yaxshi, sara, yurak dov*²³⁹, – deganda Yusuf Xos Hojib ana shu haqiqatni nazarda tutmoqda.

Ahmad Yassaviy payg'ambar avlodlari, izdoshlarini tilga olib o'tarkan, choryorlarga bag'ishlab alohida-alohida hikmatlar ham yaratadi²⁴⁰. Ammo boshqa hikmatlar orasida ham ularni bot-bot tilga oladi. Masalan,

*Ki choryorin bilsang – Bu Bakru Umar,
Yana Usmon bila hazrati Haydar*²⁴¹, – deydi hikmatlardan birida Yassaviy.

O'zbek tasavvuf adabiyotini Xoja Ahmad Yassaviy ijodisiz tasavvur etish qiyin. Yassaviy yirik mutasavvif ijodkor, yangi tariqat asoschisi va diniy arbob sifatida

²³⁸ O'sha joyda.

²³⁹ Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. – Б. 19.

²⁴⁰ Qarang: Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 183-185.

²⁴¹ Ko'rsatilgan manba. – Б.180.

turkiy xalqlar hayotida muhim o'rin egallaydi. Uning hikmatlarida diniy-tasavvufiy mavzular sodda va ravon uslubda ifodalangan. Ma'naviy komillik yo'li sanalgan shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat singari diniy-tasavvufiy tushunchalar ham Yassaviy tomonidan nihoyatda ravon bir uslubda ifoda etilgan:

*Shariatdan murod avval yo'lg'a kirmoq,
Tariqatdan murod avval nafsdan kechmoq,
Haqiqatda aziz jonni fido qilmoq,
Jondin kechmay, sir sharobin ichsa bo'lmas*²⁴².

Yoki

*Ma'rifatning minbariga minmaguncha,
Shariat ishlarini bilsa bo'lmas.
Shariat ishlarini ado qilmay,
Tariqat maydonig'a kirsas bo'lmas*²⁴³.

Alloh vasliga yetishish uchun bel bog'lagan solik, faqr yo'liga kirgan so'fiy to'rt bosqichni bosib o'tishi lozim. Komillik martabasiga erishishning birinchi yo'li – shariat hukmlarini bajarish; ikkinchi yo'li – Alloh va Rasuliga chin yurakdan bog'lanib, amr-farmonlariga haqiqiy ma'noda sadoqatli bo'lish; uchinchi yo'li – ma'naviy hollarda yashash, ilm va irfonga ega bo'lish; to'rtinchi yo'li – bashariy sifatlardan xoli bo'lib, ilohiy sifatlarga ega bo'lishdir. Yassaviyga ko'ra, shariat – jabarrut maqomi, tariqat – malakut maqomi, ma'rifat – lohut maqomi, haqiqat esa nosut maqomidir. Bu to'rtala yo'l o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib keladi. Ba'zi tasavvuf olimlari shariat bilan haqiqatni tanganing ikki tomoniga qiyos qilishadi. Haqiqatsiz shariatni qabul qilmaganlaridek, shariatsiz haqiqatni botil, deb biladilar. Shariat ahkomlariga amal qilib, tariqat talablarini bajargan, qalbiga Alloh muhabbatini joylay olgan va haqiqat bosqichga yetgan orif:

²⁴² Аҳмад Яссавий. Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар куллиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 120.

²⁴³ O'sha joyda.

*Shariat ham, tariqat ham, haqiqat mendadur mavjud,
Chu sultoni azaldurmanki, arshi a'log'a sig'mamdur,*– deya oladi.

Bu to'rt bosqichning har birida o'ntadan maqom bo'lib, darveshlik martabasi ana shu qirq maqomda nihoyasiga yetadi²⁴⁴. Ahmad Yassaviyning fanofillohga erishish maqom-bosqichlaridan so'z yurituvchi "Faqrnoma" asarida "to'rt eshik" deb nomlangan ushbu boschiqlar va "qirq maqom" haqidagi qarashlar hazrati Ali (r. a.) dan kelganligi qayd etiladi: "Hazrati Ali raziyallohu anhu rivoyat qilurlarkim, darveshlik maqomi qirq turur. Agar bilib amal qilsa, darveshlik pok turur, va agar bilmasa va o'rganmasa, darveshlik maqomi anga harom turur va johil turur. Ul qirq maqomni o'ni maqomi shariatda turur va o'ni maqomi tariqatda turur va o'ni maqomi ma'rifatda turur va o'ni maqomi haqiqatda turur"²⁴⁵. Ushbu qirq maqomning birortasini egallashda noqislik yuz bersa, maqsadga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun

²⁴⁴ **Shariatdagi o'n maqom** – 1.Iymon keltirish. 2.Namoz o'qish. 3.Ro'za tutish. 4.Zakot berish. 5.Hajga borish. 6.Hilm sohibi bo'lish. 7.Ilm olish. 8.Ahdi sunnat val-jamoatga mansublik. 9.Amri ma'rufni bajo keltirmoq (shariat buyurgan ishlarni ado etish). 10.Nahy bunkar qilmoq (shariat ta'qiqlagan ishlardan tiyilmoq). **Tariqatdagi o'n maqom** – 1.Tavba qilish. 2.Pirga qo'l berish. 3.Xavf (qo'rquv) sohibi bo'lish. 4.Rajo (umid) sohibi bo'lish. 5.Islom shartlarini bajo qilish. 6.Pirga xizmat qilish. 7.Pir ruxsati bilan so'zlash. 8.Nasihati tinglash. 9.Tajrid sohibi bo'lish. 10.Tafridga erishish. **Ma'rifatdagi o'n maqom** – 1.Fano bo'lish. 2.Darveshlikni qabul qilish. 3.Tahammul sohibi bo'lish. 4.Halol va pokizalik bilan yashash. 5.Ma'rifat sohibi bo'lish. 6.Shariat va tariqat hukmlariga rioya qilish. 7.Dunyoni tark qilish. 8.Oxiratni ixtiyor etish. 9.Vujud maqomini bilish. 10.Haqiqat asrorini anglash. **Haqiqatdagi o'n maqom** – 1.Soddadil bo'lmoq (tufroq bo'lmoq). 2.Nekbin (yaxshini yomondan farqlay olish) bo'lmoq. 3.Xayrsevar bo'lish (Hasaddan yiroq bo'lish). 4.O'z luqmasini Haq yo'liga baxshida qilish. 5.Hech kimga ozor bermaslik. 6.Faqrlikni inkor etmaslik. 7.Sayr-u suluk aylash. 8.Sirni oshkor qilmaslik. 9.To'rt eshik va qirq maqomni bilish, amal qilish. 10.Vuslat (Tangri visoliga vosil bo'lish).

²⁴⁵ Фақрнома / Абдурахмон Ғўзал. Яссавий "Фақрнома"си. – Тошкент: Навруз, 2014. – Б. 88. (264)

ham Yassaviy "Faqrnoma"sida: "Har darvesh bu qirq maqomni bilmasa va amal qilmasa, aning shayxlig'i shaytoniy turur"²⁴⁶, – deyiladi.

Shuningdek, Yassaviy hikmatlarda o'rni-o'rni bilan ularga ishora qilib ketgan. Masalan,

*Tavba qilib, Haqqa yongan oshiq'larga,
Uchmog' ichra to'rt arig'da sharbati bor.
Tavba qilmay, Haq yonmagan g'ofillarga,
Tor lahadda qattiq azob, hasrati bor.*

Hikmatda tariqat bosqichidagi birinchi maqom – tavba qilish haqida so'z bormoqda. Gunohlardan forig' bo'lish uchun tavba qilgan oshiqlar jannatdagi to'rt ariqdan bahramand bo'lsalar, tavba qilmay, g'ofillik bilan yurganlarga qabr azobining dahshatli bo'lish xabari berilmoqda. Yoki:

*Yuz ming gunoh sodir bo'ldi, bilolmading,
Tavba qilib, dargohiga kelolmading, -*

kabi o'rinlarda Yassaviy qanday va qancha gunoh sodir bo'lgan bo'lsa-da, Allohga yo'nalgan har bir shaxs gunohlari uchun tavba qilishlari lozimligini qayd etar ekan, "yuz ming"larcha gunoh qilgan-u, ammo tavgaga yuzlanmaganlar muqaddas dargohga kela olmasligiga e'tiborni qaratadi. Yana bir o'rinda:

*Olti yoshda turmay qochdim xaloyiqdin,
Ko'kka chiqib dars o'rgandim maloyikdin, -*

deydi. Xalqdan qochish, shon-shuhratdan uzoqlashish, o'zgalarning qo'liga qarashdan o'zini tortish – ma'naviy martabaga yuksalish uchun yo'l ochadi. Malaklardan dars olish esa bu yuksalishning o'ziga xos ko'rinishidir. Insonlardan madad kutmay, ular bilan bo'ladigan har qanday aloqadan voz kechib, Haqqa yo'nalgan darveshning bu holi tafrid deb yuritiladi. Tafridga erishmoq – tariqatdagi yana bir maqomdir.

Yassaviy hikmatlaridagi "o'n maqom", "o'n nur", "o'n yo'l", "o'n makon", faqirning "olti odobi", "sakkiz

²⁴⁶ Ko'rsatilgan manba. – B. 96.

maqomi", "yetti martabasi" singari raqamli birikmalar ham komillikni qo'lga kiritish sirlari bilan bog'liqdir.

Tasavvufda shayxlikning ham o'ziga xos talablari bor. O'zini "shayxman" deb e'lon qilgan har qanday kimsa tolibini kamolotga yetkaza olmaydi. Yassaviy o'z hikmatlarida soxta va riyokor shayxlarni qattiq qoralaydi va hatto "Shayxman teyu bosh ko'targan Haqqa raqib", – deydi. Chunki Navoiyning ma'lumot berishicha, Shayx Zunnun Misriydan kelgan bir rivoyatga ko'ra, "Murid qirq yil xizmat qilmag'uncha, shayxliq va faqirliq va darveshliq o'rni ang'a tayin bo'lmas va hirqa kiymagi ang'a ravo ermas". "Farqnoma" muallifi ham "...har kim pirliq va shayxliq da'vosini qilur bo'lsa, qirq yil to pining xizmatida yurmaguncha shayx o'rni ang'a ravo ermas"²⁴⁷, – deydi, bu o'rinda aynan qirq yillik muddat hazrati Odam alayhissalomning yaratilish jarayoni bilan aloqadordir.

Yassaviy hikmatlarining ba'zi o'rinlarida arabcha jumlar, qur'oniylar istilohlarga duch kelamiz. Mana o'shalardan biri:

*Yer ostig'a kirdim ersa beixtiyor,
Omin, dedi, oli abo ham chahoryor.*

"Chahoryor" xususida yuqorida to'xtalib o'tdik. "Oli abo" tushunchasi ham raqamlar bilan bog'liq bo'lib, ko'plab mumtoz adabiyot vakillarining asarlarida takror-takror keladi. Xususan, Atoyining quyidagi baytida shu jumlaning uchramiz:

*Garchi raqibi muddai hardam xorijliq qilur,
Hamrohu hamdam, himmati oli abo bo'lsun sanga*²⁴⁸.

Hayoti o'rnak va namuna bo'lgan bu besh kishining birinchisi Muhammad (s. a. v.), qizlari Bibi Fotima, kuyovlari hazrati Ali hamda nabiralari Hasan va Husaynlardir. Ba'zan "ahli bayt" shaklida ham kelib, "qutlug' xonadon", "qutlug' oila" ma'nolarini anglatadi. Yuqoridagi baytda shoir raqib dushmanlik qilgan payti

²⁴⁷ Ko'rsatilgan manba. – B. 85.

²⁴⁸ Атойи. Кўрсатилган манба. – Б. 29.

yoriga “oli abo” ruhlarining hamroh va madadkor bo‘lishini xohlaydi:

Shoir hamd g‘azallaridan birida “oli abo” singari husn (bu yerda e‘zoz, e‘tibor ma‘nosida)ga ega bo‘lishni so‘raydi:

*Qil Atoyining yuzin oli abo husnidin ol,
Ey Muhammadni iki olamda muxtor aylagan*²⁴⁹.

Alisher Navoiyning na‘t g‘azallari tarkibida kelgan “Bo‘lmag‘ay erdi muyassar “Xamsa”, ya‘ni besh ganj, Qilmasa erdi madad holimg‘a besh oli abo” baytini sharhlar ekan, navoiyshunos olim Manzar Abdulxayr shunday yozadi: “... ulug‘ mutafakkir bu o‘rinda iymon faqat nasli nasab bilan belgilanmasligiga sirli ishora qilgan. So‘nggi mursal avlodi kiborlardan emas, ular chinakam iymonli kishilardir. Axir, ular o‘z vaqtida tangrining naqadar og‘ir bo‘lgan, ya‘ni inson bolasi bardosh bera olmaydigan o‘ta mashaqqatli sinovlaridan o‘tib, o‘z iymonlariga sodiq qoldilar”²⁵⁰. Shuning uchun ham eng qiyin vaziyatlarda, og‘ir damlarda bu besh kishi ruhidan madad so‘raladi, ularning mashaqqatli hayoti ibrat sifatida tilga olinadi.

Raqamlar nafaqat biror bir hodisa yoki voqeaga ishora qilish, balki fikrni ta‘sirchan ifoda etish maqsadida ham ishlatiladi. “Qutadg‘u bilig” asarining ko‘pgina o‘rinlarida raqamlar xuddi shu vazifani bajargan. Masalan:

*Bir er bo‘lmagay hech ming er dushmani,
Ming er so‘zlasa-da kuniga uni.
Bo‘ri qayrilib itga boqqaymi, ko‘r,
Eshitlsa ortdan ming itning uni*²⁵¹.

Misralarda turkiy xalqlarning qadimiy totemlaridan biri bo‘lgan bo‘ri xususida so‘z bormoqda. Ma‘lumki,

²⁴⁹ Атойи. Кўрсатилган манба. – Б. 20.

²⁵⁰ Манзар Абдулхайр. Тимсол тадрижи (XV-XXI аср адабий манбалари мисолида). – Тошкент: Яшил япроқ нашр-матбаа уйи, 2021. – Б. 53.

²⁵¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Янги нашр, 1971. – Б. 81.

xalq og‘zaki ijodida bo‘ri obrazi asosiy obrazlardan biri sanalanadi. Chunki qadimgi turkiy xalqlar o‘zlarining kelib chiqishlarini bo‘ri avlodidan deb hisoblaganlar. L.N.Gumilevning ma‘lumot berishicha, “turk xoni” va “bo‘ri” so‘zlari qadimgi xitoy mualliflarining asarlarida bir xil ma‘noda qo‘llanilgan, turklarning bayroqlariga bo‘rining oltin kallasi zeb berib turgan²⁵². “O‘g‘uznoma”-da ham bo‘ri (ko‘k bo‘ri) O‘g‘uzxonning barcha yurishlarida yo‘lboshlovchilik qilganligi ta‘kidlanadi²⁵³. Yusuf Xos Hojibning yuqoridagi misralarida ortidan mingta it akillagani bilan parvo qilmaydigan jasur bo‘ri obrazi yaratilgan. “Shoir qalamga olgan it yoki itlar orqa-orqadan hurib yuradiganlar timsoli... Bo‘ri esa “ming er so‘zlasa-da” bunga parvosiz, ortidan “ming itning uni” eshitlsa ham e‘tibor qilmaydigan mard Insonning majoziy obrazidir”²⁵⁴. Mard va jasur yigitning ma‘naviyatini ko‘rsatishda bir va ming raqamlari tazodiy xarakter kasb etib, “It hurar – karvon o‘tar” maqolini yodga tushiradi.

*Yoving bir esa mingga teng yovligi,
Esa mingta do‘st, birga teng ozligi*²⁵⁵.

Ushbu baytda dushmanning bittasi ham ko‘p ekanligi, shuningdek mingta do‘st ham insonga kamlik qilishligi bir va ming raqamlari vositasida ifoda etilgan. Ammo keyingi misralarda o‘sha mingta kishining ishini o‘rni kelganda bir kishi qila olishligi xususida so‘z bormoqdaki, bu o‘rinda ham bir va ming raqamlarini zidlash orqali badiiy maqsadga erishilgan:

*Kishiman deganlar juda ko‘p soni,
Yarog‘lisi bormi? Menga ayt, qani?
Qilar bir kishi ming kishining ishin,
Talay ming yig‘ilsa qilolmas uni*²⁵⁶.

²⁵² Qarang: Гумилев Л.Н. Кўрсатилган манба. – Б. 26.

²⁵³ Qarang: Ўғузнама. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

²⁵⁴ Иброҳим Ҳаққул. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021. – Б. 205.

²⁵⁵ Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. – Б. 97.

²⁵⁶ Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. – Б. 115.

Yusuf Xos Hojib va undan keyingi davrlarda qalam tebratgan Sharq ijodkorlarining asarlarida bir va yuz, bir va ming raqamlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, tazodiy xarakterdagi fikrlarni ifoda etish usulini ko'rish mumkin. Aslida, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan raqamlar yo'q, ular miqdor, sanoq jihatdan kam-ko'plikni anglatishiga ko'ra farqlanadi. Ammo mumtoz she'riyatimizning ko'zga ko'ringan siymolari raqamlarga tayanilgan obrazli tasvirlarda ham qarama-qarshi fikrlarni ilgari surganlar. Nafaqat pand-nasihati mavzusidagi she'riy misralarda, balki ishq-muhabbat, sevgi va hijron mavzusida yaratilgan g'azallarda ham raqamlarni ziddlash orqali his-tuyg'ular tasvirining badiiylashtirish usulini ko'rish mumkin. Masalan:

*Bir nazarda yuz ko'ngulni sayd etar ohu ko'zung,
Men emasman yolg'uzun jono giriftoring saning*²⁵⁷.

Ov manzaralariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, aslida ohu ovlanadigan hayvon, ya'ni sayd. Ammo ma'shuqa ohuniki singari ko'zlari bilan "bir nazar" tashlash orqali yuzlab ko'ngullarni o'ziga maftun etadi, "ovlaydi". Bu holatga "giriftor" bo'lganlari soni ancha ko'pligining boisi bir va yuz raqamlarining o'zaro qarama-qarshi qo'yish orqali ayon bo'lmoqda.

Odatda, ma'lum bir ziddiyatli tushuncha, maqsad yoki holatlarni ochishda raqamlar juda o'ng'ay bo'ladi. Shuning uchun xalq maqol va matallari tarkibidan ham ayrim raqamlarning erkin o'rin egallaganini kuzatish mumkin. Masalan, "Bir mayiz qirq kishiga yetadi" deyilganda aynan bir dona mayiz va qirq kishi nazarda tutilmaydi. Balki fe'l keng, ko'z to'q bo'lsa, oz narsa ham ko'pchilikka yetib ortadi, degan ma'no anglashiladi. "Bir nor-u ming bemor" maqolida ham xuddi shunga yaqin fikr ilgari surilgan. Ammo unda yetib-yetmaslik, "qo'l kalta"ligiga ham ishorat bor. Mazkur maqoldan Mavlono Lutfiy ma'shuqa va ishq ahlining unga munosabatini ta'kidlash uchun foydalangan:

²⁵⁷ Атойи. Кўрсатилган манба. – Б. 136.

*Nazar ahli ko'rub nortek yangoqing,
Masal: "Bir nor-u ming bemor" derlar*²⁵⁸.

Chunonchi, yor yanog'i nor – anorga o'xshaydi. Yanoqdan ko'ngli o'rtangan oshiq bir emas, ko'pchilik. Balki ular o'ndir, yuzdir. Gap bunda emas. "Bir anor ming bemor"ga shifo bo'lganidek, ma'shuqa yanog'i ham ko'p-dan-ko'p dardmand oshiqlar uchun davodir. Biroq hech qachon bir anor mingta bemorga nasib etmagani singari, yanog'i nordek ma'shuqa ham ming oshiq uchun baxt yo'lini ocholmaydi. Buni Lutfiyning lirik qahramoni o'zicha e'tirof qilib deydi:

*Nortek yanoqing shavqidin jonlar bari afgor erur,
Ko'nglum qachon topsun murod, bir noru ming
bemor erur*²⁵⁹.

Xalqimiz orasida o'tkinchi dunyoga nisbatan "Besh kunlik dunyo" yoki "Insonning umri besh kunlik" kabi ifodalar uchraydi, bunda tugallanish, nihoyasiga yetish ma'nolarini anglashiladi. Yassaviyning:

*Besh kunlik naqd umrni qo'ldan berib,
Chora topmay oxir bir kun o'lmoq kerak*²⁶⁰.

Yoki:

*Besh kun o'tar dunyo uchun qo'lin olsa,
Ko'rib bilib nafs uchun o'tga solsa*²⁶¹.

kabi misralarida shu holatni ko'rishimiz mumkin. Sharq ijodkorlarning ko'pchiligi tugallanish, nihoyasiga yetish, o'tkinchi dunyo ma'nolarini berish uchun "besh" raqami ishtirok etgan ifodalarni qo'llaydilar. Masalan, Umar Xayyom ruboiylaridan birida:

*Besh kunlik hayotda ichgil mayi nob,
Besh kunlik umringni o'tkazgil shodob.
Xarob etmak erur jahoning ishi,
Sen ham kecha-kunduz bo'l mastu xarob*²⁶², -

²⁵⁸ Лутфий. Девон. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 57.

²⁵⁹ Лутфий. Кўрсатилган манба. – Б. 71.

²⁶⁰ Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент, 1992. – Б. 136.

²⁶¹ Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 100.

²⁶² Умар Хайём. Рубойилар. – Тошкент, 1991. – Б. 10.

deydi. Umrning bebaqoligi, uni g'animat tutish lozimligi Atoyining:

*Baqosizdur bu besh kun umri foni,
Baqoyin oy yuzunga bot-bot, oyim²⁶³, -*

baytida yoki "G'animat tut, bu husn davroni besh kun..." singari misralarida ifoda etilgan bo'lsa, Xo'jandiy bu dunyoni "kechar dunyo" deya sifatlaydi va "besh kun"ni yaxshi o'tkazishga undaydi:

*Maishat birla g'am o'tin o'churg'il,
Kechar dunyoda besh kun xush kechurg'il²⁶⁴.*

Keltirilgan baytlarda dunyoning foniyligi, umr qisqa, uni g'animat bilish kerakligi ta'kidlangan. Lekin ularning hammasida "besh kun" iborasi takrorlangan bo'lsa ham, go'yo u har gal xuddi shu o'rinda topib, mazmun zaruriyatiga binoan qo'llanilganday taassurot hosil qiladi.

Yetti raqami ham Sharq, ham G'arb falsafasida yetti sayyora ramzi sifatida keladi. "Yeti raqami Bobilda kezuvchilarning soni sifatida talqin etiladi: Quyosh, Oy, Merkuriy, Mars, Venera, Yupiter va Saturn"²⁶⁵, - deydi A.Shimmel o'z kuzatishlarida. Yunus Emroning hazrati Muhammad (s. a. v)ga bag'ishlangan bir she'ridan joy olgan "Yeti qat ko'klarni sayron aylagan" misrasida ham yetti raqami osmonlar olami bilan aloqador holda berilgan. Yassaviyning quyidagi misralarida osmonlar sonini anglatish uchun xizmat qilgan:

*Oshiq'larni yetti ko'kka yetar ohi,
Olloh desa, yakson bo'lur har gunohi²⁶⁶.*

Atoyi lirik qahramonining ohi "yetti falak"dan o'tishi tasodif yoki mubolag'aning o'zigina emas, balki ma'shuqaning yuzi "moh", ko'zlari "sayyora" ekanligi uchun hamdir:

*Ko'rgali sen ko'zlari sayyora, yuzi mohni,
Har sahar yetti falaktin o'tkarurmen ohni²⁶⁷.*

Oshiqning saharlarda qilgan ohi yetti falakdan o'tadi, shuning uchun ham uning oh-u zori yorga yetib borib, qaysidir bir tunda yorning visoliga musharraf bo'lsa, bu holga taajjublanish noo'rindir:

*Ne ajab yetsang Atoyi bir tun ul oy vaslina
Kim, o'tar yetti falakdin har sahar ohing saning²⁶⁸.*

Ahmad Yassaviy hikmatlarida qo'llanilgan uch yuz oltmish raqamini yuqoridagi bobda tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq ekanligini qayd qilib o'tdik. Bu raqam yana bir holatga ishora qiladi. Hikmatlardan birida o'qiymiz:

*Chin dardlikni Olloh o'zi bandam dedi,
Uch yuz oltmish boqib ani g'amin yedi²⁶⁹.*

Ya'ni, "dard"ga giriftor bo'lgan insonni Alloh yolg'izlatib qo'ymasligi, bir kunda uch yuz oltmish marta uning holidan xabar olishi haqidagi fikr anglashilmoqda. O'z-o'zidan tabiiy bir savol paydo bo'ladi - nega aynan uch yuz oltmish marta? Bu nimaga asoslangan yoki nimaga ishora qilmoqda? Shayx Ahmad G'azoliyning "Bahr ul-mahaba" ("Muhabbat dengizi") asarida keltirilgan ma'lumot bilan tanishganda, bundagi raqam mohiyati anglashiladi: "Qachon bandani ham Boriy taolo sevsa, unga har kuni uch yuz oltmish marta nazar qiladi, bas, bandada karomat, muhabbat, ulfat (do'stlik), qo'rquv, mushohodat, qurbat, vuslut, taslim va ma'rifat kabi xislatlar hosil bo'ladi"²⁷⁰, - deyiladi. Har qanday insonga emas, balki Haq taoloning o'zi sevgan bandasiga mehribonchiligi, ko'rsatgan karami, "inoiyati"dir bu.

*Haq taolo inoyati bo'lsa kimga,
Kecha-kunduz uch yuz oltmish boqq'ay anga²⁷¹, -*

²⁶³ Атойи. Кўрсатилган манба. – Б. 148.

²⁶⁴ Хўжандий. Латофатнома / Муборак мактублар. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 54.

²⁶⁵ Annemarie Shimmel. Sayıların gizemi. 1998. – S.142

²⁶⁶ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 130.

²⁶⁷ Атойи. Кўрсатилган манба. – Б. 240.

²⁶⁸ Атойи. Кўрсатилган манба. – Б. 125.

²⁶⁹ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 99.

²⁷⁰ Абдул-футуғ Шайх Аҳмад Ғазолий. Бахрул-маҳабба. "Юсуф" сураси асосида. Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 173.

²⁷¹ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 242.

misralarida yuqoridagi fikrning badiiy ifodasi o'z aksini topgan.

Turkiy ijodkorlar asarlarida eng ko'p uchraydigan raqamlardan biri – yuz ming raqamidir. Ba'zi o'rinlarda shunchaki mubolag'ali tasvirlarni berish uchun keltirilsa, ba'zan asosli dalil sifatida fikr ifodalashga xizmat qildiriladi. Xoja Bektoshi Valiyning "Maqolot" asarida Alloh taoloning shunday marhamat qilgani naql etiladi: "Men har kuni bandamdan sodir bo'lgan yuz ming gunohni ko'raman, lekin yuziga solmayman"²⁷². Sharq shoirlari o'zlarini malomat qilar ekanlar, Allohning karamidan ham umidvorlik tuyadilar.

*Gunohkor, jafoli qulingman tuban,
Boqib ko'rsang aybim erur yuz tuman.
Seningdan yo'q o'zga sig'inuvchi rab,
Gunohimdan o't, qut bag'ishla har on*²⁷³.

Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub bo'lgan bu misralarda "yuz tuman" gunohdan o'tishni iltijo qilib so'rash motivi yetakchilik qilmoqda. Bunday iltijoga Yassaviy hikmatlarida qayta-qayta duch kelamiz. Mana, buyuk mutasavvif bir hikmatida:

*Yuz ming turluk gunohimdan tavba qilsam,
Rahmi kelib tavbam qabul qilarmukin?! –*
deyish bilan "yuz ming turluk gunoh"dan forig' bo'lishni so'raydi.

Yoki

*Yuz ming gunoh sodir bo'ldi, bilolmading,
Tavba qilib dargohig'a kelolmading*²⁷⁴.

Bu o'rinda ham fikrni ifoda etishda asos bo'layotgan raqam mohiyatiga urg'u berilganligini sezish qiyin emas.

*Yuz ming-yuz ming gunohimdin lutfing baland,
Shayton lain yo'ldin ursa, qilmam pisand*²⁷⁵.

²⁷² Хожа Бектоши Валий. Мақолот. – Тошкент: Аб.Қодирий номидаги халқ мероси, 2000. – Б. 53.

²⁷³ Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. – Б. 115.

²⁷⁴ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 99.

²⁷⁵ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 274.

Keltirilgan misralarda esa "yuz ming gunoh" sodir etgan bo'lsa-da, "shaytoni lain"ning gapiga kirmaydigan, uning yo'rig'iga yurmaydigan Haqning sodiq quli siymosini ko'ramiz.

Yassaviy hikmatlarida raqamlar bilan bog'liq yana bir jumla kishi e'tiborini tortadi:

*Tunu kuni g'urbat tortg'il ishq yo'lida,
Saharlarda chorzarb urg'il jonu dilda*²⁷⁶.

Yoki

*Hoyu havas, moumanni yiroq tashla,
Saharlarda chorzarb urub tinmay ishla*²⁷⁷.

Misralarda keltirilgan "chorzarb" so'zidagi "chor" to'rt raqamining forsiycha aytilishi ekanligi hech kimga sir emas. Zarb – urg'u ma'nosini beradi. "Chorzarb urish" – jahriy zikrning bir turi bo'lib, zikr asnosida zarb (urg'u) ko'krak qafasi bo'ylab to'rtburchak shaklida harakatlanishidan hosil bo'ladi²⁷⁸. Yassaviy tariqatiga xos bo'lgan zikr yo'llaridan bo'lganligi uchun ham Ahmad Yassaviy hikmatlarida ushbu ifodani uchratish mumkin.

Sharq shoirlari asarlarida gul va bulbul, sha'm va parvona obrazlari keng o'rin egallaydi. Aslida, gul va sha'm ma'shuqa, sevgili timsolida, bulbul va parvona esa oshiq timsoli bo'lib keladi. Ammo mutasavviflar oshiq orasida eng juvonmardi sifatida parvonani tan oladilar va oshiqlik darajalarini tasvir etishda o'zlarini parvonaga qiyos qiladilar. Chunki parvona sha'mning otashida yonib, sevgisini o'z joni bilan isbot aylaydi, ya'ni sha'mning atrofida aylangan parvona otashda yonib, halok bo'ladi. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida parvona darajasiga ko'tarila olmaganligi uchun o'zini malomat qilar ekan, parvonaning oshiqlik darajasini "ming tasadduq bo'lish" jumlasini bilan ifoda etadi:

*Shokir bo'lub, aning shukrin qilolmadim,
Parvonadek ming tasadduq bo'lolmadim*²⁷⁹, -

²⁷⁶ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 259.

²⁷⁷ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 258.

²⁷⁸ Qarang: Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 389.

²⁷⁹ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 242.

Sha'm atrofida aylanayotgan parvona "ayn ul-yaqin" vodiysida bo'lib, otashda yonganda "haq ul-yaqin" martabasiga ko'tariladi. Bulbulda bunday holatni ko'rmaymiz. Boshqa oshiqlar, jumladan "...bulbul ham kasratga oshiqdir. Parvona esa vahdatga oshiq. O'zini sha'mda kuydiradi. Ko'pchilik bulbul bo'lishi mumkin, ammo parvona bo'lish nihoyatda mushkul", – deydi Fuzuliy g'azallarini sharhlagan olim Ali Nihot Tarlon²⁸⁰. Demak, Yassaviy parvonaning sha'm atrofidan tinimsiz aylanishi va alal-oqibat otashda kuyib kul bo'lishini o'ziga ibrat, deb bilgan va aynan ming raqami vositasida haq oshiqlari holini tasvirlagan.

Demak, keltirilgan tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkin: Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida to'rtta asosiy qahramon va insondagi to'rtta fazilatni ifoda etish orqali to'rt raqamiga, osmon jismlari va samo yoritkichlarini tasvirlash orqali yetti va o'n ikki raqamlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, "to'rt sodiq do'st", "to'rt toza do'st", "ikki kuyov", "ikki qaynota" singari raqamli birikmalarda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning izdoshlari bo'lgan to'rt xalifa madhi ifoda etilgan. Shuningdek, bir va ming raqamlarini bir-biriga zidlash orqali inson ma'naviyati uchun daxldor bo'lgan masalalar ham ilgari surilgan.

Komillik martabasiga erishish yo'llari sanalgan shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari to'rt raqami orqali timsollashtirilganligini Ahmad Yassaviy hikmatlari va "Faqrnoma" asari orqali ko'rish mumkin. Shuningdek, uch yuz oltmish, yuz ming singari raqamlarning adabiyotdan erkin o'rin egallashi diniy-tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq ekanligi Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy asarlari tahlili orqali ayonlashadi.



²⁸⁰ Ali Nihat Tarlan. Fuzuliy Devani Şerhi. – Ankara: Akçağ, 2018. – S. 32.

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA RAQAM POETIKASI: TALQIN VA TAHLIL

Alisher Navoiy she'riyatida raqam poetikasi: obraz va tasvir

Raqamlarga tayanib o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifoda etish Navoiy she'riyatida muhim o'rin tutadi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Shoir she'riyatida raqamlarning o'ziga xos silsilasi keltirilganki, har bir raqam zamiridagi ma'no-mohiyatni anglamay turib, she'rning to'liq tahlilini qo'lga kiritish mumkin emas. "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan quyidagi g'azal fikrimizga dalil bo'lishi mumkin:

*Tariqi ishq aro gar o'zni fard qilsa birov,
Harif emas yeru ko'k, necha gar erurlar ikov.*

*Ko'nguldin ayla mavolid maylini kam-kam,
Bo'lurg'a fard mavoni'dururlar ushbu uchov.*

*Desang, falakka chiqay, foniy o'l anosirdin,
Nedinki, ruhungadur chormix bu to'rtov.*

*Havosi xams ila maqsud bo'lmadi mudrik,
Ko'ngulni top iki-uch uzv, besh emas bu beshov.*

*Fanoi mahz yetar sittai zaruriya
Nedinki yo'qqa zarurat emas bu nav' oltov.*

*Xilofi shar' agar yetti ko'kka chiqqungdur,
Yaqinki, yetti tamug'din batardur ul yettov.*

*Navoiyo, sekiz uchmog' havosidin kechgim,
Bular mavoni' erur, yor istar o'lsa birov²⁸¹.*

²⁸¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 511.

G'azal matnidagi har bir raqamga shoir katta vazifa yuklagan, undagi raqamlar ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyatini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etgan. G'azalning birinchi baytidayoq unda ilohiy ishq mavzusi yetakchilik qilishi ayonlashadi. "Tariqi ishq" – Haq visoliga yetish uchun kirishilgan yo'l, ishq yo'li, ishq maqomi. Ishq – tasavvufiy tushunchaga ko'ra, koinotning paydo bo'lishi, vujudga kelishi va Allohning tajalli²⁸² etishiga sabab bo'lgan. Tasavvuf falsafasida yaratilish bir ishq tufayli paydo bo'lganiga ishonch ustunlik qiladi. Oriflarga ko'ra, yaratilishning avvali ishqdir. Shoirning qo'liga qalam ushlatgan ham ishq, oshiqqa Allohni ko'rsatadigan oyna ham ishq. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida tasavvuf maqomlarining o'ntasi haqida ma'lumot beradi: 1. Tavba. 2. Zuhd. 3. Tavakkul. 4. Qanoat. 5. Sabr. 6. Tavoze' va adab. 7. Zikr. 8. Tavajjuh. 9. Rizo. 10. Ishq²⁸³. Demak, Ishq – tasavvufiy tariqatning eng muhim maqomlaridan biri bo'lib, bu maqomga faqat komil insongina musharraf bo'lishi mumkin. Bu maqomda oshiqda shunday holat yuz beradiki, u o'zidan begona, noogoh, zamon-u makondan ozod; mahbub firoqida kuyadi, yonadi, unga yetishishga intiladi. "Dunyo bozorining g'avg'osi va dunyoda bor hamma narsalarning savdixonasidagi shovqin-suroni – ishq tufaylidir", – deydi shoir. Alisher Navoiy ishqni avom ishq, xavos ishq, siddiqlar ishq, – deya uch qismga ajratsa-da, uchala ishq turida ham mohiyat bitta, ya'ni Yaratganga bo'lgan muhabbatdir. Shuning uchun ham diniy-tasavvufiy adabiyotda insonning insonga bo'lgan muhabbati – mazojiy ishq orqali insonning Yaratganga bo'lgan sevgisi – abadiy hisoblangan haqiqiy ishq xususida so'z boradi. Majoziy ishq haqiqiy ishqqa

²⁸² Tajalli – ko'rinish, jilvalanish. Tasavvufda Janobi Haq lutfiga muyassar bo'lish; g'aybdan keladigan va qalbdan namoyon bo'ladigan ilohiy nur va sirlar. To'liq ma'lumot uchun qarang: Атойи. Девон. Луғат ва изоҳлар. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 307.

²⁸³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 483-500.

yetish uchun vosita sanaladi. Tahlil qilayotganimiz baytda Navoiy nazarda tutgan ishqning ikkinchi turi nazarda tutilmoqdaki, "o'zni fard qilish" bunga aniq ishoradir. "Fard" so'zi arabcha so'z bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilganda, yakka-yolg'iz degan ma'noni beradi. Ammo bu so'z tasavvufda faqat Allohni zikr etuvchi vali (afrod – fardning ko'pligi)larga nisbatan ham qo'llaniladi. Qutbning kuzatuv ostida bo'lgan bunday valilar guruhining aniq soni ma'lum bo'lmay, ba'zan ikki yoki uch, ba'zan esa olti yoki o'n kishidan iborat ekanligi qayd etiladi. "...g'ayb eranlari deyilgan bir toifa bo'lganki, ular hazrati Payg'ambar alayhissalomga tobe bo'lib, fardoniyat tajallisiga mazhar bo'lishgani uchun afrod nomini qozonishgan. Ishq ahliga rahnamolikka loyiq ko'rilishlarining asosiy sababi ana shu"²⁸⁴. Ishq tariqidagi solik o'zining yolg'izligini his etmog'i, hamma narsadan – moddiy dunyodagi ne'matlarning barchasidan yuz o'girmog'i ta'kidlanadi. Ishq tariqida toqlik maqomiga yetgan oshiq hamma narsani birlik, deb anglaydi va hatto yer-u ko'k ikkiligi ham uning nazdida birlikka aylanadi. Ikkinchi misrada misol tariqasida keltirilgan yer-u ko'kning o'zaro do'st, hamdam bo'la olmasligi shoirning fikrlarini isbotlashga qaratilgan. Bunda keltirilgan "harif" so'zi hamdam, do'st ma'nolarida qo'llanilgan. Yer-u ko'k deyilganda, moddiy va ma'naviy olam hamda bu olamdagi narsalar nazarda tutilgan. Chunki tasavvuf ahli qarashlariga ko'ra moddiy olam tuproq, suv, olov va shamoldan maydonga kelgan. Bu to'rt unsur esa ko'klarning aylanishidan o'rta chiqqan. Ko'klar va to'rt unurning birlashishidan uch farzand – jamodot, nabotot, hayvonot tug'ilgan. To'qqiz ko'k insonlarning otasi, to'rt unsur onasi ma'nosida kelib, bu qarashdan to'qqiz ko'kka yuksak otalar ma'nosini beruvchi "Aboi ulviya", to'rt unsurga onalar ma'nosini beruvchi

²⁸⁴ Иброҳим Ҳаққул., Очилов Э. Ишқ ва ҳайрат олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 148.

“Ummuhoti sufliya” deyiladi²⁸⁵. Ba’zi olimlar yaratishlarni ikkiga ajratishgan: falakiy va unsuriy. Falakiy jismlar deyilganda, osmon va undagi jismlar nazarda tutilgan bo’lib, ular “yuqori olam”; unsuriy jismlar deyilganda esa to’rt unsur – tuproq, suv, olov va shamoldan iborat bo’lgan hamda ularning asliga tegishli jismlar e’tiborda tutilib, ular “quyi olam” deyilishini avvalgi fasllarda qayd etib o’tdik.

Ikkinchi baytdagi “mavolid” so’zi tasavvufda uch raqami bilan ramzlanadi, bu so’z “tug’ilgan uch farzand”, ya’ni nabotot, hayvonot va jamodotni anglatish uchun xizmat qilmoqda:

*Ko’nguldin ayla mavolid maylini kam-kam,
Bo’lurg’a fard mavoni’ dururlar ushbu uchov.*

Yuqoridagi fasllarda aytib o’tganimizdek, olamdagi uch yaratilish paydo bo’lishiga yetti ko’k va to’rt unsur zamin hozirlagan. Shuning uchun ham yetti ko’kka “yetti ota”, to’rt unsurga “to’rt ona”, “to’rt ummahot”, uch yaratilishga esa “uch farzand” nomlari berilgan. Navoiy dostonlarining hamd va na’t qismlarida ana shu qarashni qayta-qayta e’tirof etadi.

Shoir yana “fard” so’zini qo’llaydi va bunda yolg’izlanish, mosuvodan boshqa hamma narsadan ko’ngilni uzish, tanholikka erishish uchun olamdagi uch yaratilishlarning barchasi to’siq bo’lishi mumkin, degan qarashni ilgari suradi. Mavolidan “fard” bo’lish esa o’zlikdan kechishni anglatadi. Boshqa bir g’azalda Navoiy buni quyidagicha ifoda etgan:

*Faqr ichra, ne tong, uzlukidin kechsa Navoiy,
Fard o’ldi fano shevasidin bahravar o’lg’on.*

G’azalning uchinchi baytida “anosir”, ya’ni inson yaratilishi uchun asos bo’lgan to’rt unsur, shu to’rt unsur tufayli inson tabiatdagi harorat (issiqlik), burudat (sovuqlik), rutubat (namlik) va yubusat (quruqlik) kabi to’rt xil xususiyat haqidagi qarashlarga ishora

²⁸⁵ Bu haqda qarang: Erman Artun. Dini-tasavvufi Halk Edebiyati. – Istanbul, 2010. – S.269.

bor. Ruhni chormix singari yerga bog’lab turgan to’rt unsurdan forig’ bo’lish – ruhoni poklanishdir. Chormix – o’tmishda gunohkorlarni jazolashda ikki qo’l va ikki oyog’idan bog’lab, azob berish uchun to’rt tomonga qoqilgan qoziq²⁸⁶, ma’nosini beradi. Ishq yo’liga kirgan va Haq visoliga yetishishni niyat qilgan solik ruhini chormix singari moddiy olamga bog’lab turgan to’rt unsur tutqinligidan forig’ etishi talab qilinadi:

*Desang falakka chiqay, foni o’l anosirdin,
Nedinki, ruhungadur chormix bu to’rtov.*

Navoiy boshqa bir o’rinda to’rt unsur haqida so’z yuritar ekan, bu to’rt unurning har biridan ehtiyot qilinishi lozim bo’lgan “uy”lar xususida fikr bildirib, “ko’ngul uyi”ni hammasidan ehtiyot qilishga chaqiradi, ki, bu ham yuqoridagi maqsadni yanada qat’iylashtiradi: “Suvdin asrag’ulukdur tufroq va balchig’ uyin. Va o’tdin asrag’ulukdur yag’och va qamish uyin. Va yeldin asrag’ulukdur bo’z uyin. Va tufrog’din asrag’ulukdur ko’z uyin. Jami’i mosivallohdin asrag’ulukdur ko’ngul uyin.

Bayt:

*Nechukkim, to’rt uyga to’rt ziddi nuqsoni shoye’dur,
Beshinchi uy dag’i ag’yordin ul nav’ zoze’dur”²⁸⁷.*

Demak, ruhni yuksaltirish, falakka ko’tarilish, ruhoni hayot zavqiga erishish uchun to’rt unsur sifatlaridan forig’ bo’lish lozim. Navoiy bu masalaga qayta-qayta murojaat etadi va boshqa bir g’azalida ham “*Tabiat cho-hidin ruhingni qutqar...*”, – deya xitob qiladi.

Navbatdagi baytda “havosi xams” – besh sezgi: ko’rish, eshitish, tatish-ushlash, hid bilish singari besh turli hissiyot tilga olinmoqda. Navoiy lirik qahramoni ba’zi o’rinlarda sevgilining ko’zi, zulfi, yuzi va qaddi qomatini ko’rib, “bexud” bo’lganligini ana shu besh hisning “barbod” bo’lgani orqali ifoda etadi:

²⁸⁶ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Академнашр, 2023. – Б. 564.

²⁸⁷ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 543-544.

*Ko'z-u zulf-u yuz-u qadding g'amidin,
Meni bexudqa barbod o'ldi besh his²⁸⁸.*

Bu besh his maqsadni idrok etolmadi, "ko'ngulni" anglash uchun bu "beshov" ortiqchalik ("besh emas") qilmasligi qayd etiladi²⁸⁹. Shoir bu o'rinda ham tajnis san'atini mohirona qo'llaydi, shuningdek besh raqamini anglatuvchi so'zning o'zbekcha va arabcha variantlarini keltiradi:

*Havosi xams ila maqsud bo'lmadi mudrik,
Ko'ngulni top iki-uch uzv, besh emas bu beshov.*

Keyingi baytda shoir forsiy tildagi asarlaridan biri, olti qasidadan iborat bo'lgan "Sittai zaruriya" ("Olti zaruriyat") asarini tilga olmoqda. Fanoi – Navoiyning forsiy taxallusi, "Foniy" vazn talabiga ko'ra shunday yozilgan. "Devoni Foniy" tarkibiga kiritilgan ushbu qasidalar turkumi tasavvufiy ruhda bo'lib, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ularning mazmuni xususida Navoiy shunday ma'lumot deydi: "Bu olti qasida hamd va na't va sano va mav'izatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma'rifat"²⁹⁰.

*Fanoi mahz etar sittai zaruriya
Nedinki, yo'qqa zarurat emas bu nav' oltov.*

Oltinchi baytda yetti ko'k va yetti tamug'ga ishora bor, shuningdek, takrir san'atini mahorat bilan qo'llagan shoir "yetti" so'zini uch marta keltirish orqali bu raqam mohiyatiga urg'u berib o'tadi:

*Xilofi shar' agar yetti ko'kka chiqqungdur
Yaqinki, yetti tamug'din batardur ul yettov.*

Yetti ko'k hamda tasavvuf ahlining komil inson haqidagi qarashlarida yetti ko'k tushunchasiga munosa-

²⁸⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 232.

²⁸⁹ "Беш" форсийчада "кўп, "ортик", "зиёд" деган маъноларни англатади. Бу ҳақда қаранг: Бердақ Юсуф. Навоий тили луғати. Беш жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 255.

²⁹⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 524.

bat masalasini yuqorida ko'rib o'tdik. Shariatga xilof ishlarni amalga oshirgan kishilarning ruhi ko'kka ko'tarilishi dargumon. Gunoh va razolat botqog'iga botganlarning esa "yetti tamug'"da jazolanishi aniq. Mukofot uchun sakkiz jannat yaratilgan ekan, bu dunyodagi har bir gunoh jazosiz qolmasligiga iymonli kishilar chin dildan ishonishadi. Ulamolar Qur'oni karimdagi oyatlarga asoslanib, do'zax yetti qavatdan iborat ekanligini va har bir qavatning nomi o'zgacha ekanligini (jahannam, lazo, hutama, saqar, sa'ir, hoviya, jahiym), unda jazolanuvchilar ahli ham bir-biridan farq qilishini qayd etishgan. Imtihon uchun berilgan bu dunyoga kelgan har bir mo'min banda jazo kunining hisobotidan qo'rqib yashaydi. Yaxshiga mukofot, yomonga jazo beriladigan qiyomat kunida gunohkor bandalar ana shunday yomon joylarga giriftor bo'ladilar. Gunohning esa katta-kichigi bo'lmaydi. Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devonidan joy olgan g'azallaridan birida "yetti iqlim podshohligini da'vo qilib, saltanat nog'orasini chalgan kishi aslida do'zaxning yetti eshigini qoqmoqda"²⁹¹, – deydi:

*Ko'si shavkat yetti do'zaxqa eshik qoqmoqdurur,
Bas yeti iqlim mulki uzra sulton bo'ldi tut²⁹².*

Bu bilan shoir yetti iqlimga sultonlikni da'vo qilmaslikni targ'ib qiladi, ammo quyidagi misralarda toat-u ibodatlar orqali faqat jannatni orzulash ham asl maqsadga mone'lik qilishi ta'kidlanmoqda:

*Navoiyo, sekiz uchmog' havosidin kechgim,
Bular mavoni' erur, yor istar o'lsa birov.*

G'azal maqta'sida ishq yo'lga kirganlarning asosiy maqsadi "yor" vasliga erishish xususida so'z boradi. Yirik tasavvuf shayxi Shibliydan "Vasl nima?", – deb so'rganlarida, u: "Ikki tarafdin kechsang, visolga

²⁹¹ Давлатов О. Маънолар хазинаси. Иккинчи китоб. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – Б. 92.

²⁹² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 90.

yetasan”, – deb javob beribdi. “Ikki taraf nima?” – deyishsa, “Sizlarning ro‘parangizda Allohni to‘sisib turgan cho‘qqi”, – debdi. “U cho‘qqi nima?” – deyishganda: “Dunyo va oxirat”, – deb javob bergan ekan. Tasavvuf adabiyotida dunyo orzulagan do‘zaxga, jannat umidida toat-ibodat qilgan “uchmog”ga yetishi, ammo ikkalasiga ham e’tibor qilmasdan, Yaratganning vaslini tilaganlar Alloh diydoriga musharraf bo‘lishiga asosiy urg‘u beriladi. Jannatdagi eng ulug‘ ne‘mat Alloh diydoridir. Sharq shoirlarining vasl va visol haqidagi orzulari benazir ilohiy husn – Alloh diydorini talab qilishga qaratilgan. Atoyining:

Bo‘lsa jannatta Atoyi sensizin qilg‘ay fig‘on,

Soldilar do‘zaxqa deb, Firdavsi a‘lodin meni²⁹³, –

singari baytida ham, Navoiyning yuqoridagi misralarida ham ana shu ishtiyoq tasvirini ko‘ramiz, ya‘ni orzu jannat emas, balki visoldir.

Demak, guvohi bo‘linganidek, Navoiy yetti baytdan iborat bu g‘azalda birdan sakkizgacha bo‘lgan raqamlarni keltiradi va ular mohiyatidagi ramziy ma‘nolarga ishora qiladi. Birinchi baytda “fard” – yolg‘izlik, demakki, bir va yer-u ko‘k ikkiligi, ikkinchi baytda – mavolid, uchinchi baytda – anosir, to‘rtinchi baytda – havodis, beshinchi baytda – olti qasida, oltinchi baytda – yetti ko‘k va yetti tamug‘, yettinchi baytda – sakkiz jannat tushunchalari raqamlar bilan bog‘liqlikda shoir badiiy niyatini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Muallifning fikr izchilligiga erishuvida raqamlarning hal qiluvchi o‘rni ko‘zga tashlanganligi shubhasiz. Ammo yana bir jihatda shoirning badiiy mahoratini ta’kidlamaslikning iloji yo‘q. Bu – g‘azalda radif vazifasini bajarib keluvchi so‘zlardir. Bular – “birov”, “ikov”, “uchov”, “to‘rtov”, “beshov”, “oltov”, “yetov” va nihoyat matla‘ning birinchi misrasida kelgan so‘z maqta‘da yana takrorlanadi – “birov”. Navoiyning san‘atkorligi, o‘ziga xos uslubi va

²⁹³ Atoyin. Kўrsatilgan manba. – B. 221.

badiiy salohiyati naqadar yuksak ekanligi raqamlar poetikasi bilan bog‘liq ana shunday o‘rinlarda namoyon bo‘ladi. “Bir”dan boshlangan yaratilishning yana “bir”-likka qaytishi raqamlar mohiyatiga san‘atkorlik bilan singdirib yuborilganki, biz bunda tasavvufdagi asl mohiyat yashirin ekanligini his qilishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallardan birida shunday bayt bor:

Falakni sog‘ar etib tut, vale bu shart bila

Ki, tomsa to‘qqizu oqsa, ichur o‘ttuz manga²⁹⁴.

Baytda keltirilgan “tomsa to‘qqiz, oqsa o‘ttuz” birikmasi shoirning yana bir qator baytlarida uchraydi. Bunday misralarni o‘qigan she‘rxon beixtiyor “Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan quyidagi to‘rtlikni yodga oladi:

Ottiz ichib qiqralim,

Joqar qubub sekrailim.

Arslanlaju kokrailm

Qachtı saqinch sewnalim.

“Uch qaytadan ichib, quvnaylik, sakrab-sakrab o‘ynaylik, Arslon kabi na‘ra tortaylik, qayg‘u alam bizdan yo‘qolganini ko‘rsataylik”²⁹⁵. Bu haqda fikr yuritir ekan, Abdurauf Fitrat shunday yozadi: Mahmud Koshg‘ariy ba‘zi turk qabilalari orasida yashaganda ularning “o‘ttuz qayta ichaylik” deb uchar piyoladan ichganlarini ko‘rgan”²⁹⁶. Filologiya fanlari doktori, professor A.Abdug‘afurov “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi “Tiyradur o‘ylakim yorug‘lig‘ anga bermas yuz” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaldagi to‘qqiz so‘zining izohida “Abushqa”ga murojaat etib, ushbu fikrlarga diqqatni jalb etadi: “Ammo chig‘atoy toifasining bir odatlari bordurki,

²⁹⁴ Алишер Навоий. МАТ 20 томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 150.

²⁹⁵ Кошғарий М. Девони луғатит турк. I қисм. – Тошкент, 1960. – Б. 159-160.

²⁹⁶ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 41.

u ma'noyi ash'or uchun "G'aroyib us-sig'ar"da bir bayt kelur:

*G'am g'izosi orasinda qani turkona ayog',
To'ra oyini bila tomsa to'quz, oqsa o'tuz.*

Ul odat budurki, suhbatda qadahdan bir tomila (tomchi) to'kulsa, to'qqiz qadah ichurlar, agar bir qadah to'kilsa – o'ttuz qadah ichurlar. Va bu ma'ni dog'i bukim, agar banim qadahimdin tomila tomilsa – to'qqiz qadah ichayin va agar to'kilib oqsa – o'tuz qadah ichayin, demakdur. Mastu bexud bo'lg'ondin kinoyadur.

*Mug'anniy, bir navoye tuz, Navoiy, nag'maye
ko'rguz,*

Ayoqchi, tomsa tut, to'qquzki Doroyi jahon keldi.

va yana "Hayrat ul-abror"da oltinchi maqola hikoyasi oxirinda kelur:

*Soqiy, adab shartini omoda tut,
Ollima to'qquz yukunub boda tut.
To ani ich, deb sanga men yuz tutay,
Tomsa to'quz, oqsa xud o'ttuz ichay"*²⁹⁷.

Adabiyotshunos olim M.Asadov "Devoni lug'otit turk"da keltirilgan "uch qaytadan ichmoq" birikmasi "to'ra oyini"ga o'xshash qoidaning juda qadimgi davrlarda ham mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi"²⁹⁸, – degan xulosaga keladi. Navoiyning quyidagi baytlarida keltirilgan "to'qquz qadah" birikmasi ham turkiy xalqlar orasida mavjud bo'lgan aynan ana shu odat bilan bog'liqdir:

*Firoqu zuhd daf'ig'a Navoiy ishq sahbosin
Magar to'qquz tutub, to'qquz falak jomini
sipqarmish"*²⁹⁹.

Yoki

²⁹⁷ Абдуғафуров А. "Тўра ойини била" // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. № 2. – Б. 22-25.

²⁹⁸ Асадов М. Ўзбек мумтоз шеърлятида риндона маъно ва лирик қаҳрамон характери. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... диссерт. автореф. Тошкент, 2017. – Б. 14-бет.

²⁹⁹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 271.

*Chu mug' dayrida zikrim do'st oti bo'ldi, ey soqiy,
Manga-o'q tut qadahni, gar erur to'qson-u gar
to'qquz"*³⁰⁰.

Demak, shoir she'riyatidagi raqamlar turkiy xalqlarning urf-odatlarini, an'analari, milliy qadriyatlariga ham ishora qiladi va o'ziga xos badiiy funksiyani bajaradi. XVIII asr shoiri Nishotiy ham "Daf va Gul" munozarasida ushbu odatga ishora qilib:

*Tomsa to'quz, oqsa o'ttuz deb xurush –
Chekmoq ila tushmush edi jong'a jo'sh"*³⁰¹, –

deydiki, ushbu odat uzoq yillar davomida turkiy xalqlarning hayotida saqlanib qolganligidan dalolat beradi.

To'qqiz raqami bilan bog'liq qarashlar va bu raqamning o'tmishda "mashhur"ligi boisini aniqroq tasavvur qilish uchun Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asaridagi ushbu ma'lumotlarga e'tibor qarataylik: "Yozishlaricha, mo'g'ul sho'basi to'qqiz nafardir: Mo'g'ulxon, Qoraxon, O'g'uzxon, Kunxon, Oyxon, Yulduzxon, Menglixon, Tengizxon, Elxon. Shu vajhdan to'qqiz raqamiga e'tibor mo'g'ul firqasi orasida rivoj topadi. Mo'g'ullarning bunday e'tibori tahqiqiga ko'ra, har martabada to'qqiz sanog'idan ortig'ini lozim ko'rmaydilar"³⁰². Sharafiddin Yazdiyning "Zafarnoma" asarida ham xuddi shunga ishora bor: "Turk xalqining ichinda rasm turur har nimarsani to'qquz qilmoq. Ul to'qquzni Mo'g'ulning to'qquz xonining yuzindin olib turur va ... xudoyi taoloning yaratqan nimarsalarining barchasin martaba-martaba yaratqan turur. Hech nimarsaning martabasini to'qquzdin yuqori yaratqan ermas turur"³⁰³.

³⁰⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 217.

³⁰¹ Муборак мактублар. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 276.

³⁰² Мирзо Улуғбек. Кўрсатилган манба. – Б. 41.

³⁰³ Шарафиддин Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 231.

Abulg'ozī Bahodirxon asarida mo'g'illarning to'qqiz xoni sharafiga turk-mo'g'il xalqlari orasida to'qqizliklar odat tusiga kirganligi, xususan, to'qqiz hadya (to'qqiz ot, to'qqiz chopon, to'qqiz parcha baxmal) haqida ma'lumot beriladi³⁰⁴.

Haqiqatdan ham, ko'plab tarixiy asarlardagi ma'lumotlar to'qqiz mo'g'illarda e'tiborli raqamlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Chunonchi, Chingizxon tug'ining to'qqiz poyali bo'lishi, harbiy yig'inlarda to'qqiz sarkardaning ishtirok etishi, xonning alohida ehsoniga erishgan tarxonlarning to'qqiz gunohi avf etilishi, tarxonlik unvonining to'qqiz avlodgacha meros qolishi, tarxonning hukmdor oldida to'qqiz qadah sharob ichishi va saltanatdagi istagan narsasini to'qqiztadan olishi mumkinligi singari to'qqiz imtiyozga ega ekanligi to'qqiz raqamiga e'tiqod qo'yishning o'ziga xos namunasidir. Bu haqda Mirzo Ulug'bek asarida shunday ma'lumotlar keltirilgan: "Tarxon shunday odamki, barcha jarimalardan ozod va erkin, qay lashkarda bo'lmasin, qanday o'ljani qo'lga kiritmasin, hech kim undan biror narsani olmaydi, unga tegishli bo'ladi va buyurdiki, qachon xohlasa, dargohga ijozatsiz va dastursiz kira olur. To'qqiz bor gunoh undan sodir bo'lganda ham biror kishi uni sazo bera olmaydi. Yana tayinladiki, uning najodidan to'qqiz avlod boshqa takliflardan emindirlar"³⁰⁵.

To'qqiz raqami bilan bog'liq bunday qarashlar temuriylar davrida ham amalda bo'lganligini tarixiy manbalar dalillaydi. Masalan, Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida keltirilgan bir hikoyada naql qilinishicha, Husayn Boyqaro Xorazm viloyatini obod qilish maqsadida, Xurosondan uch ming xonadonni Xorazmga ko'chirish uchun farmon beradi. Navoiy ushbu farmonni odamlarni vatandan judo qilish va ularni katta qiyinchiliklarga giriftor aylash, deb

hisoblaydi. Shuning uchun ham podshohga "bu ishning bahridan o'tsalar", – deya murojaat etadi. "Sohibqiron bu so'zni birinchi galda, – deydi Xondamir, – rizolik qulog'i bilan tinglamadi. Shafqatli Amir (ya'ni Navoiy – Dj. S.) bu haqda o'n martalab ta'kid qilsa ham biror natija chiqmadi. Lekin boshqa bir galda jur'at qilib shunday arz qildi: o'zingizning menga bergan farmoningizga binoan, har bir ish o'rinsiz voqe bo'lsa, to'qqiz galga aytishga haqlidurman. Xalqni Xorazmga ko'chirish masalasida to'qqiz marta arz qildim, natija bermadi."³⁰⁶. Xullas, Navoiy to'qqiz raqamining "imtiyoz" va "imkoniyat"idan foydalanib maqsadga yetishadi. To'qqiz raqami bilan bog'liq xuddi shunday bir holatni Z.M.Boburning "Boburnoma"sida ham uchramiz. Muallif to'qqiz raqami bilan bog'liq hodisaning o'zi va Boqi Chag'oniyoniy o'rtasidagi munosabat asnosida ro'y berganligini ta'kidlaydi: "Boqi Chag'oniyoniy ... nozi va ruxsati haddin oshti, biz ham aning axloq va af'olidin jong'a yettuk, ruxsat berduk. Ruxsat tilagandan so'ng pushaymon bo'ldi, iztiroblar qila kirishti, foyda qilmadi. Manga ayturub yiboribturkim, shart qilib erdilarkim, to'qqiz gunoh mendin sodir bo'lmag'uncha so'rmag'aylar. Men Mullo Bobodin o'n bir gunohini birar-birar xotirnishon qilib aytib yibordim. Mulzam bo'ldi..."³⁰⁷. Bu esa to'qqiz raqamiga doir an'anaviy qarash turkiy xalqlar orasida ancha bardavom bo'lganligidan dalolat beradi.

Chingizxon zamonida turk-mo'g'ul qavmlari daha (o'nlik), sada (yuzlik), hazora (minglik) va tuman (o'n minglik)larga bo'lingan. Chingizxon zamonida "Hech kim, – deb aytiladi "Tarixi arba' ulus"da, – o'z dahasi, sadasi, hazorasidan boshqa joyga keta olmagay va boshqaning panohiga o'ta olmagay..."³⁰⁸ Bugungi kunda

³⁰⁴ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 17.

³⁰⁵ Мирзо Улуғбек. Кўрсатилган манба. – Б. 88.

³⁰⁶ Ғиёсиддин Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Академ-нашр, 2018. – Б. 89-90.

³⁰⁷ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 125.

³⁰⁸ Мирзо Улуғбек. Кўрсатилган манба. – Б. 114.

ham aholi yashash hududlarini “daha”, “tuman” deb yuritish yoki aholi yashash punktlarini “Hazora” deb atashning tarixiy ildizlari shunga borib taqaladi.

She’riyatda, adabiy asarlarda ma’noni kuchaytirish, ifoda etilayotgan fikrni, his-tuyg’ularni mubolag’ali tasvirlash maqsadida yuz, ming yoki yuz ming singari ulkan raqamlardan foydalaniladi. Ammo Navoiy g’azallarida bu raqamlar har doim ham shu vazifani bajarmagan. Misol tariqasida shoirning quyidagi baytiga e’tibor qaratamiz:

*La’li bir so’z birla yuz yillik o’lukni Xizr etar,
Go’yiyo Ruhullah ushbu obi hayvon ichradur.*

Baytda keltirilgan “yuz yillik o’luk” jumlasini tasodifan olingan yoki ba’zi o’rinlardagi (yuz jon, yuz zarra, yuz jahon, yuz jafo) singari fikrni kuchaytirish va ta’sirchanligini oshirishda xizmat qiladigan birikma bo’lmay, diniy qarashlar bilan bog’liqdir. Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Uzayr (a. s.) haqida ma’lumot berar ekan, shunday voqeani keltiradi: Uzayr (a. s.) xarobalarda o’liklarning suyaklarini ko’rib, “Alloh qanday qilib o’lganlarni qayta tiriltirar ekan”, – degan fikrga keladi. Shunda Allohning amri bilan uning joni tanasidan olinadi va yuz yil davomida xalqdan pinhon tutiladi. Oradan ushbu muddat o’tgandan keyin qayta tiriltirilib, farishta tomonidan necha yil uxlaganligi so’ralganda, Uzayr “Bir yoki undan ortiqroq kun”, – deb javob beradi. Ammo minib yurgan eshagining suyaklarini ko’rib, muddat ancha uzoq ekanligini angelaydi. Alloh ushbu muddat yuz yil ekanligini Uzayrga aytib, qo’lidagi anjir va uzumini asl holiga keltiradi hamda eshagini tiriltiradi³⁰⁹. Demak, baytda tilga olingan “yuz yillik o’luk” jumlasini shunchaki emas, balki diniy qarashlar bilan bog’liq ekanligi ayonlashadi.

Navoiy raqamlarga murojaat qilganda, ularning xalqimiz tarixi, urf-odatlarini, an’analari tutgan o’rni

³⁰⁹ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G. G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 585.

bilan birga, diniy mifologik qarashlarda, shuningdek, tasavvuf ta’limoti hamda adabiyotidagi ramz va ma’nolariga ham e’tibor qaratgan. Navoiy asarlaridagi, xususan, shoir she’riyatidagi raqamlar bilan bog’liq fikrlar tahlilga tortilganda ana shu jihatlar ham hisobga olinishi lozim, deb o’ylaymiz. Aks holda, u yoki bu raqam mohiyati va undan ko’zda tutilgan asl maqsad yoki ma’noni yoritish murakkablashib, tadqiqotchilar orasida bahs-u munozaralar ko’payib boraveradi. “O’n sakkiz ming olam” ifodasiga doir fikr va talqinlar buning bir misoli bo’lishi mumkin.

“O’n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur” – misralari bilan boshlanuvchi g’azali tarkibida kelgan “o’n sakkiz ming olam” tushunchasi bir qancha olimlar tomonidan tahlil qilingan. Yirik tilshunos olim A.Rustamov ushbu birikmani mubolag’a uchun qo’llanilishini qayd etgan³¹⁰ bo’lsa, filologiya fanlari doktori Nusratilla Jumaxo’ja bu birikmani “turg’un so’z birikmasi”, – deb ataydi³¹¹. Ustoz Ibrohim Haqqul tasavvuf she’riyatidagi poetik obrazlardan biri sifatida talqin qiladi va “O’n sakkiz ming olam” tasavvuf ta’limoti zahirida yuzaga kelgan bo’lib, Haq oshiqlarining siyrat olamiga, zohiriy olamga emas, botiniy olamga daxldordir³¹², – degan xulosaga keladi.

Tasavvuf atamallari berilgan bir qancha lug’atlarda “o’n sakkiz ming olam” ifodasiga ham izoh berib o’tilgan. Xususan, Adham Jabaji o’g’lining “Tasavvuf atamallari lug’ati” kitobida qayd etilishicha, olamning o’n sakkiz mingga yetkazilishi quyidagichadir: “Bu to’qqiz falakla teng kurrai havo, suv kurrai, tuproq kurrai, otash kurrai, ya’ni anosiri arba’a, jamodot, nabotot, hayvonot, ya’ni mavolidi salosa. Inson va insoni komil. Bularning

³¹⁰ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: 2010. – Б. 85.

³¹¹ Нусратилла Жумахўжа. Ўн саккиз ёш ҳайратлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990. 21-сент.

³¹² Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 103.

jami o'n sakkiz bo'lurki, zuhur e'tibori ila har biri mingdan bo'lib, o'n sakkiz ming bo'lur"³¹³. Turk olimi Mahmud Bayroqdor e'tirofi bo'yicha, payg'ambarimizni barchaga o'rnak ko'rsatish va yuksaltirish uchun "O'n sakkiz ming olam payg'ambari" deyish musulmonlar orasida bir odat tusiga kirgan va u majoziy mazmunga ham egadir³¹⁴. Shuningdek, bu tushunchaning o'n sakkiz raqamini muqaddaslashtirish bilan bog'liq jihati ham bor. O'n sakkiz yosh ma'shuqaning eng go'zal davri. Navoiy o'n sakkiz olamga muqobil ravishda "Ne ajab chun sarvinozim o'n sakkiz yoshindadur", – deganmi? Bo'lishi mumkin. Ammo bunda boshqa bir sir ham bor. "Jaloliddin Rumiy "Devoni Kabir"dagi bir g'azalida, – deydi rumiyshunos Gulpınarlı, – "Ey, siymtanli go'zal, o'n sakkiz qadahdan ortig'ini qabul qilmasmen. Shafqat qil, holimni ko'r, ey berahm, ey jallod go'zal", – demish. Mavlono nimaga aynan "o'n sakkiz"ni tilga olayotir? Chunki o'n sakkizni muqaddas bilish Mavlono zamonida ham bo'lgan. Demak, bu qanoatning Mavlonodan avvalgi davrlardan kelayotgan bir an'ana ekanligiga ishonishimiz kerakdir"³¹⁵. Shuni qayd etib o'tish kerakki, o'n sakkiz raqami mavlaviylar uchun muqaddas raqamlardan sanalgan. Mavlaviya tariqatidagilar Rumiy "Masnaviy"sining butun mohiyati va mag'zi dastlabki o'n sakkiz baytda jamlangandir, – degan fikrni ilgari surishgan. Sadaqa berilganda ham iloji boricha "o'n sakkiz"likka amal qilishga intilishgan ekan.

"O'n sakkiz ming olam" haqidagi qarashlar juda xilma-xil bo'lganidek, bu ancha murakkab va chigal masalalardan. Balki shu sababdan taniqli olim Yoqubjon

Is'hoqov masalaga yanada konkret yondashib, maqolasini "O'n sakkiz ming olam asrori" deb nomlagan. Olim bu borada ikki xil qarashni ilgari suradi. Birinchidan, "O'n sakkiz ming" tushunchasi olamning yaxlit va yagonaligi haqidagi tasavvur tarafdori bo'lgan Platon hamda Aristotelning olam garmoniyasi haqidagi konsepsiyasiga mos keladi. Ikkinchidan, raqamlarning ramziy mohiyati haqidagi asotirlar bilan (uch, yetti, to'qqiz) aloqadordek tuyuladi. Shuning uchun ham Yo'Is'hoqov quyidagicha xulosaga keladi, ya'ni "o'n sakkiz ming olam" iborasini "ikki xil yo'nalishda – olamning paydo bo'lishi borasidagi diniy tasavvurlar bilan yoki tasavvuf falsafasi bilan bog'liq holda talqin etish imkoniyati mavjud. Har ikkala holatda ham Alloh bilan uzviy bog'liq holda keladi. Lekin birida (diniy aspektda) Yaratuvchining buyuk qudratini, ikkinchisida, ya'ni falsafiy ma'noda Allohning sifatleri (tajallisi)ni ta'rif va tavsif etish uchun xizmat qiladi"³¹⁶.

"G'iyos ul-lug'ot" muallifi o'n sakkiz ming olam tushunchasi haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Basoir" mualliflarining yozishicha, olamning to'rt tomonida, ya'ni sharq-u g'arb, janub va shimolda to'rt ming besh yuz olam bor bo'lib, jami o'n sakkiz ming olamni tashkil etadi. Sayid Ali Hamadoniyning "Xilofat ul-manoqib" asarida qayd etilishicha, "Olamlar soni uch yuz oltmish mingtadir, ba'zilar yetmish ming, ba'zilar o'n sakkiz ming olam deyishadi. Chunonchi, aqliya, nuriya, ruhiya, nafsia, tab'iya, jismiya, unsuriya, misoliya, xayoliya, barzaxiya, xishriya, jinoniya, jahannamiya, a'rofiya, ru'yatiya, suvayriya, jamoliya, kamoliya. Bu olamlarning hammasi zohir va botin, ya'ni g'ayb va shahodatdan iborat ikki olamda ifodalangan"³¹⁷.

Bizning nazarimizda, Hujviriyning quyidagi fikrlari masalaning ildizini aniqlash va ravshanlashtirishga ya-

³¹³ Ethem Cebecioglu. Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sozlugu. – Ankara, 2012. – S. 209.

³¹⁴ Qarang: Mehmet Bayrakdar. Tasavvuf ve Modern Bilim. – İstanbul, 2016. – S. 83.

³¹⁵ Abūlbakī Gölpinarlı. Mesnevi Tercemesi ve Şerhi. I-II. Cıld. – İstanbul, 2024. – S. 15-16.

³¹⁶ Исҳоқов Ё. Ўн саккиз минг олам асрори / Навоийга армуғон. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 62-68.

³¹⁷ Муҳаммад Ғиёсиддин. Кўрсатилган манба. – Б. 384.

qindan yordam beradi: “Olam – Allohning maxluqotidan iborat erur. Soʻfiylar oʻn sakkiz ming va ellik ming olam mavjud, degan qarorga kelishgan. Faylasuflar biri ulviy, boshqasi sufliyga ajraluvchi ikki olam haqida bahs yuritishlar. Ulamolalar esa Arshdan yer yuziga kelguncha har ne boʻlsa olamdur, deyilar. Tasavvuf yoʻliga kirganlarning ruhlar olami, nafaslar olami deyishdan koʻzlagan maqsadlari faylasuflarnikidan boshqadir. Zero, soʻfiylarning murod va maqsadlari ruhlar hamda nafaslarining zuhur aylashi va bir joyga jamlanishidir”³¹⁸.

Soʻfiylik zaminida yuzaga kelgan ushbu ifodaga tasavvuf falsafasida shu qadar koʻp maʼnolar singdirilganki, ularni birma-bir izohlashning sira iloji ham, imkoni ham yoʻq. Davriya mohiyatini oʻrgangan tadqiqotchilarning aytishlari boʻyicha, Alloh ilk tajalliysi bilan Aqli kull (Muhammad nuri)ni yaratgan. Aqli kull tajalliylaridan boshqa maxluqotlarni bino qilgan. Nuri Muhammadiya navbati bilan ruhlar olami (nafsi kull), tabiat, xayyula, jismi kull, shakl, arsh, atlas falagi, manozil falagi, yetti koʻk, yetti qat yer va mavolidi salosa (maʼdan, oʻsimlik, hayvonot) martabalarida zuhur etganki, bular “oʻn sakkiz olam”ni tashkil etgan. Demak, oʻn sakkiz ming olam tushunchasini insonning kamol martabalaridan ajralgan holda xayolga keltirib boʻlmaganidek, yoritib ham boʻlmaydi. Xuddi shu sababga binoan ham mutasavvif ijodkorlar “oʻn sakkiz ming olam” tushunchasiga alohida eʼtibor berib, takror-takror uni qoʻllaganlar. Bunga toʻla ishonch hosil qilish uchun Yassaviy, Boqirgʻoniy, Yunus Emro, Nasimiy, Alisher Navoiy, Soʻfi Olloyor kabi shoirlarning asarlari bilan tanishish kifoyadir. Masalan, Nasimiy Haqning yaratuvchanlik qudratini qalamga olar ekan:

*Oʻn sakkiz ming olamga oyina boʻldi surating,
Chor anosir suratida shakli – inson koʻrsatar*³¹⁹.

³¹⁸ Hucviriyy. Keşful Mahcüb. – İstanbul, 1999. – S. 228.

³¹⁹ İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. 1 cild. – Bakı, 2004. – S. 145.

Professor Mustafo Totchiga koʻra, “oʻn sakkiz ming olam ramziydir va yaratilmish barcha olamlar uchun ham qoʻllaniladi... Allohga yetishgan valoyat ahli oʻn sakkiz ming olamdan nariga qadam qoʻyib, borliq kategoriyalaridan kechib, ilohiy olamga yuksalmishdir”³²⁰. Bu esa ishq va maʼrifat natijasidirki, shuning uchun ham Ahmad Yassaviy:

Orif oshiq jon mulkida alam tortsa

*Oʻn sakkiz ming qomugʻ olam gʻulgʻul boʻlur*³²¹, – degan. Oʻn sakkiz ming olam ayni paytda “oʻn sakkiz ming hijob”, ularni bartaraf aylash ham tashqi va tashqaridagi sayrni emas, balki ruhiy sayri sayohatni aks ettiradi. Bu xususda Yunus Emro:

Odim-odim ilgari besh olamdan ichkari

Oʻn sakkiz ming hijobni kechdim bir togʻ ichinda, – deydi. Bu “togʻ” esa Birlik, yaʼni Vahdatdir. Bunga yetib borguncha inson juda koʻp tuygʻulardan kechishi va ularning taʼsiridan butunlay ozod boʻlmogʻi kerak. Ana shu haqiqatga asoslanib, mutasavvif ijodkorlardan biri: “Oʻn sakkiz ming olam insonga tegishlidirki, bu uning oʻn sakkiz ming sifati erur. Bulardan olti mingi nabototga, olti mingi hayvonotga, olti mingi insonga taalluqli. Bular esa bir-biridan ayri emas, balki ixtilot holidadir. Tangri ularning barchasini ihota etmishdir”, – deydi³²².

Tasavvuf olimlarining qarashlari boʻyicha, koinot ilohiy sevgi va ishqning zarurati sifatida maydonga kelgan, u Alloh taoloning tajallisidan boshqa narsa emasdir. Ibn Arabiyning “Futuhoti Makkiya” asarida aytilishicha, Alloh ilohiy ismlarni oʻzida mushohada etishni tiladi. Chunki qudratsiz Qodir, rizqsiz Razzoq sifatlarning maʼnosi va qiymati yoʻqdir. Shuning uchun

³²⁰ Мустафо Тотчи. Юнус Эмро. Тадқиқот ва шарҳ. – Анкара, 1990. 234-бет.

³²¹ Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б. 150.

³²² Abdurrahman Güzel. Dini Tasavvufi Türk Edebiyatı. – Ankara: Akçağ yayınları, 1999. – S. 585.

ham borliq yaratildi va olamdagi barcha narsalarni o'ziga oyna qildi, shu oynaga qarab o'z jamoli va kamolini tomosha qildi. Shu ma'noda Nasimiyning quyidagi baytida ifoda etilgan fikr Ibn Arabiy qarashlarining badiiy ifodasidek taassurot qoldiradi:

*O'n sakkiz ming olamning oynasidur surating,
Kimki shu mir'otni topdi, o'ldi min ahli surur³²³.*

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi quyidagi baytlarda yuqorida qayd etilgan haqiqatlarning deyarli barchasi e'tiborga olingan va o'zining badiiy ifodasini topgan:

*Haq vujudi keldi bahri bekaron,
Mavji oning ofarinishdin ayon.*

*O'n sakkiz ming olam ichra har ne bor,
Kim qilurlar ahli ma'ni e'tibor³²⁴.*

Demak, tasavvufiy qarashlarda ham, diniy nuqtayi nazardan ham "o'n sakkiz ming olam" birikmasi olamning ko'pligini ifodalaydi. Sharq ijodkorlari, jumladan, Alisher Navoiy qarashlariga tayaniladigan bo'lsa, odamning mohiyati va botiniy ahvoli qancha chuqur kashf etilgani sari olamning sir-asrori ham, ilohiy haqiqat va go'zalliklar ham ravshanlashib boraveradi.

Alisher Navoiyning raqamlarga munosabati u yaratgan lirik janrlarning barchasida ko'zga tashlanadi. Shoir she'riyatidan o'rin olgan qit'alarda ham raqamlar mohiyatiga urg'u berish, raqamlar vositasida hayotiy xulosalarini, fikrlarini ifoda etish holatlari mavjud. "G'azalda uch kishi tavridur ul nav'...", "Uch kishidin uch ish yomon ko'rinur...", "Navoiy she'ri to'qquz bayt-u...", "Ey Navoiy, so'z ila oncha guhar sochtingkim...", Tuzlukka moyil o'lk..." deb boshlanuvchi qit'alarida raqamlar mohiyatiga e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

³²³ İmadoddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cild. 1 cild. – Baki, 2004. – S. 195

³²⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 9-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 238.

*Navoiy she'ri to'qquz bayt-u, o'n bir bayt-u, o'n uch
bayt,
Ki lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.*

*Bukim albatta yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin³²⁵.*

Shoir she'riyati, to'g'rirog'i, g'azallarining hajmiga oid bo'lgan ma'lumotlarni aks ettirgan ushbu qit'ada "yetti gardun" jumlasini orqali Navoiy ijodida yetti baytli g'azallar miqdori ko'p ekanligi ramzi sifatida qo'llanilgan. Sharq adabiyotida g'azalning baytlari soni uch baytdan o'n to'qqiz baytgacha bo'lishi qayd etilgan bo'lsa-da, ko'pchilik ijodkorlar besh va yetti baytli g'azallarni ma'qul ko'rishgan. Navoiy lirikasi "to'qqiz bayt, o'n bir bayt, o'n uch bayt"li g'azallardan tashkil topgan va bunda albatta, shakl va mazmun birligiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, she'rlari orasida yetti baytli g'azallar ham borligini e'tirof etgan shoir bunday g'azallarni yuksakligi va yetukligi jihatidan yetti gardunga qiyos qiladi. Bunda yetti raqamining kosmogonik mohiyati shoir maqsadini ifoda etishda juda o'ng'ay keladi.

To'g'rilik va rostgo'ylik singari fazilatlar hamda ularning targ'ibi Alisher Navoiy asarlaridagi asosiy masalalardan biridir. "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda bir qator hikoyatlar orqali to'g'rilikning inson ma'naviy olamidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib bergan shoir lirik asarlarida ham shu fazilatlarini ulug'laydi, to'g'rilik va rostgo'ylik targ'ibiga keng o'rin ajratadi.

*Tuzlukka moyil o'lk, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkul o'lsa yo'qsa ming o'lingda har zamon.*

*Yuz sahfa bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon³²⁶.*

³²⁵ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 3-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 694.

³²⁶ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 3-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 683.

Ushbu qit'ada ilgari surilgan g'oya xususida fikr bildirar ekan, ustoz Ibrohim Haqqul shunday yozadi: "Qiziq, kotib bir qalam bilan yuzlab sahifalarni to'ldiradi. Nega? Cho'ponning qo'lida birgina tayoq, shu bilan u minglab qo'ylarni boshqaradi. Nega shunday? Biz buning sababini xayolga ham keltirmaganmiz. Holbuki, qalam singari cho'pon tayog'ining kuchi ham to'g'rilikda ekan. Shuning uchun kotibga qalam, cho'ponga tayog'i qadrlil³²⁷. Shoir insonning asosiy fazilati sanalgan to'g'rilik haqidagi ushbu qarashlarini raqamlarni "tilga kiritish" orqali ifoda etmoqda: qarshingda har zamonda yuzta emas, mingta mushkul ish chiqsa ham, to'g'ri so'zla; qalam bitta, ammo u yuzlab sahifalarni yozishga qodir, sababi aniq – u to'g'ri; cho'ponning tayog'i ham bitta bo'lgani holda minglab qo'ylarni boshqaradi, buning sababi ham tayoqning to'g'riligida. To'g'rilik haqidagi ushbu fikrni raqamlar harakatga keltirayotgandek go'yo. Chunki yuz yoki ming, bir va yuz, bir va ming raqamlarini bir-biriga zidlash orqali fikrni ta'sirchan ifodalashga erishgan.

Navoiy qit'alaridan biriga "Hukamo qavlining tarjimai" sarlavhasini qo'yadi va insonlar tabiatidagi eng yomon xususiyatlar haqida o'z qarashlarini bayon etadi. Podshohlarda g'azabkorlik, saxovat ahlida xasislik, donolarda esa mol-u dunyoga rag'bat bog'lashni eng xunuk va "yomon ish" sifatida e'tirof etar ekan, o'z fikrini uch raqamiga tayangan holda ifodalaydi:

*Uch kishidin uch ish yomon ko'rinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:
Shohdin – tundlig', g'anidin – buxl,
Molg'a mayl-u hirs – donodin³²⁸.*

Shohlardagi shijoat va jasurlikni olqishlagan, ularni odil va adolatparvar bo'lishga undagan shoir be-

gunoh kishilar boshiga og'ir kunlar tushishiga sababchi bo'ladigan podshohlarga xos bo'lgan o'jarlik va g'azabkorlikni qoralaydi. Saxiylik va qo'li ochiqlik, sadaqa va ehson haqidagi qarashlarni qayta-qayta ifoda etadi. Alloh taolo sadaqa qilgan kishining ehsonini yetti boshqoq chiqaradigan va har bir boshog'ida yuzta doni bo'ladigan bug'doyga qiyoslagan. Ya'ni, bir sadaqaning savobi yetti yuztagacha ko'payishi mumkin. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da "Dehqonki, tuzluk bila dona sochar, Haq biriga yetti yuz eshigin ochar"³²⁹, – deganida ham ana shu diniy haqiqatni nazarda tutgan edi.

Xoliq o'lg'on saxiydin elga bo'ldi ikki baxshoyish,

Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish³³⁰, – deydi shoir fardlaridan birida. O'z asarlarida mol-dunyoga rag'bat bog'lamaydigan, o'tkinchi dunyo ho-yu havaslari bilan yashashni o'zining asl maqsadi emasligini anglagan bir qator obrazlar yaratadi. Shunisi e'tiborliki, shoir ko'p o'rinlarda bu haqiqatlarni raqamlar vositasida berishga intiladi. Raqamlarga aloqador bunday ifodalar shoirning foniy olamga munosabati boshqa ijodkorlarning qarashlaridan farq qilganini, dunyo mezonlarini belgilashda ham o'ziga xoslikka intilganini tasdiqlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiy ijodida raqamlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir raqam orqali o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifoda etar ekan, har bir raqamga ijodkorlik bilan yondashadi, raqam va uning mohiyatiga ishora qilishda katta mas'uliyat bilan munosabatga kirishadi. Navoiyning raqamlarga munosabatini tasavvur qilish uchun "Favoyid ul-kibar" devonidan joy olgan "Tariqi ishq arogar o'zni fard qilsa birov..." deb boshlanuvchi g'azalga

³²⁷ Иброҳим Ҳаққул. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021. – Б. 169.

³²⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 685.

³²⁹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 475.

³³⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 743.

e'tibor qaratish yetarli. Yetti baytdan iborat bo'lgan ushbu g'azalda birdan sakkizgacha bo'lgan raqamlar keltirilib, ular mohiyatidagi ramziy ma'nolarga ishora qilingan. Xususan, "fard", "yer-u ko'k ikkiligi", "mavolid", "anosir", "havodis", "olti zarurat", "yetti ko'k", "yetti tamug'", "sekiz uchmoq" singari birikmalarda kelgan raqamlar muallifning fikr izchilligiga erishuvida alohida ahamiyat kasb etganligi ko'zga tashlanishi bilan birga, shoirning san'atkorlik mahoratini raqam orqali ifoda etishga ham asos bo'lgan.

Alisher Navoiy Sharq adabiyoti an'alarini puxtalik bilan egallagan va o'z asarlarida san'atkorlik namunalari ko'rsatib, ulardan mohirona foydalana olgan ijodkordir. Shoir asarlarida qo'llanilgan raqamlar tilga kiritilsa, o'quvchi ko'z o'ngida yangicha ma'no olami ochiladi. Navoiy har bir raqam va uning mohiyatini yoritgan ekan, masalaga nafaqat shoir, balki o'z davrining yirik tasavvufshunos olimi va tarixchisi sifatida ham yondashadi. Bu holat, raqamlar bilan bog'liq bo'lgan "tomsa to'qqiz, oqsa o'ttuz" birikmasining shoir g'azallarida takror-takror kelishi, to'qqiz raqami bilan bog'liq an'ana va odatlarga ishora qilingan o'rinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi jummalarda kelgan raqamlar xalq tarixiga aloqador bo'lsa, "yuz yillik o'luk", "o'n sakkiz ming olam" birikmalari bevosita diniy va tasavvufiy qarashlar bilan bog'liqdir.

Alisher Navoiy nafaqat g'azal, balki lirikaning boshqa janrlariga mansub asarlarida ham raqamlar mohiyatiga urg'u berish, raqamlar vositasida lirik kechinma va his-tuyg'ularni tasvirlash, hayotiy xulosalari va fikrlarini ifoda etishga e'tibor qaratgan. Shoir qit'alarida bir, ikki, uch, yetti, to'qqiz, yuz, ming singari raqamlar vositasida hayotiy haqiqatlar ifoda etilganligini kuzatish mumkin.

Alisher Navoiy dostonlarida raqam poetikasi ko'rinishlari

Alisher Navoiy nafaqat lirik asarlarida, balki dostonlarida ham ramziy raqamlar talqiniga alohida e'tibor qaratadi, raqam mohiyatiga singdirilgan ma'nolar orqali o'z fikr-qarashlarini ifoda etadi. "Xamsa" tarkibiga kirgan dostonlar va "Lison ut-tayr"da ikki, uch, to'rt, yetti, sakkiz, to'qqiz singari raqamlarga ishora qilingan, ularning ramziy ma'nolari ifoda etilgan o'rinlar talaygina. Shoir dostonlarida raqamlar ba'zan olam va odamning yaratilishi haqidagi tushunchalarni aks ettirsa, ba'zan diniy qarashlar bilan bog'liq holda beriladi, ba'zi raqamlar mohiyatida hayotiy haqiqatlar aks ettirilsa, ba'zilarida tasavvufiy qarashlar singdirilgandir.

Dostonlarda keltirilgan raqamlar mohiyatida ko'pincha diniy qarashlar, Qur'oni karim yoki Hadisi shariflardagi ba'zi yo'riqnomalarga amal qilish, shuningdek, payg'ambarimiz Muhammad Mustafoy alayhissalomning hayotlarida ro'y bergan biror bir voqeaga ishora qilish o'z aksini topgan. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonidagi na'tda payg'ambarimizning mo'jizalaridan biri haqida so'z boradi:

*Dema ilik, tig'eki bir bormog'i,
Oyni iki bo'ldi ishorat chog'i.*

*Tong emas ar ul kafi mu'jiznamoy,
Qilg'ach ishorat, iki ayrilsa oy³³¹.*

Makka mushriklari Muhammad payg'ambarning Alloh elchisi ekanligiga shubha qiladilar va u kishidan mo'jiza talab etadilar. Ularning talabi osmondagi Oyni bir ishora bilan ikkiga bo'lish edi. Payg'ambarimiz Allohga iltijo qilib, Yaratgandan madad so'raydilar va Parvardigorning marhamati bilan to'lin oy qoq ikkiga bo'linadi. Yarmi Safo tog'i ustida, yarmi esa boshqa

³³¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 33.

tomonda paydo bo'ladi. Ammo mushriklar bu mo'jizaga ishonmay, "Muhammad bizni sehrladi, buni boshqa kishilardan so'raymiz", – deb Makkaga kirib kelayotgan karvon ahliga murojaat qilishadi. Karvondagilar ham Oyning ikkiga bo'linganini ko'rganliklarini ta'kidlashadi. Navoiy bu voqeaga ishora qilish orqali payg'ambarimiz mo'jizalarini e'tirof etadi. Qiziqarlisi shundaki, shoir qo'l emas, balki bitta barmoq ishorati bilan Oyning ikkiga bo'linganiga e'tiborni qaratadi va bunda bir hamda ikki raqamlarini istefo'da etish orqali go'zal manzara yaratadi.

Alisher Navoiy lirikasidagi hamd va na't g'azallarni o'rgangan olim Z.G'afforova na't g'azallarni ikki guruhga bo'ladi, shulardan biri vasf na'tlar bo'lsa, ikkinchisi me'rojnoma na'tlardir³³². Me'rojnoma na'tlarda me'roj voqeasi tasvir etiladi. Ko'pchilik ijodkorlar payg'ambarimizning Makkadan Quddusga borishlari, Qudusdan ko'kka ko'tarilishlari va ko'kdagi mo'jizalarni ta'rif-tavsif etar ekanlar, Qur'oni karimning "Bas, (Muhammadga) ikki kamon oralig'idek yoki (undan ham) yaqinroq bo'ldi"³³³, – degan oyatida anglashilgan ma'no-ga ham alohida to'xtalib o'tadilar. Masalan, Atoiyning quyidagi baytlarini o'qigan she'rxon albatta, masofaning juda yaqin ekanligidan xabardor bo'ladi:

*Laylatul-me'roj qoshinda iki yo kelturib,
"Qoba qavsayn" ittihadidin xabardor aylagan*³³⁴.

Shoirning ushbu baytini tahlil qilar ekan, taniqli olim S.Rafiddinov undagi yaqinlik maqomini ikki xil ma'noda tushunish mumkinligini qayd etadi, ya'ni Muhammad alayhissalom va unga vahiy yetkazib turgan Jabroil farishta yoki payg'ambarimizning Allohga yaqinlashganligi va vahdatni tashkil etganligidir³³⁵.

³³² Гаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 8-18.

³³³ Куръони карим. "Нажм" сураси, 9-оят. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 526.

³³⁴ Атоий. Девон. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 20.

³³⁵ Qarang: Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 68.

Me'roj voqealari tasvirlangan o'rinlarda "qoba qavsayn" – ikki yoy oralig'i mahorat va muhabbat bilan tilga olinadi. Xususan, Navoiy "Farhod va Shirin"da shunday yozadi:

*Supurgach "Mo tag'o" tufrog'in ul bog',
Chekildi nargisiga kuhli "Mo zog".*

*Anga bu surma bo'lg'och qurratul-ayn,
Nasib o'ldi maqomi "qoba qavsayn"*³³⁶.

Yolg'iz Muhammad payg'ambarimizga nasib qilgan bu martabani Navoiy "Layli va Majnun"da yana tilga olar ekan, "shunday martaba topdiki, ikki qosh orasiday masofada bo'ldi. Qorachiq go'yo unga ayni diydor bo'ldi", – deydi:

*Poya topib anda qoba qavsayn,
Diydor o'lub anga qurratul-ayn*³³⁷.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni 4-bo'biga quyidagicha nasriy sarlavha qo'yilgan: "Ul humoyi balandparvoz tayronining sur'ati ta'rifidakim, me'roj shabistonida ko'zi nargisi bila ko'ngli g'unchasi "mozog'al-basaru va mo tag'o" jo'yboridin shodobdurur va taqarrub ayvoida muqavvas qoshlari "qoba qavsayn av adno" e'tiboridin bahrayob"³³⁸, ya'ni "Ul balandparvoz Humoyning uchish jadalligi ta'rifidakim, Me'roj tunida nargis ko'zi bila ko'ngil g'unchasi "Ko'zi adashgani ham yo'q, sarkashlik qilgani ham yo'q" oyati arig'idan serob bo'lgan va yaqinlashish ayvonida kamalak qoshlari "ikki kamon oralig'ida yoki undan ham yaqinroq" oyatidan bahra topgandir"³³⁹. Jumalardagi "Qoba qavsayn" tush-

³³⁶ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 322.

³³⁷ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 7-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 23.

³³⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 22.

³³⁹ Nasriy bayon D.Yusupova va O.Davlatovlar tomonidan nashrga tayyorlangan "Xamsa"dan olindi. "Alisher Navoiy. Xamsa. "Saddi Iskandariy". – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 34.

unchasi yuqorida qayd qilinganidek, Jabroil va Muhammad (s. a. v.) oralaridagi yaqin masofa yoki Alloh va Muhammad payg'ambar oralaridagi masofaning nihoyatda yaqinligiga ishora bo'lib, ikki raqami bilan bog'liq qarashlarning diniy ruhdagi asarlardan mustahkam joy olishiga zamin hozirlagan.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida payg'ambarimiz (s.a.v.)ning me'roj voqealarini qalamga olar ekan, nuzul vaqtidagi holatni tasvirlab shunday deydi:

*Aning shavkatin beadam topibon,
Necha Ahmad istab, Ahad topibon*³⁴⁰.

Payg'ambarimiz alayhissalomning samoviy ismi – "Ahmad"dagi "mim" tushirilganda, "Ahad" so'zi qoladi. Bu esa Yaratganning to'qson to'qqiz ismidan biri bo'lib, "Bir" degan ma'noni anglatadi.

Demak, bir raqami Allohning yakka-yu yagonaligini e'tirof etish uchun, ikki raqami dunyo va oxiratni anglatish bilan birga, me'roj voqealari tasvirlangan o'rinlarda masofaning nihoyatda yaqinligi ("qoba qavsayn" maqomi)ni e'tirof etish uchun xizmat qilgan bo'lsa, uch raqami orqali ham diniy fikr-mulohazalar ifoda etilgan. Diniy qarashlar, shariat ahkomlari xususida so'z borganda shoir bevosita raqamlarga murojaat qiladi va raqamlar mohiyati orqali maqsadga oson yo'l bilan erishadi.

*Shah uldurkim, shiori ilmi dindur,
Nedinkim ilmi din ilm ul-yaqindur.*

*Ulm ichra o'qusang yuz tuman fasl,
Tamomi far'u din ilmi erur asl.*

*Bu din ilmiki, xomam qildi tahrir,
Erur fiqhu hadis so'ngra tafsir.*

³⁴⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 28.

*Chu takmil o'ldi bu uch ilm sen bil,
Yana har ilm maylin qilma yo qil*³⁴¹.

Misralardan anglashilib turibdiki, gap diniy bilimlar haqida, ya'ni fiqh, hadis va tafsir ilmi xususida. "Shiori din ilmi bo'lgan shohgina haqiqiy podshohdir. Negaki, din ilmi ilm-ul yaqin mohiyatini ifodalovchi fandir. Ilmlar ichida yuz ming bob-u qismlar o'qiganingda ham, bilki, din ilmi – asl ilm, boshqa ilmlar – shaxobchalardir. Din ilmi deb qalamim uqtirgan ilm – fiqh, hadis va tafsir ilmlaridir. Ushbu uch ilmni takomillashtirib olganingdan so'ng, boshqa ilmlarga mayl etish yo etmaslik – ixtiyoriydir", – deydi shoir.

Shuningdek, uch raqami orqali olamdagi yaratilarga ishora qilingan o'rinlar ham talaygina. "Xamsa"ning birinchi dostoni bo'lgan "Hayrat ul-abror"dan olingan quyidagi baytlarga e'tibor qiling:

*Gar falakiyotu anosir durur,
Borcha saminqadr javohir durur.*

*Koniyu hayvoni, agar xud nabot,
Har biri bir gavhari oliy sifat*³⁴².

Baytlarda olamning paydo bo'lishi haqida fikr yuritilib, osmon, yer va inson yaratilishi uchun asos bo'lgan unsurlar hamda uch yaratiq – jamodot, nabotot, hayvonot – bularning yagona yaratuvchisi Alloh ekanligi e'tirof etilmoqda. "Layli va Majnun" dostonidagi:

*Obo chu alarg'a ot bo'ldi,
Ul to'rt ham ummahot bo'ldi.*

*Aylab bu ato, anog'a payvand,
Uch qilding arolarida farzand.*

*Har birining o'zgacha sifoti,
Hayvoniyu koniyu nabotiy.*

³⁴¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 720.

³⁴² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 19.

*Andoq chu tuzildi kadxudoliq,
Bu nav' o'ldi ato-anoliq³⁴³, –*

singari misralar ham ayni shu haqiqatni ifoda etish uchun xizmat qilgan. Ushbu o'rinlarda raqamli birikmalar shoir badiiy niyatini batafsil ifoda etishda qo'l kelgan. Shoir yetti ko'kni otaga, to'rt unurni onaga, hayvonot, nabotot va jamodot olamini uch farzandga qiyos qilmoqda.

Shuni alohida qayd etish lozimki, yetti yoki to'qqiz ko'k, to'rt unsur, uch mavlid bilan bog'liq tushunchalar shoir dostonlarining deyarli barchasida bor. Masalan, inson yaratilishidan avvalgi holatni "Farhod va Shirin" dostonida berilgan munojotda shunday ta'riflaydi:

*Vujudumda anosir band topmay,
Tanim ichra so'ngak payvand topmay.*

*O'tumda yo'q tiriklik mehri tobi,
Suyum yo'qluq biyoboni sarobi.*

*Bo'lunmay tufrog'im gardi fanodin,
Nasime yo'q vujudumda havodin³⁴⁴.*

Baytlarda o't (olov), suv, tufrog, havo tushunchalari orqali insonning yaratilishi uchun asos bo'lgan unsur-larga ishora qilinmoqdaki, uni to'rt raqamisiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Hayrat ul-abror"ning 3-hayratidagi quyidagi baytlarda ham to'rt unsur tushunchasi ifoda etilgan:

*Vaz'ini ul damki murattab qilib,
To'rt javohirni murakkab qilib.*

*Ikki anga gavhari ulviy najod,
Ikki yana javhari sifliy nihod.*

³⁴³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 7-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 9.

³⁴⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 311.

*O'yla taodulki bo'lub to'rt zid,
Borcha tarakkub yuzidin muttahir³⁴⁵.*

"To'rt javohir" – to'rt unsur. "Anosiri arba'a", "Anosiri chahorgona" deb ham yuritiladi. Tasavvufiy kitoblarda qayd qilinishicha, inson bu to'rt unsurdan yaratilar ekan, uning tabiatida to'rt unurning har biridan to'rttadan xususiyat paydo bo'lgan. To'rt unsur bir-biriga zid bo'lgan xususiyatlarni yuzaga keltirgan va shuning uchun ham ular ba'zan "to'rt zid" deya tilga olinadi. Shoir yuqoridagi baytlarda to'rt unsurdan ikkitasini "gavhari ulviy najod", ikkitasini "javhari sifliy nihod" deya sifatlar ekan, ana shu haqiqatni nazarda tutadi. Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida keltirilgan quyidagi baytda to'rt unurning bir-birini inkor etuvchi xususiyatlarni o'zida birlashtirganligi nazarda tutiladi:

*Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid,
Bo'lub inson xilqatida muttahir³⁴⁶.*

"Layli va Majnun" dostonida esa bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu unsurlar Allohning qudrati bilan o'zaro muvofiqlashtirilganligiga e'tibor qaratiladi:

*Sun'ung bila to'rt zid muvofiq,
Hukmung bila yetti ko'k mutobiq³⁴⁷.*

Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida bu olti jihat, to'rt unsur va yetti ko'kni "nodiru oliy asosi koinot" deb ataydi:

*To'rt unsur, yetti ko'k, olti jihat -
Nodiru oliy asosi koinot³⁴⁸.*

Hazrati Muhammad alayhissalom bir qancha mo'jizalar sohibi edilar. Ammo ular orasida me'roj alohida ahamiyat va e'tiborga sazovordir. Qur'oni karimning

³⁴⁵ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 77.

³⁴⁶ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 7.

³⁴⁷ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 7-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 7.

³⁴⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 239.

“Al-Isro” surasida payg‘ambarimizning Makkadan Quddusga borishlari (isro) va Quddusdan Alloh huzuriga ko‘tarilishlari (me‘roj) haqida so‘z boradi. Boshqa biror payg‘ambarga nasib qilmagan bu maqom sharq ijodkorlari uchun ilhom manbaiga aylangan. Shuning uchun ham me‘roj voqeasi adabiyotda keng o‘rin egallagan va deyarli hech bir ijodkor bu mavzuni chetlab o‘tmagan. Yetti qavatdan iborat bo‘lgan osmon va uning har qavatida joylashgan yetti sayyora tasviriga sharq adabiyotida keng o‘rin ajratilgan. Xususan, Alisher Navoiy ba‘zi bir na‘t g‘azallari, shuningdek, dostonlarining barchasida me‘roj tasvirini berar ekan, bu tasvirlar yetti yoki to‘qqiz osmon va yetti sayyora, o‘n ikki burj haqidagi ma‘lumotlar bilan uyg‘un holda ifoda etadi. Shoir asarlarida me‘roj tasviri payg‘ambarimiz Muhammad (s. a. v.)ning ko‘kka parvozlarida yetti sayyora joylashgan yetti ko‘k va o‘n ikki burjdan yuqori chiqib, Arshi a‘loga ko‘tarilganliklari, to‘rt unsur va olti jihatdan ham xoli bo‘lganliklarini badiiy ifodalanganligi bilan e‘tiborlidir³⁴⁹.

*Olti jihat qaydidin ixroj o‘lub,
To‘rt guhar tarki anga toj o‘lub*³⁵⁰.

Nega aynan “to‘rt guhar”ning vujudan chiqishi unga toj bo‘ldi? Nega osmonlar osmoniga ko‘tarilgan payg‘ambarimiz to‘rt unsurdan xalos bo‘lganliklariga ishora qilinadi? Chunki bu vujudagi eng oliy poklanish! Moddiy unsurlarni tark etish – moddiy ehtiyojlardan xalos bo‘lish demakdir.

“Sab‘ai sayyor”dan olingan quyidagi baytlarda nafaqat to‘rt unsurdan xalos bo‘lish, balki besh his, olti

³⁴⁹ Ma‘lumki, Hazrati payg‘ambar Jabroil (a. s.) va Rafrat vositasida ko‘kka ko‘tarilganlar. Tasavvufiy manbalarda Jabroil aqlning, Rafrat esa ishqning razmi sifatida e‘tirof etiladi. Yettinchi ko‘kka ko‘tarilganlarida Jabroil (a. s.) qolib, Rafrat vositasida uruj davom etadi. Shuning uchun ham aql insonni Allohga yaqinlashtirishi, ammo solikni Haqqa vosil qiladigan narsa ishq ekanligiga urg‘u beriladi.

³⁵⁰ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 38.

jihatga ehtiyoj sezmaslik holi tasvirlanmoqdaki, to‘rt, besh va olti raqamlarisiz mukammal tasvirni yaratish mushkuldir:

*O‘zidin o‘zlugi dog‘i itti,
O‘zdin o‘zluk xayolin oritti.*

*Topmayin o‘zda xojai safariy,
O‘tu tufrog‘u yelu suv asari.*

*O‘zlugidin dog‘i asar topmay,
Balki o‘zdin dog‘i xabar topmay.*

*Ne havosida bir ne xomis ham,
Ne jihatida bir ne sodis ham.*

*Qolmayin to‘rt javhar, olti araz,
Oltiyu to‘rtin bir anga g‘araz*³⁵¹.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi quyidagi misralarda esa to‘rt aslni ham, olti tomon (yuqori, quyi, o‘ng, so‘l, old, orqa)ni ham unutgan komil insonning o‘y-fikri faqatgina Yaratganning xayoli bilan band ekanligi to‘rt, olti va bir raqamlari vositasida mahorat bilan ifoda etilgan:

*Ne to‘rt asldin ko‘ngliga yorliq,
Ne olti tarafdin xabardorliq.*

*Ham olti-yu ham to‘rt mavquf yedi,
Aning xotiri birga mash‘uf edi*³⁵².

“Saddi Iskandariy” dostonida to‘rt raqami bilan aloqador boshqa bir holat kishi e‘tiborini tortadi. Iskandar qaysi hududni egallasa, o‘sha yurtning o‘zidan dono va aqlli insonni topib, taxtga o‘tqazadi va mamlakatni adolat bilan boshqarishni tayinlaydi. Xuddi shuningdek,

³⁵¹ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 7-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 292.

³⁵² Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 27.

Mag'rib tomonga yo'l olgan Iskandar podshohlikdan voz kechgan bir shahzoda xabarini eshitadi. Uni huzuriga chorlab, mamlakatni boshqarishni so'raganda, darvesh jahondorlikni rad etib, to'rtta narsaga erishmoq istagi borligini aytadi:

*Emas rub'i maskunga rag'bat manga,
Tilar to'rt sarmoya himmat manga:*

*Biri andin o'ldi hayoti abad
Ki, yo'qtur aning intihosig'a had.*

*Yana bir: yigitlikki topmay xalal,
Qariliq bila bo'lmag'ay ul badal.*

*Yana bir: g'inoyi muabbaddurur
Ki, ollinda iflosqa raddurur.*

*Yana: shodlig'kim, yo'q oning g'ami,
Adam bo'lg'ay ul surning motami³⁵³.*

Demak, bu to'rt istakning birinchisi – abadiy hayot, ikkinchisi – qarilik bilmas yigitlik, uchinchisi – tугanmas boylik, to'rtinchisi – g'am bilmas shodlik. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham xuddi shu motivni uchramiz. Aslida, bu talablarning hech birini amalga oshirish imkonini yo'q. Yaratuvchidan boshqa hech bir yaratilganga abadiy hayot zavqi berilmagan; yigitlik yoki yoshlik davri ham albatta bir kun nihoyasiga yetadi, chunki umr – o'tkinchi. Tuganmas boylikning o'zi yo'q, boylik birda kamayadi, birda ko'payadi, ba'zan esa umuman yo'q bo'lishi ham mumkin ("Qutadg'u bilig"da boylikning oyga qiyos qilinganligi bejiz emas edi). Shodlik bilan qayg'u yonma-yon, bu – inkor etib bo'lmas haqiqat. Albatta, Iskandar darveshning bu shartlarini amalga oshira olmas edi va shuning uchun ham:

³⁵³ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 94.

Agarchi, meni ayladi arjumand,

Sanga berdi himmatni mendin baland³⁵⁴, – deydi.

To'rt raqami bilan bog'liq yana bir voqea "Lison ut-tayr"dagi Shayx San'on hikoyatida berilgan. Tarso qizga oshiq bo'lgan Shayx San'onga ma'shuqasi to'rtta shart qo'yadi:

*Sho'xi sarkash dedi: – "Ey johilsirisht,
Rozi o'lsang, harna o'lsa sarnavisht.*

*Kim mening vaslim tamanno aylamish,
Ixtiyor etmak keraktir to'rt ish:*

*May ichib, zunnor olib bo'lg'onda mast,
Kuydurub Mushafni, bo'lmoq butparast³⁵⁵.*

Musulmon kishi uchun eng og'ir gunohlardan sanalgan bu to'rt shartning asosi haqida fikr yuritir ekan, Sultonmurod Olim shunday yozadi: "Shu o'rinda XIII asr fors-tojik shoiri Muslihiddin Shayx Sa'diy Sheroziyning

*May bixo'r, Mushaf biso'z-u, otash andar Ka'ba zan,
Sokini butxona bosh-u, mardumozory makun, –*

Ya'ni: may ich, Qur'onni kuydir, Ka'baga o't qo'y, butxonada o'tirib, butparast bo'l, (lekin) odamga ozor berma, mazmunidagi baytini eslash o'rinli"³⁵⁶. Demak, ikkala dostonida ham shartlarning to'rtta ekanligi va ularni bajarish ancha mashaqqatli ekanligi xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Chunki Navoiy asarlarida folklordan ta'sirlanish va xalq og'zaki ijodi asarlaridagi motivlarni o'z asarlariga olib kirish yorqin ko'zga tashlanadi.

Navoiy dostonlarida keltirilgan raqamlar mohiyatida ko'p hollarda tasavvufiy mazmun yashiringanligiga bir

³⁵⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 8-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 94.

³⁵⁵ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 9-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 110.

³⁵⁶ Султонмурод Олим. Навоий ва Нақшбанд / Истиклол даври на-войишунослиги. 16-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – Б. 236.

qancha tadqiqotchilar e'tibor qaratishgan. "Farhod va Shirin" dostonida xazinadagi ko'zgu tilsimini ochish uchun to'rt manzil va undagi to'siq-g'ovlarni bartaraf etishi lozim ekanligi ta'kidlanadi:

*Aroda qolsa uch manzil masofat,
Ul uch manzilda voqedur uch ofat.*

*Burung'i manzil ichra ajdahoye,
Yaratqon Tengri qahridin baloye.*

*Ikinchi manzil ichra Ahraman bil,
Anga bedodu ofat da'bu fan bil.*

*Uchunchida tilismi bul-ajab soz,
Bu ikidin dog'i mushkilrak ul roz.*

*Bu uch manzildin o'tkorganga mahmil,
Deyilgon tog' erur to'rtinchi manzil³⁵⁷.*

N. Komilov "Farhod va Shirin" dostonining tasavvufiy sharhiga bag'ishlangan tadqiqotida Farhod bosib o'tishi lozim bo'lgan to'rt manzilni tasavvufiy qarashlar asosida tahlil qiladi. Xususan, ajdaho – nafs, Ahraman dev – saltanat, sher – g'azab, temir paykar – yolg'on, riyo timsoli. "Farhod Suqrot dargohiga musharraf bo'lishdan oldin anoniyat belgilari – nafs, davlat va boylik hirs, g'azab, ro'yo-yolg'on qutqularini bartaraf etdi, uning ko'ngil ko'zgusi dunyo ishq, g'uboridan toza bo'ldi"³⁵⁸, – deb yozadi olim. A. Abduqodirov ham "Lison ut-tayr" dostonini "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlari bilan qiyoslar ekan, Farhod yoki Majnunning ishq yo'lidagi to'siqlarini tasavvufdagi maqomlarga tenglashtiradi. Farhodning xazinadagi ko'zgu sirini ochish uchun Yunonistonga safar qilishi, yo'lda

³⁵⁷ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 413-414.

³⁵⁸ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, Ўзбекистон, 2009. – Б. 185

ajdaho, Axriman dev singarilarni yengib, maqsadga erishganligini solikning talab vodiysidagi holatiga qiyos qiladi. Adabiyotshunos Bobomurod Erali "Farhod va Shirin" dostonida o'n to'rt yoshga kirgan Farhod tabiatidagi g'amginlikni bartaraf etish maqsadida unga atab qurilgan to'rt qasrni "ramziy ma'noda olam uyi", yilning har to'rt faslida bu to'rt qasrda bazm uyushtirishni rejalashtirgan Hoqon va Farhodni esa "nafs ochligidan qutilish maqsadida ozuqa qidirib" yurgan insonlarga qiyos qiladi³⁵⁹. Raqamshunoslarning ta'kidlashicha, to'rt raqamining asosiy ma'nosi uning doimiylikning anglatishidir. Ko'pgina tadqiqotchilar, dunyo kosmik modelining gorizontall tuzilishini to'rt raqami bilan bog'lashadi. Kosmosning to'rt o'lchovli bo'linishi qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar mifologik asarlarda o'z aksini topishi bilan birga, hatto bino qurilishlarida ham to'rt raqamga e'tibor qaratiladi. Juda qadimiy an'analarda ham bu raqam to'rt tomonni, to'rt burchakni yoki butun dunyoni anglatib kelgan. Bizningcha, Farhodga atab qurilgan qasrlarning to'rtta ekanligi Farhod Hoqonning butun dunyosi ekanligiga ishora hamdir.

Yuqorida qayd qilinganidek, raqamlar shar'iy ahkomlarni bayon etishda juda o'ng'ay sanalgan. "Hayrat ul-abror" dostonida imonning olti sharti haqida so'z boradi va bularga amal qilgan har bir musulmonning qo'lga kiritadigan yutuqlari olti raqami vositasida ifoda etiladi:

*Olti durur shar'da go'yo adad,
Harneki mo'ming'a kerak mu'taqad.*

*Aylasa bu olti bila ixtisor,
Olti jihatdin anga bo'lg'ay hisor³⁶⁰.*

³⁵⁹ Бобомурод Эрали. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. – Тошкент, Академнашр, 2015. – Б. 44-45.

³⁶⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10-jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 86.

Bu olti shart quyidagilardir: Alloh taoloning yagonaligiga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg'ambarlarga, qiyomat kuniga, har qanday yaxshilik va yomonlikning Allohdan ekanligiga ishonish va shunga imon keltirish. Navoiyning fikricha, yuqoridagi olti narsaga ishongan kishi o'ziga olti (o'ng, chap, old, orqa, quyi va yuqori) tomondan qo'rg'on quradi va asl maqsadga erishadi.

Ma'lumki, sharq adabiyotida ko'k yoki falak haqida gap ketganda, ular yetti yoki to'qqiz raqami bilan birgalikda qayd etiladi: yetti ko'k, yetti samo, yetti osmon, yetti falak singari. "Husayn Boyqaroga bag'ishlangan "Hiloliya" qasidasida Alisher Navoiyning Samarqandagi ilmiy-adabiy muhitdan bahramand bo'lgani va Ulug'bek ilmiy maktabining ta'siri ko'rinib turadi. Bunda falakning Atorid-u Bahromlari, Kayvn-u Zuhallari, Oy-u Quyoshi shunchalik tasvirlanganki, bu tasvir riyoziyot fanidan xabardorga bo'lgan kishini hayratlantiradi", – deydi falakiyotshunos olim S. Azizov³⁶¹. "Xamsa" dostonlarining juda ko'p o'rinlarida keltirilgan falakiyot bilan bog'liq tasvirlarni o'qigan kitobxonning bu fikrlarga qo'shilmasdan iloji yo'q. Fikrimizning dalili sifatida "Hayrat ul-abror" dan olingan birgina misolni keltirmoqchimiz:

*Uch quyi, uch yuqori qildi shitob,
Mash'ala to'rtunchi uy aro soldi tob.*

Bunda yetti sayyora nazarda tutilgan. "To'rtinchi uy"dagi "mash'ala" bu – Quyosh. To'rtinchi osmonda joylashgan Quyoshdan pastda uchta sayyora – Zuhra, Utorid va Oy, Quyoshdan yuqorida esa yana uchta sayyora – Mirrix, Mushtariy va Zuhul joy olgan. Shoir sayyoralarning bunday joylashuvini uchitasi "quyi", uchitasi "yuqori", – deb e'tirof etmoqda. Ularning "quyi" va "yuqori" deyilishi esa ilmiy adabiyotlarda Quyoshga nisbatan olingandir. Chunki badiiy asarlarda kuzatilgani singari ilmiy manbalarda ham Quyoshni

³⁶¹ Azizov S. Alisher Navoiy asarlarida falakiyot sirilari. – Toshkent: Ўзбекистон, 2018. – Б. 71.

podshohga o'xshatish uchraydi. Chunonchi, mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Mas'udiy" asarida shunday fikrlar mavjud: "...bu ikkisi (Merkuriy va Zuhra)ning yuqorisida Quyosh turadi, podshoh joyi mamlakat o'rtasida bo'lganidek, Quyosh tartibda planetalar o'rtasida qo'yilgan. Chunki hamma planetalarning ahvoli va harakatlari Quyoshga bog'liq va uning harakatlari bilan o'lchanadi"³⁶². Olim yetti sayyoraning fazodagi o'rniga e'tiborni qaratgan holda, to'rtinchi falakda joylashgan Quyoshni sayyoralarning podshohiga qiyoslaydi.

Alisher Navoiy "Xamsa"dagi dostonlarda me'roj voqeasini tasvirlar ekan, payg'ambarimiz (s. a. v.)ning avval ushbu yetti sayyora joylashgan yetti ko'kni, so'ngra burjlar osmonini, keyin esa falakul aflokni bir-bir ortda qoldirib, Arshi a'lola ko'tarilganliklarini qalamga oladi. Me'roj tasvirlarida yetti ko'kda joylashgan yetti sayyoraning payg'ambarimizni xursandchilik bilan kutib olganliklariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Adabiyotshunos olim H.Eshonqulov me'roj voqeasi tasvirlangan o'rinlarda safar davomida ko'tarinkilik, ruhiyatda o'zgarish sezilishini va hatto salbiy xususiyatlarga ega deb qaralgan osmon jismlarining ijobiylikka tomon yuz tutishlarini "Muhammad alayhissalomning Haqqa qarab intilayotgan"ligi bilan izohlaydi³⁶³. "Xamsa"dagi dostonlarning hamd qismlarida, an'anaviy na'tlarda va, umuman, "Me'rojnoma"larda falaklar nomi birma-bir tilga olinadi. Shunisi e'tiborga molikki, me'roj hodisasi hikoya qilingan o'rinlarda falaklarni sanash Oy osmonidan boshlanib, falaki sayyora (harakatlanuvchi)da nihoyasiga yetkazilsa, hamdlarda, aksincha, falaki sayyoradan Oy osmonigacha sanash tartibi ko'zga tashlanadi.

³⁶² Беруний Абу Райхон. Қонуни Маъсудий. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 62.

³⁶³ Эшонкулов Х. Самовот – ишқ мазҳари / Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 25-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – Б. 37.

di. Shu o'rinda H.Eshonqulov tomonidan Navoiyning "Ko'k binafshazorini anjum chu nargiszor etar..." deb boshlanuvchi g'azali tahlilidan chiqargan xulosasini³⁶⁴ inkor etmagan holda, ushbu g'azalda oshiq ruhining tanazzul maqomi aks ettirilgan, deyish mumkin. Chunki tasavvufiy qarashlarda falaklar ruhiy kamolot yo'lidagi bosqichlar sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Nasafiy har bir falak ma'lum bir toifadagi kishilar ruhining manzili ekanligini qayd etadi. Unga ko'ra, to'qqizinchi osmon – payg'ambari hotam ruhining manzili, sakkizinchi osmon – ulul azm payg'ambar ruhining manzili, yettinchi osmon – mursal payg'ambarlar ruhi manzili, oltinchi osmon – anbiyolar, beshinchi osmon – avliyolar, to'rtinchi osmon – ilmi ma'rifat ahli, uchinchi osmon – zohidlar, ikkinchi osmon – taqvo ahli va nihoyat birinchi osmon – imonlilar ruhining manzillaridir³⁶⁵.

Qur'oni karimdagi "Ular Allohdan keldilar va yana Allohga qaytadilar" oyatidagi inish va yuksalish tushunchalarini tasavvuf ahli doira shaklida tushuntiradilar, doirani ikkiga bo'lib, yarmini tanazzul maqomi (qavsi nuzul), yarmini esa taraqqiy maqomi (qavsi uruj) sifatida tasvirlaydilar. Inson ruhi tanazzul maqomida yuqoridan pastga nuzul qilib, olami kubrodan inson tanasiga kelib joylashadi; taraqqiy maqomida esa takomilga intilgan inson ruhi yuqoriga ko'tariladi va uruj qilib, Asliga yetadi. Natijada bu harakat doira shaklini oladi³⁶⁶. Ahadiyat maqomi esa boshlang'ich va oxirgi nuqtadir. Mazkur g'azalda sayyoralarning lirik qahramon holatiga achinish bilan munosabatda bo'lishlari, ayniqsa, Zuhraoning sochlarini yoyib, yig'lashi; Atorudning marsiya yoza boshlashi; Oyning motam libosiga burkanishi bejiz emas. Bu tasavvufdagi nuzul tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, bu o'rinda falaklar holati asli-

yatdan ajralish, uzoqlashish ramzi bo'lib kelganligi oydinlashadi.

Raqamlar mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan va ramziy raqamlarga murojaat qilish asnosida ahamiyatli qarashlarni ilgari surgan asarlardan biri "Sab'ai sayyor" dostonidir. Dostonda raqamlar, xususan, yetti raqamining yetakchilik qilishi, yetti raqami mohiyatidagi ma'no-mazmun, bu raqamning ijodkor badiiy niyatini ifoda etishdagi o'rni va ahamiyati singari masalalar adabiyotshunos olimlarning e'tiborini tortib kelgan³⁶⁷. Akademik A.Qayumov asardagi yetti sayohatchi obraziga asosiy e'tiborni qaratsa, S.Hasanov dostonida yetti raqamining yetakchilik qilishi nafaqat Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan an'analar, balki yunon falsafiy qarashlarining ta'siri ekanligini qayd etadi. San'atshunos olim O. Ibrohimov "Sab'ai sayyor"dagi yetti qasrning yetti xil rangini musiqa ilmi bilan bog'lab tushuntirish yo'lidan boradi. Adabiyotshunos olim H. Boltaboyev esa "...bu yettiliklarni biz "Lison ut-tayr" dostonidagi yetti vodiy va tasavvufdagi yetti maqom bilan bog'lab tushunishga harakat qilamiz", – deydi³⁶⁸. Olim o'z maqolasida asardagi yetti hikoyat va uning ta'sirida Bahromda yuz bergan o'zgarishlarni tasavvufdagi maqomlar bilan uyg'unlikda tahlil qilar ekan, ularni bevosita "Lison ut-tayr" dostonidagi qushlar bosib o'tgan yetti vodiyga muqoyasa etadi. Olima Z. Mamadaliyeva ham bu ikkala asardagi yettiliklarni – haftaning yetti kuni, yetti sayyora, yetti xil rang, yetti hikoyat, yetti vodiyni bir-biriga qiyoslaydi va "Sab'ai sayyor"da berilgan yetti hikoyat bilan "Lison ut-tayr"da qushlar bosib o'tgan yetti vodiy

³⁶⁴ Эшонкулов Х. Кўрсатилган манба. – Б. 37-40.

³⁶⁵ Насафий. Зубдат ут-хақойиқ. – Тошкент, 1987. – Б. 117.

³⁶⁶ Bu haqda qarang: Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент, Мовароуннахр, Ўзбекистон, 2009. – 253-256.

³⁶⁷ Қаюмов А. Қаюмов А. Етти саёхатчи / Асарлар. I жилд, 2-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б.138-24; Хасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Тошкент: F.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 190; Болтабоев Х. Алишер Навоийнинг "Сабаи сайёр" дostonида етиликлар симметрияси // Илмий хабарнома. – АДУ, 2012. – № 1. – Б. 9-11;

³⁶⁸ Болтабоев Х. Кўрсатилган манба. – Б. 10.

o'rtasida aloqadorlik bor, degan qarashni ilgari suradi³⁶⁹. Ammo navoiyshunos olim S.Olimov esa "Sab'ai sayyor"dagi yettiliklar bilan "Lison ut-tayr" dostonidagi yetti vodiy orasida vobastalik yo'qligini qayd etar ekan, qushlar bosib o'tgan manzil-vodiylarni me'roj voqeasi bilan bog'lab tushuntiradi va "Navoiy... soliklar ruhining me'rojga intilishini tasvirlagan"³⁷⁰, – degan xulosaga keladi.

"Sab'ai sayyor" dostonida Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy izidan borib, yetti iqlim, yetti qasr, yetti rang, yetti go'zal, yetti sayyoh, yetti hikoyat, haftaning yetti kuni singari motivlarni asar sujetiga olib kiradi. "... natijada hafta kunlari, sayyoralar, ranglar, iqlimlar, musofirlar, go'zallar, xullas, hamma motivlar o'zaro uyg'un holda markaziy qahramon va hikoya atrofida xuddi o'sha davrdagi koinot haqidagi tasavvurlar bo'yicha yer atrofida aylangan sayyora kabi harakat qiladilar"³⁷¹. Haqiqatdan ham ushbu dostonidagi qahramonlar harakatini yetti raqami boshqarib turgandek. S.Hasanov asarda dostonida yetti raqami to'qson marta qo'llanilganligini qayd etsa, H. Boltaboyev bu raqamning ishlatilish miqdorini bir yuz to'qson bir raqami bilan belgilaydi. Tekshirishlardan dostonida bu raqamning "yetti" shaklida qo'llanilishi yetmish besh marta, vazn talabiga ko'ra "yeti" shaklida yigirma yetti marta, jami – bir yuz ikki marta ishlatilganligi ma'lum bo'ldi. Bizningcha, gap raqamning necha marta kelganligida emas, balki qanday mohiyat kasb etishidadir. Dostonning boshlanishidan to oxirigicha yettiliklar garmoniyasi yetakchilik qiladi va "Sab'ai sayyor" dostoni nihoyasida Alisher Navoiy yetti mashaqqatli yo'ldan o'tganligini Rustamning yetti jangi-ga qiyos qiladi:

³⁶⁹ Qarang: Мамадалиева З. Мунда рамзедур дакик...// Жаҳон адабиёти. 2016. №2. – Б. 138-149.

³⁷⁰ Султонмурод Олим. Навоий ва Накшбанд / Истиқлол даври навоийшунослиги. 16-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – Б. 227.

³⁷¹ Мамадалиева З. Кўрсатилган манба.

*Yo'l yururga o'zumni chun tuttum,
Yetti bu nav' aqbadin o'ttum.*

*Ne yeti aqba, yetti manzili biym,
Biymdin esmay ul damang'a nasim.*

*Yetti ko'kning balo makoni ul,
Rustami Zol haftxoni ul.*

*Har nechuk bo'lsa garchi qat' ettim,
Balki maqsad harimig'a yettim*³⁷².

"Rustami Zolning haftxoni" – bu Firdavsiyning "Shohnoma" asarida Rustamning devlar bandida bo'lgan Kaykovusni ozod qilish uchun Mozandaronga yo'l olgan vaqtida yetti joy haftaning yetti kunida sodir bo'lgan "yetti jang"ini anglatadi. Mozandaronga yo'l olgan Rustam yetti kun davomida dam olish vaqtida turli xavf-xatarga duch keladi. Birinchi kun uxlab yotganida sher hamla qiladi, Raxsh nomli oti sherni o'ldirib, egasini o'limdan qutqaradi. Ikkinchi kun Rustam ajdaho bilan olishib, g'olib chiqadi. Uchinchi kuni sehrgar makridan qutilib, uni o'ldiradi. To'rtinchi kuni Avlod nomli Mozandaron devlaridan birining askarlarini qirib tashlaydi. Beshinchi kuni jang vaqtida qochgan Avlodni tutib, yanchib tashlaydi. Oltinchi kuni Arjang nomli dev bilan jang qilib, uning boshini tanasidan judo qiladi. Yettinchi kuni u ko'plab devlarning yostig'ini quritadi, devlarning boshlig'i – Oq devni o'ldirib, Kaykovusni ozod qiladi³⁷³. Demak, yettiliklarga asoslangan ushbu dostonni yaratish ham mashaqqatli ekanligini shu usul bilan dalillanadi.

Yettiliklar galereyasini "Lison ut-tayr" dostonida ham ko'ramiz. Dostonida haqiqat – Simurg'ni izlab yo'lga

³⁷² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 7-jild. – Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 631.

³⁷³ Фирдавсий. Шохнома: Танланган дostonлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 104-130.

chiqqan qushlar yetti vodiyni bosib o'tishlari kerak. Bu vodiylar – talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, farq-u fano. Qushlar yo'lboshchisi Hudhud ularni asl maqsad sari chorlar ekan, shunday ogohlantiradi:

*Ollimizda yetti vodiyydur azim,
Har birida behadu andoza bim.*

*Lek har vodiyyda manzil behisob,
Kim hisobidan qilur tab ijtinob.*

*Yetti vodiyy aslu, manzillar – furu',
Ayloli ul asl sharhig'a shuru'*³⁷⁴.

Hudhud har bir vodiyy ta'rifini beradi, mazkur vodiylardagi manzillardan hech kim xabar bermaganligini, bu yo'ldan ketganlarning hech biri qaytib kelmaganligini, ushbu yetti vodiyy nihoyatda muxtasar bo'lib, uni tavsiflashda ko'p chalkashliklarga yo'l qo'yilganligini aytadi:

*Bu yeti vodiyy dog'i ijmol erur,
Lek tafsilida ko'p ishkol erur*³⁷⁵, – deydi.

Istig'no vodiysi bayoni berilgan bobda shoir ketma-ket raqamlarni keltiradi: yetti daryo, yetti ko'k, yetti do'zax, sekkiz uchmog', yetti kishvar, bir gado, ming maloyik, yuz ming jism, yuz tuman, yuz ming tiftl, yuz ming qon, bir tun, ming yil, bir zarra singari. Tavhid vodiysi ta'rifi berilgan bobda bir raqamining takrorini ko'rishimiz mumkin:

*Birda birdin hosil o'ldi bir adad,
Yo'q xiradqa munda dam urmoqqa had...*

*Bir bo'lu, bir ko'ru, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.*

*Ikkilik bu yo'lda ahvalliqdurur,
Sirri vahdatdin mu'attalliqdurur*³⁷⁶.

³⁷⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 9-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 203.

³⁷⁵ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 204.

³⁷⁶ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 223.

Hazrati payg'ambar (s. a. v.) Haqning shunday deganini so'zlaydilar: "Bir bandamni sevsam, uning qulog'i, ko'zi va qalbiga aylanaman. Men orqali eshitadi, men orqali ko'radi va men orqali fikr yuritadi...". Tavhid sirlari bayonida bir raqami orqali Allohning yakka-yu yagonaligi, tavidga erishgan solikning ko'zi Birni ko'rishi, tili Birni deyishi, ko'ngli Birni tilashi bayon etilgan. Hatto bu vodiyni sayr etgan qushlar "yuz tuman ming" ta bo'lsa-da, birlikka aylanganligiga ishora qilinadi:

*Chun bu vodiyyg'a nihoyat topdi sayr,
Munda bir bil yuz tuman ming bo'lsa tayr*³⁷⁷.

Ustoz Sultonmurod Olimga ko'ra, "Payg'ambarimiz (s. a. v.) – me'rojda tiriklayin Alloh vasliga musharraf bo'lgan eng komil inson. So'fiylar ham vaslga yetishni maqsad qilib, shunga intiladi. Bu bilan payg'ambarlik da'vo qilinayotgani yo'q. "Lison ut-tayr"dagi Hudhud rahnamoligida Simurg' sari parvozigaga qarab, qushlarni payg'ambarlarga mengzash – xato. Ular rasululloh (s. a. v.) kabi vaslga yetishga umidvor. 7 vodiyni bosib o'tishi so'fiylar qalbida kechadigan jarayon... So'fiy pir rahnamoligida 7-osmongachagina yetib borishi mumkin"³⁷⁸. Olim bu fikrlarini payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.)ning me'roj kechasida yettinchi ko'kka Buroq degan otda Jabroil yetagida chiqqanliklarini, Jabroil ham, Buroq ham yettinchi ko'kdan nari o'ta olmaganligini va sakkizinchi-to'qqizinchi falaklarga payg'ambarimizning Rafrak ko'magida ko'tarilganliklari bilan dalillaydi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, Navoiy "Lison ut-tayr"da nafaqat mohiyatan, balki shaklan ham yettiliklarga amal qiladi. Masalan, vodiylar soni yettita bo'lganidan vodiylar ta'rifi va ularga uyg'un holda beril-

³⁷⁷ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 223.

³⁷⁸ Олимов С. "Лисон ут-тайр"нинг киёсий поэтикаси: синтез, назарийлик ва таржимавийлик. Филол. фанл. д-ри диссерт. автореф. – Самарқанд, 2023. – Б. 34.

gan hikoyatlar soni yettitadan, har bir vodiy munojoti va shu munojotlardan keyin keladigan tamsillar soni ham o'z-o'zidan yettita bo'lishi tabiiy hol. Ammo munojotlarning hammasi bir xil hajmga ega, ya'ni yetti baytdan iborat.

"Sab'ai sayyor" dostonidagi hikoyatlardan birida zargar shoh uchun bir taxt yasaydi. Bunda ikki maqsad ko'zda tutilgan edi: birinchidan, oltin taxtda o'tirishning shoh sog'ligiga foydasi bor ("*Tutqay oltin sarir uza maskan, Ko'zni ul maskan aylagay ravshan*"), ikkinchidan, boylik shohning ko'z o'ngida turadi ("*Ham muhayyo erur o'z o'rnida mol*"). E'tiborli jihati shundaki, "tilla"dan yasalgan bu taxtning tuzilishi sakkiz qirrali bo'lib, burchaklarida sakkizta minorasi bor, zinalari soni ham sakkizta, oyoqlari o'rniga ham sakkiz ustun o'rnatilgan. O'z-o'zidan savol paydo bo'ladi – taxtni yasashda nega to'rt yoki oltilikka emas, sakkizlikka e'tibor qaratilgan? Zargar shoh uchun yasalajak taxtda sakkiz raqami bilan bog'liq qanday jihatlarga e'tibor qaratgan bo'lishi mumkin? Bu xususda fikr yuritar ekan, adabiyotshunos olim S.Hasanov asardagi sakkiz raqamiga davlat orttirishga intiluvchi shohlar hamda uning atrofidagi kishilarga nisbatan salbiy munosabatni ifodalash vositasi sifatida qaraydi va shunday xulosaga keladi: "Shohlarning bunday ochko'zligi o'z navbatida davlatning yemirilib, turli xil muttaham va firibgarlarning qing'ir faoliyati uchun keng yo'l ochib berishga olib keladi. Shu yerdagi sakkizning ramziy ma'nosi shunday: yetti yetarli, ammo podsho yetarli yetti bilan qanoatlanmaydi. Podshoh psixologiyasini yaxshi bilgan firibgar uning mana shu ochko'zligidan foydalanadi va uni aldaydi"³⁷⁹. Ammo, bizning nazarimizda, shoir sakkiz raqamiga urg'u berish asnosida boshqa bir maqsadni ko'zlagan. Masalaga jiddiyoq e'tibor beriladigan bo'lsa, mohiyat teranlashadi. Zargar garchi qallob bo'lsa-da, juda aqli.

³⁷⁹ Hasanov S. Kўrsatilgan манба. – Б. 158-160.

Gap shundaki, keng yoyilgan qarashlarga ko'ra sakkiz raqami doimiy energiya va quvvat oqimining ramzi sifatida keladi. U moddiy farovonlik, boylik, siyosatdagi omad bilan bog'liq. Bu esa shohlar uchun juda zarur jihatlar. Keyinchalik numerologiyada ham tug'ilgan sananing barcha raqamlari yig'indisi sakkiz bo'lgan inson hayotda katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishiga diqqat qilingan. Sakkiz raqami hokimiyat, kuch, moliyaviy farovonlik, martaba yo'llarining rivojlanishini va'da qilganligi sababli ham alohida e'tiborga molik raqam hisoblanadi. Zargar taxtni yasashda sakkiz raqami mohiyatidagi ana shu jihatlarga e'tibor berib, podshohning ko'ngliga yo'l topishning uddasidan chiqqan.

Yuqorida qayd etilganidek, yetti ko'k, yetti falak bilan birga to'qqiz sipehr, to'qqiz aflok, to'qqiz osmon raqamli birikmalari ham adabiyotimizda keng qo'llanilgan. Yetti ko'k, burjlar osmoni va falakul aflok to'qqiz osmonni tashkil etsa-da, osmonlar osmoni bo'lgan to'qqizinchilarga munosabat o'zgacha ekanligi shoir dostonlarida ham aks ettirilgan. To'qqizinchilarga falak va uning mohiyati xususidagi qarashlar "Saddi Iskandariy" dostonida shunday tasvirlangan:

*To'quz gunbad ul nav' chekting baland
Ki, vahm anda rust aylay olmas kamand.*

*Kelib bir-biri ichra har bir nihon,
Fazo har biriga jahon dar jahon.*

*Alar javharini basit aylading,
Birin sekiziga muhit aylading.*

*Bori bir-biri javfida to'-bato',
Biri-biriga vobast o'lub mo'-bamo'.*

*Borin tab' bir jonib aylandurub,
Burung'i borin tab' ila yondurub.*

*Bo'lub ul sekizning madori anga,
Taharruk aro ixtiyori anga*³⁸⁰.

Demak, misralar mazmunidan falaklar bir-birining ichiga maxfiy ekanligi va har birining orasida bo'shliq borligi, sakkizta falakni yuqoridagi to'qqizinchi falak ihota qilib, o'rab turganligi, sakkiz falak bir tomonga harakatlangani holda, to'qqizinchi falak ularga teskari aylanishi anglashilmoqda. Olim S.Azizov to'qqizinchi falak tushunchasini ilmga Aristotel olib kirganligini va uni "Bosh harakatlantiruvchi" deb izohlaganligini ta'kidlaydi³⁸¹. Beruniy va undan keyingi bir qator olimlarning osmon ilmi haqidagi asarlarida yetti sayyora, sakkizinchi osmonda joylashgan turg'un yulduzlar va ularga qarama-qarshi harakatlanuvchi to'qqizinchi falak haqida so'z boradi. Demak, Navoiyning yuqoridagi baytlarida keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asosga egaligi bilan birga to'qqiz raqamining alohida ahamiyat kasb etishiga urg'u ham berilgandir.

Alisher Navoiy dostonlarida xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari haqidagi ma'lumotlarda raqamlar bilan bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Masalan, "Saddi Iskandariy" dostonida Kashmirni egallagan Iskandar Feruzni taxtga o'tqazadi. Taxt ham oddiy taxt emas, to'qqiz zina(poya)lik:

*To'quz poyalig' taxt uza o'lturub,
To'quz charxning shavkatin sindurib*³⁸²

Feruz va unga buysunuvchi "uch to'quz" (yigirma yetti) nafar davlat arbobiga sarmo, ikki yuzga yaqin amaldorga esa to'n va qimmatbaho nimchalar tarqatadi. In'omni olgan arkoni davlat shohning hurmatiga to'qqiz martadan ta'zim bajo keltiradilar:

*Qilib zeb albosi Feruzni,
Haram ahli – mohi dilafuzni.*

*Kelib qo'ydilar boshig'a toji zar,
Libosi zar ustiga zarrin kamar.*

*Yana uch to'quz davlat arkonig'a,
To'nu jubba birla aning yonig'a.*

*Iki yuzga ham deklayu to'n berib,
Yalang to'n alarcha yana o'n berib.*

*Alarni chu mundoq sevundurdilar,
Sah olinda to'quz yukundurdilar*³⁸³.

"Boburnoma"da berilgan ma'lumotlar ham ushbu odatning turkiy xalqlar hayotida bardavomligini dalillaydi. Bobur Toshkentdalik vaqtida tog'alari orasidagi muomala-munosabatni shunday tasvirlaydi: "...Ko'rushur yerga yetishib, to'qquz qatla yukunub kelib ko'rushti. Ulug' xon ham kichik yaqin yetgach, qo'pub ko'rushtilar, g'alaba quchushib turdilar. Yong'onda ham kichik xon to'qquz qatla yukundi"³⁸⁴. Yoki 1503-1504-yil voqealarini hikoya qilar ekan, Bobur huzuriga kelgan Xisravshohning uzoqdan otdan tushib kelishi, yaqinlashganda uch marta, o'tirishdan avval uch marta va tortiq tortilganda yana uch marta – jami to'qqiz marta ta'zim qilganligini aytib o'tadiki, bu turkiy xalqlar orasidagi qat'iy an'anaga aylanganligidan dalolat beradi³⁸⁵.

Demak, Alisher Navoiy dostonlarida ham shoirning raqamlarga munosabati, raqamlar "tili" bilan so'zlash, raqam mohiyatiga e'tibor qaratish o'ziga xos uslub darajasiga ko'tarilgan.

³⁸⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 8-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 7-8.

³⁸¹ Azizov S. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 56.

³⁸² Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 256.

³⁸³ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 257.

³⁸⁴ Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 90.

³⁸⁵ Кўрсатилган манба. – Б. 104.

Dostonlardagi raqamlar odatda, hamd va na't qismlarida kelib, ular mohiyatiga diniy qarashlar singdirilgandir. Yetti ko'k, to'rt unsur va uch mavlid singari tushunchalarda raqamlar olam va odamning yaratilishi bilan bog'liq tasvirlarni berishda ahamiyat kasb etgan. Hatto bu tasvirlar ko'pincha, tasavvufiy mohiyat kasb etib, yetti ko'k otaga, to'rt unsur onaga, uch yaratiq esa farzandga qiyos qilinganligi e'tiborni tortadi. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo mo'zilarari – bir barmoq ishorasi bilan oyni ikkiga bo'lganliklari, me'roj tunida falaklar osha sayr etganliklari, moddiy olamga tegishli bo'lgan xususiyatlar (to'rt unsur va olti jihat) dan xalos bo'lgan holda Arshi a'loga yuksalganliklari, Jabroil (a. s.) yoki Haq Taologa ikki qosh orasidek yaqin masofada turganliklari, nuzul vaqtida samodagi o'n ikki burj va sayyoralarning payg'ambarimizga ko'rsatgan ehtiromlari – ushbu tasvirlarning barchasida raqamlarning faol ishtirokini ko'rish mumkin.

“Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlar va “Lison ut-tayr”da keltirilgan raqamlar mohiyatida ba'zan xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan jihatlarni ham uchratish mumkin. Masalan, “Saddi Iskandariy” dostonida darveshlikni ixtiyor etgan shahzodaning Iskandardan mo'rt narsani talab qilganligi yoki “Lison ut-tayr” dostonida tarso qizning Shayx Sa'nonga qo'ygan mo'rt sharti singari motivlar folklor asarlari ta'sirida yuzaga kelgan. Ammo “Farhod va Shirin”da Suqrot huzuriga yo'l olgan Farhodning to'rt manzildagi to'rtta to'siqni yengib o'tishi, “Lison ut-tayr”da Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan qushlarning talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, farqu fano deb yuritiladigan yetti vodiyni bosib o'tishlari tasavvuf falsafasi bilan uzviy bog'liqdir.

Navoiy falaklar tasvirini berishda to'qqizinchi osmonga o'zgacha yondashadi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Ilmiy nuqtayi nazardan e'tibor qilinadigan bo'lsa, sakkiz osmonning harakatlanishi bilan to'qqizinchi osmonning yo'nalishi bir-biriga

qarama-qarshi. Shuning uchun, to'qqizinchi osmon barcha osmonlarni o'z ichiga olganligini ifoda etar ekan, to'qqiz raqamining o'ziga xos mohiyat kasb etganligini e'tiborsiz qoldirmaydi. Navoiy asarlaridagi ba'zi tasvirlar xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari raqamlarga alohida e'tibor qaratilganligiga ishora qiladi. Ehtiromli va e'zozli kishilar qarshisida ta'zim bajo keltirishning aynan to'qqiz marta takrorlanishi turkiy xalqlar hayotida bu raqamning alohida e'tiborga molik ekanligini dalillaydi. Tarixiy asarlar, jumladan, Boburning “Boburnoma” asarida ham ushbu odat haqida berilgan ma'lumotga tayanilsa, Navoiy dostonlaridagi sujetlar hayotga naqadar yaqinlashtirilganligiga amin bo'lish mumkin.

XVI-XIX asrlar shoirlari asarlarida raqamlar talqini

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi yirik vakili hisoblanadi. Bobur she'riyatida o'ziga xos samimiylik, hayotiylik bor. Shoir ijodida raqamlar bilan bog'liq tasvirlar u darajada ko'p emas, ammo mavjud raqamli ifodalar shoirning so'zga talabchanligi va mahoratidan darak beradi. Ma'lumki, Bobur bolalik davridayoq hayot mashaqqatlari, zamonaning adolatsizligi, atrofdagi insonlarning xiyanati singari sinovlarni boshidan kechirdi va ularni mardonavor yengib o'tdi. Bu hol uning she'riyatida, ijodida o'z aksini topgan, albatta.

*Yuz javru sitam ko'rgan, ming mehnatu g'am ko'rgan,
Osoyishe kam ko'rgan mendek yana bir bormu?*³⁸⁶

Lirik qahramonning hayoti davomida ko'rgan qiyinchiliklari, azoblari, ozorlarini yorqin tasvirlashda bir,

³⁸⁶ Бобур. Санга кўнглумни олдурум. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 32.

yuz, ming singari raqamlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ma'noni kuchaytirish va ta'sirchanlikni oshirishda yuz va ming raqamlarini ketma-ket keltirish, shuningdek, bir raqamini bu raqamlarga qiyoslash, zidlash orqali badiiy maqsadga erishilgan.

"Yog'lig'ingkim..." deb boshlanuvchi g'azal yor ro'moli haqida. Lirik qahramon nafaqat, yorning o'ziga, balki uning ro'moliga ham intizor. Chunki bu ro'mol ko'ngilga juda yaqin, sababi – uning har bir tori (ipi) "xasta jonlar rishtasi" dan olingan. G'azal baytlaridan birida lirik qahramonning ruhiy holati yuz va yuz ming raqamlari vositasida ifoda etilganki, bunda raqamlar fikrni rivojlantirish va chiroyli tasvir yaratishga xizmat qilgan:

*Yog'lig'ing tokim yuzu ko'zungga tegmish, bordurur
Yuz meningdek zoru yuz ming men kibi bemor anga*³⁸⁷.

Yoki quyidagi misralarda "yuz" so'zini mahorat bilan takrorlash orqali badiiy maqsad amalga oshgan:

*Oraz-u qaddingni ta'rif etsalar yuz yil, hanuz,
Ey yuzi gul, sarvqad, yuzdin biri aytilmag'ay*³⁸⁸.

Garchi Bobur she'riyatida irfoniy yoki diniy qarashlarni ramzlaydigan raqamlar uchramasa-da, lirik qahramonning ishqdagi turli kayfiyat va holatlarini ifoda etishda bir nafas, bir lahza, bir zamon, ikki jahon, ikki ish, uch vaqt, uch ish, besh kun, yuz balo, yuz javr, yuz jafo, yuz jahd, yuz dard-u alam, yuz yil, yuz mehnat, yuz oh, yuz umid, yuz fig'on, yuz xori g'am, yuz shukr, yuz yamanlig', yuz qotla, yuz g'am, yuz g'ussa, yuz hayf, yuz ming bahor, yuz ming tuman singari raqamli birikmalardan foydalanilgan.

Boborahim Mashrab she'riyatida esa ishqiy holatlar bilan birga diniy va tasavvufiy ohanglarni berishda raqamlarga murojaat etish ko'zga tashlanadi. Aytish mumkinki, shoir teran ma'no va mazmunni bir so'z bilan bayon etishda mahorat ko'rsatgan. "*Ming ma'nini bir nukta bila muxtasar ettim*", – deganda shoir to'la haq edi.

³⁸⁷ Бобур. Кўрсатилган манба. – Б. 17.

³⁸⁸ Бобур. Кўрсатилган манба. – Б.64

Bu holatni raqamlardan foydalangan holda yaratilgan badiiy tasvirlarda ham ko'ramiz. Masalan,

*Sad hazoron ilm o'qub men bir alifg'a lolman,
Bilmasam – tafsiri Qur'ondin nechuk aylay suxan*³⁸⁹.

Yoki

*Siynai daftarni ochsam yetti do'zax ochilur,
Nolishimdan qo'rqaman, majlisga nomahram*
kelur³⁹⁰.

Ilohiy ishq tasviri berilgan quyidagi misralarda lirik qahramonning tavhiddagi holi ifoda etiladi. Bir raqami va "haft osmon" (yetti ko'k) raqamli birikmasi haqiqiy ishqdagi tuyg'u va kechinmalarni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etgan:

Jannatu kavsar manam, ham do'zaxu saqar
manam,
Bir o'zumdurman bu dam, haft osmonga
sig'madim³⁹¹.

Yoki o'zini ellik yil davomida Iso bilan hamdam deb bilgan shoir ko'pgina g'azallarida taqdiri xuddi Mansur Xalloynik singari bo'lishiga ishora qiladi, "zamong'a" sig'maslikning asl sababi "bir nukta", ya'ni Anal Haq ekanini qayd etadi:

*Ellik yil Iso bilan yurdim o'likni tirguzub,
Boisi bir nuqtadin, Mashrab, zamong'a*
sig'madim³⁹².

Mashrab ko'plab g'azallarida tasavvufdagi tavhid, vahdat, fano singari tushunchalarni talqin etadi. Quyidagi baytda ham ana shu mohiyat o'z aksini topgan:

*Bo'ldum fano men tufrog' ichinda,
Bir dona erdim, ming dona bo'ldum...*

*Bir qatra erdim, cho'mdum dengizga,
Kirdim sadafga — durdona bo'ldim*³⁹³.

³⁸⁹ Бобораҳим Машраб. Агар ошиқлигим айтсам. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. – Б. 107.

³⁹⁰ Бобораҳим Машраб. Кўрсатилган манба. – Б. 124.

³⁹¹ Бобораҳим Машраб. Кўрсатилган манба. – Б. 54

³⁹² O'sha joyda.

³⁹³ Бобораҳим Машраб. Кўрсатилган манба. – Б. 81.

Ilohiy vaslga erishish yo'liga qadam qo'ygan solik fano maqomida tajalliydan bahramand bo'ladi. Bu ilohiy go'zallikni idrok etar ekan, oshiq ko'z o'ngida barcha mavjudlik yo'qoladi. Mashrab lirik qahramoni:

*To telbaligim shuhrati olamni tutubdur,
Bir jilvasig'a ikki jahondin o'ta qoldim*³⁹⁴, –

deganda, inson ruhining ilohga qo'shilishini nazarda tutadi va jamiki mavjudlikning yagona vujudga singib ketishini "ikki jahondin o'ta qoldim", – deya e'tirof etadi.

Mumtoz adabiyotda shoh va darvesh masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Turkiy adabiyotda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidan boshlangan bu mavzu Alisher Navoiy asarlarida, ayniqsa, "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlarida berilgan hikoyatlarda darveshning shohdan ustun qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Darveshlarga xos bo'lgan xislatlar shohlarda uchramasligi, bir qancha insoniy fazilatlarga ega ekanligi bilan darveshlik martabasi shohning taxtidan baland qo'yilgan. Ma'lumki, Husayn Boyqaro vafotidan keyin uning o'g'illari – Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzolar mamlakatni boshqaradilar. Bundan hayratlangan Bobur Shayx Sa'diyning "Guliston"ida berilgan "Dah darvesh dar gileme bixusband va du podshoh dar iqlime nangunand" (Ma'nosi: O'n darvesh bir gilamga sig'ib yotarlar, ikki podshoh bir iqlimga sig'maydi)³⁹⁵ ibratomuz gapni keltiradi. Darveshlarni ulug'lash va ularga xos bo'lgan fazilatlarni e'tirof etish hamda shohlardan ustun jihatlarini ko'rsatish uchun bundan ortiq tashbehni keltirish qiyin.

Tasavvuf ahli shohlikdan ko'ra darveshlik maqomini ustun deb bilganligi sababli ham Ibrohim Adham singari so'fiylar hayotiga ibrat sifatida qaraganlar. Ustoz Ibrohim Haqqulga ko'ra, "U (Mashrab. Dj. S.) Mansur Xalloydan keyin mashhur so'fiy Ibrohim Adham tariqini

³⁹⁴ Бобораҳим Машраб. Кўрсатилган манба. – Б. 69.

³⁹⁵ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Кўрсатилган манба. – Б. 54.

o'zi uchun ibrat va namuna sifatida e'tirof etadi".³⁹⁶ Ana shu izdoshlik namunalarini ko'rsatganligi uchun ham:

*Bir martabada turmas emish shoh ila darvesh,
Bas, jandani kiydim, o'zimi darbadar ettim*, – deydi.

"Mashrabning tariqat yo'lini tutishdan maqsadi, jannat umidi emas, balki xoksor va nekbin so'fiylardek Alloh diydoriga vosil bo'lishdir"³⁹⁷. Bu maqsad shoir g'azallarida qayta-qayta ifoda etilgan va nihoyatda serjilo badiiy bo'yoqlar vositasida tasvirlab berilgan:

*Urayinmu boshima sakkiz bihishti do'zaxin,
Bo'lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!*

Quyidagi misralarda maqsad yanada qat'iy lashib, "ikki olamni tepib o'tgan" ilohiy vasl xaridori obrazi yaratiladi:

*Qalandar Mashrabingman, ikki olamni tepib o'ttum,
Bihishtu huru g'ilmoning puchak pulga sotib o'ttum.*

"Ikki dunyo", "ikki olam" birikmalari ishtirok etgan quyidagi baytlarda Mashrab o'zi aloqador bo'lgan qalandarlik mazhabi qarashlarini ma'lum ma'noda ifoda etadi:

*Havas bozorini dur aylagil zinhor boshingdin,
Qo'lungni ikki dunyodin uzub, dilni qalandar tut.*

Yoki

*Ko'ngulda zarracha dunyoni mehri bo'lmayin menda,
Seni deb ikki olamdin kechib, bezora Mashrabman.*

Albatta, bunday o'rinlarda diniy va tasavvufiy qarashlar raqamlar vositasida bayon etilganligi ko'rinib turibdi.

XVI asrning oxiri va XVII asr o'zbek adabiyotida haqida fikr bildirar ekan, A.Fitrat quyidagilarni yozadi: "Bu davrning ma'lum shoirlari bo'lg'an Mashrab, Huvaydo, Majzub, So'fi Olloyor va Turdilarni tekshirganda tilda

³⁹⁶ Иброҳим Ҳаққул. Талант – жасорат жавҳари. – Тошкент: Мухар-
р, 2018. – Б. 54.

³⁹⁷ Хошимхонов М. Бобораҳим Машраб ижодий меросининг ил-
мий-бадий адабиётдаги талкини (XVII-XVIII асрлар). Филол.
фанл.доктор. диссерт. авторефер. – Жиззах, 2021. – Б. 29.

soddalik, nazmda ohangsizlik, san'atda zaiflik kabi hollarni oz-ko'b hammalarida ko'rish mumkin. Lekin Turdining ularning hammasidan yaxshiroq yozg'anini e'tirof qilishimiz lozim keladir"³⁹⁸. Haqiqatdan ham, Turdi she'riyatida mavzu doirasi kengayib, hatto lirikaning asosiy janri bo'lgan g'azalda ham ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy mavzular yetakchilik qilgan. Ana shunday g'azallaridan biri

Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,

To'qson ikki bori o'zbek yurtidir, tenglik

qiling, –

matla'si bilan boshlanadi. G'azalda yurtni boshqarayotgan beklarga murojaat bor. Shoir ularni o'zaro ittifoq bo'lishga, xalqni urug'chilik belgilari asosida bir-biridan ayirmaslik va kamsitmaslikka chaqiradi. E'tiborli jihati shundaki, Turdi qipchoq, xitoy, nayman singari o'zbek urug'lari nomini keltirar ekan, raqamlar bilan bog'liq nomlarga ham e'tibor qaratadi:

Birni qipchoq-u xito-yu, birni yuz, nayman demang,

Qirq-u yuz ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.

Shoir yurt boshliqlarini birdamlikka da'vat etib, firqa va guruhlariga bo'linmaslik, o'z yurtiga egalik qilish va og'zibirlik g'oyalarni ham raqam vositasida ifoda etadi:

Kim qo'yubdur, uhdai o'z mulkungizdin chiqmayin,

Ikki, uch, to'rt da'vosin etmakni, ko'tahlik qiling.

Demak, raqamlar nafaqat ishqiyl holat va kayfiyatlarini, balki ijtimoiy-siyosiy ohanglarni berishda ham qo'l kelganligi Turdi she'riyatidan ma'lum bo'ladi.

Shuningdek, bu davr adabiyotida diniy qarashlar va islomiy tushunchalarning tasvirlarini ham ko'ramiz. Masalan, Xojanazar Huvaydoning quyidagi misralarida "qirq yil" raqamli birikmasi Odam Atoning yaratilishi bilan bog'liq diniy qarashlarni yodga tushiradi:

³⁹⁸ Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 70-71. (208)

*Ato tufrog'iga qirq yil turub g'am yomg'iri yog'di,
O'shal yomg'urga man ham anda erdim bulg'onib
keldim*³⁹⁹.

Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida keltirilishicha, Azroil tomonidan olib chiqilgan tuproq ustiga qirq yil davomida yomg'ir yog'dirilgan: "Qirq yil ul tuproq uza yog'mur yog'di, o'tuz to'quz yil qazg'u (qayg'u – Dj. S.) yog'muri yog'di, bir yil sevunch yog'muri yog'di"⁴⁰⁰. Demak, ko'rinib turibdiki, yuqoridagi baytda berilgan fikr Rabg'uziy qarashlarining she'riy ko'rinishidir. Huvaydo lirik qahramoni taqdiridagi og'ir kunlar ko'pligining sabablaridan biri sifatida Odam Ato ustiga qirq yil davomida yog'dirilgan yomg'irning asosiy qismi g'am yomg'iri ekanligida, deb biladi va "Hazin bo'lmoq Ato merosi bo'lsa man nechuk aylay", – deya fig'on qiladi.

Huvaydo she'riyati o'ziga xos she'riyat. Shoir diniy va tasavvufiy g'oyalarni rivojlantirishga, majoziy va ilohiy ishqni ulug'lashga qaratilgan bir qator she'rlar yozgan.

Shoir asarlari orasida raqam ishtirokidagi bir g'azal bo'lib, u adabiyotshunoslikda g'azali-chiston nomini olgan. Olti baytdan iborat bo'lgan bu g'azalning ikkinchi va beshinchi baytlarida raqamlar bilan bog'liq tasvirlar bor. Ikkinchi baytga e'tibor qaratamiz:

Boshi yetmish, yuz ayog', uch yuz badanlik qush kelib,

*Tan tuzida murg'i jon sayd etmishin ko'rdum bu kun*⁴⁰¹.

Sirtidan qaraganda, gap bir qush haqida, qaysiki, u qushning yetmishta boshi, uch yuzta tanasi, yuzta oyog'i bor. Bu qanday qush? Tasvir juda qo'rqinchli! Humo, semurg', anqo singari afsonaviy qushlar tasviri ham bunchalik g'ayritabiiy emas. Ertaklarda ham hatto qushlarning bunday tasvirini ko'rmaymiz. Ana shu bahaybat qush lirik qahramon tanasidagi jon qushini

³⁹⁹ Хожаназар Хувайдо. Ишқ аро ошиқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 57.

⁴⁰⁰ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 16.

⁴⁰¹ Кўрсатилган манба. – Б. 70.

ovlash uchun kelgan. Har qancha harakat qilmaylik, qadimiy kitob-u ertaklar, afsona-yu miflarga murojaat etmaylik, bu qush haqida ma'lumot topa olmaymiz. Shunda Sharqda mavjud bo'lgan abjad hisobi ko'makka keladi. Arab harflarining har biri ma'lum bir son (raqam) ga tengligi asosida yuritiluvchi abjad hisobiga ishora qilgan shoir "ayn", "qof" va "shin" harflari bilan ifoda etiluvchi yetmish, yuz va uch yuz raqamlarini keltiradi. Bu uchala harfning tartib bo'yicha joylashtirilishi "ishq" so'zini keltirib chiqaradi. Ba'zi xattotlar bu so'zni arab imlosida qushga o'xshatib yozishgan. Huvaydo shunga ishora qilgan holda "jon qushi"ni ovlash uchun kelgan ishqni "qush" deb tasvir etadi va bunda raqamlarning abjaddagi ifodasiga tayanadi.

Beshinchi baytda "mori siyah" – qora ilon tasvirini beradi. Yetti boshli bu ilon o'ttizta badan va saksonta oyoqqa ega. Gul ustida "tolpinib" turibdi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda gul deganda ma'shuqa, to'g'rirog'i, ma'shuqaning guldek chiroyli yuzi tushuniladi. Gul – yuzning ustidagi qora ilon esa o'z-o'zidan uning qop-qora sochlari ekanligi yetti, o'ttiz va sakson raqamlarining abjad hisobi bo'yicha qaysi harflar bilan ifoda etilishi aniqlanganda ayon bo'ladi. Ya'ni, "ze" – yetti, "lom" – o'ttiz, "fe" – sakson – kelib chiqadigan so'z – "zulf". G'azaldagi oltita raqam – yetmish, yuz, uch yuz, yetti, o'ttiz va sakson raqamlarini keltirish orqali "Zulfi ishq" birikmasi ifoda etilgan. Abjad hisobidagi raqam tizimidan mohirona foydalanish orqali yangicha obrazlar (qush, ilon) yaratilgan.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida keltirilgan bir voqeani eslab o'tishni lozim topdik. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy "Jahonoro" bog'i uchun mas'ul bo'lgan shaxsning bir qancha sarv daraxti ko'chatlarini olib ketayotganligini ko'rib qolishadi. Shunda Jomiy ko'chatlar sonining qanchaligini so'raganda, bog'bon bir yuz to'rtta ekanligini aytadi. Navoiy yozadi: "Alar dedilarkim: – Ajab adaddur.

Faqir dedikim: – Munosib adaddur, nevchunkim "qad" bila munosibdur"⁴⁰². Bu bilan Navoiy "qad" so'zining abjad hisobi bo'yicha bir yuz to'rt raqamini anglatishiga, shuningdek go'zallar qaddu-qomatining sarv daraxtiga qiyoslanishiga nozik ishora qiladi.

Mumtoz shoirlar ijodida raqamlar bilan bog'liq badiiy tasvirlar, raqamlar mohiyatini yorituvchi badiiy lavhalar mahorat bilan yaratilganki, biz ularda raqamlarning o'ziga xos silsilasini ko'rishimiz mumkin. Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiydan keyingi yirik siymo sanaladi. Nafaqat asarlar ko'lami jihatidan, balki badiiy iste'dod va qobiliyatini mahorat bilan namoyon qilish va so'zga ma'no yuklash nuqtayi nazaridan ham Ogahiy Navoiyga izdoshlik qiladi. Muhammad Rizo Ogahiy ijodida shunday misralar borki, raqamlar mohiyati va ular zamiridagi ma'noni farqlay olmagan kitobxon na shoirning badiiy mahorati va iste'dodiga baho bera oladi, na she'r mag'zini chaqa oladi. Mana o'sha misralar:

*O'n aql, to'qquz sipehr, sakiz jannat,
Ham yetti munir axtaru ham olti jihat,
Ham besh his, to'rt unsur, uch mavlid,
Ham ikki jahon bir sango aylar xizmat⁴⁰³.*

Ushbu ruboiyda birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar tizimi keltirilgan bo'lib, har bir raqam o'ziga xos ma'no tashigan. Misralardagi raqamlarning barchasi olam va odamning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalarni anglatadi. Avvalo, "o'n aql" xususida. Aql – zakovat, donolik, inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati, fikrlash qobiliyati. Aql hamma narsalarning asosidir. Inson boshqa yaratilardan o'zining aql-zakovati bilan ajralib turadi. Aqlning insonga berilishi hususida diniy va tasavvufiy adabiyotlarda juda ko'plab

⁴⁰² Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 18-19.

⁴⁰³ Огаҳий. Кўрсатилган манба. – Б. 447.

ma'lumotlar keltirilgan. Ulardan ba'zilariga e'tiborni qaratamiz: "Alloh taolo aqlni yaratganida unga: "Kel!" – dedi, darhol keldi; keyin unga: "O'giril!" – dedi, o'girildi; keyin "So'zla!" – dedi, so'zladi; keyin "Ko'rgil!" dedi, ko'rdi. Alloh taolo aytdiki: "Izzatim va jalolimga qasamki, sendan go'zalroq narsani yaratmadim. Men uchun sendan azizroq narsa yo'q. Sen sababli beraman, sen sababli olaman, sen sababli (bandani) taniyman, sen sababli hurmatli qilaman. Sen kimda o'rnashgan bo'lsang, u qanday yaxshi bandadir!"⁴⁰⁴. Ammo tasavvufda aql deyilganda, solikning kashf va ma'rifatga erishgandagi bir holi nazarda tutiladi. Mutasavviflar inson aqlini "aqli juz" ("aqli avval"), "aqli majoz" ("aqli kull") deb ataydilar. Aqli avval – a) vahdat martabasi; b) nuri Muhammadiya; v) Jabroil; g) insonning haqiqati. Alloh birinchi bo'lib aqli avvalni, keyin uning ishtirokida boshqa yaratilarni yaratdi. Bunga ilohiy ilmning ilk zuhuri nomi ham berilgan. Ilohiy ilmga – "ummul kitob", aqli avvalga "imomi mubin", Lavhga "kitobi mubin" nomlari berilgan. Bular "Nun", "Qalam" va "Lavh" ham deyiladi. Aqli avvalga berilgan boshqa ismlar: qalami a'lo, haqiqati Muhammadiya, durri bayzo, Nuri Muhammad, Ruhi a'zam.

Aqli kull – aqli avvaldan keyin kelgan bir martabadir. Aqli kull aqli avvalning mazharidir. Odam aqli kullning, Havo esa nafs kullning suratidir. Aqli maosh fikrlash asosida o'lchanadigan bir nurdir. Faqat biror vosita yordamida idrok etiladi. Kulli aqlga oid xususiyatlardan faqat bittasini idrok eta oladi. Aqli avvalning yo'li unga yopiqdir. Mutasavviflar: "Allohn aql bilan idrok etib bo'lmas", – deganlarida aql kalimasida qiyos va mantiq asoslari ichida faoliyat ko'rsatadigan aqli maoshni nazarda tutishgan. "Alloh aql bilan bilinur", – deganlarida esa qiyos va mantiqsiz idrok etiladigan aqli avvalni nazarda tutishgan. Yolg'iz bir nurdan iborat bo'lgan aqli

avval va qalami a'lo qulga nisbatan aqli avval, Haqqa nisbatan qalami a'lo nomini olgan. Alloh Jabroil (a. s.) ni Muhammad (s. a. v.)ga nisbat berilgan aqli avvaldan yaratganidan u Jabroil (a. s.)ning otasi va butun borliqning aslidir. "Hazrati payg'ambar oldida aqlni qurbon qil", – degan Mavlono aqli maoshni ko'zda tutadi. Aqli maoshga aqli juz ham deyiladi. Tasavvufda qalbda paydo bo'lgan fayz va ilhomga nisbatan qo'llaniladi. Shoir o'n aql kalimasini qo'llaganda, aqlning ana shu turlari va ko'rinishlarini nazarda tutadi.

To'qqiz sipehr – osmonlar soni bilan bog'liq tushuncha. To'qqiz sipehr "to'qqiz gunbad", "to'qqiz osmon", "to'qqiz tabaq", "to'qqiz torami axzar", "to'qqiz falak", "to'qqiz charx" singari birikmalar bilan qo'llaniladi. Bu to'qqiz sipehr quyidagilardir: 1. Falakul-aflok – osmonlar osmoni. 2. Burjlar osmoni. 3. Zuhul osmoni. 4. Mushtariy osmoni. 5. Mirrix osmoni. 6. Quyosh osmoni. 7. Zuhra osmoni. 8. Atorud osmoni. 9. Oy osmoni. Mumtoz ijodkorlar asarlarida to'qqiz osmon tushunchasi ko'p ishlatilgan. Lirik qahramonning turli holat va kayfiyatlarini ifoda etishda bu tushunchaga qayta-qayta murojaat qilingan.

"Sakkiz jannat" deyilganda, "Doru-l-qaror". "Dorus-salom", "Doru-l-xula", "Jannatu-l-ma'vo", "Jannatu-adn", "Jannatu-na'im", "Firdavs", "Bog'i Eram" nomlari bilan atalgan sakkiz jannat nazarda tutilgan. Jannat va undagi noz-u ne'matlar, hur-u g'ilmonlar va unda oqib turgan to'rt anhor xususidagi ma'lumotlar ilohiy kitobdan tashqari, turli diniy mazmundagi risolalarda, shuningdek, diniy-tasavvufiy asarlarda mahorat bilan tasvir etilgan.

"Yeti muniri axtar" – yetti porloq (yorituvchi) yulduz degani. Yeti ko'kda joylashgan yetti sayyora nazarda tutilmoqda. Xususan, birinchi ko'kda Oy, ikkinchi ko'kda Utorud, uchinchi ko'kda Zuhra, to'rtinchi ko'kda Quyosh, beshinchi ko'kda Mirrix, oltinchi ko'kda Mushtariy va yettinchi ko'kda Zuhul sayyoralari joylashgan. Alisher

⁴⁰⁴ Абул-футух Шайх Аҳмад Ғаззолий. Кўрсатилган асар. – Б. 181.

Navoiy "Xamsa" tarkibiga kiritilgan dostonlarda me'roj voqeasini tasvirlar ekan, payg'ambar alayhissalomning avval ushbu yetti sayyora joylashgan yetti ko'kni, so'ngra burjlar osmonini, keyin esa falakul aflokni bir-bir ortda qoldirib, Arshi a'loga ko'tarilganliklarini qalamga oladi. Ammo mumtoz shoirlarimiz samoviy olam, jumladan, yetti ko'k xususida so'z yuritganda hamma vaqt ham jismoniy mavjudliklarni emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga ham diqqatni jalb etishgan.

"Olti jihat" bu dunyoning olti tomoni – shimol, janub, sharq, g'arb, baland (osmon), past (er osti)ni anglatadi. "O'ng, so'l, old, orqa, yuqori, quyi shaklida ham talqin qilinadi. Olti taraf – jihoti sitta shaklida ham qo'llaniladi"⁴⁰⁵.

Yaratgan tomonidan insonga beshta sezgi ato etilgan (arab tilida "havossu xamsa") – ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va sezish. Bu sezgilar ko'z, quloq, burun, og'iz (til) va teri kabi a'zolar yordamida faoliyat ko'rsatadi. Ularning asosiy vazifasi olam haqida ilm hosil qilishdir. Ko'z yordamida ko'rib, til yordamida tatib ko'rib, ta'm bilib, ilm hosil qilamiz. Quloq yordamida eshitib, teri yordamida his etib, ushlab ko'rib ilm hosil qilamiz. Shu sezgi a'zolari vositasida tashqi dunyo haqida ma'lumot olamiz, tasavvur hosil qilamiz. Demak "besh his" – insondagi besh tuyg'u (ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, to'qinish)dir.

Keyingi tushuncha "to'rt unsur" tushunchasi bo'lib, insonning yaratilishi uchun asos bo'lgan tuproq, suv, havo va otash unsurlaridir. Sharq shoirlari bu unsurlarni qayta-qayta tilga olishgan, ayniqsa, tasavvuf falsafasi ruhi bilan sug'orilgan, komil inson xususida so'z yuritilgan asarlarda "to'rt unsur" tushunchasi aslo chetlab o'tilmagan. Sababi, Nasimiy ta'kidlaganidek,

⁴⁰⁵ Алишер Навоий: Қомусий луғат. Икки жилдлик, - Тошкент: Шарқ, 2016. – Б. 430.

"Chor anosirdir bizni suratda qildirgan qaror". Bu to'rt unsur "to'rt andom", "to'rt arkon", "to'rt asl", "to'rt gavhar", "chor mix" ifodalari bilan ham ishlatiladi (yuqoridagi fasllarda alohida to'xtalib o'tilganligi sababli bu o'rinda gapni muxtasar qildik).

"Uch mavlid" deganda olamdagi uch yaratiq – jamodot (jonsiz tabiat), nabotot (o'simliklar olami) va hayvonot (jonzorlar) olami tushuniladi⁴⁰⁶.

Sharq shoirlari poetik ma'no va mantiq talablariga asoslanib raqamlarga murojaat qilganda, bevosita u yoki bu raqam "chegara"sida an'anaviylashgan haqiqatlarni ham inobatga olganlar. Buni ikki raqamidan foydalanishda ham kuzatish mumkin. Azaliy mavzulardan sanalgan dunyo va oxirat xususidagi fikr-mulohazalar tazodiy xarakterga ega ekanligini zukkolik ila ilg'agan sharq ijodkorlari ko'pgina o'rinlarda "ikki dunyo", "ikki jahon" singari raqamli birikmalarni istifoda etadilar. Masalan, Amiriyning quyidagi baytlaridan birida "ikki jahon" birikmasi qo'llanilgan bo'lsa, boshqasida esa ikki raqami "olam" so'zi bilan birga ishlatilgan:

*Kechib ikki jahondin, ishq sahrosig'a azm ettim,
Kel, ey, majnuni ko'ngul, bo'lg'il mango bu yo'lda
hamrohim.*⁴⁰⁷

Yoki

*Dahr taxti uzra oning soyasi ermish, Amir,
Ikki olam shavkati bir husn sultonidadur.*⁴⁰⁸

Huvaydoning quyidagi misralariga e'tibor qarating:

*Nigoro, ikki olamda saningdek dilrabo yo'qtur,
Firoqing o'tida mandek asiri muftalo yo'qtur.*⁴⁰⁹

Lirik qahramon "dilrabo"sining tengsiz ekanligi-yu o'zining unga "asiri muftalo" bo'lganligini tasvirlamoq-

⁴⁰⁶ Bu haqda qarang: A.Расулов. Жамодот синоати / Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: , 2007. – Б. 125-136.

⁴⁰⁷ Амирий. Девон. – Тошкент, 2017. – Б. 233.

⁴⁰⁸ Амирий. Кўрсатилган манба. – Б. 95.

⁴⁰⁹ Хожаназар Хувайдо. Ишқ аро ошиқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 25.

da. Diqqat qilinsa, baytning ta'sir kuchi uni tashkil etuvchi so'zlar orasida aynan "ikki olam" birikmasiga yuklatilgan.

Zero, ikki raqami ko'pgina o'rinlarda "dunyo", "olam", "jahon" kabi so'zlar bilan birga qo'llanilib, ikki dunyo – foniy (o'tkinchi) va boqiy (abadiy) dunyo sifatlashini chuqurlashtirgan. Jumladan, tubandagi misralarda Alloh taoloni "ikki dunyoning sultoni" deb tashbehlab, o'tkinchi va abadiy dunyo nazarda tutiladi:

*Ey azizlar, musulmonlar,
Ikki dunyoning sultoni
Azal kunida yaratdi
Rasul vujudida jonni.*⁴¹⁰

Ogahiy ham yuqoridagi misralarda "ikki olam" birikmasini qo'llar ekan, ana shu haqiqatlarga ishora qiladi. Shoir aytmoqchi, yaratilganlarning barchasi – o'n aql ham, to'qqiz osmon ham, sakkiz jannat ham, yetti sayyora ham, olti jihat ham, besh his-u to'rt anosir, uch mavlid-u ikki olam – hamma-hammasi yagona yaratuvchiga – "Bir-u bor"ga xizmat qiladi. Bu fikrlarni ixcham va lo'nda ifoda etish uchun esa birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar tizimidan mahorat bilan foydalanilgan va yuksak san'atkorlik namoyon etilgan.

Dunyoga mehr bog'lashning asosi nafsdir. Nafs insonni yo'ldan chiqaradi, qaysi tomoni o'ng, qaysi tomoni chap – bilmaydi, nafsga berilgan inson qanoti kesilgan qush kabidir. Dini ham, imoni ham dunyo, surati inson bo'lgan bunday kimsalar hayvonga qiyos qilinadi. Holbuki, dunyo insonga vafo qilmaydi. Dunyo yolg'ondan iborat ekanligi, uning fitnasi ko'p ekanligini anglamagan inson g'ofilligidan dunyoga aldanib qoladi. Agar inson bu g'aflatdan qutilsa, barcha sirlarni kashf etadi. Mansurning nega dorga osilgani, Yusufning nima uchun sotilgani, Ibrohimning nechun otashga otilgani, Muhammad (s. a. v.)ning me'rojini – hamma-hammasini

⁴¹⁰ Махтумкули. Кўрсатилган манба. – Б. 239.

biladi. Jannat, jahannam, yetti qat ko'k, Kursi, Qalam, yetti qat yer – bularning barchasini anglaydi. "Ilm ul-ladun"ga yetishib, "sirri lo-yazal"ga vosil bo'ladi⁴¹¹.

Dunyo o'zini chiroyli qilib bezatgan, ammo insonni yomonliklarga undaydigan makkor ayolga qiyos qilindi. E'tiborli jihati shundaki, mumtoz shoirlarimiz insonni ogohlikka chorlovchi ana shu fikrlarni ham raqamlar mohiyatiga singdirishga harakat qilganlar. Ogahiy Navoiyning "Charx dard ahlig'a har dam yog'durur gardi firoq" deb boshlanuvchi g'azaliga muxammas bog'lar ekan, buyuk salafga ergashgan holda oltinchi bandda raqamlarning o'ziga xos tizimini keltiradi: "yuz balo", "yetti do'zax", "olti jihat" va Navoiy talqinidagi "besh kun", "to'rt mazhab", "uch taloq" – bular o'zaro uyg'unlashib, raqamlar tili bilan so'zlashning o'ziga xos bir shaklini hosil qilgan:

*Dahr zolikim o'ziga doimo ziynat berur,
Kimga juft o'lsa, boshig'a yuz balolar kelturur,
Yetti do'zax mehnatin olti jihatdin yetkurur,
Istasang besh kun farog'at garchi kobin umr erur,
Dahr zolin to'rt mazhab birla qilg'il uch taloq*⁴¹².

Ogahiy Navoiy tomonidan ilgari surilgan qarashning ("Bu "besh kunlik" dunyoda farog'atda yashay desang umringni "mahr"ga berishing lozim bo'ladi, shuning uchun "dahr zoli"ni "uch taloq" qil") asosiy sabablarini ko'rsatishga harakat qiladi: "Dahr zoli" – dunyo ayoli, to'g'rirog'i o'ziga maftun etuvchi jozibador ayol qiyofasidagi dunyo, o'tkinchi olam. Unga hamroh bo'lgan, unga muhabbat bog'lagan kishining boshiga turli xil ofatlar, qiyinchiliklar kelishi tabiiy hol. Hatto "olti jihat"dan yog'ilayotgan bu qiyinchiliklarni shoir mubolag'a san'atidan foydalangan holda "yetti do'zax" azoblaridan ham og'ir, deya baholaydi. Dunyoning mangu emasligi va uning albatta zavolga yuz tutishi

⁴¹¹ Abdurrahmon Go'zal. Dini Tasavvufi Türk Edebiyatı. – Ankara: Akçağ yayınları, 1999. – S. 81.

⁴¹² Огаҳий. Кўрсатилган манба. – Б. 326.

muqarrarligini xalqimiz “besh kunlik dunyo” iborasida lo’nda qilib aytgan-qo’yan. Sharq shoirlarining ko’pchiligi olamning o’tkinchiligi, bu dunyo hayotining juda qisqaligini ifodalashda mazkur iboraga tez-tez murojaat qilishadi. Masalan, Furqatning mashhur musaddasidagi “Besh kun seni davringda bechora xirom etsun...” misrasida yoki boshqa bir qator baytlarda shu holatni ko’rish mumkin. Bunday ifodalar nafaqat she’riyatda, balki dunyoning foni va bebaqo ekanligini urg’ulaydigan nasriy shakldagi fikr-qarashlarda ham keladi. Masalan, Z.M.Bobur “Boburnoma”da 1507–1508-yil voqealarini so’zlar ekan, “Shayboqxon Hiriyni olg’andan so’ng, bu podshohlarning zoh va zodi bila yomon maosh qildi, ne yolg’uz bu jam’ bila, bori xaloyiq bila, rustoyi va nodida kishi, besh kunluk o’tar dunyo uchun mundoq yamon ot qozondi”⁴¹³, – deb yozadi. Hatto ba’zi o’rinlarda mohiyat teranlashib, “besh kun”lik umr tasavvufiy mazmun tashiy boshlagani anglashiladi. Maxtumquli ijodidan olingan “*Umr besh kun, manzili uch*” misrasi ham buni dalillaydi.

Maqsadga yetish uchun dunyoni tark qilmoq lozimdir. Diniy asarlarda dunyo – mo’minlarning zindoni ekanligi qayd etilsa, tasavvuf falsafasida dunyoni tark etish – ibodatlarining boshlanishi sanalgan, manzilga yetish uchun dunyoni tark qilishga chaqirilgan. She’riyatimizda “dunyo tarki”, “jahon tarki”, “bilganlarning tarki”, “jon tarki”, “sevganlarni tark qilish”, “menlik tarki”, “senlik-menlik tarki”, “jumla tashvish tarki”, “o’z-o’zini tark” kabi shakllarda ishlatiladigan bu tushunchani Hazrat Navoiy raqamlar vositasida “Dahr zolin to’rt mazhab birla qilg’il uch taloq”, – deya ifoda etmoqda. Raqamlarga aloqador bu ifodalar ijodkorlarning foni olamga munosabati boshqalarning qarashlaridan farq qilganini, sharq shoirlari dunyo mezonlarini belgilashda ham o’ziga xoslikka intilganini tasdiqlaydi. Ammo vaqtning

⁴¹³ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарк, 2002. – Б. 154.

nihoyatda yugurikligi haqida so’z borganda, Maxtumquli o’tkinchi dunyoni odatdagidek “besh kunlik” emas, lozim bo’lganda, yanada qisqaroq qilib – “ikki kunlik” deb ta’riflaydi:

*Qolmamish bu ko’hna dunyo Rustam ila Zoliga,
Bo’lma mag’rur ikki kunlik ne’matu molingga*⁴¹⁴.

Yoki:

*So’ngsiz pushaymonni ikki kun uchun
O’z ustingga ola-ola ketarsan*⁴¹⁵.

Darhaqiqat, ochunning bebaqoligi, umr qisqa, uni g’animat bilish kerakligi, dunyo moliga mag’rur bo’lmaslikni ta’kidlash uchun shoir so’zning quvvatini aynan raqamga yuklagan. Boz ustiga, “ikki kun” ifodasi takror-takror ishlatilgan bo’lsa ham, o’quvchi har gal xuddi shu o’rinda topib, mazmunni kuchaytirishga xizmat qilayotganiga ishonchi ortadi. Ikki raqami xususida yana ba’zi bir mulohazalar: bu raqamning eng muhim fazilati shundaki, yuqorida aytilganidek, u juftlik ramzidir. O’ng va chap, baland va past, ibtido’ va intiho, ezgulik va yovuzlik, hayot va o’lim. Bularni uzoq davom ettirish mumkin. Bu qarama-qarshi tushunchalarning barchasini ikki raqami birlashtirib turadi. Daosizm ta’limoti bo’yicha ikki raqami bir-birini to’ldirish va birlashish ramzidir. Shuning uchun ham hayot davomiyligini ta’minlovchi Osmon va Yer, erkak va ayol ittifoqida, barqarorlikni yuzaga keltiruvchi Yan va In quvvatida, bir-birini to’ldirib turuvchi Quyosh va Oy, yorug’lik va zulmat, oq va qoralar juftligida ikki raqamining o’ziga xos o’rni bor. Ammo mumtoz shoirlar ijodiga nazar tashlansa, bu raqam mohiyati bilan bog’liq tushunchalar olami yanada kengayganligini ko’rish mumkin.

Mumtoz ijodkorlar asarlarida uchraydigan ramziy raqamlar yoki raqamlar mohiyati har doim ham diniy, tasavvufiy va falsafiy qarashlarni ifoda etadi,

⁴¹⁴ Махтумқули. Кўрсатилган манба. – Б. 466.

⁴¹⁵ Махтумқули. Кўрсатилган манба. – Б. 378.

degan xulosani ilgari surishdan yiroqmiz. Ba'zan hayotiy haqiqatlarni ifoda etishda ham raqamlarga murojaat qilinganligi adabiyotimiz tarixidan juda yaxshi ma'lum. Masalan, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning mashhur asarlaridan biri "Uch xarobotiy" musaddasidagi uch raqami mohiyatidagi ma'no bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu musaddas va unda ifoda etilgan qarashlar xususida adabiyotshunos olimlarning ko'pchiligi o'z fikr-qarashlarini ilgari surishgan. Ushbu musaddas birinchi marta 1958-yilda e'lon qilingan va ko'plab adabiyotshunoslarning e'tiborini tortgan. Bu haqda birinchi bo'lib, Maqsud Shayxzoda fikr bildirgan va musaddasga "Furqat lirikasining shoh asari deb sanalishga loyiq", – deya baho bergan. G.Karimov musaddasda shoir dunyoqarashining muhim tomonlari aks etishi bilan birga, unda Furqatning ijodiy-estetik pozitsiyasi ham aks ettirilganligini ta'kidlaydi⁴¹⁶. A.Abdug'afurov "musaddas falsafiy-so'fiyona yo'nalishga ega bo'lib, Furqat lirikasining boshqa namunalaridan ajralib turadi"⁴¹⁷, – deydi. Akademik Aziz Qayumov esa "Bu musaddas Furqat va yana o'sha doiradagi ikki shoir ishtirokida mushoira yo'li bilan yozilgan bo'lsa kerak"⁴¹⁸, – deb taxmin qiladi. Filologiya fanlari nomzodi Rustamjon Tojiboyev "Uch xarobotiy" kimlar edi?" nomli maqolasida⁴¹⁹ she'rning yozilishi tarixi va undagi uch xarobotiyning kimlar ekanini aniqlashga urinadi. Olim Furqatning "Xo'qandliq shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, o'zi yozg'oni" deb nomlangan tarjimayi holda berilgan ma'lumotlar hamda Zavqiyning "Ajab

⁴¹⁶ Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 191.

⁴¹⁷ Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 128.

⁴¹⁸ Қаюмов А. Шеърят жилолари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 92-93.

⁴¹⁹ Тожибоев Р. "Уч хароботий" кимлар эди?" // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси. 2010 йил, 21-сон.

zamona" she'rlar to'plamiga kiritilgan 3 ta g'azaliga tayangan holda (bu g'azallarning 2 tasida Zavqiy va Furqat, 1 tasida Nisbatiy, Zavqiy va Furqat taxalluslari keltirilganligini nazarda tutib, g'azallar hamkorlikda yozilgan, degan xulosaga keladi) shunday qarashni ilgari suradi: "Nisbatiy, Zavqiy va Furqatlar dastlab mazkur g'azallarni bitganlar, so'ngra shu g'azallar vazni va qofiyasida bog'lanuvchi mazkur musaddasni yaratganlar. Musaddasda har uch shoirning 1883–1886-yillardagi kayfiyatlari, hayotga qarashlari o'z aksini topgan... "Uch xarobotiy" musaddasi Nisbatiy, Zavqiy va Furqatlarning ijodiy hamkorligi mevasi o'laroq dunyoga kelgan, deyish mumkin. She'rning lirik qahramonlari – "uch xarobotiy", "uch alamkash", "uch qalandar", "uch birodar", "uch musofir", "uch adoyi", "uch navoyi", "uch g'aribiy", "uch vafoyi", "uch balokash", "uch mukaddar" esa, shubhasiz, Nisbatiy, Zavqiy va Furqatdirlar"⁴²⁰. Musaddas hajmining o'n besh banddan iborat ekanligi, har uch band bir xilda qofiyalanish tartibiga ega ekanligi, o'n ikkita band uchliklar bilan boshlangani holda, oxirgi uchta bandda tabibga murojaat etilganligi olimning ushbu xulosalarini haqiqatga yaqinlashtiradi. Garchi musaddas "falsafiy-so'fiyona yo'nalishga" ega bo'lsa-da, raqamlar mohiyatida real hayot bilan bog'liq haqiqat yotganligini ko'rish mumkin.

XVI-XIX asrlarda qalam tebratgan shoirlar – Z.M. Bobur, Boborahim Mashrab, Xo'janazar Huvaydo, Turdi Farog'iy, Ogahiy, Furqat singarilarning ijodi tadqiq qilindanda raqam va uning mohiyatiga ishora qilish an'anasini davom etganligini ko'rish mumkin. Bobur g'azallarida hayotiy voqealardan ta'sirlanishni tasvirlashda yoki ma'noni kuchaytirish va ta'sirchanlikni oshirishda raqamlarga murojaat qilingan bo'lsa, Mashrab va Huvaydo ijodida raqamlar tasavvufiy mazmun-mohiyat kasb etgan. "Bir nukta", "bir dona", "bir qatra", "bir jil-

⁴²⁰ Тожибоев Р. Кўрсатилган манба.

va", "haft osmon", "yetti do'zax", "qirq yil", "ming ma'ni", "ming dona" singari birikmalar tarkibida kelgan raqamlar diniy-tasavvufiy ma'nolarni anglatish uchun xizmat qilgan bo'lsa, Huvaydo she'riyatida abjad hisobi bilan bog'liq raqamlar vositasida badiiy obraz yaratilganligi e'tiborga molikdir.

XVI-XIX asrlar turkiy adabiyotda Navoiyga munosib izdosh bo'lgan ijodkor Muhammad Rizo Ogahiydir. Badiiy iste'dod va qobiliyatni mahorat bilan namoyon qilish va so'zga ma'no yuklash nuqtayi nazaridan ham Ogahiy Navoiyga izdoshlik qiladi. Navoiy g'azallariga bog'langan muxammaslarida ham, lirikaning kichik janri sanalgan ruboiylarda ham raqamlarga murojaat va raqam orqali ma'no anglatish ko'zga tashlanadi. Ogahiyning birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar tizimi keltirilgan ruboiysida har bir raqam o'ziga xos ma'no tashib, barcha raqamlar olam va odamning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalarni anglatgan.

Mumtoz ijodkorlar asarlarida uchraydigan ramziy raqamlar yoki raqamlar mohiyati har doim ham diniy, tasavvufiy va falsafiy qarashlarni ifoda etmasdan, ba'zan hayotiy haqiqatlarni tasvirlashda ham raqamlarga murojaat qilinganligi adabiyotimiz tarixidan juda yaxshi ma'lum. Turdi Farog'iyning ijtimoiy-siyosiy ruhdagi g'azallari, Furqatning mashhur "Uch xarobotiy" musaddasidagi raqamlarga tayanilgan fikr va qarashlar tasviri bunga misol bo'ladi.



RAQAM VA OBRAZLI TASVIR IMKONIYATLARI

Raqam poetikasi va badiiy asar fabulasi

O'zbek mumtoz shoirlari ijodida raqam ramzlariga murojaat etish va raqamlar mohiyatidan foydalanish orqali ma'lum bir g'oyani ilgari surish, fikrni badiiy tasvir etish turli lirik janrlarga mansub bo'lgan bayt yoki misralardagina emas, balki alohida bir asarlarda ham ko'zga tashlanadi. Aytish mumkinki, adabiyotimiz tarixida mazmunida raqam mohiyatiga tayanilgan, raqamga urg'u berilgan va raqam ramzlari yetakchilik qilgan maxsus asarlar yaratilganki, ushbu turkumdagi asarlarni chuqur tahlil va tadqiq etish adabiyotshunoslik oldidagi masalalardan biridir.

Sharq xalqlari adabiyotida inson hayoti tasviriga bag'ishlangan yoshnoma, vujudnoma, umr dostoni, tarjimai hol singari nomlar bilan yuritiladigan asarlar bor. Turkiy xalqlar adabiyotshunosligida bunday asarlar tadqiqiga bag'ishlangan turli izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ozarbayjon adabiyotshunosligida inson hayotini va undagi muhim voqealarni inson yoshiga mutanosib ravishda tasvir etilgan asarlar vujudnoma deb yuritilib, bu janr haqidagi ilmiy-nazariy ma'lumotlar mashhur folklorshunos olimlarning xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq ilmiy asarlarida berilgan⁴²¹. O'zbek adabiyotshunosligida ham yoshnoma xususidagi qarashlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiq etilgan ilmiy ishlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, Sh.Rahimova "Davlatyorbek" dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatida insonning yosh xususiyatlari va hayoti bilan bog'liq she'rlar o'zbek folklorshunosligida janr sifatida tilga olinmaganligini akademik T. Mirzayev fikrlariga asoslanib qayd etsa-da,

⁴²¹ Elmira Fikratqizi. Vujudnamolarda matenlerarasi əlaqe. – Baki: Elm və Təhsil, 2018. – S. 256.

“Davlatyorbek” tarixiy dostonida “yoshnoma” janrining mukammal namunasi mavjud⁴²², – deya yoshnomani janr sifatida e’tirof etadi. Biz ham tadqiqotchining ushbu fikrini ma’qullagan holda, yoshnomalarda akademik T.Mirzayev ta’kidlaganlaridek, tarjimayi holga oid ma’lumotlar keltirilishini, muallif yoki asar qahramoni hayotida yuz bergan muhim voqealar yosh xususiyatlari bilan bog’liq holda bayon etilishini qayd etamiz. Yoshnomalarda qahramonning bolalik, tarbiya va tahsil yillari, yigitlik davri, sevgi, oila, keksalik yillari hamda hayotidagi muhim voqealar – el-yurt ozodligi va vatan ravnaqi yo’lida olib borgan qahramonliklari badiiy bo’yoqlarda tasvir etiladi. Sh. Raximovanning avtoreferatida yoshnomaning yozma adabiyotdagi qadimgi namunasi sifatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asaridan olingan parcha beriladi. Bizningcha, yoshnomalarning dastlabki unsurlarini yanada qadimroqdan, to’g’rirog’i, O’rxun-Enasoy bitiklaridan izlash maqsadga muvofiqdir. Fikrimizning dalili sifatida Kul tigin bitiktoshiga yuzlanamiz: “Otam xoqon uchganda (o’lganda) inim Kul tigin yetti yoshda (ta’kidlar bizniki Dj.S.) qoldi, o’n yoshda Umayday onam xotun baxtiga inim Kul tigin er degan nom topdi. O’n olti yoshida amakim hoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qo’lga kiritdi”⁴²³. “Yigirma bir yoshda Chacha Sangunga urush qildik”⁴²⁴. “Kul tigin yigirma olti yoshda Qirg’iz tomonga lashkar tortdik”⁴²⁵. “Kul tigin yigirma yetti yasharligida qarluq xalq begonalashib ketgach, dushman bo’ldi”⁴²⁶. “Kul tigin shu jangda o’ttiz yashar edi”⁴²⁷. Ko’rinib turibdiki, Kul tigin tomonidan amalga

⁴²² Ш.Раҳимова. “Давлатёрбек” дostonининг тарихий асослари, типологияси ва поэтикаси: филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 15.

⁴²³ Кул тигин битиги / Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 27.

⁴²⁴ Ўша манба. 28-бет.

⁴²⁵ Ўша манба. 28-бет.

⁴²⁶ Ўша манба. 29-бет.

⁴²⁷ Ўша манба. 29-бет.

oshirilgan ishlar, hayotida yuz bergan o’zgarishlar, janglari, vatan ozodligi va uning sarhadlarini kengaytirish uchun olib borgan harakatlari qahramonning yoshi bilan bog’liq ravishda tasvir etilmoqda. Bunday misollarni bitiktoshlarning boshqa turlari, ya’ni Bilga hoqon bitigi, Begra yodnomasi, Oznachennaya qishlog’idan topilgan yodnoma, Oltinko’ldagi yodnomalarda ham uchratish mumkin. Xususan, Bilga hoqon bitigida yetti o’rinda, shuningdek Ubayt yodnomasi (“Olti yoshimda otamdan ayrildim”), Achur qishlog’idagi yodnoma (“O’n yetti yoshida shuhrati o’ldi”), Oznachennaya qishlog’idan topilgan yozuv (“Men o’ttiz besh yoshimda qahramon bo’ldim”), Oltinko’ldagi ikkinchi yodnoma (“O’ttiz sakkiz yoshimda vafot etdim”), Begra yodnomasi (“Yoshim oltmish yetti”), Uyuq tarlaq yodnomasi (“Sizlardan oltmish yoshimda ayrildim”), Uyuq turan yodnoma (“Oltmish uch yoshimda sizlardan ayrildim”)larida yosh bilan bog’liq ma’lumotlar keltiriladi. Demak, bitiktoshlarda ham qahramonning hayotida yuz bergan voqealar uning yoshi bilan bog’liq holda tasvir etilmoqdaki, buni xalq og’zaki ijodi ta’sirida yozma adabiyotda yaratilgan yoshnomalarning dastlabki unsurlari sifatida qabul qilish mumkin.

Ozarbayjon, usmonli turk, turkman va o’zbek adabiyotlarida bir qancha yoshnomalar yaratilgan. Turkiy adabiyotda yosh bilan bog’liq tasvirlarning berilishi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida yorqin ko’zga tashlanadi. Muallif asarning kirish qismida mazmun nuqtayi nazaridan yoshnomaga mos keluvchi misrallarni keltiradi:

*Qirq yil o’tsa kimning tiriklik oni,
Undan ketgan bo’lar yoshlik zamon*⁴²⁸.

Shuningdek, qahramon vujudida paydo bo’layotgan keksalik belgilari va jism zaiflashib borishining sabab-

⁴²⁸ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Янги нашр, 1971. – Б. 45.

chisi sifatida umr yillarini ayblaydi, ayniqsa, umrining elliginchi yilida quzg'un rangidek qop-qora bo'lgan sochlari oqara boshlaganidan shikoyat qiladi:

Ellik yosh menga ham, mana, qo'l sundi,

Quzg'untus boshimga oqqush ham qo'ndi⁴²⁹, -

deya sochining oqarganligini badiiy tasvir vositasi orqali bayon etish bilan birga:

Ne qilgan edim men, ey ellik, senga,

Nechun qarshi turding o'ch bilan menga? -

deb ellik yoshga nisbatan, bu yoshda inson surati va siynatida bo'ladigan o'zgarishlarga nisbatan isyon qiladi.

Oltmish chorlar, endi unga ketarman,

Pistirma bo'lmasa, bir kun yetarman.

Kimning yoshi oltmish, hisobga to'ldi,

Shodlik ketdi undan, yozi qish bo'ldi⁴³⁰, -

tarzida davom etadi Yusuf Xos Hojib. "Pistirma" – o'lim. Yoshi ellikdan oshgan, oltmishga yaqinlashgan inson har bir daqiqada o'limni xotirlab, umrining har bir lahzasi qadriga yetib yashashga harakat qiladi. Umr faslining qishiga qadam qo'yishi oltmish raqami vositasida ifoda etilmoqda.

Turkiy adabiyotda Ahmad Yassaviy bu janrni mazmun va shakl jihatdan yetuk namunasini yaratdi. Yoshnomada lirik "men"ning dunyoga kelishidan avvalgi holati, tug'ilishidan boshlab to umrining oxirigacha va hatto oxirat dunyosidagi ahvoli haqida ham ma'lumot beriladi.

Ayo do'stlar, quloq soling aydug'umg'a,

Ne sababdin oltmish uchda yerga kirdim?

Me'roj uzra haq Mustafo ruhum ko'rdi,

Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim⁴³¹, -

deb boshlangan ushbu yoshnomada lirik qahramon tug'ilmasdan avval ko'kda farishtalardan saboq

⁴²⁹ Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. – Б. 45.

⁴³⁰ Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. – Б. 45.

⁴³¹ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 16.

olganligini, Payg'ambar alayhissalom me'rojga ko'tarilganlarida uning ruhini ko'rib hayron bo'lganliklarini va Jabroil (a.s.)dan so'raganlarida, Jabroil (a.s.) ularga ummat ekanligi, to'rt yuz yildan keyin dunyoga kelib, payg'ambarimiz ishlarini davom ettirishligini aytganligi qayd etiladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu yoshnomada tasvir insonning real hayotida yuz bergan voqealar xususida emas, balki ruhiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. Bunday asarlar tasavvuf adabiyotida Yassaviygacha ham yaratilgan. Masalan, Imom G'azzoliyning "Al-Munqiz" asarida komillikka intilgan insonning bu yo'lda boshidan kechirgan ruhiy hodisalari tarjimai hol tarzida bayon etilgan. O'z ruhini takomillashtirish – komillikka erishish yo'lida dunyoqarashi, ruhiyatida ro'y bergan o'zgarishlarni va ruhiy tajribalarni badiiy jihatdan tasvirlash esa turkiy adabiyotda Ahmad Yassaviy ijodidan boshlangan. Yassaviyning ushbu yoshnomasi mazmun nuqtayi nazardan insonning ruhlar olamidan oxirat dunyosiga qadar bo'lgan umr yo'li haqida hikoya qiladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, yoshnoma xarakteridagi tasavvufiy qarashlar Yassaviy hikmatlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Tasavvufda tolibning tariqatga kirishi va murshidga ergashishi "valodat" (tug'ilish) atamasi bilan yuritiladi. Bunga "valodati soniya", "valodati ma'naviya", "valodati ruhiya" nomlari berilgan. Iso payg'ambarga nisbat berilgan bir ifodaga ko'ra, inson ikkinchi marta tug'ilmasdan turib, malakut olamiga yuksala olmasligi qayd etiladi. Birinchi tug'ilishda moddiy olam bilan bog'langan inson ikkinchi tug'ilishda ma'no olami bilan aloqa o'rnatadi. Demak, Yassaviy yoshnomasi muallifning hayot yo'li haqida emas, balki erishgan tasavvufiy tajribalari haqida, ruhiy takomili haqida hikoya qiladi.

Yoshnomaning keyingi to'rtliklariga e'tibor qaratsak, Payg'ambarimizning uni "farzandim", deya atashlari, barcha ruhlarning Yassaviy ruhiga salom berishi, Al-

lohning rahmatiga erishganligi haqida xabar kelganligi, ona qorniga tushishi, ruh kirishi, vujudi junbushga kelib, hatto suyaklari "Alloh" deya zikr aytganliklari tasvir etilgan.

*To'qquz oyu to'qquz kunda yerga tushtum,
To'qquz soat turolmadim, ko'kka uchtum...*

Insonning dunyoga kelishi anatomiyada ham to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat – qirq hafta ekanligi ayon. Ammo nega lirik qahramon ruhi darhol "ko'kka uchdi"? Bundan keyingi tasvirlar yanada ajablanarli. E'tibor qiling: Arshu Kursi poyasini quchoqlash, ruhlardan ulush olish, payg'ambarlarning kelib uni ko'rishlari, chiltanlar bilan uchrashuv, to'rt yoshida Muhammad (s. a. v.)dan xurmo olishi, Xizr alayhissalom bilan do'stlashish, besh yoshida doimiy toat-ibodat qilishi, ro'za tutishi, zikr bilan mashg'ul bo'lishi, olti yoshida xaloyiqdan qochib xilvatga kirishi, farishtalardan saboq olishi, yetti yoshida Arslonbob bilan uchrashuvi, sakkiz yoshida sakkiz yo'lning ochilishi – bularning barchasi ruhiy hayot bilan bog'liq tushunchalar va o'zgarishlardir.

Masalan,

*To'rt yoshimda haq Mustafo berdi xurmo,
Yo'l ko'rsattim, yo'lg'a kirdi necha gumroh.*

E'tiborni "xurmo"ga qaratamiz. Yassaviy hikmatlarining bir necha o'rinlarida bu timsol keladi va Muhammad Mustafo alayhissalomdan omonat bo'lgan xurmoni Arslonbob orqali Yassaviyga yetib kelganligi anglashiladi. Yana bir o'rinda:

*Og'zim ochtim, soldilar, xurmo isi qildi mast,
Ikki olamdin kechib, valloh bo'ldim haqparast, –*

deydi. Albatta, bunda xurmo oddiy meva bo'lmay, ma'naviy tuhfa ishoradir. Qur'oni karimda: "(Mana shu qurib qolgan) xurmo shoxini silkitgin, u senga yangi xurmo mevalarini to'kar"⁴³², – deyiladi. Ba'zi mufasssirlar

⁴³² Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Марям" сураси. 25-оят. – Тошкент: Ислом университети, 2001. – Б. 306.

bu yerdagi "xurmo" so'zini ilohiy ma'rifat va haqiqatlar, yaxshi axloq va mushohada sifatida e'tirof etadilar. Shuning uchun ham Muhammad payg'ambarimiz tomonidan Arslonbob vositasida yetkazilgan xurmo xulq-atvor, irfon, ilohiy ishq va ma'rifat ekanligi ta'kidlanadi⁴³³.

Sakkizimda sakkiz yondin yo'l ochildi,

Hikmat ayt, deb boshlarimg'a nur sochildi, –

deydi Yassaviy sakkiz yosh bilan bog'liq ma'lumotlarni berishda.

Yo'l – Allohga eltuvchi, unga yaqinlashtiruvchi har bir narsaning ramziy nomidir. Allohga bog'lovchi yo'lar juda ko'p. Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida aytilishicha, "Tengri taologa yo'llar adadi osmonning yulduzlari adadidin ko'prakdur"⁴³⁴. Turk olimi Adham Jabaji o'g'lining e'tirofiga ko'ra, bu yerda yo'lning sakkizta bo'lishi sakkiz jannatni ko'rsatish uchundir⁴³⁵. Nasafiyning yozishicha, "jannatning sakkiz eshigi haqidagi so'zlar to'g'ridir. Bular insondagi besh tuyg'u (ko'rish, eshitish, ta'm bilish, his qilish, to'qinish) va xayol, fahm hamda aqlidir. Chunki inson nimani anglasa, shu besh "eshik" orqali anglaydi. Aql ana shu yetti tuyg'u bilan birga bo'lmasa, ular aqlga bo'ysunmay, vujudga tobe bo'ladi. Agar aql ularga hukmini o'tkaza olsa, ul sakkiz birdaniga jannat eshigiga aylanurlar"⁴³⁶. Ammo yoshnomadagi ushbu misralar Yassaviyning yoshligidayoq besh asosiy tuyg'u bilan bir qatorda, taxayyul, fahm va aql-idrokda ham balog'at

⁴³³ Bu haqda qarang: Мустафо Тахрали. "Девони ҳикматда диний-та-саввуфий асослар / Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва анъаналари. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2001. – Б. 232.

⁴³⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 184.

⁴³⁵ Qarang: Аҳмад Яссавий: ҳаёти, ижоди, анъаналари. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2001. – Б. 97.

⁴³⁶ Азизиддин Насафий. Инсони комил. – Истанбул, 1990. – Б. 79.

kasb etganligidan dalolat beradi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Komillikka erishish yo'lida o'zini noqis deb bilish, o'z-o'zini malomat aylash hali erishish mumkin bo'lgan komillik darajalari borligidan darak beradi. Ana shundagina inson komillik yo'lida davom etadi. Yassaviy ham to'qqiz yoshida o'zini noqis deb biladi va "tabarruk deb" iltifot ko'rsatganlardan qochishga harakat qiladi:

*To'qquzimda to'lg'onmadim egri yo'lg'a,
Tabarruk deb olib yurdi qo'ldin qo'lg'a.
Quvonmadim bu so'zlarga, qochdim cho'lg'a,
Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim⁴³⁷.*

Keyingi to'rtliklarda ilm yo'lida sobitqadamlik, behuda orzu-havaslardan kechish, nafsga qarshi kurashish, kibrdan xoli bo'lish – "tuproqsifat bo'lish", jannatdagi huru g'ilmonlar xizmatida qo'l qovushtirib turgan bo'lsa-da, Alloh diydori uchun toat-ibodatga sobit bo'lish singari holatlar tasvirini beradi.

*O'n sakkizda chiltan birla sharob ichtim,
Zikrin oytib, hozir turub ko'ksim teshdim.*

Chiltan – olamni ma'naviy jihatdan boshqarishga mas'ul bo'lgan kishilar guruhi, qirqlar. Chiltanlar bilan birga sharob ichish – Alloh muhabbatining qalbga qo'yilishidan darak beradi.

Yassaviy o'n to'qqiz yoshidagi ruhiy tajribalari haqida yozar ekan, yetmish maqomga erishganligini qayd etadi. Maqom – arabcha so'z bo'lib, istiqomat qilmoq, yashamoq ma'nosini bildiradi. Tasavvufiy mazmunda maqom solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Ya'ni, inson farzandlarining yashash joyini emas, kuchi yetgunga qadar kamolga yetishi uchun biror maqomga erishishini bildiradi. Qur'oni karimning "Vas-soffot" surasida maqom so'zi zikr etilgan bo'lib, "Bizlarning har birimiz uchun aniqki, ma'lum bir maqom

bordir"⁴³⁸ – deb buyurilgan. Zero, har bir payg'ambar o'ziga xos maqom egasi bo'lib, Odam (a. s.)ning maqomi tavba, Nuh (a. s.)ning maqomi zuhd, Ibrohim (a. s.) niki taslimiyat, Muso (a. s.)niki inobat (gunohdan qo'l tortish, tavba qilish, tazarru'), Dovud (a. s.)ning maqomi huzun (hazinlik), Iso (a. s.)ning maqomi rajo, Yahyo (a. s.)niki xavf, Muhammad (s. a. v.)ning maqomi esa zikr edi. Hujviriyning ta'kidlashicha, payg'ambarlar maqomlarning hukmini bayon etish va o'z yo'llarini tushuntirish uchun yuborilgandirlar⁴³⁹. Ilohiy amrlarni tom ma'noda joyiga qo'yish orqali maqomlarni egallash mumkin. Maqom va hol tushunchalari bir-biriga bog'liq va shu bilan birga, o'zaro farqli hamdir. Najmiddin Kubro "Favoyih ul-jamol" asarida holni sayr-u safar sababiga, maqomni esa yo'ldagi bekatga, holni qushning qanotiga, maqomni uning oshiyoniga o'xshatadi⁴⁴⁰. Maqomga riyozat chekish va mashaqqat ila erishiladi. So'fiylar nazarida ilohiy amrlarni haqiqiy, tom ma'noda joyiga qo'ymoq orqali maqomni qo'lga kiritish mumkin. Tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo singari tariqat maqomlariga muayyan tartib va talab asosida erishiladi. Maqomning bu turlari insonni ma'naviy komillikka da'vat etuvchi xususiyatga egadir⁴⁴¹. Nabi va rasullarning jami bir yuz yigirma to'rt ming maqom keltirganliklari qayd etilgan bo'lsa-da, Yassaviyning o'n to'qqiz yoshida yetmish maqomni qo'lga kiritganligi hali erishilajak maqomlar borligiga ishoradir. Shuning uchun ham yigirma yoshdagi tajribalari haqida gapirganda "Yoshim yetti yigirmaga o'tdim maqom...", – deydi. Yigirma bir yoshida o'z holidan qo'rqish (xavf) xususida

⁴³⁸ Куръони карим маъноларининг таржимаси. 37/164. – Тошкент: Ислон университети, 2001. – Б. 452.

⁴³⁹ Нувирий. Кеşful Маhcüb. – Їstanbul, 1999. – S. 251.

⁴⁴⁰ Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – Б.149.

⁴⁴¹ Qarang: Жумаева С. Мақом ва ҳол таносиби // Ўзбек тили ва адабиёти. 2016. № 1. – Б. 57-60

⁴³⁷ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба . – Б. 19.

soʻz borsa, yigirma ikki yoshida fano (“Bandaning qilgan ishlarini oʻzidan emas, Allohdan deb bilishi”. Ibn Arabiy) maqomiga koʻtarilganligini aytib oʻtadi.

*Ayo doʻstlar, yoshim yetti yigirma uch,
Yolgʻon daʼvo toatlarim barchasi puch.
Qiyomat kun na qilgʻaysan barahna – luch⁴⁴²,
Ul sababdin Haqqa sigʻnib keldim mano.⁴⁴³*

Bu yoshda daʼvoda qochish bor. Qilgan toat-ibodatlarining hech nimaga arziyasligidan, qiyomat kunidagi tarozuda gunohlar pallasining ogʻir kelishi va sarmoyasiz qolishdan qoʻrquv aks etgan. Ushbu misralarni tahlil etar ekan, A.Jabajioʻgʻli shunday yozadi: “Oʻz ayb-u nuqsonini koʻra bilish komillikka erishganlikning dalolatidir. Garchi mazkur misralar zohirda salbiy koʻrinsa-da, mohiyatan teran va maʼnodordir”.⁴⁴⁴ Yigirma toʻrt, yigirma besh yoshlarida oʻzini gunohkor sanagan Yassaviy yigirma olti yoshida pirsiz qolganligini bayon etsa, yigirma yetti yoshida yana pirga ergashib, turli sirlarga guvoh boʻlganligini qayd etadi. Yigirma sakkiz yoshida sidq maqomiga koʻtarilganligini, yigirma toʻqqiz-oʻttiz bir yoshlarida toat-ibodat va zikrda sobitqadamlik qilganligini, keyingi yoshlarda ilohiy rizolikni qozonish yoʻlidagi harakatlarini ketma-ketlikda ifoda etadi. Olimlik martabasiga koʻtarilganligi oʻttiz toʻrt yoshi bilan, maʼnaviy taʼlim-tarbiya ishlari bilan shugʻullanganligi oʻttiz besh yoshi bilan, kamolot pillapoyalaridan ilgari lab borganligi oʻttiz olti yoshi bilan bogʻliq holda tasvirlanadi. Bu yoshlarda erishgan maʼnaviy kamolot darajalari ancha yuqori boʻlsa-da, ammo ular mutasavvifni qoniqtirmaydi va shuning uchun ham:

*Oʻttiz yetti yoshqa kirdim, uygʻonmadim,
Insof qilib Olloh sari toʻlgʻonmadim,*

⁴⁴² Yalangʻ ochlik holati. Tashqi koʻrinish bilan izohlanadi.

⁴⁴³ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 22.

⁴⁴⁴ Хожа Аҳмад Яссавий: ҳаёти, ижоди ва анъаналари. – Тошкент, Адабиёт жамғармаси, 2001. – Б. 103.

Saharlari zori qilib ingronmadim,

Tavba qildim, Xojam qabul qildi, doʻstlar⁴⁴⁵, –

deya oʻzini malomat qilishda davom etadi. Tasavvufda vaqt tushunchasi juda qadrli. Vaqt – oʻtmish va kelajakni bogʻlovchi, ichida yashalgan bir zamondir. Solik uchun vaqt shunday bir narsaki, u bilan moziy va mustaqbal, oʻtmish va kelajak tushunchasidan forigʻ boʻladi. Tasavvufga oid bir manbada aytilishicha, “Haqdan bir vorid qulning qalbiga kelar, uni sirr holiga yetkazar. Uning kashfida na moziy, na mustaqbal xotiri qolur”.

Abu Said Xarroz (r. a.) derki: “Aziz va qiyomatli boʻlgan vaqtingni eng aziz va eng qimmatli boʻlgan narsadan boshqaga mashgʻul etma. Kishi uchun muhim jihat eng aziz narsani moziy va mustaqbal orasiga (hozirgi damga) mashgʻul etishidir. Chunki hazrati Paygʻambar (s. a. v.) “Mening Alloh bilan bir vaqtim bordirki, na mukammal bir malak, na-da mursal bir nabi men bilan birga u vaqtning ichiga sigʻmas”, – deb taʼkidlagandir. Yaʼni Alloh bilan shunday bir onim va zamonim bordirki, u vaqtda mening koʻnglimdan oʻn sakkiz ming olamdan bir narsa kechmas, mening koʻzimga bularning hech biri koʻrinmas”. Bundan maʼlum boʻladiki, Meʼroj kechasi yer va samo mulkini u kishiga koʻrsatganlarida, paygʻambarimiz qaytib hech narsaga boqmaganlar. “Muhammadning koʻzi chetga oqqani ham yoʻq, oʻz haddidan oshgani ham yoʻq” (Qurʻon. 53/17), deya zikr qilinishdan maʼno shudir.

Junayd (r. a.)ning shunday deganligi naql qilinadi: “Choʻlda tikanli bir daraxtning tagida oʻtirgan darveshni koʻrdim. Darvesh qoq yerda, juda ayanchli bir ahvolda oʻtirar edi.

– Ey birodar, seni bu yerda oʻtirishga undagan narsa nima? – deb soʻradim. U shunday javob berdi:

– Bilki, mening bir vaqtim bor edi. U bu yerda zoye boʻldi. Endi shu yerda oʻtirib, uning gʻam-alamini chekarman.

⁴⁴⁵ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 25.

– Qancha vaqt bo'ldi?

– O'n ikki yil bo'ldi. Endi shayx himmat qilsa, balki vaqtim bo'lur va murodimga yetkayman.

Junayd deydiki, yo'limda davom etdim. Haj amalini ado qildim. O'sha darveshni ham duo qildim. Duo qabul bo'ldi, darvesh murodiga yetishdi. Makkadan qaytishda darveshning yana o'sha yerda o'tirganini ko'rdim.

– Ey juvonmarg! U vaqtini takror boshingdan kechirding. Shunga qaramay, joylashgan joyingdan nechun qimirlamassan? – dedim. U shunday dedi:

– Ey shayx, vahshat va qiyinchilik mahali sarmoyam yo'qolgan bir yer bo'lgani uchun bu yerni quchoqlab, shu yerda qaror topgan edim. Endi sarmoyamni takror qo'lga kiritib, men uchun uns va na'sha holiga kelgan bu yerdan ayrilishim joizmikan? Men o'z tuprog'imni va badanimni bu yerning tuprog'i ila qorishtirarman, ya'ni shu yerda o'larman. Qiyomat kuni ma'naviy zavq va ruhoniylazmatim joyi bo'lgan shu yerdan boshimni ko'tararman"⁴⁴⁶. Zero, shuning uchun ham mutasavviflar orasida "Yaxshilik qilgan har bir inson sevilur, izzat keltirgan har bir makon va tuproq xushdir", kalimasi mashhur bo'lgan.

Vaqt ortga qaytmas va qaytarilmasdir. Shayx Najmiddin Kubro: "Vaqt keskir qilichdir. Agar keskir bo'lmaganida edi, holdan-holga o'tgunningga qadar seni kutgan bo'lardi. Holbuki, zamon o'tkir qilichdek harakatlanadi va o'z hukmini ijro etadi"⁴⁴⁷, – deydi. Kesmoq qilichning sifati ekanligidan vaqtning sifati ham kesmoqdir. Zero, vaqt moziy va mustaqbal ildizini kesib, yorning dardini ko'ngildan supuradi. Qilich bilan hamdam bo'lmoq va o'ynamoq tahlikalidir. Chunki qilich insonni yo podsho qiladi yoki mahv etadi. "Biror kimsa qilichga ming yil xizmat qilsa, yelkasida ko'tarib, uning hammoli bo'lsa-da, qilich kesish jarayonida sohibining bo'yni bilan boshqa biron bo'yni orasida

farq ko'rmas. Chunki qilichning sifati qahr etmakdir. Va uning qahr sifati sohibining irodasi bilan zoil o'lmas. Vaqt ham shundaydir". So'fiylarda shuning uchun ham vaqtga juda katta ahamiyat berilgan va ayniqsa, tahajjud namozi o'qiladigan vaqt juda muhim sanalgan. Yassaviy o'ttiz sakkiz-o'ttiz to'qqiz yoshlarida vaqtning qadriga yetmaganligidan faryod qilsa, qirq yoshida nafsqa qarshi kurash e'lon qiladi. Keyingi yoshlarda ma'naviy poklanish yo'ldagi harakatlar – ixlos, Allohni mushohada etish, ilohiy ishq o'tida yonish, ehtiyojsizlik singari holatlar tasvirini ko'ramiz. Doimiy ilohiy mazhurga intilgan, Alloh rizoligi yo'lida harakat qilgan mutasavvif ellik bir yoshidan boshlab o'z tarjimayi holi bayon etilgan to'rtliklarni "*Bir-u borim, diydoringni ko'rarmamu?*" – deya yakunlaydi. Demak, shu yoshdan boshlab vaslga intilish ilinji yanada kuchayib, qalbida Alloh jamolini mushohada etish orzusi to'lib-toshsa-da, andisha ham paydo bo'lmoqda. Bu andishani yo'qotish uchun ellik to'rt yoshida "*ma'rifat bozorida javlon uradi*", ellik beshda ishq o'tida kuyib-yonib, kulga aylanadi va nafs-u havodan qutilganligidan Yaratganga hamd-u sanolar aytadi ("*Bihamdulloh, diydor uchun ado bo'ldim*"). Ammo ellik sakkiz yoshdagi ma'naviy darajasini tasvirlar ekan, yana nafsni tarbiya qilish yo'lidagi qiyinchiliklardan so'z yuritadi. Jon berar chog'da Allohni zikr qilmaganligi uchun qiyomatda Allohdan mag'firat so'rashdan iymonini ifoda etar ekan, oltmish va oltmish bir yoshlarida qilgan amallaridan ko'ngli to'lmay, gunohlaridan qo'rquvga tushadi, Allohdan uyalgan holda, Undan madad tilaydi. Va nihoyat, "*Oltmish ikki yoshda Olloh partav soldi*", – der ekan, ilohiy nur soya-sida g'aflatdan forig' bo'lganligini, jon-u dili, aql-u hushi bilan "Alloh" deya zikrga kirishganligini so'zlaydi. Butun dunyodan aloqasini uzib, "Hu" qilichi bilan nafsini sindirganligi, "o'lmasdan burun o'lgan"ligini oltmish uch yoshi bilan belgilamoqda:

⁴⁴⁶ Хужвирий. Кўрсатилган манба. – Б. 519.

⁴⁴⁷ Нажмиддин Кубро. Кўрсатилган манба. – Б. 157.

*Oltmish uchda nido keldi: "Qul, yerga kir!"
Ham joningman, Jononingga ko'nglingni ber.
Shamshiri din qo'lg'a olib, nafsingni qir,
Biru borim, diydoringni ko'rarmamu?"⁴⁴⁸*

Guvohi bo'linganidek, Yassaviyning ushbu yoshnomasida ruhiy kamolotga erishish jarayonining ramziy tasvirini berish uchun raqamlarga murojaat qilinadi, shu nuqtayi nazardan ba'zi raqamlarning simvolik ishoralaridan foydalaniladi.

Ahmad Yassaviy "Me'rojnama" asarida Alloh taolo bilan Muhammad (s. a. v.) o'rtalarida bo'lgan suhbat mazmunini berar ekan, ummatlarning yoshlarini belgilash masalasini ham qayd etadi, qirq yosh "balog'at" yoshi sifatida berilganligini, undan keyingi yoshlarda esa inson har bir daqiqada ezgu ishlar bilan shug'ullanishga, orttirilgan tajribalarni amalda qo'llash, kishilarga yaxshilik qilish, savob amallar bilan shug'ullanishga vaqt ajratishi talab etiladi:

*Rasul aydi: tilagonim osiy ummat,
Balog'atdin qirq yoshini qilg'il rahmat,
Ey Xudoyo, sendin rahmat, mendin shafqat,
Chin ummatsen, eshitib durud ayting, do'stlar.*

Aslida, bu yosh hayotga teran boqish, tajribalardan xulosalar chiqarish va aql-farosat to'lishib, umr qoldig'ining g'animatligini ko'ra oladigan yoshdir. Bu yoshda kishi oxirat bozoriga kirar ekan, bu bozordan tezroq kerakli narsalarni xarid qilib qolmog'i lozim.

Yoshnomalarga xos ba'zi xususiyatlar – lirik qahramon yoshi bilan bog'liq holda uning ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlar tasvirini mumtoz shoirlarimiz ijodida ham uchramiz (Garchi yoshnomalar tuzilishiga ko'ra doston; bayt: g'azal va masnaviy; band shakllarida yaratilishi qayd etilgan bo'lsa-da, quyidagi baytlarni yoshnoma sifatida e'tirof etishdan uzoqmiz). Masalan, Alisher Navoiyning ushbu baytiga e'tibor qarataylik:

*Yoshing ellik bo'ldi, yuz qo'yg'il fano tufrog'ig'a,
Kim, shabob ayyomi ayshu beadablig' chog'i bas⁴⁴⁹.*

Buyuk mutafakkir nega qirq yoki qirq besh yosh emas, aynan ellik yosh xususida fikr bildirmoqda. E'tiborli jihati shundaki, ellik yosh inson umrining yarmi sifatida talqin etiladi. Yoshnomalarda bu yoshga to'lgan inson asta-sekinlik bilan zavolga yuz tuta boshlashiga ishora qilinadi, ellik yosh tasviri berilgan o'rinlarda qarilik va undan shikoyat mavzusi yetakchilik qilgan an'anaviy ruh va kayfiyat ta'siri ustunlik qiladi. Shuning uchun ham Navoiyning yuqoridagi misralarida yoshlikdagi o'yin-kulgu, ayshu-ishratlarni tark etib, ezgu va savobli ishlarni qilishga e'tibor qaratish lozimligi uqtirilmoqda. Ushbu bayt olingan g'azalning yaratilgan vaqtiga e'tibor qaratgan olim A. Abdug'afurov mazmunga ham to'xtalib: "Bu misralar Navoiyning ellik yoshida, shoirning o'z so'zlari bilan aytganda, qarilik yuzlanib, "fano" (yo'qlik) tufrog'ig'a yuz qo'yish" davri boshlanganida bitilganida ayricha ma'no va mazmun bordek. Gap shundaki, shoir fikricha, yoshlik ayyomiga ham, ayshu ishratga ham chek qo'yish vaqti yetdi. Endilikda bosib o'tilgan umrga sarhisob berilishi kerak"⁴⁵⁰. Yana bir o'rinda Navoiy o'zining ellik yoshga to'lgandan keyin yoshlikdagi kuch-quvvati qolmay, umrining qolgan qismini toat-ibodat bilan o'tkazishi lozimligini qayd etadi:

*Ey, ko'ngul, tut go'shaye emdi ibodat qilg'ali,
Qilmoq istar bo'lsang ellik yilg'i bo'lg'on hurmatim.*

Ogahiy lirik qahramoni ham yigitlik kayfiyatini havas qilmaslikning sababini yoshi ancha joyga borib qolganligi, ya'ni ellik yettiga to'lganligi bilan dalillaydi:

*Qilma havas, ey Ogahiy, emdi yigitlik ayshini,
Kim yetti umring muddati ellik yetti yosh ustina⁴⁵¹.*

⁴⁴⁹ Алишер Навоий. МАТ. 3-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 201.

⁴⁵⁰ Абдуғафуров А. Қалб қаъридаги қадриятлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – Б. 22.

⁴⁵¹ Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. Девон. – Тошкент: Адабиёт, 2022. – Б. 266.

⁴⁴⁸ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 30.

Yoshnoma janri bo'yicha tadqiqot olib borgan turk olimi Dog'an Qoyaning fikriga ko'ra, bunday asarlarda raqamlar orqali ifoda etilgan barcha yoshlar ham yashalishi shart emas, ular, xususan, 90-100 yoki yuzdan yuqori bo'lgan yosh ko'rsatkichlari ijodkorning tushuncha idrokiga ko'ra olinadi⁴⁵². Shoir 40-50 yosh oralig'ida bo'lsa ham 80-90 yoshlar haqida o'zi ko'rgan, eshitgan va his qilganlariga asoslanib fikr yuritar ekan, kitobxon yoki tadqiqotchi 80 va undan yuqori yosh ko'rsatkichlari bilan berilgan ma'lumotlarga qahramonning real yoshi sifatida yondoshmog'i lozim emas. Aks holda Ahmad Yassaviyning *"Yoronlardan fayz va futuh ololmadim, Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim"*, – degan misralariga asoslanib, Yassaviy 125 yil yashagan, degan aniq bo'lmagan xulosalar taqdim etilishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, yoshnomalarda raqamlarning o'ziga xos silsilasi keltirilgan. Ayniqsa, bir, ikki, uch, to'rt, yetti, o'n to'rt, qirq, ellik, oltmish, yetmish raqamlari mohiyati lirik qahramon hayotidagi muhim voqealar bilan bog'liq ravishda tasvir etiladiki, yoshnomalarni ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Raqamlar mohiyatiga e'tibor qaratilgan va raqam ramzlari bilan fikr yuritilgan yana shunday asarlar borki, ularda tasavvufdagi shariat, tariqat ma'rifat va haqiqat bosqichlari xususida, har bir bosqichdagi maqomlar haqida so'z boradi. Bu bosqichlar so'fiylarning Haq visoliga yetish yo'lidagi to'rt ma'naviy martabadir. Ba'zi tadqiqotchilar bu to'rt bosqichni saroy yoki qal'aning to'rt devoriga qiyos qilishadi⁴⁵³. "Marotibi arbaa" deb yuritiladigan bu bosqichlar aslida insonni o'z-o'zini isloh qilishga chorlaydi, ya'ni shariatda nafs isloh qilinsa, tariqatda qalb, ma'rifat va haqiqat bosqichlarida

⁴⁵² Dog'an Kaya. Âşık edebiyatında yaşnameler. Yetişkinlik ve Yaşlılık Gelişimi ve Psikolojisi. – İstanbul, 2012. – S. 574.

⁴⁵³ Abdurrahman Güzel. Dört kapı – kırk makam. – Ankara, 2023. – S.

esa ruh isloh etiladi. Bu to'rtala bosqich "to'rt eshik" nomi bilan tilga olinib, har bir bosqichda o'ntadan – jami qirq maqom bosib o'tilishi qayd etiladi. Tasavvuf adabiyotida tariqat arkonini qirq maqom asosida tasvir etilgan asarlar yaratilgan. O'zbek tasavvuf adabiyotida bunday asarlarning dastlabkisi Ahmad Yassaviy ijodida uchraydi⁴⁵⁴. "Faqrnoma" deb yuritiladigan va nasrda yozilgan ushbu asarda to'rt va qirq raqami yetakchilik qilib, to'rt eshik va qirq maqomni kechib o'tgan darvesh sayr-u sulukda komillik martabasini egallagan solik sifatida e'tirof etiladi. "Faqrnoma"da har bir bosqich va maqom haqidagi nazariy ma'lumotlar raqamlar zamiriga singdirilgan holda ifoda etilgan⁴⁵⁵.

Tasavvuf adabiyotida borliqning paydo bo'lishi va nihoyasiga yetishi hamda ular o'rtasidagi mavjudlikning tasavvufiy izohi berilgan asarlar ham borki, "davriya" deb yuritiluvchi ushbu asarlarda raqam va raqam mohiyati yetakchilik qiladi⁴⁵⁶. Bundan tashqari, "vujudnoma" nomi bilan ataluvchi asarlarda ham raqamlarga tayanilgan. O'zbek adabiyotshunosligida bu atama deyarli ishlatilmaydi. Vujudnoma mazmunidagi she'rlar ham yoshnoma atamasi bilan nomlanib, yoshnoma va vujudnoma bir xil mazmunda qo'llaniladi. Ammo, bizningcha, yoshnoma va vujudnomalar o'rtasidagi farqli jihatlar mavjud. Ozarbayjon adabiyotshunosligida vujudnomalar bo'yicha tadqiqot olib borgan olim Elmira Fikrat qizining ta'kidlashicha, vujudnoma atamasi nafaqat ozarbayjon adabiyotida, balki Turkiya adabiyotshunosligida ham qo'llaniladi, ammo olima turk

⁴⁵⁴ Yassaviy izdoshi bo'lgan Sulaymon Boqirg'oniy ham marobiti arbaa' xususida maxsus asar yozmagan bo'lsa-da, o'z asarlarida to'rt bosqich va undagi maqomlarga alohida e'tibor qaratgan.

⁴⁵⁵ Yuqorida bu xususda to'xtalib o'tganimiz sababli gapni muxtasar qildik.

⁴⁵⁶ Bu haqda qarang: Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеърлятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 97-104.

adabiyotshunosligida bu janrga nisbatan boshqacha ilmiy-nazariy qarashlar mavjudligini qayd etadi. Vujudnoma deyilganda, inson yaratilishining tasavvufiy mohiyatini sharh etgan asarlar nazarda tutiladi. Chunki vujudnomalarda inson a'zolari va ruhiy olami yanada ko'proq tasvir etilgan hamda tushuntirishga harakat qilingan. Turk olimi Teber Ömer Faruk vujudnomalarni hurufiylik qarashlari bilan bog'laydi: "Vujudnomalar dunyoviy unsurlarning har birini inson vujudidagi a'zolarining biriga o'xshatilishini va bu a'zolariga harflar bilan bog'liq holda diniy, tasavvufiy ma'nolarni yuklagan holda izohlangan hurufiy matnlardir. Bunga ko'ra, mutasavviflarning zubdai koinot deganlari inson vujudi, buyuk bir olam bo'lib, butun dunyoviy unsurlarni qamrab oladi. Insoni komil martabasiga erishgan kishilar "Vujudnoma"larning asoschilaridir"⁴⁵⁷.

Vujudnoma deganda aslida, inson yaratilishining tasavvufiy mohiyati sharh etilgan asarlar nazarda tutiladi. Zero, vujudnoma vahdati vujud ta'limotiga asoslanib yozilgan diniy-tasavvufiy asarlardir. Lug'aviy ma'noda vujud "bor bo'lish", "borliq"; "inson yoki hayvon gavgasi, tana" ma'nolarini anglatadi; istilohiy ma'noda esa "Vujud – insonning Olloh tomonidan yaratilishi, Yaratuvchining butun go'zalliklarini jam etishi"dir. Turk olimi Abdurahmon Go'zal vujudnoma janriga mansub bo'lgan asarlar ikki xil shaklda – nazmiy va nasriy shaklda bitilishini ta'kidlab, ularga Qayg'usiz Abdol, Sulaymon Chalabiy va Ozariylarning asarlarini namuna sifatida keltiradi hamda diniy-tasavvufiy turk adabiyotida Qayg'usiz Abdolning "Vujudnoma"si bu janrning yetuk namunasi ekanligini ta'kidlaydi⁴⁵⁸. Ushbu asarda insonning yaratilishi, nutfa holida ona rahmiga tushishi, ona qornidalik vaqti yetti sayyora tarbiyasi ta'sirida inson vujudiga aylanishi

⁴⁵⁷ Teber Ömer Faruk. Vücut-name Örneğinde Bektaşî Erkannamelelerinde Hurufî Unsurlar / Çukurova Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. Yıl 2013. Cilt: 13. Sayı 1: – S. 52.

⁴⁵⁸ Kaygusuz Abdol. Gülistan. – Ankara, 2022. – S. 114.

Qur'oni Karimning "Mo'minin" surasining 12-14-oyatlarida berilgan ilohiy ko'rsatmalar asosida tasvir etiladi. Shunisi e'tiborliki, inson dunyoga kelgunga qadar yetti sayyora unga homiylik qiladi, ular ta'sirida vujud shakllanib, inson qiyofasiga ega bo'ladi. Qayg'usiz Abdol "Vujudnoma" asarida yetti sayyoraning ta'siri va vazifalarini quyidagicha ifoda etadi: "Birinci – Zuhul tarbiyasida qon, ikkinchi – Mirrix tarbiyasida et, uchinchi – Zuhra tarbiyasida suyaklar yaraladi, to'rtinchi – Quyosh tarbiyasida ruh maydonga keladi, beshinchi – Utorid tarbiyasida harakat paydo bo'ladi, oltinchi – Oy tarbiyasida vujud yaraladi, yettinchi – Mushtariy tarbiyasida inson dunyoga keladi"⁴⁵⁹.

Bu turkumdagi asarlarda to'rt unsur, olti jihat, yetti sayyora, to'qqiz falak singari raqamli birikmalardan tashqari uch yuz oltmish yoki uch yuz oltmish olti tomir, to'rt yuz qirq to'rt so'ngak ifodalarini ham uchratamiz⁴⁶⁰. Qayg'usiz Abdolning yuqorida nomi qayd etilgan asarida odamning vujudi uch yuz oltmish olti tomir, yetti yuz yetmish yetti asab (nerv tolasi), to'rt yuz qirq to'rtta suyakdan iborat ekanligi qayd etiladi.

Turkiy adabiyotda vujudnoma janr darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa-da, ushbu turkumdagi asarlarga xos bo'lgan g'oya va qarashlar aks ettirilgan asarlar yaratilgan. Masalan:

*Ishq zikrini mag'zi jondin chiqarmasang,
Uch yuz oltmish tomurlaring tebratmasang,
To'rt yuz qirq to'rt so'ngaklaring gil qilmasang,
Yolg'onchidur, Haqqa oshiq bo'lg'oni yo'q*⁴⁶¹.

Yassaviyning yuqoridagi hikmatida keltirilgan raqamlar odam vujudidagi uch yuz oltmish tomir va to'rt yuz qirq to'rt suyak (so'ngak)ni ifoda etish uchun

⁴⁵⁹ Kaygusuz Abdol. Gülistan. – Ankara, 2022. – S. 8.

⁴⁶⁰ To'rt unsur, olti jihat, etti sayyora va to'qqiz falak jumllarining tasavvufiy ma'nolariga yuqoridagi fasllarda batafsil ma'lumot berilganligi sababli bu o'rinda ularga maxsus to'xtalmadik (Dj.S.).

⁴⁶¹ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 54.

qo'llanilgan. Ba'zi o'rinlarda tomir so'zi o'rnida "su" yoki "daryo" so'zlari, so'ngak o'rnida esa "tosh" yoki "tog'" so'zlari qo'llanishi mumkin. Ubaydiyning quyidagi misralariga diqqat qiling:

*Uch yuz oltmish daryo o'ta, yurmay kishi sud
aylamas,
To'rt yuz qirq to'rt tog'din oshib, borisindin o'ttum
mano.*

Nasriy vujudnomalardan farqli ravishda nazmda yaratilgan vujudnoma asarlarda inson vujudining yaratilishi jarayonlari tasvir etilar ekan, uch yuz oltmish (uch yuz oltmish olti), to'rt yuz qirq to'rt raqamlarining badiiy funksiyasi salmoqli ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, quyidagi vujudnomada jismning takomilga yetishi uch yuz oltmish olti tomir va to'rt yuz qirq to'rt suyak bilan bog'liq ekanligiga alohida urg'u berilmoqda:

*Rang to'kdi bir malak ustivor o'ldim,
Jismim takomilga yetdi, bor o'ldim.
Uch yuz oltmish olti pay, tomir o'ldim,
To'rt yuz qirq to'rt ustixonga yetishdim.
Yassaviy yana bir hikmatida*

*Og'zi aytmas, tili aytmas, dili aytar,
Uch yuz oltmish tomirlari larzon qilur⁴⁶², – deydi.*

Demak, uch yuz oltmish raqami inson tanasidagi tomirlar soni sifatida tilga olinmoqda. Hurufiy larga ko'ra, insonda 360 yoki 366 tomir bor. Ammo bunga nafaqat hurufiy matnlar, balki diniy-tasavvufiy asarlarda ham e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor singarilarning ijodlarida uch yuz oltmish yoki uch yuz oltmish olti tomirdan bahs yuritiladi:

*Uch yuz oltmish tomurlari nurga to'lur,
To'rt yuz qirq to'rt so'ngaklari bino bo'lur⁴⁶³.*

⁴⁶² Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 116.

⁴⁶³ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 301.

Yoki

*Ul uqbadin himmat birla oshomag'ing,
To'rt yuz qirq to'rt yoshing (birla) yoshomag'ing,
Uch yuz oltmish bandi bog'ing bo'shomag'ing,
Mehnat tortmay rohat tongi otmas bo'lur⁴⁶⁴.*

Yuqoridagi misolda ona qornida uch yuz oltmish tomirning va to'rt yuz qirq to'rt so'ngakning yaratilishiga ishora qilinadiki, insonning yaratilishi bilan bog'liq bu tushunchalarni ifoda etishda raqamlarga tayanliganligi o'z-o'zidan ayonlashadi.

Mumtoz adabiyotdagi ba'zi asarlarning yaratilishida raqamlar asos vazifasini bajarganligi ma'lum. Raqam yetakchilik qilgan janrlardan biri yoshnoma bo'lib, bunday asarlarda muallifning tarjimaiy holiga oid ma'lumotlar keltiriladi, asar qahramoni hayotida yuz bergan muhim voqealar yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda bayon etiladi. Dastlab xalq og'zaki ijodida, keyinchalik bitiktoshlar matnlarida va qadimgi yozma adabiyot namunalarida uchraydi. Shuning uchun ham uning genezisi va taraqqiyotini folklor asarlari, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari va "Qutadg'u bilig" singari turkiy adabiyotning qadimgi davri namunalari bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Yoshnomalarda raqamlarning o'ziga xos silsilasi keltiriladi. Ayniqsa, bir, ikki, uch, to'rt, yetti, o'n to'rt, qirq, ellik, oltmish, yetmish raqamlari mohiyati lirik qahramon hayotidagi muhim voqealar bilan bog'liq ravishda tasvir etiladiki, yoshnomalarni ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lirik qahramon yoshi bilan bog'liq holda uning ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlar tasviri bu turkumdagi asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari va "Qutadg'u bilig" kabi qadimgi turkiy adabiyot namunalarida yoshnomalarga xos unsurlar keltirilgan bo'lsa-da,

⁴⁶⁴ Хожа Аҳмад Яссавий. Кўрсатилган манба. – Б. 298.

uning yozma adabiyotdagi yetuk namunasi Ahmad Yassaviy yaratgan. "Devoni hikmat"dagi yoshnomada Ahmad Yassaviy turk xalqlar adabiyotida birinchi marta tasavvufiy kontekstda ruhning sayrini yoshlar uzra ifoda etgan. Shuning uchun ham bu yoshnoma oddiy tarjimayi hol yoki qahramonning hayotida yuz bergan muhim voqealar bayonidan iborat bo'lmay, ruhiy yuksalish tasviri aks etgan asardir. Yassaviyning tasavvufiy-ruhiy yoshnomasi quyidagi ketma-ketlik asosida qurilgan: Me'roj – bazmi alast – ona botini – dunyo hayoti (1-63 yosh) – chillaxonada ruhning yuksalishi. Aytish mumkinki, bu ketma-ketlik keyingi davrlarda yaratilgan tasavvufiy ruhdagi barcha yoshnomalar uchun namuna sifatida qabul qilingan. Tasavvuf adabiyotida mazmun nuqtayi nazaridan insonning ruhlar olamidan oxirat dunyosiga qadar bo'lgan umr yo'lidan bahs yuritadigan, shakl jihatdan xilma-xil bo'lgan bunday asarlarda yaratilish jarayonining simbolik tasviri uchun raqamlarga murojaat qilinadi. Shu nuqtayi nazardan ba'zi raqamlarning ramziy ishoralaridan foydalaniladi. To'rt, yetti yoki to'qqiz, o'n ikki singari raqamlar mohiyatiga singdirilgan ma'nolar inson yaratilishi va bu dunyodagi umr yo'lini belgilashda xizmat qildirilgan.

Inson yaratilishining tasavvufiy mohiyati aks etgan vujudnomalarda to'rt unsur, olti jihat, yetti sayyora, to'qqiz ko'k, uch yuz oltmish olti, to'rt yuz qirq to'rt singari raqamli birikmalar ishlatiladi. Ifoda etilayotgan har bir raqam mohiyati tasavvuf ta'limoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonning yaratilishi, vujudning shakllanishi va inson qiyofasiga kelishi, inson tanasida muhim ahamiyat kasb etgan tomir va suyaklar miqdori raqamlar vositasida tasvir etilgan. Shuning uchun ham vujudnoma mazmunidagi asarlarni, xoh u hikmat bo'lsin, xoh g'azal tarkibida kelgan alohida bir bayt bo'lsin, raqamlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Raqamlar simbolikasi va lirik obrazlilik

Sharq shoirlarining aksariyati she'riyatning mazmun va shakl komponentlari hamda ularning o'zaro aloqasi xususida juda ko'p mulohazalarni bayon etib ketishgan. Albatta, bunday mulohazalarda she'riyatda shakldan ko'ra mazmun ustun bo'lishi zarurligiga qayta-qayta e'tibor qaratilgan, nafaqat ilmiy-nazariy fikrlarda, shu bilan birga, ijod jarayonida ham shu tamoyilga amal qilingan. Alisher Navoiyning:

*Nazmki, surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dag'i dilkash anga, –*

degan misralari ana shunday mulohazalarning o'zagini tashkil etib, turkiy adabiyotning yirik vakillari tomonidan ilgari surilgan she'rda shakl mukammalligi va mazmun go'zalligining birligi to'g'risidagi fikr va xulosalar davomi sifatida hanuzgacha o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Agar raqam tatbiqi nuqtayi nazaridan mumtoz shoirlar tajribalariga diqqat qilinsa, ular raqamlardan u yoki bu mavzu, ma'lum bir tushuncha va haqiqatga doir mazmunni ta'kidlash usuli sifatida foydalanganliklariga ham ishonch hosil qilamiz. Nasimiyning quyidagi misralariga diqqat etaylik:

*Yetti yerdur, yetti ko'kdir, yetti daryo, yetti xat,
Yetti mushaf, yetti oyat, yadi-bayzosi nedur?⁴⁶⁵*

Olam va odamning yaratilishi haqidagi ushbu misralar harakatini go'yo yetti raqami belgilab turganday. Baytda yetti raqamining olti marta takrorlanishi hamda "yadi bayzo" jumlasini bilan sanoqlar sonining yettita-ga yetkazilishi birinchidan, fikrni ixcham ifoda etishga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, raqam mohiyatiga e'tibor qaratish va she'r poetikasini go'zallashtirishga xizmat qilgan. Raqamlar zamiridagi haqiqatlar bilan

⁴⁶⁵ Imadoddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. 1 cild. – Bakı: Lider nəşriyyat, 2004. – S.151.

qiziqish, ularning ramziy-majoziy ma'nolarini, raqam mohiyatini yoritish orqali badiiy g'oyani ilgari surish va she'rda ma'no ifodalash tajribasi ham ilmsiz amalga oshmagan, albatta. Lekin mumtoz poetika qonun-qoidalari va talablariga rioya qilmasdan raqam va uning mohiyatiga daxldor mazmunni ta'sirli shaklda tasvirlashning ham imkoni yo'qdir. Chunki badiiy san'at asosida ma'noning umuman bir ifoda yoki tasviri to'g'risida emas, balki uning qanday tasvirlanishi haqida qanoat hosil qilish kerak. Mumtoz ijodkorlarimiz asarlarida raqam sirlarini yoritishda ham, raqamga tayanib ishqiy holat, kayfiyat yoki haqiqatlarni o'ziga xos rang va manzaralari bilan gavdalantirib berishda ham o'nlab badiiy san'atlardan unumli foydalanilgan.

Raqam asos bo'lgan badiiy san'atlar xilma-xil bo'lib, har bir ijodkor bunda o'z mahoratini namoyon eta olgan.

Kirdi tufroqqa hilol, ochdi to'lun oyg'a jamol,

*O'n to'lun oyning qirog'idin chu olding o'n hilol*⁴⁶⁶.

Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lgan ushbu baytda ma'shuqaning husn-jamoli to'lin oy singari ochilgani ta'rifi berilgan. Shoir ta'rifda "o'n" raqamiga tayanar ekan, hilol shunchaki to'lin oyga aylanmadi, balki "o'n to'lun oyning" chetidan olingan o'n hilol go'yoki birlashdi, deydi. Bu esa o'quvchida taassurotni kuchayishini ham ta'minlaydi.

Charx har oy boshima solmish qoshingdan bir xayol,

*Bu jihatdandur har oy boshinda o'lmoq bir hilol*⁴⁶⁷.

Fuzuliyning ushbu baytlarida Navoiyga izdoshlik seziladi. "Sening qoshing xuddi hilol – yangi chiqqan oy singari. Oy har oyning boshida hilol ko'rinishida paydo bo'lishi bejiz emas. Chunki hilolga o'xshash qoshing boshimga har oy bir xayol – ishqni soladi". Bunda ham baytning asosiy badiiy yuki "bir xayol" va "bir hilol" birikmalariga yuklanganligini sezish qiyin emas.

⁴⁶⁶ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 376.

⁴⁶⁷ Muxammad Fuзулий. Девон. – Тошкент: F. Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968. – B. 198.

Mumtoz shoirlar ijodida xalq orasida mavjud bo'lgan obrazli ifodalarni, oddiy hayotiy o'xshatishlarni ham uchratamizki, bu lirik qahramonning ma'lum bir holat va kayfiyatini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Masalan,

Ko'zum ucharki, humoyun yuzungni ko'rgay bot,

*Biaynih anga kirpiklar o'lmish ikki qanot*⁴⁶⁸.

Kiprikning nashtarga, o'qqa qiyos qilinishi ko'plab uchraydigan tashbehlardan. Ammo ularning qanotga o'xshatilishi "ko'z uchishi" iborasi bilan bog'liq va shu bilan birga, Navoiy badiiy tafakkurining o'ziga xosligidan darak beradi.

Hosilim ruxsoru la'lu chashmu g'amzang o'lmasa,

*Umr bir on, bir nafas, bir lahza, bir dam o'lmasun*⁴⁶⁹.

Yuqoridagi misralarda laff va nashr hamda takrir san'atlari mahorat bilan qo'llanilganki, bunda bir raqamning takrorlanishi natijasida aynan vaqtning eng kichik birligi sanalgan dam va lahzalarga urg'u berilganligini sezishimiz mumkin⁴⁷⁰. Birinchi misradagi ruxsor, la'l, chashm, g'amza so'zlariga mutanosib ravishda ikkinchi misrada bir on, bir nafas, bir lahza, bir dam singari raqamli birikmalar ketma-ketligi berilgan. Adabiyotshunos olim Yo.Is'hoqov "So'z san'ati so'zligi" kitobida Boburning laff-u nashr san'ati qo'llanilgan ikkita g'azaliga alohida e'tibor qaratadi. Mana o'sha g'azallar:

Xating bila yuzungu kokiling sening, ey jon,

Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon...

Ikkinchisi:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,

She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati...

⁴⁶⁸ Алишер Навоий. МАТ. Йигирма томлик. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 168.

⁴⁶⁹ Мухаммад Фузулий. Кўрсатилган манба. – Б. 259.

⁴⁷⁰ Vaqtning eng kichik birligi sanalgan dam va lahzalarga mutasavvif ijodkorlar, xususan, Alisher Navoiy alohida e'tibor qaratgan. Bu haqda batafsil ma'lumot uchun qarang: Жумаева С. Алишер Навоий шеърларида рамзий рақамлар талқини / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдик. 29-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – Б. 217-221.

Olim birinchi g'azalning ilk to'rt baytida ketma-ket laff-u nashr san'ati ishlatilganligiga e'tibor qaratsa, besh baytdan iborat bo'lgan ikkinchi g'azal butunlay ushbu san'at asosida qurilganligini ta'kidlaydi. Shuni e'tiborliki, bu g'azallarda laff-u nashr san'ati uch raqami asosida yaratilgan, ya'ni ikkala g'azalda ham uch xil tushuncha berilgan va shu uch tushuncha sharhlangan. Birinchi g'azalning dastlabki misrasida tushunchalar (laff) ketma-ket berilgan bo'lib, nashrlar ikkinchi misralarda "biri..., biri..." tarzida izohlangan bo'lsa, ikkinchi g'azalning birinchi baytida keltirilgan lafflar keyingi baytlarda ketma-ket izohlangan. Lirik qahramon aytmoqchi bo'lgan fikr uch raqami vositasida xulosalangan:

*Gar bu uch ishni muvofiq bilsang ul uch vaqt ila,
Mundin ortuq bo'lmagay, Bobur, jahonning ishrati.*

Baytda uch raqamining takrori takrir san'ati uchun yo'l ochgan. Raqamlarni takrorlash orqali hosil qilingan takrir san'atining yana bir namunasini Turdi ijodida ko'ramiz:

*Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'rgurlik, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.*

Ijtimoiy-siyosiy ohanglar yetakchilik qilgan ushbu baytda bir raqamining takrori orqali birdamlikka chaqirish, birlik g'oyalari ifoda etilgan bo'lsa, quyidagi baytda raqamlarni takrorlash yo'li bilan lirik holat tasviri yaratilganligini ko'ramiz:

*Bir jafodin yuz o'gursang, ming vafodin kech bu dam,
Bir vafo ko'rsang, Uvaysiy, ming muqarrardur sazo*⁴⁷¹.

1-misra boshida kelgan "bir" raqamining 2-misra boshida takrorlanishi, birinchi misraning uchinchi ruknida kelayotgan "ming" raqamining keyingi misraning ayni o'sha ruknida takrorlanib kelishi – takrir. Ammo "bir jafo" bilan "ming vafo", "bir vafo" bilan "ming sazo" raqamli birikmalarini zidlash (tazod) orqali ma'no

⁴⁷¹ Увайсий шеърятдан. – Тошкент, 1980. – Б.13.

kuchaytirilgan. Bunda albatta, raqamlarning tazodiy xarakteridan foydalanib, maqsadga oson yo'l bilan yetilgan.

Mumtoz she'riyatimizda raqamlarga singdirilgan ma'no va poetik san'at mutanosibliigi maxsus tekshiriladigan masaladir. Raqam poetikasi, raqamlar ramziyligidan foydalanish va raqam mohiyatini she'riyatda ifoda etish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Shuningdek, she'rxon ham ma'lum bir tayyorgarlik va bilimga ega bo'lishi lozim. Ijodkorlar asarlaridan joy olgan raqamlarni shunchaki qayd qilish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi, albatta. Bunda poetik obraz va obrazli ma'no mag'zini yoritish nuqtayi nazaridan ish yuritilsa, ko'zlangan natijalar qo'lga kiritiladi. Bu holat, ayniqsa, mumtoz adabiyotda ko'p qo'llanilgan talmeh san'ati bilan bog'liqlik kasb etadi. Ma'lumki, she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilish san'ati talmeh deb yuritiladi⁴⁷².

*Olti oyliq Nuh to'fonicha buzg'ay dahrni,
Olti kun qolsa ko'zum yoshi bu tug'yoni bila*⁴⁷³.

Ushbu misralarda ham Nuh (a.s.) bilan bog'liq voqea-ga ishora bor. Odamlarni iymonga da'vat qilib, maqsadiga erisha olmagan va sarosimaga tushgan Nuhga "Kema yasagin", – deb vahiy keladi. Kema tayyor bo'lganda, non yopayotgan bir kofirning tandiridan suv chiqadi. Bu to'fon boshlanishining alomati edi, Nuh oilasini, bir qancha mo'minlar (ba'zi manbalarda saksonta deb ko'rsatiladi)ni, har tur hayvondan bir juftdan olib, kemaga chiqadi. To'fon olti oy davom etadi. Allohning qudrati bilan olti oydan so'ng bo'ron to'xtaydi. Astasekinlik bilan yer yuzida suvdan forig' bo'lgan joylar paydo bo'la boshlaydi va kemadagilar yerga tushib, yangidan hayot boshlaydilar. Shuning uchun ham Nuhni

⁴⁷² Bu haqda qarang: Раҳмонов В. Кўрсатилган асар. – Б.70-75.; Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент, 1996. – Б. 254-255.

⁴⁷³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 2-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 568.

“Ikkinchi Odam” deb ta’riflaydilar. Nuhning to’qqiz yuz ellik yoki ming yil umr ko’rganligi haqida qarashlar mavjud. Adabiyotda Nuh umri deyilganda to’fonlarga, qiyinchiliklarga bardosh bergan oshiq nazarda tutilishi, to’fon esa oshiqning ko’z yoshlari sifatida qalamga olinishi shundan. Yuqoridagi baytda oshiqning bor-yo’g’i olti kunlik ko’z yoshi olti oy davom etgan Nuh to’foni singari dahshatli ekanligiga urg’u berilmoqdaki, aynan olti raqamining takrorlanishi (takrir) orqali ifodaning ta’sirchanligiga erishilgan.

Navoiy she’riyatidagi uslub masalasida fikr yuritar ekan, Dilorom Salohiy shunday yozadi: “U(Navoiy)ning falsafiy badiiy tafakkuri taraqqiyoti islom ma’naviyatini keng idrok qilish va uni o’z ijodiy va ijtimoiy faoliyatida targ’ib etish g’oyalari bilan bevosita bog’liqdir. Qur’oni Karimda va payg’ambar Muhammad alayhissalom hadislarida ifodalangan fikrlar Alisher Navoiyning badiiy asarlarida go’zal tashbehlar, betakror lavhalar vositasida aks etadi”⁴⁷⁴. Yuqoridagi bayt o’sha “betakror lavhalar”dan biridir.

Bunday tasvirlarni Sharqning boshqa ijodkorlari asarlarida ham uchratamiz. Masalan, Umar Xayyomning quyidagi ruboiysida Nuh (a. s.)ning ming yil umr ko’rganligi va u bilan bog’liq dahshatli to’fon voqeasini tilga olish orqali lirik qahramonning boshidan kechirgan qiyinchiliklari, “beomon balo”lar, nafaqat o’zi, balki zamona ahlining iztiroblari ifoda etilmoqda. Ming yil umr ko’rgan Nuh o’z umri davomida bir to’fonni boshidan kechirgan bo’lsa, Nuhchalik uzoq umr ko’rmagan lirik qahramon hayotidagi “to’fon”lar mingta. Lirik qahramon boshidan kechirgan iztiroblarni ifoda etishda aynan Nuhning ming yil umr ko’rgani-yu, bitta to’fonga duch kelganligi juda o’ng’ay kelgan bo’lib,

⁴⁷⁴ Дилором Салохий. Навоийнинг шеърий услуби масалалари \ Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 17-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – Б. 45.

bunga ishora qilish orqali shoir “o’z fikrini mo’jaz holda kuchaytirishga imkon”⁴⁷⁵ topgan:

*Davronda ko’p ko’zni men giryon ko’rdim,
Neki balo bo’lsa, beomon ko’rdim,
Nuh ming yil yashadi, ko’rdi bir to’fon,
Men Nuh bo’lmasam ham ming to’fon ko’rdim.*

Bir jihatni alohida qayd etish kerakki, Nuh (a. s.) ning to’foni voqeasiga ishora qiluvchi baytlarda bir qancha san’atlar – talmeh, tashbeh va mubolag’aning qorishiq holatda kelganligini ko’rish mumkin. Masalan, Navoiyning quyidagi baytida Nuh ming yildan ortiq umr ko’rgan bo’lsa, hijron men uchun yuz ming yilga cho’zildi, Nuh davridagi buyuk to’fon olamni g’arq qilgan bo’lsa, “bu ashk”, ya’ni mening ko’z yoshlarim “gardun” – falakka yetdi, – deya mubolag’a qilinmoqda:

*Hajr yuz ming yilcha-yu ashkim urar gardung’a mavj,
Men ham o’ttum Nuhdin, bu ashk ham to’fonidin*⁴⁷⁶.

Ushbu baytning poetik xususiyatlari haqida fikr bildirgan adabiyotshunos olim E. Ochilov baytdagi mubolag’a e’tibor qaratadi, shuningdek boshqa san’atlarga ham diqqat qiladi: “Bu yerda yuz mingga cho’zilgan hijronning Nuh umriga, falak toqiga yetgan ko’z yoshining to’fonga nisbati borligida laff va nashr san’atlarini ko’ramiz. Albatta, unda tashbeh va talmeh san’atlari ham mavjud”⁴⁷⁷.

Mashrab qalamiga mansub bo’lgan quyidagi baytda Haq oshig’ining ko’z yoshlariga “yetti iqlim g’arq bo’lgan”ligi mubolag’a yo’li bilan tasvir etilmoqdaki, bunda asosiy g’oyani yoritishda yetti raqamiga urg’u berilganligi sir emas:

⁴⁷⁵ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 199.

⁴⁷⁶ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. – Toshkent: G’.G’ulom nomi-dagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – Б. 468.

⁴⁷⁷ Иброҳим Ҳаққул., Э. Очилов. Ишқ ва ҳайрат олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 219.

*Ul muhabbat ko'yida qon yig'ladim,
Yetti iqlim g'arq bo'ldi yoshima.*

Mumtoz she'riyatda raqamlar bilan bog'liq qarashlar, urf-odatlar, diniy tushunchalar, diniy shaxslar hayotida ro'y bergan voqea-hodisalar talmeh san'atidan foydalanishga asos bo'lgan. Furqat g'azallaridan birida shunday bayt bor:

*Bir ko'rib chohi zaqan Horut ila Morut ikov,
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo'lak tadbirda*⁴⁷⁸.

“Chohi zaqan” – bag'baqa chuqurchasi, bu yerda istiorani hosil qilib, ayol kishi ma'nosida kelmoqda. Horut va Morut – farishtalar nomi. Islom aqidasi ko'ra, Alloh taolo tomonidan sinov uchun yer yuziga tushirilgan ikki farishta. Ular ayolga oshiq bo'lganliklari uchun Bobil shahri chekkasidagi chohga tashlangan. Alloh amri bilan farishtalar tomonidan qattiq jazolangan Horut va Morutni insonlar ham tosh va kesaklar bilan urib, azoblashgan. Bu ikki farishta odamlarning qistovi bilan ularga sehr-joduni o'rgatishgan. Baytda shoir buni “bo'lak tadbir” sifatida qayd etmoqdaki, bunda ularning odamlarga sehr-joduni o'rgatishni o'zlariga hunar qilib olganliklari nazarda tutilmoqda, ya'ni kimki sehr-jodu hunarini o'rganishni istasa, o'sha choh yoniga borib, buni shu ikki farishtadan o'rganar emish⁴⁷⁹. Talmeh qonuniyatiga ko'ra qo'llanilgan “bir” va “ikov” shaklidagi raqamlar shoir fikrini asoslash va kuchaytirishga xizmat qilgan.

*Iki ko'zdan ravon etmish sirishkim qomating shavqi,
Asoi mo'jizi ko'rkim, iki bo'lmish bu daryoyi*⁴⁸⁰.

Bu baytlarda ham diniy qarashlarga ishora mavjud. Muso (a. s.)ning qo'llaridagi aso yordamida dengizni ikkiga bo'lib, o'z qavmlariga yo'l ochganliklarini misol keltirish orqali ma'shuqa tik qomati “shavqi”da lirik

qahramonning ko'zidan tinimsiz oqayotgan yoshlari mubolag'ali tasvirlangan.

Mumtoz she'riyatda ko'p qo'llanilgan san'atlardan yana biri istiora bo'lib, bu san'at turida ham raqamlarning faol ishtirokini ko'rishimiz mumkin. Shayx Ahmad Taroziyga ko'ra: “Bu san'at ul bo'lurkim, bir lafzeni haqiqiy ma'nodin elitib, yana o'zga yerda oriyat tariqi birla keltururlar”⁴⁸¹. Mumtoz shoirlarimiz ijodida ko'p-lab raqamli birikmalar istiora bo'lib kelgan. Navoiy she'riyatida ko'z so'zi o'rnida “ikki nargisi jodu”, “ikki sayyod”, oshiq qalbi ma'nosida “bir qush” yoki “bir kabutar”, ma'shuqa ma'nosida “bir quyosh” istioralari ko'p ishlatilgan. Masalan:

*Nazarg'a kelgali ul ikki nargisi jodu,
Ko'ngulda yo'qturur oromu ko'zda ham uyqu*⁴⁸².

Yoki:

*Eyki dersen, ko'zlarim ko'nglungni ne nav' etti sayd,
Bir kabutar netsun oxir ikki sayyoding bila*⁴⁸³.

Baytlarning ikkinchisida ov manzarasi chizilgan. Dastlab ma'shuqa ko'zining lirik qahramon ko'nglini rom etganligi tilga olinib, bu holat “sayd” – ov qilishga nisbat berilgan. Shuning uchun ham keyingi misrada ov bilan bog'liq tushunchalar – “kabutar”, “sayyod” so'zlari keltirilib, oshiq qalbi “ikki sayyod” (ma'shuqa ko'zlari) qarshisida ilojisiz qolgan kabutarga o'xshatilmoqda. Fikrni ta'sirchan ifodalash va bo'yoqdorligini ta'minlashda bir va ikki raqamlari vositasida hosil qilingan istioralar muhim ahamiyat kasbetgan. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Masalan, Furqatning quyidagi baytida ko'z ma'nosida “ikki mayparast nargis” istiorasi qo'llanilgan:

⁴⁸¹ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2002. №5. – Б. 90.

⁴⁸² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 541.

⁴⁸³ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 418.

⁴⁷⁸ Furqat. K'rsatilgan manba. – B. 21.

⁴⁷⁹ Bu haqda qarang: M'umin Xotamzoda. Ўн саккиз минг олам ва ислом. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – Б. 55-57. (432)

⁴⁸⁰ Фузулий. K'rsatilgan manba. – Б. 285.

*Ul ikki mayparast nargislarkim, bir nigah birla,
Jahon ahlig'a hosil nash'ai xummi sharob aylar*⁴⁸⁴.

Shuningdek, Amiriy, Muqimiy singari shoirlar ijodida ko'z ma'nosida ishlatilgan "ikki zolim", "ikki ayyor", "ikki fatton" (fatton – maftun qiluvchi, maftunkor), "ikki chashmi ashkbor", "ikki jodu", "ikki jodu xunxor", "ikki kofir", "ikki turki kofir", "ikki ohu" kabi birikmalarda ikki raqami istiora hosil qilishda qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'shuqaning tashqi ko'rinishi, ko'zi, yuzi bilan birga, yuqorida ko'rganimizdek, uning sochi tarannum etilgan o'rinlarda ham ikki raqami asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan:

*Kokulining toridin band aylab ul jodu ko'zi,
Ikki ajdar zulfini afsun bila mor aylagon*⁴⁸⁵.

Amiriy qalamiga mansub bo'lgan bu misralarda "ikki ajdar" istiorasi orqali ma'shuqaning sochini ta'riflashda ikki raqami asos vazifasini o'tagan.

Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlashni lozim topdik. XIX asr ijodkorlarida sochga nisbatan "haydar" sifatlashi qo'llanilganligiga duch kelamiz. "Ma'lumki, haydar – sochning alohida magik qudratga ega deb tasavvur qilingan qismi – kokil ma'nosini ham bildiradi. Ayni paytda bu ramziy detal – shamol piri obrazining an'anaviy atributlaridan biri vazifasini bajaradi. Xalqimiz orasida mavjud odatga ko'ra, farzand ko'rgani bilan bolasi turmaydigan oilada chaqaloq tug'ilsa, bola yoshiga yetganda unga "soch to'yi" qilinadi. Bola o'sib-unsin, ziyon-zahmatlar ozor yetkazmasin, degan niyatda boshning ensa qismidagi "qorin sochi"dan bir tutamini qirqmasdan qoldiradilar. Ana shu kokil "haydar" deyiladi"⁴⁸⁶. Ko'rinib turibdiki, shamol piri – Haydar obrazining alohida belgilaridan biri bo'lgan kokil keyinchalik xalq qo'shiqlari va yozma adabiyotdan ham

⁴⁸⁴ Фуркат. Кўрсатилган манба. – Б.158.

⁴⁸⁵ Амирий. Девон. – Тошкент: Тамадун, 2017. – Б. 254.

⁴⁸⁶ Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 220.

joy olib, "chiroyli qilib o'rilgan soch, kokillar" mazmuni anglatadigan "haydar kokil" istiorasini hosil qilgan.

O'zbek folklorida bu istioradan unumli foydalanilganini xalq qo'shiqlari misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan,

*Haydar kokiling uzun,
Yuvib taragin, jonim.*

Yoki

*Qirqta haydar kokilim,
Rayhon qo'shib tarayman.*

Yana

*Orqam to'la haydarim,
Har joyda xaridorim.*

Xalq og'zaki ijodida ko'p qo'llanilgan bu istiora yozma adabiyotga ham ko'chib, chiroyli tashbehlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Masalan, Furqat ijodiga mansub bo'lgan quyidagi baytda oshiqning xayoliga ma'shuqaning "haydar kokili" kelishi vayronaga ikki ajdar kirganga qiyos qilinadi:

*Ikki haydar kokuling keldi xayoli ko'nglima,
Tushti go'yo ikki ajdar kulbai vayronag'a*⁴⁸⁷.

Yoki

*Telba oshiq'larga zanjir ikki haydar kokuling,
Dom etgan sunbuli dolingdin aylansun qulung*⁴⁸⁸.

Muqimiyda esa ma'shuqaning "haydar kokili" jon rishtasiga qiyos qilinmoqda, uning tebranishi esa oshiq uchun mahshar boshlanishiga ishoradir:

*Rishtai jonlarmi yokim ikki haydar kokiling,
Har taraf qo'zg'atmakim, qo'zg'aldi mahshar
kokiling*⁴⁸⁹.

Shuningdek, "ikki la'l", "ikki ruxsor", "ikki hilol", "ikki mushkin qosh", "ikki moh", "ikki ajdar" singari birikmalarda ham ma'shuqaning yuzi, qoshi, sochi kabilar

⁴⁸⁷ Фуркат. Кўрсатилган манба. – Б.33.

⁴⁸⁸ Фуркат. Кўрсатилган манба. – Б.64.

⁴⁸⁹ Муқимий. Боғ аро: шеърлар. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.66.

ta'rif-tavsif qilinib, go'zal tasvirlarni yaratishga asos bo'lgan.

Raqamlar vositasida ruju' – qaytish san'ati orqali mumtoz shoirlarimiz, xususan, Alisher Navoiy nihoyatda chuqur ma'nolarni ifodalashga erishgan. Quyidagi baytga e'tibor qarating:

*Ilohiy, amringa ma'mur yetti torami a'lo,
Ne yetti torami a'lo, to'quz sipehri muallo*⁴⁹⁰.

Birinchi misrada kelgan "yetti torami a'lo" birikmasi go'yoki, shoirning maqsadini to'liq ifoda etish uchun ojizlik qiladi, shuning uchun ikkinchi misrada birinchi misradagi fikrdan qaytib, mazmunni yanada kuchaytirishga harakat qiladi. Bunda to'qqiz raqami asosiy rol o'ynaydi, ya'ni "yetti torami a'lo"ga qaraganda, "to'qqiz sipehri muallo" shoir muddaosini bo'lig'roq ifodalashga xizmat qilgan.

*Bir-bir ofoq elin o'lturdi, ne bir-bir, ming-ming,
Alloh-Alloh, ne balo qotil emish ul mahvash*⁴⁹¹.

Keltirilgan baytdagi ruju' san'ati uchun raqamlar muhim rol o'ynagan, shuningdek, mukarrar san'ati uchun ham yo'l ochgan va bu san'atning dilbar bir namunasi yaratilgan.

Ba'zan raqamlar ketma-ket keltirilgan va bu yo'l bilan fikr rivojlantirilgan:

*Ey Navoiy, so'z ila oncha guhar sochtingkim,
Bahr-u kon kirdi qaro yerga sening kilkingdin.*

*Biriga, yo o'nig'a, yo yuziga, yo mingiga,
Degay el naylagay ortug' esa ellik mingdin?!⁴⁹²*

Shoirning o'z asarlari haqidagi ushbu faxriya baytlarini raqamlar harakatga keltirib turgandek. Ammo davr va zamon bedodligidan shikoyat ohanglari

⁴⁹⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 2-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 7.

⁴⁹¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 3-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 254.

⁴⁹² Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 694.

eshitilib turgan quyidagi baytda ham raqamlar asosiy rol o'ynaydi:

*Navoiy, qilma ayb afg'on-u faryodimki, davrondin
Ne bir faryod-u o'n afg'onki, yuz faryod-u ming
afg'on!*⁴⁹³

Baytda "bir faryod", "o'n afg'on", "yuz faryod", "ming afg'on" raqamli jummlalar orqali fikr rivoji va ta'sirchanlik yuzaga kelgan. Raqamlar vositasida nafaqat ishqiyl holat va kayfiyatni, balki hayotiy haqiqatlarni hamda kundalik turmushda yuz berayotgan voqeylikni ham ifoda etilganligini ko'rish mumkin.

Navoiy ijodini g'azalsiz tasavvur etib bo'lmaydi, albatta. Shoir hayotidagi biror kun yo'qki, g'azal janriga mansub bo'lgan asar yaratilmagan bo'lsin. Buni ijodkorning o'zi ham quyidagi misralarda alohida ta'kidlaydi:

*Kun bor ediki, bir g'azalu ikki g'azal,
Bal uch g'azalu to'rt g'azal ba'zi mahal*⁴⁹⁴.

Buyuk daho tomonidan bir kunda yaratilgan g'azallar yuqorida qayd qilinganidan balki ko'p, balki kamroqdir, ammo ularning ko'lamini belgilashda shoir raqamlar ketma-ketligiga murojaat qilgan va mahorat bilan fikr ta'sirchanligiga erisha olgan.

*Jom-u may gar buyladur, ul jom uchun qilmoq
bo'lur,
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon
fido*⁴⁹⁵.

Bu baytda esa "yuz jahon" va "ming jon" raqamli birikmalari orqali mazmun yanada kuchaytirilgan, yuz va ming raqamlari esa lirik qahramon uchun o'z badiiy niyatini bayon etishda ancha o'ng'ay kelgan.

Yuqoridagi fasllarda Navoiy g'azaliga Ogahiy tomonidan bog'langan muxammas xususida to'xtalib o'tgan

⁴⁹³ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 457.

⁴⁹⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 3-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 217. Алишер Навоий. Қўрсатилган манба. – Б. 499.

⁴⁹⁵ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jidlik. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 22.

edik. Muhammad Rizo Ogahiy Navoiyning munosib izdoshi sifatida fikr ta'sirchanligi va badiiy mahoratni namoyon qilish asnosida raqamlar silsilasidan unumli foydalanadi:

*Dahr zoliki o'ziga doimo ziynat berur,
Kimga juft o'lsa, boshig'a yuz balolar kelturur,
Yetti do'zax mehnatin olti jihatdin yetkurur,
Istasang besh kun farog'at garchi kobin umr erur,
Dahr zolin to'rt mazhab birla qilg'il uch taloq*⁴⁹⁶.

E'tiborlisi shundaki, boshqa ijodkorlarda fikrning badiiy buyoqdorligini oshirish maqsadida raqamlarga murojaat qilinganda sanoq sistemasidagi ketma-ketlik orqali borilsa, yuqoridagi misolda buning teskarisini ko'ramiz, ya'ni yetti, olti, besh, to'rt va uch raqamlari orqali tasvir mukammalligiga erishilgan. Miriyning quyidagi baytlarida ham salaflariga ergashish ko'zga tashlanadi:

*Uch oydirki, ko'zim to'rt erur bir oy uchun,
Boqarmen olti jihat, yetti olti oy meni.*

Baytda keltirilgan raqamlar ma'noni kuchaytirib tasvirlash bilan birga irsoli masal san'atiga ham yo'l ochgan. Birovni intizorlik bilan kutish, qayta-qayta yo'lga ko'z tikish "Ko'zi to'rt bo'ldi" iborasi bilan ifoda etiladi. Uch oydan buyon bir oy yuzlini kutish holati raqamlar vositasida juda chiroyli bayon qilingan. E'tiborlisi shundaki, lirik qahramon bunda "olti jihat"ga termulganligini ifoda etish orqali yangicha tasvir yarata olgan.

Ikki kemanding boshini tutgan insonning g'arq bo'lishi aniq. Bu xalq maqolida o'zi ifodasini topgan. Shoirilar raqam bilan bog'liq tushunchalarni ifoda etar ekanlar, ushbu maqoldan ham unumli foydalanishga harakat qilishgan. Masalan,

*Dunyovu uqbo ikkisi jam' o'lmas, ey rafiq,
Kimki, ikki kema uchini tutsa, bo'lur g'ariq*⁴⁹⁷.

⁴⁹⁶ Огахий. Кўрсатилган манба. – Б. 326.

⁴⁹⁷ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 744.

"Inson dunyo lazzatlari bilan farog'at topishdan yiroqlashmaguncha, diniy vazifalarni haqqi bilan ado etolmaydi. Bir qalbda ikki zid narsa o'rnasholmaydi, kelisha olmaydi. Ko'ngil dunyo zavqlariga asir ekan, islom sharafi va shonidan uzoqlashib, tubanlashib boraveradi. Natijada islomiy tasalli maqomi xarob bo'lib, dunyoviy zavq-u safoga tegishli taskin makoni ma'mur va obod bo'ladi. Zero, "Ikki zid narsa bir joyda maskan tutmaydi"⁴⁹⁸, – deydi Xoja Yusuf Hamadoniy. Navoiyning yuqoridagi baytlari ushbu fikrning badiiy ifodasidek taassurot qoldiradi. Shoir "dunyo" va "uqbo" (oxirat) ikkiligini keltirilib, ham o'tkinchi dunyo ne'matlariga oshiq bo'lish, ham oxirat mag'firatini qozonish uchun harakat qilish holatini ikki kemani tutgan insonga qiyos qilib, aynan ikki raqamini takrorlash orqali ma'noning badiiy ifodasiga erishgan.

Bobur qalamiga mansub baytda ham ayni shu ibora orqali raqamlar "tili" bilan badiiy tasvir yaratilgan:

*Bobur, bo'lubturu ikki ko'zum yo'lida to'rt,
Kelsa ne bo'ldi qoshima bir mango manga*⁴⁹⁹.

Maxtumquli esa ushbu fikrni yanada soddaroq qilib, "bir yonga nazar ayla" da'vati orqali ifoda etadi:

*Ibrat ko'zini ochib, jahonga nazar ayla,
Tutma ikki kemani, bir yonga nazar ayla*⁵⁰⁰.

Mushkul ahvolga tushib qolgan kishilarga tasalli berganda, ularni yupatib, sabr-toqatga undaganda "Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'" degan xalq maqoli qo'llaniladi. Muqimiy lirik qahramon holatini ifoda etishda xalq orasida mashhur bo'lgan ushbu maqolni keltirish orqali chiroyli tasvir yaratishga erishgan:

*Har tarafga bo'limg'il o'zni urib betoblar,
Oyni o'n beshi qorong'u, o'n beshi mohtoblar*⁵⁰¹.

⁴⁹⁸ Хожа Юсуф Хамадоний. Рисолалар / Рутбатул хаёт. – Тошкент: Шарк, 2018. – Б. 29-30.

⁴⁹⁹ Бобур. Кўрсатилган манба – Б. 16

⁵⁰⁰ Махтумқули. Кўрсатилган манба. – Б. 474.

⁵⁰¹ Муқимий. Кўрсатилган манба. – Б. 328.

Tardi aks – muayyan fikrni obrazli va emotsional tasvirlash maqsadida so'zlarni teskari qo'llash san'atida ham raqam va raqamlar mohiyatiga aloqador bo'lgan tasvirlardan mahorat bilan foydalanilganligini kuzatish mumkin. Masalan,

*Ishqim, har bir ishida yozdi yuz ming turfa xalq,
Turfarog budurki, yuz mingdin biri yozilmadi.*

Baytni tahlilga tortgan adabiyotshunos olim E.Ochilovni unda ifoda etilgan fikr haqida shunday yozadi: "Ma'lumki, har bir qalb muhabbatni yangilaydi. Birovning andozasi boshqaga to'g'ri kelmaydi. Shunday ekan, yuz ming kishi yuz ming yil davomida ishqning yuz ming sifatini yozgan bo'lsa-da, uning yuz mingdan bir sifati ham qalamga olingan emas. Chunki har kishi ishqning o'z taqdiridagi ko'rinishini bitib qoldirgan"⁵⁰². Baytda bir va yuz ming raqamlari o'rni almashinib takrorlangan holda tardi aks san'atini hosil qilgan.

*Olib bir jonim erning ming evaz berding anga
ming jon,*

Ol emdi bo'lsa ming jonim bir olg'oni ziyon qildi.

Sakkokiy qalamiga mansub bo'lgan yuqoridagi baytda bir va ming raqamlarini zidlash orqali tazod, bu raqamlar o'rnini almashtirib qo'llash vositasida tardi aks san'ati hosil qilingan hamda o'ziga xos ishqiy kechinma tasviri yaratilgan.

*Yuz uza ikki nargising, vah, ne balo qaro dedim,
Ko'nglingu joning olg'uchi ikki qaro balo dedi.*

Oshiqning ma'shuqa ko'zlari haqida sevilisiga bergan savoliga ma'shuqaning "Bu ko'zlar ko'ngil bilan jonni olishga otlangan ikkita "qaro balo"dir", – degan javobidagi teskari qo'llashda ikki raqami fikrni chiroyli tasvirlash uchun vosita bo'lmoqda.

*O'q hunilab o't yolindek har tarafkim qo'ysa yuz,
Yuz ko'ngulni kuydurub, yuz jonni vayron qilg'usi*⁵⁰³.

⁵⁰² Иброҳим Ҳаққул., Очилов Э. Кўрсатилган манба. – Б. 191.

⁵⁰³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 631.

Baytda uch o'rinda qo'llanilgan "yuz" so'zi birinchi misrada "yuzlanmoq" fe'li ma'nosida, ikkinchi misra-ning ikki o'rnida kelganda esa raqam ma'nosini anglatish uchun xizmat qilgan. Takrir san'ati bilan tajnis san'ati-ning qo'shaloq kelishi bayt ta'sirchanligini oshirish bilan birga shoirning badiiy tasvirda muvaffaqiyatga erishishiga ham sabab bo'lgan. Gadoiy she'riyatidagi badiiy san'atlar xususida tadqiqot olib borgan H.Aslanova quyidagi baytda "yetti" so'zining ikki o'rinda kelganligini hisobga olib, uni takrir san'ati, deya e'tirof etadi⁵⁰⁴.

*Chun gasht uchun otlanding, ayo sarvi ravonim,
Yetti yetti gardung'a maning ohu fig'onim.*

Ammo bunda bir so'zning takrori emas, balki "yetti" so'zi ikki xil ma'noda qo'llanilib, tajnis san'atini hosil qilganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Alisher Navoiyning quyidagi baytida "ellik" so'zi vositasida tajnis san'ati hosil qilingan:

*Umr ellikka chu yetti yana ellikdin emas,
Yog'iliq Tengrigavu amrig'a noparvoliq*⁵⁰⁵.

Birinchi misrada kelgan "ellik" so'zi dastlab yoshni bildirsa, keyingi o'rinda "odamiylik", "insof-diyonat", "yaxshi xulq" ma'nolarini anglatish uchun xizmat qilgan.

*Keldim sanga yuz umid birla, ey moh,
Lekin, bordim yuzingni ko'rmay, yuz oh*⁵⁰⁶

Bobur esa lirik qahramon holatini berishda "yuz" so'zining turli ma'no qirralariga murojaat etish orqali ham tajnis, ham takrir san'atlarini yaratgan.

Raqamlarni qo'llash jarayonida tajnis san'atini hosil qilish So'fi Olloyor ijodida yorqin ko'zga tashlanadi. "Sabotul-ojizin" asaridagi nafsga tobe bo'lmaslik, nafs iskanjasidan qutilish g'oyalari yetmish, sakson, to'qson

⁵⁰⁴ Асланова Х. XV аср биринчи ярмидаги ўзбек шеърляти ва Гадоий поэтикаси. – Б. 49-бет.

⁵⁰⁵ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 321.

⁵⁰⁶ Бобур. Санга кўнглумни олдурум. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 83.

raqamlari va shu so'zlarning jinsdoshlarini keltirish yo'li bilan ifoda etilgan:

*Agar nafsing sani yetmish boshingdin,
Na bo'lg'ay foyda, yetmish yoshingdin.*

*Agar nafsing muroding istamaksan,
Agar saksanga umring yetsa, sak san.*

*Azal kundan agarchi xavfi yo'qsan,
Agar to'qsonga yetsang, ko'ngli to'qsan*⁵⁰⁷.

Birinchi baytda "yetaklamog" va yetmish, ikkinchi baytda "sak san", ya'ni "itsan" va sakson, keyingi baytda esa "ko'ngli to'qsan" va to'qson so'zlari orasidagi jinsdoshlik asosida ijodkor nafsning "halokatli dard ekani" ta'kidlaydi. Oxirgi baytda san'atkorlik namunalarini ko'rsatgan shoir "besh" so'zining "ko'p" degan ma'nosidan foydalanib, tajnis san'atini qo'llaydi:

*Azaldin qilsa kimning ko'nglini resh,
Degay o'n besh yoshin ko'b, balki o'n besh*⁵⁰⁸.

Inson ko'ngli juda nozik. Alloh nazargohi sanalgan ko'ngil noo'rin aytilgan gap-so'zlardan ranjib, og'riq tuyushi tabiiy hol. Ammo bu og'riqlar unga qadalgan nishlardan bo'lsa-chi?! Do'stning xiyonati, yorning jafosi, taqdirning kutilmagan o'yinlaridan ko'ngilga sanchilgan nashtarlardan bo'lsa-chi?! Bunday holat yanada ayanchliroq.

*Ko'nglumdagi har nishdin gar bo'lsa bir til, har biri
Yuz til bila o'z holining sharhida qosir bo'lg'usi*⁵⁰⁹.

Baytda lirik qahramon ko'ngliga qadalgan nashtarlarning o'zi tilga kirib, uning holini bayon etmoqchi bo'lsa-da, ko'ngil holatini tasvirlashda ojizlik qilishi xususida so'z boradi. Yaralangan ko'ngil holatini chizish-

⁵⁰⁷ Сўфи Оллоёр. "Саботул ожизин" шарҳи. Равойихур райҳон. – Тошкент: Шарк, 2018. – 262-263.

⁵⁰⁸ Сўфи Оллоёр. Қўрсатилган манба. – Б. 263.

⁵⁰⁹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 648.

dagi ma'naviy yuk va uslubiy bo'yoqdorlik aynan "bir til" va "yuz til" raqamli birikmalari vositasida amalga oshmoqda.

*O'qungdin ming teshukluk ko'nglak ichra tolpinur
ko'nglum,
Hamul qush mislikim ani muqayyad aylagay dome*⁵¹⁰.

Navoiyning ushbu baytida oshiq holati mubolag'a usulida sharhlangan, biroq bu holatning qiynoqli ekanligini "ming teshuklik" ko'ylak ichida ma'shuqaga qarab talpinayotgan ko'ngilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo quyidagi baytda oshiqning nafaqat kuylagi, balki joni ham "ming teshuk"ka aylanib, xuddi g'alvirga o'xshab qolgan. Oshiq esa ma'shuqa yurgan yo'llarning tuprog'ini jon pardasidan hosil bo'lgan g'alvirdan o'tkazishga tayyor:

*Gar desamkim, ko'yi tufrog'in elay, ko'z halqasin
Ming teshukluk pardai jon birla g'arbol etkamen*⁵¹¹.

Quyidagi baytda berilgan oshiq tasviri esa yanada hayratlanarli:

*Hajr o'qidinkim erur bag'rim aro yuz ming teshuk,
Har teshuk bir ko'zdururkim, holima hayron erur*⁵¹².

"Hajr o'qi"dan bag'ri tilingan oshiq holatining qiy-noqli va og'irligini "yuz ming teshuk" iborasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Keyingi misrada "yuz ming teshuk" ifodasiga yangi bir ma'no yuklanadi, ya'ni ular "hajr o'qi" zarbidan paydo bo'lgan (ehtimol, ular o'ntadir, yuztadir yoki ko'proqdir) oddiy teshik emas, balki "har teshuk bir ko'zdur". Bu "ko'z"lar esa oshiq holini idrok etishga qodir bo'lganligi uchun ham hayrondir. Oshiqning holi uning o'zi uchun hayronlik sababi bo'lganidek, sipehr uchun (ham) hayratli. Osmon oshiqqa "yuz ming ko'z" bilan nigoh tashlashining sababi ham shunda:

⁵¹⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 582.

⁵¹¹ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 475.

⁵¹² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 175.

*Mungrayib andoq sinuq ko'nglum buzulurkim, sipehr
Bul' ajab holimg'a yuz ming ko'z bila hayron bo'lur*⁵¹³.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida yaxshilik-ka yaxshilik, ezgulikka ezgulik, vafoga vafo bilan, mehr-u muhabbatga sadoqat bilan munosabatda bo'lmagan kishilarni malomat qilar ekan, bir va yuz, bir va ming raqamlarini zidlash vositasi bilan maqsadga erishadi.

*"Har kimgakim, bir vafo ko'rguzdum,
Yuz bevafolig' ko'rmaguncha qutulmadim.*

*Va har kim bilakim bir mehru muhabbat oyini
tuzdum,
Ming javru mazallat tortmag'uncha xalos
bo'lmadim*⁵¹⁴.

Quyidagi bayt esa bu fikrning nazmiy in'ikosidir:
*Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim,
Ko'rguzub yuz mehr ming dardu balosin
ko'rmadim*⁵¹⁵.

Mumtoz she'riyatda raqamlar asosida hosil qilindigan san'atlardan biri ta'did san'ati bo'lib, bunda raqamlar hamda sanash ohangi asosiy o'rinni egalaydi. Garchi ba'zi bir mutaxassislar ta'didda raqamlar ishtiroki shart emas, desalar-da, ushbu san'at turida yoki raqam, yoki raqam o'rinini bosuvchi so'z – olmosh va ravishlar kelishi ko'zga tashlanadi. "Qutadg'u bilig" asari poetikasi xususida fikr bildirar ekan, adabiyotshunos olim B.To'xliyev bu san'atning "Qutadg'u bilig" poetik libosida katta o'rin tutishi tasodifiy xarakterga ega emasligiga e'tibor qaratadi. "...Chunki u didaktik va qahramonlik dostonlarida eng muhim hamda zaruriy figuralardan biri sifatida qatnashadi. Zero, ta'did orqali ma'lum qahramonning turli xususiyat va xatti-harakatlari yoki predmetni, voqea-hodisalarning ketma-ketli-

gi, izchilligi tasviri to'liqroq tavsiflanishi mumkin"⁵¹⁶. Olim ushbu san'atning uchta kompozitsion ko'rinishini "Qutadg'u bilig" asari misolida keltirib o'tadi: 1. Jamlovchi son – sanash – xulosa. 2. Sanash – jamlovchi son – xulosa. 3. Sanash – jamlovchi son.

Sharq shoirlari ayrim hayotiy haqiqat va insoniy fazilatlarga keng e'tibor qaratish, ba'zi jihatlarni alohida ta'kidlash uchun ta'did san'atiga ham murojaat etishgan va bunda raqamlar nazardan chetda qoldirilmagan. Shu jihatdan Nasimiyning mana bu misralarini misol keltirish mumkin:

*Kelur uch narsadan mardumga ozor:
Bularni sen o'zingga qilma san'at.*

*Biri bo'hton, biri qing'irlik etmak,
Biri bilmak haqiqatni zarofat.*

*Nasimiy, sen agar ahli nazarsen,
O'zingga qil bu uch narsani odat:*

*Biri lutfu karamla yaxshi axloq,
Biri tahqirlama hech kimni albat.*

*Bu so'zlar xush nasihat uquvchiga,
Bu uch odat erur ayni saodat.*

Ushbu misolda ikki o'rinda ta'did san'ati qo'llanilgan bo'lib, ikkalasi ham raqam – sanash – xulosa ko'rinishidagi ta'diddir. Ya'ni, avval raqam (uch) – umumlashtiruvchi so'z keltirilgan, so'ng esa sanash jarayoni ("biri") va xulosa (*Bu so'zlar xush nasihat uquvchiga, Bu uch odat erur ayni saodat*) berilgan.

Xuroson ahli orasidan vafo ko'tarilgach, yuz ochgan axloqiy tanazzulni ta'kidlashga xizmat qildirilgan uch raqami orqali Alisher Navoiy ta'did san'atning yana bir go'zal namunasini yaratgan:

⁵¹³ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 145.

⁵¹⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 508.

⁵¹⁵ Alisher Navoiy. Ko'rsatilgan manba. – B. 509.

⁵¹⁶ Исҳоқов М. ва бошқалар. Ўлмас обидалар. – Тошкент: Фан, 1989. – B. 417.

*Vafo azm aylarda bo'lmish magar
Saxovu muruvvat anga hamsafar.*

*Bu uch fe'l chiqqach aroding tamom,
Yana bo'lmish uch fe'l qoyimmaqom.*

*Vafo yerida zohir o'lmish nifoq,
Saxo o'rnida buxl tutmish visoq.*

*Muruvvatqa bo'lmish hasad joygir,
Zihe xush elu mulkati dilpazir⁵¹⁷.*

“Bu san’at kompozitsiyasidagi ikkinchi komponent sanashdir. Sanash ham turli ko’rinishlarga ega. Agar unda sonlar ishtirok etsa, ular asosan, sanoq va tartib sonlar bo’ladi. Ba’zan sanash sonlarsiz, faqat ohang yordamida amalga oshadiki, shunga ko’ra, “sanash” so’zini tor ma’noda tushunmaslik kerak. Mana shu sanash ohangi – intonatsiyasi umumlashtiruvchi son yoki so’zdan anglashilgan miqdorning reallashishiga yordam beradi”⁵¹⁸. Alisher Navoiyning yuqoridagi baytlarida umumlashtiruvchi so’z orqali anglashilayotgan “uch fe’l” alohida-alohida sanalmagan, ammo sanash ohangi orqali ifoda etilgan (vafo o’rnini nifoq, saxovat o’rnini baxillik, muruvvat o’rnini hasad egalladi). Naqshbandiylikning xilvat dar anjuman, safar dar vatan, nazar dar qadam, hush dar dam singari g’oyalari aks ettirilgan qit’adan olingan quyidagi parcha ham bunga yorqin misol bo’la oladi:

*Desang xilvatim anjuman bo'lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.*

*Vatan ichra sokin bo'lub soyir o'l,
Safardin agar bo'lsa mehnat sanga.*

⁵¹⁷ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 699.

⁵¹⁸ Исҳоқов М ва бошқалар. Кўрсатилган манба. – Б. 419.

*Nazarni qadamdin yiroq solmag'il,
Bu yo'l azmi gar bo'lsa rag'bat sanga.*

*Damingdin yiroq tutmag'il hushni,
Ki yuzlanmagay har dam ofat sanga.*

*Bu to'rt ish bila rub'i maskun aro,
Chalinmoq ne tong ko'si davlat sanga⁵¹⁹.*

Ushbu ruboiyda tartib sonlar vositasida ta’did hosil qilingan:

*Uch qism ila iymong'a bino fahm ayla,
Avvalg'isini aning hayo fahm ayla,
Ikkinchisini dag'i vafo fahm ayla,
Uchunchini bilmasang, saxo fahm ayla⁵²⁰.*

Ba’zi o’rinlarda raqamlar ishtiroki bo’lmasa-da, ta’did san’atini hosil qilishda raqamlar mohiyati aks etib turganligini sezish qiyin emas. Masalan, quyidagi misralarda “tanang asosi” deyilganda, o’z-o’zidan to’rt raqami bilan bog’liq “to’rt unsur” – “anosiri arbaa” tushunchasi xayolga keladi:

*O'z istaging bilan yashaysan bir dam,
Shod o'tkaz, qilsalar ham senga sitam.
Jononlar bilan bo'l, tanang asosi –
Shamolu tuprog'u uchqun ila nam⁵²¹.*

Ko’rinib turibdiki, misralarda raqamlar ishtiroki yo’q, sanash raqamlarsiz amalga oshirilmoqda: shamol, tuproq, uchqun (olov) va nam (suv). Bu holat olimning yuqoridagi fikrlarini dalillaydi, shu bilan birga to’rt raqami bilan bog’liq tushuncha mohiyati aks etib turganligi ayonlashadi.

Mumtoz shoirlar she’riyatidagi raqam “silsilasi” tekshirilganda biz ham ularda hayotiy, falsafiy ma’no-

⁵¹⁹ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 708-709.

⁵²⁰ Алишер Навоий. МАТ. Йигирма томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 142.

⁵²¹ Умар Хайём. Кўрсатилган манба. – Б. 19.

lar bilan bir qatorda, diniy-ilohiy mazmunlar ham singdirilganligiga ishonch hosil qilamiz. Lekin ularni ifodalashda har bir shoir poetik g'oya va tasvir talablariga muvofiq tarzda badiiy san'atlarga murojaat qilgan. O'z navbatida, poetik san'atlar raqamlar bag'rida yashiringan ma'no sir-asrori bilan chuqur qiziqishga undaydi. Laff va nashr, takrir san'atlari qo'llangan o'rinlarda raqamlar ifoda etilayotgan ma'no, his-tuyg'u yoki kechinma tasviriga alohida e'tibor qaratish uchun xizmat qilgan bo'lsa, ming yil umr ko'rgan Nuh (a. s.) davrida olti oy davom etgan to'fon voqeasi talmeh sifatida kelib, ming va olti raqamlari mohiyatiga o'zgacha manzara bag'ishlagan.

Raqam tatbiqi nuqtayi nazaridan mumtoz shoirlar tajribalari o'rganilsa, raqamlardan ma'lum bir mavzu, tushuncha va haqiqatga oid bo'lgan mazmunni ta'kidlash usuli sifatida foydalanganliklariga ishonch hosil qilamiz. Istiora, ruju', irsoli masal, tardi aks san'atlariga nisbatan raqamlar vositasida tajnis san'ati hosil qilish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Sakkokiy, Navoiy, Bobur va, ayniqsa, So'fi Olloyor singari ijodkorlar raqamlarni ikki xil ma'noda istefo'da etgan holda go'zal poetik tasvirlar yaratishga erishganlar. Lirik qahramon holatini mubolag'ali tasvirlashda mahorat namunalarini ko'rsatgan sharq shoirlari ayrim hayotiy haqiqat va insoniy fazilat-larga e'tibor qaratish, ba'zi jihatlarni alohida ta'kidlash uchun ta'did san'atiga ham murojaat etishgan. Bunda raqamlar nazardan chetda qoldirilmagan.



MAXTUMQULI YOSHNOMALARI POETIKASI VA RAQAMLAR HAQIQATI

Nozikta'b qalamkash Maxtumquli turkiy adabiyot-ning ko'zga ko'ringan yorqin vakillaridandir. U turkman xalqining XVIII asrdagi ma'naviy hayoti va milliy o'zligini anglashda, shuningdek, turkman adabiyoti taraqqiyoti-da muhim rol o'ynagan. Uning she'rlarida ezgulik, adolat, erkinlik va tenglik g'oyalari yetakchilik qiladi. Shoir she'rlarida maishiy turmush tashvishlaridan ehtirosli sevgi tasvirlarigacha, ijtimoiy adolatdan axloqiy masalalargacha, diniy tushunchalardan teran tasavvufiy qarashlarga bo'lgan estetik va badiiy topilmalarni uchratish mumkin. Lirik asarlardan iborat devoni inson ruhiy kechinmalarining rang-barang tasvirlari, shaxsni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi misralar, sevgi va ayri-liq, hayot va o'lim, Yaratganga cheksiz muhabbat va sadoqat g'oyalari bilan to'yingan she'rlardan iborat.

Maxtumqulining "Kunlarim" va "Jo'shga yetding" deb nomlangan turkum she'rlari shu xarakterdagi asarlar sirasiga kiradi. Ularda lirik qahramonning bolalik, tarbiya va tahsil yillari, yigitlik davri, sevgi, oila, keksalik yillari tasviri "Go'ro'g'li" dostoni tarkibidagi "Kunlarim", Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Kunlarim" yoshnomalarini eslatadi.

Shoirning "Kunlarim" yoshnomasi lirik "men" tilidan aytilgan:

*To'qqiz oy yotmisham onam qornida,
Ko'z ochib dunyoga kelgan kunlarim, –*

"Jo'shga yetding" she'ri esa odamning ota belidan ona rahmiga tushgan davri tasviridan boshlangan:

*Bir kun otang ishq o'ynab,
Pushtidan jo'shga yetding.
Suvdan qonga aylanib,
Et bo'lding – loshga yetding⁵²².*

⁵²² Maxtumquli. Asarlar. – Toshkent, 2013. – B. 133.

Bunda boshqa yoshnomalardan farqli ravishda fikr ikkinchi shaxsga qaratilgan.

“Kunlarim”da bir yoshdan o‘n besh yoshgacha davrda yuz bergan voqealar ketma-ket qayd etib boriladi. Chunonchi, to‘qqiz oyda dunyoga kelgan lirik qahramon uch oyligida kulishni boshlagani, bir yoshligida yaxshiyomonni farqiga bormagani, ikki yoshida ota-onasini tanigani, uch yoshida tilga kirgani, to‘rt, besh, olti yoshlarida o‘yinqaroq bo‘lgani, yetti yoshida qizlar bilan “ishi bo‘lmas”ligi, sakkiz yoshida tishi tushgani, to‘qqiz yoshida o‘qishga borgani, o‘n yoshida Haq kalomi – Qur’oni karimni o‘rgangani, o‘n bir yoshida yozishda mahorat ko‘rsatgani va nihoyat, o‘n besh yoshida qizlar tushiga kira boshlagani haqidagi hodisalarni g‘oyat sodda til bilan ifoda etadi. Muallifning fikr izchilligiga erishuvida esa raqamlarning hal qiluvchi o‘rni ko‘zga tashlanadi.

“Jo‘shga yetding” asarida esa “to‘qqiz oy-u to‘qqiz soat”da tug‘ilib, sog‘-salomat o‘sib-ulg‘aygan lirik qahramonning faqat yetti, o‘n to‘rt, yigirma to‘rt yoshlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, she‘rda yigirma to‘rt yoshda inson kamolotida yuz beradigan o‘zgarishlar, yuksalishlar tasvirlangan misralar diqqatga molik:

*Yigirma to‘rtga yetding,
Yigit bo‘lib jahd etding,
Ot minding, qilich tutding,
Jangga – kurashga yetding.*

Zotan, yoshnoma janrining bosh xususiyatlaridan biri – shoirning yoshi. Maxtumquli bu turdagi asarlarida yosh bilan bog‘liq voqea yoki inson tabiati va jismida kechadigan yangilanishlarni aks ettirarkan, o‘ttiz yoshdan yuz yoshgacha bo‘lgan oraligni o‘n yilliklarga ajratgan: ya‘ni o‘ttiz yosh, qirq yosh, ellik yosh va nihoyat yuz yosh.

Har ikkala yoshnomada o‘ttiz raqami shu yoshdagi insonning turli taraflarini bo‘rrtirishga qaratilgan. “Kunlarim” yoshnomasida “O‘ttizimda otlar minib

chopardim” desa, “Jo‘shga yetding” she‘rida “O‘ttizingda qoshingdan, Tuman ketmas boshingdan”, - deydi. Guvohi bo‘linganidek, ikkala asarda ham o‘ttiz yoshli qahramonni mard va jasur, kurashda doim qo‘li baland kelgan chavandoz sifatida taniymiz.

Qirq yoshning poetik ifodalari ham nihoyatda qiziqarli. Bir yoshnomada “qoni quyilgani” xabari berilsa, ikkinchisida komillikka yetishgan inson gavdalanitiriladi. Darhaqiqat, qirq raqami qadimdan inson hayotidagi burilish nuqtalari bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Eski Ahdda aytilishicha, insonning eng uzoq umr ko‘rishi uch karra qirq, ya‘ni 120 yildir. Ko‘pchilik saltanat sohiblari, hatto Sulaymon va Dovud payg‘ambarlar ham qirq yil hukmronlik qilganlar. Qirq yoshni hayot bosqichining yakuni sifatida qabul qilgan Talmud va keyingi katolik cherkovi insonning “kanonlik davri” deb ham e‘lon qildi, chunki bu davrda miyaning to‘liq rivojlanganligiga ishora bor. Bu mulohazalarning betakror badiiy talqinini esa Maxtumquli yoshnomasida o‘qiymiz:

*Qirq yoshga qadam urding,
Komilsan – hushga yetding.*

Yoshnomalarga xos eng xarakterli belgilardan biri – lirik qahramon yoshiga muvofiq uning ruhiyatida yuz berayotgan o‘zgarishlar tasvirini mumtoz shoirlar ijodida ham uchratamiz⁵²³. Maxtumquli ham salaflari singari ellik yoshdan oshgan musulmonning qalbidagi iztiroblarni ta’sirchan ifoda etgan:

*Maxtumquli, aqlu hushing,
Oqdi ko‘zdan qonli yoshing,
Ellik bo‘ldi g‘amli boshing,
Bundan ziyod faryod bo‘lmas⁵²⁴.*

Modomiki, qirq yoshdan so‘ng umr yo‘li narigi tarafga enishga boshlar ekan, ellik yoshda endi ortga qaytishning umuman imkoni yo‘qligi, shuning uchun zarur tadoriklar ko‘rishga chaqirilmoqda.

⁵²³ Bu xususda yuqorida to‘xtalib o‘tdik (J.S.)

⁵²⁴ Maxtumquli. Asarlar. – Toshkent, 2013. – B. 283.

Maxtumquli yoshnomalarida ellik va oltmish yoshlarida qo'liga tasbeh olib, payg'ambar yoshiga yetganligidan faxr tuygan lirik qahramon yetmish yoshida og'riqlar ortgani, sakson yoshlarida jismonan zaiflik, to'qsonda esa aql-u hushdan begona bo'lganidan shikoyat qiladi:

*Yetmishimda og'riq keldi tizamga,
Saksonimda g'ubor indi ko'zimga.
To'qsonimda hush qolmadi o'zimda,
Aqlu hushdan judo bo'lgan kunlarim.*

Ko'rinadiki, lirik qahramonning zohiriy va botiniy olamini batafasil yoritishda raqamlarning mazmuniy ketma-ketligi qo'l kelgan. Shoir boshqa bir she'rida ham yetmish yoshga kirgan qariyaning ayanchli holi, tanasidagi quvvatsizlikdan kelib chiqadigan noqulayliklarni bir-bir qalamga oladi. Kitobxonni sergak torttiradigan bu ifodalar yetmish yosh iborasida yanada ishonchliroq mutoala qilinadi:

*Yetmishni qoralab olganda yoshing,
Qaltirab bir yerda turmaydi boshing,
Non chaynay olmaysan, atala oshing,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar* ⁵²⁵.

Ikkinchi yoshnomadagi badiiy manzara oldingi tuyg'ularning quyuqlashgan ko'rinishidek taassurot uyg'otadi:

*To'qsonda yanglishar so'z,
Qora ko'rinar oq – bo'z,
Qaqshar suyak, tinar ko'z,
Yuz ming andishga yetding.*

Anglashilganidek, shoir bunga to'qson, yuz, qora-oq ranglarni mahorat bilan istifoda etish bilan erishgan.

Ko'rinib turibdiki, yoshnomalarda raqamlarning o'ziga xos silsilasi keltirilgan. Ayniqsa, *bir, ikki, uch, to'rt, yetti, o'n to'rt, qirq, ellik, oltmish, yetmish* raqamlarining

⁵²⁵ Maxtumquli. Asarlar. – Toshkent, 2013. – B. 213.

mohiyati lirik qahramon hayotidagi muhim voqealar bilan uzviylik kasb etadiki, yoshnomalarni ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, bunda raqamlar janrning shakllanishida poydevor vazifasini o'tasa, uning ramziy ma'nosi asarning g'oyaviy qatlamdorligini ta'min etib beradi.

Maxtumquli she'riyatida raqamlar bilan bog'liq tasvirlar shular bilangina chegaralanib qolmaydi, albatta. Hayotiy, ishqiy, diniy va tasavvufiy holatlarni raqamlar mohiyati yoki raqamlar ramzi vositasida ifoda etish sharq xalqlari adabiyotida, xususan, she'riyatda o'ziga xos bir an'anaga aylangan, desak xato qilmagan bo'lamiz. Fikrimizning dalili sifatida shoir she'rlari orasida raqamlar "tili" bilan yaratilgan bir she'r matniga e'tibor qaratamiz:

*Haqiqat daftarin ochdim,
Bir yozilgan tumor ko'rdim.
Bu yurtidan u yurtga ko'chdim,
U yurtda e'tibor ko'rdim.
Bir uyda bor o'n ikki jon,
Xush kelibsiz, aziz mehmon,
Bittasida to'rt issiq non,
Yana yetti anor ko'rdim.
Mustafoga indi varaq,
Munkir bo'lgan – dindan yiroq,
Bir uyda o'n ikki chiroq,
To'rt mash'al, bir yonar ko'rdim.
Bu dunyoning bir yog'inda
Daraxtlar bitmish bog'inda,
Besh olma bor butog'inda,
Osilmish, barqaror ko'rdim.
Maxtumquli, ne fikring bor?
Sening uchun o'tdi davr,
Yetmish ikki suruvni bir
Cho'pon qo'lida bor ko'rdim* ⁵²⁶.

⁵²⁶ Махтумқули. Кўрсатилган манба. – Б. 499.

She'rda qo'llanilgan raqamli birikmalarga diqqat qaratilgan: bir tumor, bir uy, o'n ikki jon, to'rt issiq non, yetti anor, o'n ikki chiroq, to'rt mash'al, bir yonar, besh olma, yetmish ikki suruv, bir cho'pon. E'tibor bilan zehn solinsa, ushbu asar irfoniy mazmundagi bir asar ekanligi, she'rda ishlatilgan barcha raqamlar mohiyatiga shariat va tariqatga oid tushunchalar, diniy qarashlar mahorat bilan singdirib yuborilganligi seziladi.

She'rning birinchi misrasidayoq fikr ilohiy kitob – Qur'oni karim "Haqiqat daftari" ekanligi qayd etilib, uning musulmon olamidagi barcha insonlarni himoya qiluvchi, asrovchi kuchga ega ekanligi "Bir yozilgan tumor ko'rdim" misrasida ifoda etilgan⁵²⁷. Ahli sunnat va ahli shiaga mansub bo'lgan ko'pgina kitoblarda payg'ambarimizdan so'ng "o'n ikki imom" yoki "o'n ikki xalifa" peshvoligi va rahnamoligi borasida umumiy holatda so'z yuritiladi. Payg'ambarimiz Mustafo (s. a. v) dan yetib kelgan ba'zi hadislarida o'n ikki imomning ismi,

⁵²⁷ Tumor – insonlarning kasallik, ko'z tegishi, biror bir ofatdan saqlanish maqsadida Qur'on oyatlarini yozib, yonlarida olib yuradigan, odatda, uch burchak shaklida yasaladigan narsadir. Ko'pincha, himoya materialiga o'ralgan holda ishlatiladi. Din ahlari tumorni rad etib, qo'rquv, nazardan himoyalaniş, ba'zi xastaliklardan shifo topish uchun duo qilish, Qur'oni karimdan oyatlar o'qishga da'vat qiladilar. Chunki Qur'oni karimdan biror bir oyat yoki duolarni yozib, insonlarning osib yurishlari haqida Rasullohdan biror bir hadis etib kelmagan. Ammo Abdulloh ibn Umar (r.a.) hazrati payg'ambarning shunday buyurganliklarini aytadi: "Sizlardan kimdir uyqudan qo'rqsar, "Olohning g'azab va azobidan, insonlarning qilmishlari va shaytonlarning vasvasasidan nuqsoni bo'lmagan Oloh so'zlariga sig'inaman", desin. Ana shunda hech narsa unga zarar bera olmaydi!" Abdulloh ibn Umar "Nos" surasini yetti yoshgacha bo'lgan bolalar bo'yinlariga osib yurishliklarini, yetti yoshdan keyin har bir bolaga ushbu oyatlarni o'rgatilishini ham aytadi. Ba'zi islom fiqhshunoslari orasida Qur'oni karimdan oyatlarni yozib, insonlarning bo'yinlariga osib yurishlarini bid'at bilmaganlari ham bor. Faqatgina Olohga qilinadigan iltijolarni tumorga qilmaslik, Olohga qilingan umidvorlikni tumorga qilmaslik, tumordan madad tilash butunlay qoralanadi. Chunki dardning da'vosi tumordan emas, Olohdandir.

xususiyatlari, belgilari aytib o'tiladi: "Mening vorisim va o'rinbosarim (xalifam) Ali ibn Abi Tolib va undan so'ng ikki nabiram Hasan va Husayndir va (imom) Husayndan so'ng, Husaynning zurriyodidan bo'lgan to'qqiz imom kelurlar"⁵²⁸. "Bir uyda bor o'n ikki jon" misrasida o'n ikki imom nazarda tutilib, "to'rt issiq non", "yetti anor" raqamli birikmalari ham shariat va tariqatdagi maqomlarga ishoradir.

Qur'oni karimning nozil bo'lishi "Mustafoga indi varaq" mazmunida mujassam. Uning Haq kalomi ekanligi, 23 yil davomida Jabroil (a. s.) payg'ambarimizga yetkazib turganliklariga chin dildan ishonish lozimdir. Bularni inkor etish, Qur'oni karim Payg'ambarimiz (s. a. v.) yoki sahobalar tomonidan yaratilgan, degan da'voni ilgari surish munkirlikdir. Keyingi tasvirlar yanada qiziqarliroq: uy – islom dini, deya tasavvur qilsak, undagi yonar – Muhammad payg'ambar alayhissalomdir. Chunki dinning asosini yaratgan, Alloh taoloning seviklisi, yaratilgan butun insoniyat va maxluqotning eng yuksagi, eng sharaflisi bo'lgan Muhammad (s. a. v.) ikki olam quyoshi, deb ham ta'riflanadi. Demak, "bir yonar" deganda Muhammad payg'ambarning nafaqat islom olami, balki butun yer yuzini munavvar aylagan sifatleri nazarda tutilmoqda. Payg'ambarimiz vafotlaridan keyin xalifalikni boshqargan, qo'shni yerlarni fath etib, islom bayrog'i ostida birlashtirishga rahnamolik qilgan to'rt xalifa – hazrati Abu Bakr, hazrati Umar, hazrati Usmon va hazrati Alilardir. "Xulafo ar-roshidin" nomi bilan tilga olingan bu xalifalar "choryor" deb ham yuritiladi. O'ttiz yilcha davom etgan bu to'rt xalifa hukmronlik yillari "islomiyatning oltin asri" deya e'tirof etiladi. Chunki bu davrda payg'ambarimiz futuhotlari oxiriga yetkazilgan, mukammal davlat qurilishi amalga oshirilgan, islom yetib borgan o'lkalarda barqarorlik o'rnatilgan. Shuning

⁵²⁸ Шайх Сулаймон ибн Иброҳим Кундузий Ҳанафий. Янобий'ул маваддаҳ. 3-ж. – Б. 500.

uchun ham payg'ambarimiz "yonar"ga, to'rt xalifa esa "to'rt mash'al"ga qiyos qilinmoqda. To'rt xalifadan keyin islom olamini hazrati Ali va Fotimadan tarqalgan avlodlardan iborat o'n ikki imom boshqarganligi ma'lum. "O'n ikki chiroq" – o'n ikki imomdir. Demak, islom dinini "bir uy" sifatida tasavvur qilgan shoir payg'ambarimizni "yonar" – quyoshga, choryorlarni – "mash'al"ga, o'n ikki imomni esa "chiroq"ga qiyos qilmoqda.

*Bu dunyoning bir yog'inda
Daraxtlar bitmish bog'inda,
Besh olma bor butog'inda,
Osilmish, barqaror ko'rdim.*

Bizning-cha, ushbu misralardagi "besh olma" – "oli abo" bilan bog'liq. Shoirning yana bir she'rida "Ahli bayt" birikmasi tilga olinadi:

*Ehlibeyt için ağlaşır, nârası arşa yetip,
Köle kıldı ben fakiri, bak, o felek bir tutup,
Millete oldu maskara, kaldım hayretler edip,
Yolladı hicran şehrine, o ecel yemin satıp,
Gitti sabrım, takatım, mihribândan ayrılıp⁵²⁹.*

"Bu she'r islomning muhim diniy figuralaridan biri bo'lgan "Ahli bayt"ga ixlos va bu ixlosni ifoda etuvchi marsiyadir. Bu satrlarda shoir "Ahli bayt"ga bo'lgan muhabbat va hurmatini chuqur tuyg'u va samimiyat bilan ifodalaydi", – deydi turk olimi Cem Erdem⁵³⁰. Umuman olganda, Maxtumdulining tasavvufiy ruhda yaratilgan she'rlaridagi asosiy obrazlardan biri Hazrati Alidir. Shoir she'rlarida Hazrati Alining donoligi, adolati, jasorat va muhabbati tasvirlansa, Hazrati Alidan keyingi imomlarning jamiyatda hukm surayotgan adolatsizlik,

⁵²⁹ Mahtumkulu. Bütün Eserleri. – Ankara, 2014. S. 59. (O'zbek tiliga o'g'irilgan Maxtumdul she'rlari nashrida ushbu she'rni topolmaganimiz sababli Turkiyada nashr qilingan manbadan oldik va turk alifbosida berdik (Dj.S.).

⁵³⁰ Cem Erdem. Türkmen şairi Mahtumkulu Firaki'de Ehlibeyt sevgisi ve on iki imam \ SÜREK Alevilik – Bektaşilik ve Kültür Araştırmaları Dergisi, Sayı 1, 2023. – S. 38.

shafqatsizlik va zulmga qarshi kurashlari qalamga olinishi bilan birga ma'naviy yo'lchiliklariga ham e'tibor qaratiladi. "Bag'ishla bizni" radifli she'rida ham shoirning Hazrati Ali va Fotima hamda o'n ikki imomga bo'lgan ehtiromini ko'rish mumkin. Boshqa bir she'rda esa "o'n ikki imom"ni tilga olgan shoir "yetti" vali"dan madad so'raydi.

*On İki İmam ki birbirinden server,
Yedi veli, yâren olup, medet ver,
Meşhet, Kara Baba, ya Şis peygamber,
Hasan, Hüseyin, Şâh-ı merdan, şifa ver⁵³¹.*

Yetti valiy, yetti avliyo yoki yetti pir islomda tez-tez uchraydigan tushuncha bo'lib, Allohning do'sti, degan ma'noni beradi. Allohga yaqinliklari va ma'naviy darajalarining yuksakligi bilan tanilgan yetti avliyo. Keyingi misralarda berilgan joy va shaxs nomlari ham diniy shaxslarga aloqador bo'lib, "Shohi mardon" deyilganda esa Hazrati Ali nazarda tutilmoqda. Bunday diniy shaxslar va ularga murojaat qilish raqamlar bilan bog'liq qarashlar hamda raqamli birikmalar mohiyatini yanada oshirishda xizmat qilgan. Tahlil qilayotganimiz she'rning oxirgi bandida yana ikki o'rinda raqamli birikma ishtirok etgan:

*Maxtumduli, ne fikring bor?
Sening uchun o'tdi davr,
Yetmish ikki suruvni **bir**
Cho'pon qo'lida bor ko'rdim.*

"Yetmish ikki suruv" – yetmish ikki millat yoki yetmish ikki firqa ma'nolarini beradi. Chunki payg'ambarimiz (s.a.v)ning Imom at-Termiziydan yetib kelgan hadislaridan birida "Albatta, bani Isroil yetmish ikki millatga bo'linib ketgandir. Ummatim yetmish uch millatga bo'linadi, faqat bitta millatdan boshqa barchasi do'zaxda bo'ladi", – dedilar. Shunda sahobalar: "Ey, Allohning Rasuli, ular kim?" – deb so'rashdi. U zot:

⁵³¹ Mahtumkulu. Bütün Eserleri. – Ankara, 2014. – S. 502.

“Mening va sahobalarimning yo‘lida bo‘lganlardir”, – dedilar. O‘zbek ijodkorlarining asarlarida “yetmish ikki millat” ifodasini uchratmagan holda usmonli turk adabiyoti vakili Yunus Emro va turkman shoiri Maxtumquli she‘riyatida bu birikmaga qayta-qayta duch kelish mumkin. “Yetmish ikki millat ko‘mar o‘lgin” yoki “Yetmish ikki millat bo‘lak-bo‘lakdir” singari misralarda yuqoridagi hadisda kelgan tushuncha ifodasi berilgan. “Yetmish ikki suruv” – bani Isroilga tegishli fiqaralar sonini anglatayotgan bo‘lsa, “bir cho‘pon” Muso (a. s.) ning o‘n yil davomida Shuayb (a. s.)ning qo‘ylarini boqib, cho‘ponlik qilganliklariga ishoradir. Demak, she‘rda keltirilgan barcha raqamlarning mohiyatida diniy qarashlar ifoda etilgandır.



XULOSA

1. Raqamlar dastlab xalq tafakkuri va dunyoqarashida muhim rol o‘ynagani sababli ham xalqning e‘tiqodiy qarashlari, og‘zaki ijodi va badiiy tafakkur mahsullarida ularga alohida e‘tibor qaratilgan. Raqamlarga oid qarashlarning aksariyati borliqning paydo bo‘lishi, osmon, yer va insonning yaratilishi, inson hayotidagi juda ko‘plab holatlar bilan bog‘liq ravishda talqin etiladi. Ba‘zi raqamlarni ijobiy fazilatlarga ega deb bilish, ba‘zilariga esa salbiy kuch sohibi sifatida qarash mifologik dunyoqarashga asoslangandır. Xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va iboralar tarkibida kelgan, folklorning bir qancha janrlarida keng qo‘llanilgan raqamlar keyinchalik yozma adabiyot, xususan, she‘riyatdan o‘rin olgan. Bu holat fikrni ixcham va lo‘nda ifoda etish, shu bilan birga, ta‘sirchanligini oshirish uchun xizmat qilgan. Mifologik qarashlar va diniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan uch, yetti, to‘qqiz singari raqamlar o‘ziga xos ma‘nolari bilan xalq e‘tiqodidan mustahkam o‘rin olgan, bu holat ushbu raqamlarni muqaddas raqam sifatida e‘tirof etilishiga sabab bo‘lgan.

2. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida raqamlar muhim badiiy vazifani bajaradi. Bu vazifa, ayniqsa, ikki, uch, to‘rt, yetti, qirq singari raqamlar zimmasida bo‘lib, ular ertak qahramonlari sonini anglatishda (“uch aka-uka”, “yetti qaroqchi”, “qirq vazir”, “qirq qaroqchi”, “qirq qiz”, “qirq yigit”), predmetlar miqdorini ifoda etishda (“uch o‘q”, “qirq sandiq”, “qirq zina”, “qirq kalit”, “qirq tanga”, “qirq tilla”), asarda ishtirok etayotgan obrazlarning tashqi ko‘rinishini (“uch kokilli yigit”, “uch boshli ilon”), o‘lchamni (“yetti qavat parda”, “qirq arqon”), qahramonlarning harakatlarini tavsiflashda (“yetti marta takrorlash”, “qirq kunlik safarga chiqish”, “qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l yurish”), mifologik vaqtni ifoda etishda (“uch kecha-yu uch kunduz uxlash”, “yetti kecha-yu yetti kunduz yo‘l yurish”, “qirq kun”, “qirq

kecha", "qirq yil"), olamning vertikal ("uch olam": borsa – kelar, borsa – xatar, borsa – kelmas", "yetti qavat yer", "yetti osmon") va gorizontal ("to'rt tomon", "to'rt ko'cha", "to'rt taraf", "yetti yo'l", "yetti tog'") tuzilishini tasvir etishda, avlodlar aloqasini ("yetti og'a-ini", "yetti avlod", "yetti pusht") anglatishda faol qo'llaniladi. Raqam ertak va dostonlar sujetini qurishda zaruriy komponent hisoblanadi, qahramon oldiga qo'yilgan uch shart, yo'lda uchragan uch to'siq va boshqalar ertak hamda doston sujetining asosiy shakllantiruvchi unsurlari hisoblanadi. Bu esa raqamlarning xalq qarashlarida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, badiiy tafakkurda alohida ahamiyat kasb etganligidan darak beradi.

3. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayotida raqamlarning o'ziga xos kuchi va "sehr"iga e'tibor qaratish islom dini kirib kelmasdan ancha avval mavjud edi. Shomonizmga e'tiqod qiluvchi turkiy xalqlar uch, yetti, to'qqiz, qirq singari raqamlarga alohida e'tibor qaratishgan. Xususan, Quyosh, Olov va Suv tangrisiga e'tiqod qo'yish bilan uch raqamining "sehrli" kuchiga ishonch paydo bo'lgan. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, "Avesto", "Oltin yorug" va "O'g'uznoma" asarlarida raqamlar o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, raqamlar bilan bog'liq qarashlar va ular zamiriga singdirilgan ma'no-mazmun islomgacha bo'lgan davrda yashagan, turli diniy shakl va oqimlarga e'tiqod qo'ygan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Shunisi e'tiborliki, raqam va uning mohiyatida ko'zda tutilgan qadimgi ma'no-mazmun turkiy xalqlarning keyingi davr an'analari, urf-odatlar, maishiy va ijtimoiy hayotida ham faol qo'llanilgan.

4. Islom dinida raqamlarga va ularning ramziy mohiyatiga alohida e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Qur'oni karim oyatlari va hazrati Muhammad (s. a. v.) hadislariga tayangan holda bir raqami – Alloh taoloning ramzi sifatida kelishini, ikki raqami yaratilgan jamiki

yaratilgan mazmunini berish, uch raqami olamdagi yaratilgan sonini anglatish, to'rt raqami insonning paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan unsurlarni bildirish uchun xizmat qilishini ta'kidlash mumkin. Olti raqami olamning yaratilishi bilan bog'liq bo'lsa, yetti raqami osmon va yerning tuzilishi bilan aloqador raqam sifatida e'tirof etiladi. Qirq raqamiga bo'lgan o'zgacha e'tiborning asosiy sababi sifatida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning qirq yoshlarida vahiy olganliklari e'tirof etiladi. Shuningdek, bu raqam mohiyatida Odam (a. s.), Nuh (a. s.), Muso (a. s.), Iso (a. s.)lar hayoti bilan bog'liq hodisalarga ishora ham borki, ana shu jihatlarda qirq raqamiga o'ziga xos e'tibor va munosabatdan darak beradi.

5. Tasavvuf adabiyotida koinot va insonning yaratilish jarayoni bilan aloqador fikrlar bayonida raqamlar majoz sifatida borliq falsafasining sharhi uchun xizmat qildirilgan. Mavolidi salosa, anosiri arba'a, havosi xamsa, olti jihat, sa'boyi samovot, hasht behisht va to'qqiz (nuh) falak ifodalari raqamlarsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, ushbu ifodalarning barchasi tasavvufiy qarashlar bilan uzviy aloqadorligini ham e'tiborda tutish lozim. Bu raqamli birikmalar orqali tasavvuf ahli har doim ham jismoniy mavjudliklarni emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga ham diqqatni jalb etishgan. "Uch yuz oltmish tomir", "to'rt yuz qirq to'rt so'ngak" ifodalari olami kubrodagi barcha narsalarning olami sug'roda ham mavjud ekanligini dalillash uchun ishlatilgan. Irfoniy ruhdagi asarlarda uchraydigan "yetmish ming hijob", "to'qson ming kalom" singari raqamli birikmalar me'roj voqeasi bilan aloqador bo'lsa, qutb, naqib, avtod, abror, abdol, ahyor singari olamni ma'naviy jihatdan idora qilishga mas'ul bo'lgan valilar jamoasi bevosita raqamlar bilan bog'liqdir. Shuningdek, tasavvuf adabiyotida "Alif" harfi vositasida Allohga, "Be" harfi orqali payg'ambarimiz

Muhammad (s. a. v.)ga ishora etilganligi sababli ham mutasavvif ijodkorlar bir va ikki raqamlarining aynan ana shu ma'nolariga urg'u berishgan. Umar Xayyom, Ahmad Yassaviy, Nasimiy, Alisher Navoiy, Mashrab singari Sharq ijodkorlari asarlarida "Bir-u Bor" ifodasi Allohning birligi va borligini ifoda etish uchun qo'llanilganligi buning yorqin dalilidir.

6. Turkiy yozma adabiyotda raqamlar bilan bog'liq qarashlar va raqamlar mohiyatiga e'tibor masalasi ancha qadimdan, to'g'rirog'i, Yusuf Xos Hojib ijodi bilan boshlangan. "Qutadg'u bilig" asarida to'rtta asosiy qahramon va insondagi to'rtta fazilatni ifoda etish orqali to'rt raqamiga, osmon jismlari va samo yoritkichlarini tasvirlash orqali yetti va o'n ikki raqamlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, "to'rt sodiq do'st", "to'rt toza do'st", "ikki kuyov", "ikki qaynota" singari raqamli birikmalarda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning izdoshlari bo'lgan to'rt xalifa madhi ifoda etilgan. Shuningdek, bir va ming raqamlarini bir-biriga zidlash orqali inson ma'naviyati uchun daxldor bo'lgan masalalar ham ilgari surilgan. Komillik martabasiga erishish yo'llari sanalgan shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari to'rt raqami orqali timsollashtirilganligini Ahmad Yassaviy hikmatlari va "Faqrnoma" asari orqali ko'rish mumkin. Shuningdek, uch yuz oltmish, yuz ming singari raqamlarning adabiyotdan erkin o'rin egallashi diniy-tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq ekanligi Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy asarlari tahlili orqali ayonlashadi.

7. O'zbek mumtoz adabiyotida raqam orqali o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifoda etgan, har bir raqamga ijodkorlik bilan yondashgan, raqam va uning mohiyatiga ishora qilishda katta mas'uliyat bilan munosabatga kirishgan ijodkor, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Navoiyning raqamlarga munosabatini tasavvur qilish uchun "Favoyid ul-kibar" devonidan joy olgan "Tariqi ishq aro gar o'zni fard qilsa birov..." deb boshlanuvchi

g'azalga e'tibor qaratish yetarli. G'azalda birdan sakkizgacha bo'lgan raqamlar mohiyatidagi ramziy ma'nolarga ishora qilingan. Jumladan, "fard", "yer-u ko'k ikkiligi", "mavolid", "anosir", "havodis", "olti zarurat", "yetti ko'k", "yetti tamug", "sekiz uchmoq" singari birikmalar tarkibida kelgan raqamlar muallifning fikr izchilligiga erishuvida alohida ahamiyat kasb etganligi ko'zga tashlanishi bilan birga, shoirning san'atkorlik mahoratini raqam orqali ifoda etishga ham asos bo'lgan. Alisher Navoiy Sharq adabiyoti an'alarini puxtalik bilan egallagan va o'z asarlarida san'atkorlik namunalarini ko'rsatib, ulardan mohirona foydalana olgan ijodkor bo'lganligi sababli ham shoir asarlarida qo'llanilgan raqamlar tilga kiritilsa, o'quvchi ko'z o'ngida yangicha ma'no olami ochiladi. Ayniqsa, "tomsa to'qqiz, oqsa o'ttuz" ifodasining shoir g'azallarida takror-takror kelishi, turkiy xalqlar an'ana va odatlari bilan aloqador bo'lgan to'qqiz va o'ttiz raqamlari mohiyati aks etgan tasvirlar, bevosita diniy va tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq "yuz yillik o'luk", "o'n sakkiz ming olam" birikmalaridagi har bir raqam Navoiyning nafaqat shoir, balki o'z davrining yirik tasavvufshunos olimi va tarixchisi ekanligini ham dalillaydi.

8. Alisher Navoiy nafaqat g'azal, balki lirikaning boshqa janrlariga mansub asarlarida ham raqamlar mohiyatiga urg'u berish, raqamlar vositasida lirik kechinma va his-tuyg'ularni tasvirlash, hayotiy xulosalar va fikrlarni ifoda etishga e'tibor qaratgan. Shoir qit'alarida bir, ikki, uch, yetti, to'qqiz, yuz, ming singari raqamlar vositasida hayotiy haqiqatlar ifoda etilganligini kuzatish mumkin. Raqamlarga aloqador fikr-qarashlar ulug' mutafakkirning foniy dunyoga munosabati boshqa ijodkorlarnikidan farq qilganligini ko'rsatadi.

9. Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi dostonlar va "Lison ut-tayr"da olam va odamning yaratilishi haqidagi ma'lumotlarni berishda qo'llanilgan yetti ko'k, to'rt unsur va uch mavlid singari tushunchalar ko'pincha, tasavvufiy

mohiyat kasb etib, yetti ko'k otaga, to'rt unsur onaga, uch yaratiq esa farzandga qiyos qilinganligi e'tiborni tortadi. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo mo'jizalari – bir barmoq ishorasi bilan oyni ikkiga bo'lganliklari, me'roj tunida falaklar osha sayr etganliklari, moddiy olamga tegishli bo'lgan xususiyatlar (to'rt unsur va olti jihat)dan xalos bo'lgan holda Arshi a'loga yuksalganliklari, Jabroil (a. s.) yoki Haq Taologa ikki qosh orasidek yaqin masofada turganliklari, nuzul vaqtida samodagi o'n ikki burj va sayyoralarning payg'ambarimizga ko'rsatgan ehtiromlari – ushbu tasvirlarning barchasida raqamlarning faol ishtirokini ko'rish mumkin. Ammo shoir dostonlarida keltirilgan raqamlar mohiyatida ba'zan xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan jihatlarni ham uchratish mumkin. Xususan, "Saddi Iskandariy" dostonida darveshlikni ixtiyor etgan shahzodaning Iskandarga qo'ygan to'rt sharti yoki "Lison ut-tayr" dostonida tarso qizning Shayx Sa'nondan to'rt narsani talab qilganligi singari motivlar folklor asarlari ta'sirida yuzaga kelgan. Ammo "Farhod va Shirin"da Suqrot huzuriga yo'l olgan Farhodning to'rt manzildagi to'rtta to'siqni yengib o'tishi, "Lison ut-tayr"da Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan qushlarning talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, farq-u fano deb yuritiladigan yetti vodiyni bosib o'tishlari tasavvuf falsafasi bilan uzviy bog'liqdir.

10. Navoiy dostonlarida to'qqiz raqamiga alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlash o'rinli. Bu raqamning ikki xil mohiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin. Birinchidan, to'qqiz osmon (ko'k, falak) tushunchasi tarkibida kelib, shoir falaklar tasvirini berishda to'qqizinchi osmonga o'zgacha yondashadi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, sakkiz osmonning harakatlanishi bilan to'qqizinchi osmonning yo'nalishi bir-biriga qarama-qarshi. Shuningdek, to'qqizinchi osmon barcha osmonlarni o'z ichiga olgan. Ammo diniy nuqtayi nazardan e'tibor qaratiladigan bo'lsa, to'qqizinchi osmon Arshi a'lo. Navoiy

bu osmonni boshqa ko'klarga nisbatan alohida ehtirom bilan qalamga olmasligi mumkin emas. Ikkinchidan, Navoiy asarlaridagi ba'zi tasvirlar xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an'analarida to'qqiz raqamiga alohida e'tibor qaratilganligiga ishora qiladi. Ehtiromli va e'zozli kishilar qarshisida ta'zim bajo keltirishning aynan to'qqiz marta takrorlanishi turkiy xalqlar hayotida bu raqamning alohida e'tiborga molik ekanligini dalillaydi. Tarixiy asarlar, jumladan, Boburning "Boburnoma" asarida ham ushbu odat haqida berilgan ma'lumotga tayanilsa, Navoiy dostonlaridagi sujetlar hayotga naqadar yaqinlashtirilganligiga amin bo'lish mumkin.

11. Alisher Navoiydan keyingi davrda adabiyot maydoniga kirib kelgan shoirlar ijodida raqam va uning mohiyatiga ishora qilish an'anasi davom etganligini ko'rish mumkin. Bobur ijodida raqamlar lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlash yoki ma'noni kuchaytirish va ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qilgan. Mashrab va Huvaydo ijodida esa raqamlardan tasavvufiy mazmun-mohiyatni anglatish uchun foydalanilgan. Diniy-tasavvufiy mohiyat kasb etgan tushunchalar tarkibidan "bir nukta", "bir dona", "bir qatra", "bir jilva", "haft osmon", "yetti do'zax", "ming ma'ni", "ming dona", "qirq yil" singari raqamli birikmalarning birmuncha erkin joy egallaganligi raqamlarga alohida e'tibordan darak beradi. Natijada, raqamlarning badiiy obraz darajasiga ko'tarilganligiga ham guvoh bo'lish mumkin. Huvaydo she'riyatidagi abjad hisobi bilan bog'liq raqamlar vositasida yaratilgan badiiy obrazlar shu jihati bilan e'tiborga molikdir. XVI-XIX asrlar turkiy adabiyotda Navoiyga munosib izdosh bo'lgan ijodkor Muhammad Rizo Ogahiydir. Ogahiyning Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslarida ham, lirikaning kichik janrlarida ham raqamlarga murojaat va raqam orqali ma'no anglatish ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan, ayniqsa, odam va olamning yaratilishini raqamlar mohiyati orqali ifoda etgan ruboiysi e'tiborga

molikdir. Mumtoz ijodkorlar asarlarida uchraydigan ramziy raqamlar yoki raqamlar mohiyati har doim ham diniy, tasavvufiy va falsafiy qarashlarni ifoda etmasligini, baʼzan hayotiy haqiqatlarni tasvirlashda ham raqamlarga murojaat qilinganligini Turdi Farogʻiyning ijtimoiy-siyosiy ruhdagi gʻazallari, Furqatning mashhur “Uch xarobotiy” musaddasidagi raqamlar dalillaydi.

12. Mumtoz adabiyotda shunday asarlar yaratilgan, ki, ularning poydevori raqam ustiga qurilgan. Muallifning tarjimaiy holi bayon etiladigan, asar qahramoni hayotida yuz bergan muhim voqealar yosh xususiyatlari bilan bogʻliq holda qalamga olinadigan yoshnomalarda raqam yetakchilik qiladi. Yoshnoma xarakteridagi asarlar dastlab xalq ogʻzaki ijodida, keyinchalik bitiktoshlar matnlarida va qadimgi yozma adabiyot namunalarida uchraydi. Shuning uchun ham uning genezisi va taraqqiyotini folklor asarlari, Oʻrxun-Enasoy yozma yodgorliklari va “Qutadgʻu bilig” singari turkiy adabiyotning qadimgi davri namunalari bilan bogʻlash maqsadga muvofiqdir. Yoshnomalarda asar qahramoni hayotidagi muhim voqealarni bayon qilar ekan, bevosita raqamlarga murojaat etadi. Ayniqsa, bir, ikki, uch, toʻrt, yetti, oʻn toʻrt, qirq, ellik, oltmish, yetmish raqamlari mohiyatiga urgʻu beriladi. Lirik qahramon yoshi bilan bogʻliq holda uning ruhiyatida yuz berayotgan oʻzgarishlar tasviri bu turkumdagi asarlarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Yoshnomaning yozma adabiyotdagi yetuk namunasini Ahmad Yassaviy yaratgan. “Devoni hikmat”dagi yoshnomada Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar adabiyotida birinchi marta tasavvufiy kontekstda ruhning sayrini yoshlar uzra ifoda etgan. Shuning uchun ham bu yoshnoma oddiy tarjimaiy hol yoki qahramonning hayotida yuz bergan muhim voqealar bayonidan iborat boʻlmay, ruhiy yuksalish tasviri aks etgan asar ekanligini taʼkidlash zarur. Yassaviyning tasavvufiy-ruhiy yoshnomasi quyidagi ketma-ketlik asosida qurilgan: Meʼroj – bazmi alast – ona botini – dunyo hayoti (1-63 yosh) – chil-

laxonada ruhning yuksalishi. Aytish mumkinki, bu ketma-ketlik keyingi davrlarda yaratilgan tasavvufiy ruhdagi barcha yoshnomalar uchun namuna sifatida qabul qilingan. Tasavvuf adabiyotida mazmun nuqtayi nazaridan insonning ruhlar olamidani oxirat dunyosiga qadar boʻlgan umr yoʻlidan bahs yuritadigan, shakl jihatdan xilma-xil boʻlgan bunday asarlarda yaratilish jarayonining simvolik tasviri uchun raqamlarga murojaat qilinadi, shu nuqtayi nazardan baʼzi raqamlarning ramziy ishoralaridan foydalaniladi. Inson yaratilishining tasavvufiy mohiyati aks etgan vujudnomalarda esa toʻrt unsur, olti jihat, yetti sayyora, toʻqqiz koʻk, uch yuz oltmish olti, toʻrt yuz qirq toʻrt singari raqamli birikmalar ishlatiladi. Ifoda etilayotgan har bir raqam mohiyati tasavvuf taʼlimoti bilan uzviy bogʻliq boʻlib, insonning yaratilishi, vujudning shakllanishi va inson qiyofasiga kelishi, inson tanasida muhim ahamiyat kasb etgan tomir va suyaklar miqdori raqamlar vositasida tasvir etilgan. Shuning uchun ham vujudnoma mazmunidagi asarlarni, xoh u hikmat boʻlsin, xoh gʻazal tarkibida kelgan alohida bir bayt boʻlsin, raqamlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi.

13. Mumtoz shoirlar sheʼriyatidagi raqam bilan bogʻliq tushunchalar, raqam ramzlari shunchaki qoʻllanilmagan, balki har bir ijodkor raqam mohiyatini yoritishda sanʼatkorlik namunalarini koʻrsatishga harakat qilgan. Oʻz navbatida, poetik sanʼatlar raqamlar bagʻrida yashiringan maʼno sir-asrori bilan chuqur qiziqishga undaydi. Birdan oʻngacha boʻlgan raqamlarni ketma-ket keltirish yoʻli bilan badiiy maqsad ifoda etilgan, shu bilan birga, shoir mahorati namoyon boʻlgan ijod namunalari anchagina. Oʻzbek mumtoz adabiyotida raqamlar vositasida fikrni taʼsirchan ifoda etish, raqam mohiyatiga eʼtibor qaratish orqali maʼnoni kuchaytirishga erishilganligini koʻrish mumkin. Bunda bir va yuz, bir va ming raqamlarini bir-biriga zidlash orqali badiiy maqsad ifoda etilgan.

14. Har bir shoir poetik g'oya va tasvir talablariga muvofiq tarzda badiiy san'atlarga murojaat qilgan. Mubolag'a, takrir, talmeh, tardi aks, ruju', ta'did singari poetik san'at turlarida raqamlar bilan bog'liq qarashlar mahorat bilan ifoda etilgan. Laff va nashr, takrir san'atlari qo'llangan o'rinlarda raqamlar ifoda etilayotgan ma'no, his-tuyg'u yoki kechinma tasviriga alohida e'tibor qaratish uchun xizmat qilgan. Istiora, ruju', irsoli masal, tardi aks san'atlariga nisbatan raqamlar vositasida tajnis san'ati hosil qilish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Sakkokiy, Navoiy, Bobur va ayniqsa, So'fi Olloyor singari ijodkorlar raqamlarni ikki xil ma'noda istefo'da etgan holda go'zal poetik tasvirlar yaratishga erishganlar. Lirik qahramon holatini mubolag'ali tasvirlashda mahorat namunalarini ko'rsatgan sharq shoirlari ayrim hayotiy haqiqat hamda insoniy fazilatlarga e'tibor qaratish, ba'zi jihatlarni alohida ta'kidlash uchun ta'did san'atiga ham murojaat etishgan va bunda raqamlar nazardan chetda qoldirilmagan. Shuning uchun ham raqam tatbiqi nuqtayi nazaridan mumtoz shoirlar tajribalari o'rganilsa, raqamlardan ma'lum bir mavzu, tushuncha va haqiqatga oid bo'lgan mazmunni ta'kidlash usuli sifatida foydalanganliklariga ishonch hosil qilamiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

II. Илмий-назарий адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. 2017 йил 7 феврал.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ПК-2789-сонли “Фанлар академияси фаолияти илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2017 йил 17 февраль.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ПК-3652-сонли “Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2018 йил 5 апрель.

4. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б.400.

5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири С.Дониёров саволларига жавоблар. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 17 август.

II.1. Миллий нашрлар

6. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 1993. 1-жилд. – 305 б.

7. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2 жилд-лик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 208 б.

8. Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1977. – 128 б.
9. Абдуғафуров А. Қалб қаъридаги қадриятлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – 216 б.
10. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – 192 б.
11. Абдул-футуҳ Шайх Аҳмад Ғаззолий. Баҳрул маҳабба. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 352 б.
12. Аvezов С. Санама жанри табиати ва бадиияти. – Тошкент: Фан, 2008. – 138 б.
13. Али Қушчи. Астрономияга оид рисола. – Тошкент: Фан, 1968. – 102 б.
14. Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. – Тошкент, Ўзбекистон. 2018. – Б. 136.
15. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 232 б.
16. Беруний Абу Райҳон. Қонуни Маъсудий. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
17. Бобомурод Эрали. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 80 б.
18. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент, 1996. – 344 б.
19. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. – 500 б.
20. Давлатов О. Маънолар хазинаси. Иккинчи китоб. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – 360 б.
21. Жаббор Эшонқул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 172 б.
22. Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 122 б.
23. Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Тошкент: Фан, 2010. – 124 б.
24. Жўраев М., Холмуҳамедов К. Етти иқлимдаги “еттилар”. – Тошкент: Фан, 1989. – 68 б.

25. Жўраев М. “Сеҳрли” рақамлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – 112 б.
26. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сеҳрли” рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – 162 б.
27. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – 292 б.
28. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – 308 б.
29. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 184 б.
30. Иброҳим Ҳаққул. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 154.
31. Иброҳим Ҳаққул., Э. Очилов. Ишқ ва ҳайрат олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 304 б.
32. Иброҳим Ҳаққул. Талант – жасорат жавҳари. – Тошкент: Муҳаррир, 2018. – 284 б.
33. Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. 4-китоб. – Тошкент: Тафаккур, 2021. – 240 б.
34. Иброҳим Ҳаққул. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021. – 288 б.
35. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент: Фан, 1981.
36. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – 256 б.
37. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 16-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – 272 б.
38. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 17-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – 272 б.
39. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 25-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – 216 б.
40. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 29-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – 216 б.

41. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент, Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
42. Исҳоқов М. ва бошқалар. Ўлмас обидалар. – Тошкент: Фан, 1989. – 444 б.
43. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 326 б.
44. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009. – 448 б.
45. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: Тамаддун, 2012. – 316 б.
46. Кун Н.А. Қадимги юнон афсона ва ривоятлари. Самарқанд: Зарафшон, 2005. – 250 б.
47. Манзар Абдулхайр. Тимсол тадрижи (XV-XXI аср адабий манбалари мисолида). – Тошкент: Яшил япроқ нашриёт-матбаа уйи, 2021. – 244 б.
48. Мақсуд Шайхзода. Асарлар. 6 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 372 б.
49. Мустаев К.Т. Поэтика цвета и числовых знаков-символов в “Песне о Роланд” и “Алпамыше”. – Самарканд, 1995.
50. Мўмин Ҳотамзода. Ўн саккиз минг олам ва ислом. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – 432 б.
51. Насимхон Раҳмон. Турк ҳоқонлиги. Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 144 б.
52. Низомиддин Н.Ғ. Қадимги Хитой тарихи, диний эътиқоди ва маданияти. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – 386 б.
53. Насафий. Зубдат ут-ҳақойиқ. – Тошкент, 1987. – Б. 117
54. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 338 б.
55. Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг табobati. Таржима ва изоҳлар муаллифи Собиржон Арзиқулов. – Тошкент: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019. – 212 б.

56. Рафиддин С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – 160 б.
57. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Хўжанд, 1972. – 180 б.
58. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Сано-стандарт, 2017. – 556 б.
59. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: 2010. – Б. 85.
60. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. Тошкент, Ўқитувчи, 1985. – 250 б.
61. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 180 б.
62. Тура Мирзаев. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008. – С. 410.
63. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Баёз, 2013. – 192 б.
64. Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – 104 б.
65. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – 194 б.
66. Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳаёти, ижоди, анъаналари. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2001. – 336 б.
67. Хожа Бектоши Валий. Мақолот. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2000. – 56 б.
68. Хожа Юсуф Ҳамадоний. Рисолалар. – Тошкент: Мовароуннахр, 2018. – 224 б.
69. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – 264 б.
70. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жуз. – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2021. – 656 б.
98. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
71. Қаюмов А. Етти саёҳатчи / Асарлар. I жилд, 2-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. Б.138-24.

72. Қажумов А. Шеърят жилолари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 92-93.

73. Қуръони карим маъноларининг таржимаси. (Абдулазиз Мансур таржимаси). – Тошкент: Ислон университети, 2001. – 619 б.

74. Ғаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 64 б.

75. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 372 б.

76. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 328 б.

77. Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Тошкент: Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – 190 б.

78. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Аб.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – 112 б.

2. Хорижий нашрлар

79. Abdülaziz Debbağ. Kitab ül-İbriz. – İstanbul, 1997. – S. 628.

80. Abülbaki Gölpınarlı. Mesnevi Tercemesi ve Şerhi. I-II. Cild. – İstanbul, 2024. – S. 269.

81. Abdurrahman Güzel. Dini Tasavvufi Türk Edebiyatı. – Ankara: Akçağ yayınları, 1999. – S. 680.

82. Abdurrahman Güzel. Dini Tasavvufi Türk Edebiyatında Dört Kapı-Kırk Makam. – Ankara, 2023. – S. 476.

83. Annemarie Shimmel. Sayıların Gezimi. (Çevirmen Mustafa Kürüşoğlu). – İstanbul, 2017. – S. 338;

84. Ali Nihat Tarlan. Fuzulî Devanî Şerhi. – Ankara: Akçağ, 2018. – S. 718.

85. Аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой. – М.: Ганга, 2019. – С. 688.

86. Афанасьева В. К. Гильгамеш и Энкиду. Эпические образы в искусстве. – М.: Наука, – С. 219.

87. Барташевич Г.А. Рифмованные жанры белорусского детского фольклора. – Белорусия, 1976.

88. Бородин А.И. Число и мистика. – Донецк: Донбас, 1975. – С.152.

89. Ветловская В.Е. Символика чисел в «Братях Карамазовых».

90. Виноградов Г.С. Русский детский фольклор. – Иркутск, 1930. Кн.1. – С.234.

91. Вахид Табризи. Жамъеи мухтасар. - М., 1959. – С. 36.

92. Doğan Kaya. Âşık edebiyatında yaşnameler. Yetişkinlik ve Yaşlılık Gelişimi ve Psikolojisi. – İstanbul, 2012. – S. 574.

93. Durbilmez Bayram. Nahçıvan Türk Halk İnanışında Mitolojik Sayılar. – İstanbul, 2009.

94. Elmira Fikrətqizi. Vücutnamələrdə mətnlərarası əlaqə. Monografiya. Bakı: Elm və Təhsil, 2018. – S. 256.

95. Erman Artun. Dini-tasavvufi Halk Edebiyatı. – İstanbul, 2010. – 269 s.

96. İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cildə. 1 cild. – Bakı: Lider nəşriyyat, 2004. – S.303.

97. Kaygusuz Abdal. Gülistan. – Ankara, 2022. – S.487.

98. Клаус Шедля. Мухаммед и Христос. Наука о Христе в коранических текстах. – Вена, 1978.

99. Мельников М.Н. Русский детский фольклор. – М.: Просвещение, 1987. – С. 340.

100. Mehmet Bayrakdar. Tasavvuf ve Modern Bilim. – İstanbul, 2016. – 120 s.

101. Mahtumkulu. Bütün Eserleri. – Ankara, 2014. S. 59.

102. Махмуд Шабустарий. Гулшани роз. – Истанбул, 1993. – 75-77 б.

103. Мустафо Тотчи. Юнус Эмро. Тадқиқот ва шарҳ, Анқара, 1990. 234-б.

104. Потанин Г.Н. Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе. – М., 1983. – С. 119.

105. Рахимов Р.Р. Коран и розовое пламя (Размышления о таджикской культуре). СПб.: - М.:Наука, 2007. – 388 с.

106. Laszlo Rasonyi. Tarihte Türklük. 3. Baskı. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1993. – С.420.

107. Omür Ceylan. Tasavvufi Şiir Şerhleri. – İstanbul, 2000. – S. 460.

108. Hucviriy. Keşful Mahcüb. – İstanbul, 1999. – S. 576.

III. Луғатлар

109. Алишер Навоий: Қомусий луғат. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 536 б.

110. Алишер Навоий: Қомусий луғат. Икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 480 б.

111. Бердақ Юсуф. Навоий тили луғати. Беш жилдли. I жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 496 б.

112. Ethem Cebecioglu. Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sözlüğü. – Ankara, 2012. – S. 300.

113. İskender Pala. Ansiklopedik Divan Şiiri Sözlüğü. – S. 638.

114. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғатит турк. 1 жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – 338 б.

115. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғатит турк. II жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. 292 б.

116. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғатит турк. III жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – 308 б.

117. Мифологический словарь. – М., 1990.

118. Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. 2-жилд. – Душанбе: Адиб, 1988. – 388 б.

119. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Академнашр, 2023. – 656 б.

120. Süleyman Uladağ. Tasavvuf Terimleri Sözlüğü. – İstanbul, 1995. – S.

121. Фарҳанги забони тожик. 2 жилд. 1-жилд. – М.:Советская энциклопедия, 1969. – С. 952.

122. Фарҳанги забони тожик. 2 жилд. 2-жилд. – М.:Советская энциклопедия, 1969. – С. 952.

IV. Бадий адабиётлар

123. Авесто. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 384 б.

124. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-10 жилдлар. – Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.

125. Амирий. Девон. I. – Тошкент: Тамаддун, 2017. – 452 б.

126. Alisher Navoiy. "Xamsa" (nasriy bayoni bilan). "Sab'ai sayyor". – Toshkent: Tamaddun, 2021. – 680 b.

127. Alisher Navoiy. "Xamsa" (nasriy bayoni bilan). "Saddi Iskandariy". – Toshkent: Tamaddun, 2021. – 680 b.

128. Алпомиш. Тошкент: Шарқ, 1998. – 400 б.

129. Атойи. Девон. – Тошкент: Фан, 2008. – 320 б.

130. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 256 б.

131. Аҳмад Яссавий. Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар куллийи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 464 б.

132. Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним, қайдасан. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 416 б.

133. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.

134. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Девон. – Тошкент: Фан, 1994. – 144 б.

135. Бобур. Санга кўнглумни олдурдум. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 104 б.

136. Лутфий. Девон. – Тошкент: Фан, 1965. – 446 б.

137. Махтумқули. Асарлар. Тўпловчи Аннагурбан Аширов. Таржимон Эргаш Очилов. – Тошкент, Академнашр, 2013. – 534 б.

138. Муборак мактублар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 304 б.

139. Муқимий. Асарлар тўплами. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – 376 б.

140. Муқимий. Боғ аро: шеърлар. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 312.

141. Муҳаммад Фузулий. Девон. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. – 198 б.

142. Рабғузий, Носируддин Бурхониддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.

143. Рабғузий, Носируддин Бурхониддин. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 272 б.

144. Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. Девон. – Тошкент, Адабиёт нашриёти, 2022. – 688 б.

145. Сўфи Оллоёр. “Сабот ул-ожизин” шарҳи. Равойихур райҳон. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 480 б.

146. Увайсий шеъриятидан. – Тошкент, 1980. – Б.13.

147. Улуғбек, Мирзо. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.

148. Умар Хайём. Рубойлар. Шоислом Шомухаммедов таржимаси. – Тошкент, 1991. – 128 б.

149. Фирдавсий. Шоҳнома: Танланган дostonлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 688 б.

150. Фурқат. Танланган асарлар. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1975. – 296 б.

151. Хожа Аҳмад Яссавий. Умринг елдек ўтаро. Тошкент: Муҳаррир, 2020. – 400 б.

152. Хожа Бектоши Валий. Мақолот. – Тошкент: Аб.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2000. – 56 б.

153. Хожаназар Хувайдо. Ишқ аро ошиқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 57.

154. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент, 2015.

155. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент, 1971.

156. Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

V. Диссертация ва авторефератлар

157. Алламбергaнов Ҳ.К. Қадимги туркий адабиётда ғайритабиий тимсоллар тараққиёти. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... диссерт. автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б.

158. Асадов М. Ўзбек мумтоз шеъриятида риндона маъно ва лирик қаҳрамон характери. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... диссерт. автореф. – Тошкент, 2017. – 46 б.

159. Раҳимова Ш. “Давлатёрбек” достонининг тарихий асослар, типологияси ва поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (РД) диссерт. автореф. – Тошкент, 2020. – 55 б.

160. Олимов С. “Лисон ут-тайр”нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назиравийлик, таржимавийлик. Филол. фанл. д-ри диссерт. автореф. – Самарқанд, 2023. – 34 б.

161. Салахутдинова Дилором Исамутдиновна. “Бадоеъ ул-бидоя” девони ва бадиий санъаткорлик масалалари: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Самарқанд, 1993. – 143 б.

162. Ходжаев С. Учлик тимсолининг ижтимоий-фалсафий бадиий талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... диссертацияси. – Фарғона, 2023. – 143 б.

163. Ҳошимхонов М. Бобораҳим Машраб ижодий меросининг илмий-бадиий адабиётдаги талқини (XVII-XVIII асрлар). Филол. фанл. доктор. диссерт. Авторефр. – Жиззах, 2021. – Б. 29.

164. Қаюмов О. Ўзбек шомон маросим фольклори. Филол.фанл.д-ри диссерт.автореф. – Тошкент, 2020. – 25 б.

VI. Илмий тўплам, журнал ва газеталардаги мақолалар

165. Абдуғафуров А. Тўра ойини била... // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001. – 2-сон. – Б. 22-25.

166. Абрашкин А.А. О происхождении русских числительных // Известия вузов. Прикладная нелинейная динамика. 2006. Т. 24, № 5. – С. 84-91.

167. Азизов С., Жабборов Н. Аҳмад Яссавий ҳикматларида фалакий атамалар талқини // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2001. – № 1. – Б. 92-93;

168. Ahmet Özgür Güvenç. Kırk Sayısının Halk Edebiyatı Ürünlerinde Kullanımı Üzerine Bir İnceleme // A.Ü.Turkiyat araştırmaları Enstitüsü Dergisi Sayı 41. Erzurum: 2009. – S. 85-97.

169. Bayram Durbilmez. Nahçıvan Türk Halk İnanışlarında Mitolojik sayılar // Turkish Studies. International Periodical For the Languages: Literature and History of Turkish or Turkic. V.36, Fall. 2008. – S. 212-225.

170. Болтабоев Ҳ. Алишер Навоийнинг “Сабъаи сайёр” достонида еттиликлар симметрияси // Илмий хабарнома. – АДУ, 2012. – № 1. – Б. 9-11

171. Жўраев М. Эртақлардаги анъанавий уч йўл мотивининг генезиси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983, №3. – Б.36-39.

172. Жуковская Н.Л. Формы проявления культа природы в пантоне и ритуалах ламаизма // Религия и мифология народов Восточной и Южной Азии. – М., 1970. – С.113.

173. Жумаева С. Мақом ва ҳол таносибн // Ўзбек тили ва адабиёти. 2016, № 1. – Б. 57-60.

174. Исҳоқов Ё. Ўн саккиз минг олам асрори / Навоийга армуғон. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 62-68.

175. Иоселева М.Я. Происхождение магических чисел // Страны и народы Востока. Вып. IV. – М.: Наука, 1965. – С.239-241.

176. Kadir Özköse. Ahmet'nin Hikmetlerinde Dört Kapı ve Kırk Makam Anlayışı // Akademiar Dergesi. 2017.S.2. – S. 99-133.

177. Кириллин В.М. Символика чисел в древнерусских сказаниях XV в // Естественно-научных представления Древней Руси. М.: Наука, 1988 – С.76-111.

178. Лотман Ю.М. Семантика и чисел и тип культуры// III летняя школа по вторичным моделирующим системам. Тезисы. – Тарту, 1968. – С. 328-332.

179. Мамадалиева З. Мунда рамзедур дақиқ...// Жаҳон адабиёти. 2016. №2. – Б.

180. Mehmet Nazar., Mehmet Şengönül. Türk Kültüründe Sıfırdan Dokuza Kadar Sayı Adları ve Matematik Değerleri // Türklük bilgisi.17. – S. 141-158;

181. Нусратилла Жумахўжа. Ўн саккиз ёш ҳайратлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990. 21 сент.

182. Onur Sömen. Dede Korkut Boylarenada Geçen Formulistik Sayıların İzleri / Türk Dünyası Araştırmaları. 2019. – S. 29-51.

183. Сатанар М.Т., Илларионов В.В. Сакральная символика эпического числительного “четыре” // Мир науки, культуры, образования. 2017. №2 С. 334-337;

184. Степугина Т.В. Идеология и культура Китая период расцвета рабовладения / История древнего мира: расцвет древних обществ. – М., 1983. – С. 58.

185. Teber Ömer Faruk. Vücut-name Örneğinde Bektaşî Erkannamelerinde Hurufî Unsurlar / Çukurova

Üniveritesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. Yıl 2013. Cilt: 13.
Sayı 1: – S. 52.

186. Тожибоев Р. “Уч хароботий” кимлар эди?”
//”Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 2010
йил, 21 май.

187. Турдимов Ш. “Борса келмас”даги хазина //
Тафаккур. 2015, №3. – Б. 94-102.

188. Funda Aydın. Uygur Halk Anlatınlarında Sayı
Simgeçiliği // Karadeniz Uluslararası Bilimsel Dergi:
V.44. Fall. 2019. – S. 209-227;

189. Халилов Р.Я., Ализода А.Ж.Сакраменталь-
ность чисел / Научные труды АГУ (серия линг-
вистики и литературы). 1971. № 6. С. 34-41.

190. Членов М.А. Числовая символика и тайны
союзы на Молуккских островах // Мифология и
верования народов Восточной и Южной Азии. – М.:
Наука. 1973. – С.132-166.

191. Şerife Seher Erolçaluşkan. Alpamiş Destanında
Sayıların Anlamları ve Değerlendirilmesi Üzerine Bir
İnceleme // Rumelide Dil Edebiyat Araştırmaları Derisi.
2019: 14. – S. 183-197.

192. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға //
Ўзбек тили ва адабиёти. – 2002. №5. – Б. 90.

MUNDARIJA

Muhim tadqiqot: Adabiyot – “haqiqatni majoz tariqida raqam qilmoq ilmidir...”	3
Muqaddima.....	6

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA RAQAMLAR BADIY IFODASINING QADIMIY MANBALARI

Qadimiy e’tiqod va miflarda raqamlarning tutgan o’rni.....	13
Xalq og’zaki ijodida raqamlarning ma’no-mohiyati	36
Toshbitiklar va qadimgi yozma obidalarda raqamlar bilan bog’liq qarashlarning ildizlari	54

RAQAMLARNING FALSAFIY VA DINIY-TASAVVUFII TALQINLARI TAHLILI

Diniy qarashlarda raqamlarga munosabat masalasi	77
O‘zbek tasavvuf adabiyotida raqamlarning ma’no miqyoslari va mohiyati	96
XII-XV asrlarga oid turkiy she’riyatda raqamlarning badiiy ifoda imkoniyatlari	121

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA RAQAM POETIKASI: TALQIN VA TAHLIL

Alisher Navoiy she’riyatida raqam poetikasi: obraz va tasvir	141
Alisher Navoiy dostonlarida raqam poetikasi ko’rinishlari	165
XVI-XIX asrlar shoirlari asarlarida raqamlar talqini.....	191

RAQAM VA OBRAZLI TASVIR IMKONIYATLARI

Raqam poetikasi va badiiy asar fabulasi	211
Raqamlar simbolikasi va lirik obrazlilik.....	233

Maxtumquli yoshnomalari poetikasi va raqamlar haqiqati	257
---	-----

Xulosa.....	267
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	277

SOFIYA DJUMAYEVA

MUMTOZ ADABIYOTDA RAQAM POETIKASI

MUHARRIR: Z. BO'RONOV

TEXNIK MUHARRIR: O. MUXTOROV

SAHIFALOVCHI VA DIZAYNER: H. SAFARALIYEV

Nashriyot litsenziyasi



5209

Bosishga ruxsat etildi 28.04.2025.

Bichimi 84x108 1/32. Ofset qog'ozi. Ofset bosma
usulida bosildi. "Times New Roman" garniturasida.

Shartli bosma taboq 18.

Adadi 350 nusxa.

"Tafakkur" nashriyoti

Toshkent viloyati, Toshkent tumani,
Bunyodkor MFY, Ko'l 17-tor ko'cha, 9-uy.

Tel: 71 244-75-88; +998 94 664 40 03.

Email: tafakkurmaktub@mail.ru

Original maket

"Tafakkur" nashriyotida tayyorlandi.

"Tafakkur" nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.